

I.S. ABDULLAYEV

MARKETING



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

I.S. ABDULLAYEV

MARKETING

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.**

TOSHKENT–2020

UO'K: 339.138(075)

KBK: 65.290-2

A91

**I.S. Abdullayev. Marketing (Darslik) – T.:
«Инновацион ривожланиш нашриёт-
матбаа уйи», 2020, 324 bet.**

ISBN 978-9943-6730-2-1

Mazkur darslikda marketing faoliyatini tashkil etish va bozorni tahlil qilish va unga ta'sir qilish usullari ko'rib chiqilgan. Marketingda qo'llaniladigan asosiy terminlarning mazmuni, marketing konsepsiyalari va ularning rivojlanish evolyutsiyasi aks ettirilgan. Ushbu darslik korxonalarda marketingni tashkil qilish, tovarlarni va bozorni o'rganish muammolarini keng izohlab berishi bilan ajralib turadi. Darslik Oliy ta'limning iqtisodiyot, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va audit, turizm bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga, magistr'larga, shuningdek, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, tadbirkorlar hamda marketing fani bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K: 339.138(075)

KBK: 65.290-2

Taqrizchilar:

B. Ruzmetov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Sh.Dj. Ergashxodjayeva –Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ISBN 978-9943-6730-2-1

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali tashkil qilish, ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirishni talab qilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, xizmat ko'rsatish sohalarini samarali rivojlantirish, raqobatbardosh tovarlarni yaratishda marketing fanining roli juda kattadir. Marketing bu nafaqat falsafa, fikrlash tarzi va iqtisodiy tafakkur yo'nalishi, balki ayrim firma, kompaniya, tarmoq va butun iqtisodiyot bo'yicha amaliyot faoliyati hamdir. Marketing insoniyatning eng qadimiy faoliyatlaridan biri bo'lishiga qaramasdan, eng yosh biznes-fan hisoblanadi. Marketing faoliyati bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ilg'or shakli bo'lib hisoblanadi. Korxonalarni tashkil qilish ular faoliyatini yaxshilashda, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda marketing faniga zarurat tug'ilmoqda. Chunki, korxonalar imkoniyatlarini bozor talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan tahlil, rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlari barchasi marketing faoliyati deb qaraladi. Marketing dasturi bu korxonani umumxo'jalik faoliyatining direktiv rejasini tuzish uchun strategik tavsiyanomadir va yuqori boshqarish bo'g'ini uchun qaror qabul qilishning asosidir. Marketing dasturining asosiy mazmuni - bu korxonaning o'tgan davrdagi faoliyat natijalari bo'lib, unda maqsadli bozorning rivojlanishi tahlili va prognozi, firmani rivojlanishining asosiy maqsadi, bozordagi xulq-atvorini strategik yo'li, tovar, narx, sotish va rag'batlantirish siyosatlarining chora tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonasi bo'lsin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'lsin bularning asosiy maqsadi foyda olishdir, buning uchun foyda keltiradigan tovarlarni sotishni ko'paytirish, ular hissasini oshirish lozim. Bunday tovarlar sotilishini ko'paytirish esa, tovar manbalarini topishni, ular ichidagi eng samaralisini tanlashni talab etadi. Shuningdek, XXI asrning boshlarida sotuvchi va iste'molchi o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirish raqobatli ustunlikka aylanadi. 2017-yil 7-fevraldagi davlatimiz rahbarining Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish

bo'yicha, "...iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish"ni ifodalovchi ustuvor yo'nalishi raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Raqobat kurashi sotuvni rag'batlantirish, marketing sohasiga, ya'ni iste'molchi bilan to'laqonli ishlashga o'tdi. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun esa marketingdan samarali foydalanish talab etiladi. Bugungi kunda marketing rivojlangan mamlakatlarda jadal rivojlangan bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalari: ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, shuningdek, xizmat ko'rsatishning barcha turlarini, maorif-madaniyat, ilm-fan, siyosiy partiyalar va harakatlar bilan chambarchas bog'langan. Marketing korxonalariga iste'molchilar ehtiyojlarini oldindan ko'ra bilish va iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda, chakana va ulgurji savdo korxonalarida, xizmat ko'rsatish korxonalarida marketingdan samarali foydalanish tovarlar yoki xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu darslikda marketingning mohiyati va mazmuni bo'yicha umumlashtirilgan yangi ilmiy-nazariy bilimlar, uslubiy tavsiyalar, marketingning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy rivojlanish bosqichlari, shakllari, turlari hamda uni korxonalar faoliyatiga tadbqiq etish yo'llari va usullari aks ettirilgan. Darslik iqtisodiyot, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va audit, turizm bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga, magistr'larga, shuningdek, tadbirkorlar, fermerlar, biznesmenlarga mo'ljallangan.

1- MODUL. MARKETINGNING IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1. Marketing tushunchasi va uning vujudga kelishi

Marketing tushunchasi bozor sohasini har qanday faoliyati bilan bog'liqdir, shu bois marketing so'zining tarjimai va kelib chiqishi keltiriladi (marketing – bozorning – faol, faoliyat, harakat ma'nosini anglatadi).

Marketing – ayirboshlash munosabatlarini o'rnatish va boshqarishdir.¹ Marketing – mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatish va ularning ehtiyojini qondirishning biznes jarayoni. Xaridorga e'tiborni qaratgan holda, marketing biznes boshqaruvining dastlabki tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.²

Marketing Amerika Marketing Assotsiatsiyasi tomonidan mijozlar, sheriklar va umuman jamiyat uchun qimmatga ega bo'lgan takliflarni yaratish, yetkazib berish va almashtirish jarayonlari majmuasi sifatida izohlanadi.³

Marketing amaliyoti ming yillardan beri ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, "marketing" atamasi mahsulot va xizmatlarni sotib olish va sotish bilan bog'liq tijorat faoliyatlarini tasvirlashda XIX asr oxirlarida keng qo'llanila boshlagan.⁴ Marketingning tarixini ilmiy soha sifatida o'rgatish XX asrning boshlarida paydo bo'lgan.⁵

Tovar-pul munosabatlari paydo bo'lishi, ayirboshlash jarayoni sotish va sotish siyosatini rivojlantirish hamda iste'molchilarni tovar va xizmatlar bilan ehtiyojlarini to'la qondirishda marketing mazmuni va terminologiyasi yangilanib boradi. Marketing elementlarining paydo bo'lishi XVII asrning o'rtalariga borib taqaladi. Bu davrgacha tovarlarni natural ayirboshlashning turli shakllari paydo bo'lgan, keyinchalik, marketing faoliyatini birinchi elementlari, ya'ni, reklama, narx, sotish

¹ Hunt, Shelby D. (July 1976). "The Nature and Scope of Marketing". *Journal of Marketing*. 40 (3): 17–28. doi:10.2307/1249990. JSTOR 1249990.

² Drucker, Peter (1954). *The Practice of Management*. New York: Harper & Row.

³ Marketing definition approved in October 2007 by the *American Marketing Association*: [1].

⁴ English Language and Usage, <http://english.stackexchange.com/questions/335201/etymology-of-marketing-how-when-did-it-change-meaning>.

⁵ Brian Jones, D.G. and Shaw, E.H., "The History of Marketing Thought," in *Handbook of Marketing*, Weitz, R. and Wensley, R. (eds), London, UK, 2003, p. 50

kabilar rivojlanishi kuzatilgan. O'rta asrlarda Angliya va Yevropada bozor shaharlari paydo bo'ldi. Ba'zi tahlilchilar "marketing" atamasi, avval, bozor sharoitida ishlatilgan bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelganki, unda "marketing" atamasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'z mahsulotlarini yetkazib berish va bozorda sotish jarayonini tasvirlash uchun ishlatilgan.⁶

Miloddan avvalgi 200 yillardan boshlab, Xitoy qadoqlashi va tovar belgilari, joy nomlarini va mahsulot sifatini belgilash uchun ishlatilgan va davlat tomonidan qo'llaniladigan mahsulotlarni brendlash miloddan avvalgi 600 – 900-yillar orasida ishlatilgan.⁷ 1600-yilda Italiyada pulli reklama paydo bo'lgan, 1605-yilda dunyoning birinchi gazetasi Germaniyada nashr etilgan, 1600 – 1700-yillarda Angliyada targ'ib qilish uchun plakatlari va qog'ozlar ishlatila boshlagan. Piter Druker nazariyasiga asosan, marketing 1690-yillarda Yaponiyada vujudga kelgan. Mitsui oilasi Tokioga ko'chgan va u yerda do'kon ochib, savdo-sotiq qilgan. Yillar davomida iste'molchilar ehtiyojini qondirish uchun do'konga kerakli mahsulotlarni xarid qilgan; mahsulotlarni o'zi ishlab chiqarish uchun manba va mablag'lar izlagan; qaytarilgan tovarlar uchun pulni, so'zsiz, qaytarib berish prinsipini kiritgan; xaridorlar uchun mahsulotlar turlarini sezilarli darajada kengaytirgan. G'arbda marketing XIX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Birinchi kombayn ixtirochisi Sayrus Makkormik birinchilardan bo'lib, marketingni korxonaning markaziy yo'nalishi va o'zining iste'molchilari doirasida ishlaydigan menejer deb ta'rif bergan.

Fransiyada 1836-yildan gazetada pulli reklamalar berilishi marketing amaliyotini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlagan. 1901-yildan boshlab AQSHning Michigan, Kaliforniya va Ilinoy universitetlarida marketing fani kiritilib, bu muammolar bo'yicha ma'ruzalar o'qitila boshlagan. 1902-yilda Eduard Devid Jons tomonidan olib borilgan birinchi marketing kursi Michigan universitetida o'qitila boshlangan. 1905-yilda Pensilvaniya universitetida "Mahsulotlar marketingi" darslari o'qitila boshladi. Amaliyotda ilk bor AQSHning

⁶ Bintliff, J., "Going to Market in Antiquity," In *Stuttgarter Kolloquium zur Historischen Geographie des Altertums*, Eckart Olshausen and Holger Sonnabend (eds), Stuttgart, Franz Steiner, 2002, p.224

⁷ Eckhardt, G.M. and Bengtsson, A. "A Brief History of Branding in China," *Journal of Macromarketing*, Vol, 30, no. 3, 2010, pp 210-221

ba'zi kompaniyalari boshqaruv apparati tarkibida marketing bo'limlari tashkil etilgan. 1937-yilda Amerika milliy assotsiatsiyasi tuzildi.

1908-yilda marketing tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan birinchi savdo firmasi paydo bo'lgan.

1911-yildan bir qator yirik korxonalarda marketing tadqiqotlari bo'limi paydo bo'la boshlagan.

1920-yillarda radio reklama va 1950-yilda telemarketingning amalga oshirilishi marketingni yanada rivojlanishiga olib keldi. 1926-yil AQSHda Milliy marketing va reklama assotsiatsiyasi tashkil qilingan va uning asosida keyinchalik Amerika marketing jamiyati shakllangan. 1934 – 1936-yillarda birinchilardan “American Marketing Journal”, “National Marketing Review”, “Journal of Marketing” marketing jurnallari chop etila boshlagan. AQSHda marketing va reklama milliy negizida tuzilgan Amerika Marketing jamiyati barpo etilib, keyinchalik bu jamiyat 1973-yilda Amerika Marketing uyushmasi nomini olgan. Biroz keyinroq bunday uyushma va tashkilotlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada ham paydo bo'ldi. Xalqaro marketing tashkilotlari – Yevropa marketing va ijtimoiy fikr tadqiqotlari jamiyati, Xalqaro Marketing Federatsiyasi, Yevropa Akademiyasi va shunga o'xshagan jamiyatlar yuzaga kela boshladi. 1990-yillardan boshlab “Marketing to'g'ridan-to'g'ri buyurtmalar” va “munosabatlar marketingi” atamalari paydo bo'la boshlagan.

Umuman olganda, tovar ayriboshlashning boshlanishi bilan bir vaqtning o'zida marketing asoslari, uning subyekti, obyekti va elementlari ham to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, rivojlana boshlagan. Demak, tovar ayriboshlash marketingining boshlang'ich nuqtasi hisoblanar ekan.

Marketing bu nafaqat tovar ayriboshlash, fikrlash tarzi va iqtisodiy tafakkur yo'nalishi, ayrim firma, kompaniya, tarmoq va butun iqtisodiyot bo'yicha amaliyot faoliyati hamdir. AQSH va boshqa xorijiy davlatlar iqtisodiy adabiyotlarida marketing ta'rifining ko'p turlari mavjuddir. Eng keng tarqalgan marketing ta'rifi, u Amerika marketing assotsiatsiyasi tomonidan berilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagichadir:

«Marketing – bu tovar va xizmatlarni ayriboshlash vositasida alohida shaxslar yoki tashkilotlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan

narx o'rganish, siljtitish va sotishni o'zida mujassamlashtiradigan rejalashtirish jarayonidir».⁸

Marketingga olimlar turlicha ta'rif berganlar. Sh.Xant quyidagicha ta'rif bergan: "Marketing – bu tovarlarni ayirboshlash jarayoni haqidagi fan". I.K. Belyaevskiy shunday degan: «Marketing – bu bozorni o'rnatish va tartibga solish, boshqarish tizimidir». Jan-Jak Lamben esa marketingga shunday ta'rif beradi: «Marketing tashkilotlar va kishilarni xohish va ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni erkin raqobatli ayirboshlashni ta'minlash yo'li orqali qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy jarayondir», «Marketing – bu bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir».

Ushbu ta'riflardan shuni aytish mumkinki, marketing – bu bozorni o'rnatish, u orqali iste'molchilarga ta'sir etishdan iboratdir.

Talab bilan taklifni o'zaro ta'siri – bu alohida shaxslar yoki guruhning xohish-ehtiyojlarini uzluksiz qondirish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon o'z navbatida shunday ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalarning o'zaro ta'siriga asoslanadi, ya'ni ularga muhtojlik, ehtiyoj (xohish), talab, xarid qilish (ayirboshlash, bitim) va aniq tovar va xizmatlarning iste'moli (ishlatilishi) kiradi. Marketing insonlar ehtiyojini qondirish zaruriyati asosida ixtiro etilgan. Ehtiyoj va imkoniyatlar bo'lmasa, hech qanday voqea bo'lmaydi.

Marketing atamasining asl ma'nosidan ishlab chiqilgan tovarlar bilan bozorga borish nazarda tutilgan. Savdo jarayoni muhandisligi nuqtayi nazaridan, marketing, mijozlarning qiziqishini va qoniqishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan biznesning "bir-biriga bog'liq va boshqa funksiyalariga bog'langan jarayonlar to'plamidir"⁹.

Ko'pchilik olimlar tomonidan marketing biron bir kompaniyaning mahsulot yoki xizmat sotib olish yoki sotishga da'vat etgan faoliyatlari majmuyi sifatida talqin qilinadi. Marketing, iste'molchilarga yoki boshqa korxonalariga reklama qilish, sotish va yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Mustaqil soha sifatida marketing, kompaniyaning iste'molchilarini jalb qilish va ular bilan munosabatlarni saqlab qolishga qaratilgan barcha harakatlarini o'z ichiga oladi. Marketing–bu savdoga tayyorlanish uchun barcha tadbirlar tizimini tashkil qiladi.

⁸ Котлер Ф. Управление маркетингом. - М.: Экономика 1980 с20.

⁹ Paul H. Seiden (1997). *Sales Process Engineering: A Personal Work shop*. Milwaukee, WI: ASQ Quality Press. p. 23.

Marketing "mahsulotni ishlab chiqaruvchidan yoki sotuvchidan iste'molchiga yoki xaridorga, shu jumladan, reklama qilish, jo'natish, saqlash va sotish bilan bog'liq faoliyatning umumiy majmuyi" deb ta'riflanadi.

Filipp Kotler marketingni xaridorlarning ehtiyojlari va xohishlarini (istak) almashinuv jarayoni orqali qondirish sifatida ta'riflaydi.¹⁰

Marketing amaliyoti o'tmishda ijodkorlik, reklama, tarqatish va sotish singari ijodiy soha sifatida qaralgan. Biroq marketing tadqiqotlarida ijtimoiy fanlar, psixologiya, sotsiologiya, matematika, iqtisod, antropologiya va nevrologiyaning keng qo'llanishini ta'minlaganligi sababli, marketing hozirgi kunda keng miqyosda fan sifatida e'tirof etiladi.¹¹

"The Chartered Institute of Marketing" marketingni "mijozlarning talablarini unumli aniqlash, prognozlash va qondirish uchun mas'ul bo'lgan menejment jarayoni" sifatida e'tirof etadi.¹²

«Marketing konsepsiyasi» tashkilotning maqsadlarini qondirish uchun potensial iste'molchilarning ehtiyojlari va istaklarini oldindan belgilash va raqobatchilardan ko'ra samaraliroq ta'minlashi kerakligini bildiradi. Ushbu Konsepsiya Adam Smitning "Xalqlar boyligi" kitobida birinchi marta aytib o'tilgan.¹³ Marketing asosida quyidagi yo'nalishlarda bozor har taraflama chuqur o'rganiladi:

- talabni o'rnatish;
- bozor tarkibini aniqlash;
- tovarni o'rnatish;
- raqobat sharoitlarini tadqiq qilish;
- sotish shakli va uslublarini tahlil etish.

Marketing korxonalarining bozorda ishlash uslubi, bozor metodologiyasi bo'lib, iste'molchilar va ularning talab istaklarini o'rnatish, ularga mos tovarlar yaratish, narx belgilash, tovarlarni yetkazib berish, taqdim etish, sotish, xizmat ko'rsatishni uyushtirish usullari, vositalari, tartib-qoidalari majmuyi hisoblanadi. Bularning barchasi talab va taklifni o'zaro muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. 1972-yilda F. Kotler mikro-

¹⁰ "University Of York Introduction To Marketing"(PDF).

¹¹ 2.0. Women. "The Science Of Marketing". *Forbes*. Retrieved 16 June 2017.

¹² "Marketing library resources – content, knowledge databases". CIM. Retrieved 16 March 2017.

¹³ NetMBA.com. "Marketing Concept". *www.netmba.com*. Retrieved 8 November 2017.

marketing va makromarketing tushunchalarini asoslab beradi. 1976-yilda Shelbi Xant marketing ayirboshlash jarayoni haqida ilm hisoblanishini ko'rsatdi.

XX asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida marketingni globallashtirish jarayoni kuzatildi. Shuningdek, 1990-yilda Kanberra shahrida (Avstraliya) «Marketing – bu hamma narsa», «Marketing biznesni anglatadi» shiori ostida global marketing bo'yicha Xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan.

Marketing va sotish o'rtasidagi farq

"Marketing" va "sotish" tushunchalari bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, sinonim tushunchalar yoki bir xil ma'noli so'zlar emas. Avvalroq aytib o'tganimizdek, "Marketing" mijozlar ehtiyojini qondirish orqali daromad olishga intiladi. Marketingda iste'molchining ehtiyojlari va ularning qoniqishlariga e'tibor qaratiladi.

1.1.1-jadval

Marketing va sotish o'rtasidagi farqlar

Marketing	Sotish
Marketing turli xil reklama tadbirlari, marketing tadqiqotlari, savdo xizmati va hokazolar kabi savdo va boshqa faoliyatlarni o'z ichiga oladi	Sotish bu iste'molchilar firma tovarlari va xizmatlarini sotib olishlariga ishonitirish bilan cheklanadi
Marketing iste'molchilarning ehtiyojlari, istaklari, afzalliklari, xohishlari va boshqalar bo'yicha tadqiqotlar bilan boshlanadi va savdodan keyin ham davom etadi	Sotish ishlab chiqarish jarayoni tugallangach boshlanadi va xaridor tomonidan sotuvchiga pulning o'tishi bilan yakuniga yetadi
Asosiy maqsadi iste'molchilar qoniqishini maksimallashtirish orqali daromad olish	Asosiy maqsadi savdoni maksimallashtirish orqali daromad olish
Xaridorning ehtiyoji barcha marketing faoliyatlari atrofida aylanadigan markaziy nuqtadir	Qisqa muddatli foyda olish uchun fragmentlarga ajratilgan yondashuv
Mijozlarni jalb qilish, yo'qotmaslik kabi uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun kompleks yondashuv	Barcha faoliyatlar ishlab chiqarilgan mahsulot atrofida aylanadi
Xaridorlarning ehtiyojlariga tayanadi	Sotuvchining ehtiyojlariga tayanadi

Boshqa tomondan, "mahsulot sotish" mahsulot bilan bog'liq va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishga urg'u beradi. Darhaqiqat, u keng miqyosli marketing jarayonining kichik bir qismi bo'lib, unda asosiy e'tibor mahsulot va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash va oxir-oqibat savdo hajmini oshirishga qaratilgan. Marketing uzoq muddatli istiqbolga ega bo'lib, maksimal darajada ehtiyojni qondira oladigan mahsulot bilan ta'minlab iste'molchining mahsulotga sodiqligini qozonishdir. Biroq, sotish faqatgina sotuv hajmini oshirishning qisqa muddatli istiqboliga ega. "Marketing"da iste'molchi ehtiyojlari qoniqtirilishi lozim bo'lgan "podshoh"dir. "Sotish"da, mahsulot muhimdir va uning asosiy maqsadi uning sotilishi. "Marketing" ishlab chiqarishdan oldin boshlanadi va tovarlar va xizmatlar almashinuvidan keyin ham davom etadi. Aynan shuning uchun sotishdan keyingi xizmat ko'rsatishni ta'minlash marketing jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. "Sotish" ishlab chiqarishdan keyin boshlansa, mahsulot va xizmat almashinuvi sodir bo'lgandan so'ng tugaydi. Marketing va sotish o'rtasidagi farqlarni yanada, aniqroq tushunish uchun quyidagi (1.1.1-jadval) ko'rinishida izohlaymiz.

1.2. Marketingning maqsadi

Piter Druker (menejment nazariyotchisi) shunday deb ta'kidlaydi: "Marketingning maqsadi - sotiladigan xatti-harakatlarni rivojlantiradi. Uning maqsadi xaridorni shunchalik yaxshi bilish va tushunishdirki, natijada mahsulot yoki xizmat o'zini o'zi sotadi".

Marketing sohasidagi adabiyotlarda asosan marketingning to'rtta maqsadi keltiriladi. Bular quyidagilar hisoblanadi:

- mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish;
- iste'molchilarning talabining maksimal qondirilishiga erishish;
- iste'molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni tanlashiga imkoniyat yaratish;
- aholi turmush darajasi sifatini oshirish.

Mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish. Ko'pchilik rahbarlar marketingning maqsadi – ishlab chiqarishning maksimal o'sishi va korxonaning boyishida asosiy omil yuqori iste'molga erishishni rag'batlantirishda deb biladilar. Bu fikrni boshqacha ifodalasak, odamlar qancha ko'p sotib olsa va qancha ko'p iste'mol qilishsa, shuncha baxtli

bo'ladilar, degan ma'noni anglatadi. Lekin, ba'zi bir kishilar moddiy boyliklar masalasining ortishi katta baxtga erishishdan dalolatdir degan fikrga shubha bilan qaraydilar. Demak, marketingning maqsadi faqat mumkin bo'lgan maksimal iste'molga erishishdangina iborat emas ekan.

Iste'molchilar talabining maksimal qondirilishiga erishish. Bu nuqtayi nazarga muvofiq marketing tizimining asosiy maqsadi mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish emas, balki iste'molchilarning talabini maksimal qondirishdan iboratdir. Bu degani tovar massasi iste'moli ko'p bo'lsa-da, u biron-bir ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ularning ahamiyatligi, tovar massasining ko'pligi bilan emas, balki bu tovar massalarining qanchalik darajada iste'molchilarning talabini qondira olishi bilan o'lchanadi. Afsuski, iste'molchilarning talabining qondirilish darajasini o'rnatish to hozirgi kungacha muammo-gich qolmoqda.

Iste'molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni tanlashga imkoniyat yaratish. Ba'zi bir bozor mutaxassislari marketing tizimining asosiy maqsadi tovarlar xilma-xilligini maksimal ta'minlash va iste'molchilarning keng assortimentdagi tovarlarni tanlashiga imkoniyat yaratishdan iboratdir deb hisoblaydilar. Tizimning maqsadi iste'molchining talabiga to'liq mos keladigan tovarni topishiga yordam berishdan iborat bo'lishi kerak.

Aholi turmush darajasi sifatini oshirish. Ko'pchilik mutaxassislar marketing tizimining asosiy maqsadi aholi "turmush darajasining sifati"ni yaxshilashdan iborat deb biladilar. Bu tushuncha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tovarning sifati, miqdori, assortimenti, narxi;
- mehnatga haq to'lash darajasi;
- madaniy muhitning sifati va boshqalar.

Marketingning asosiy maqsadi, uning vujudga kelish, shakllanish va rivojlanishining obyektiv sabablari, zarurati bilan belgilanadi. Yuqorida qayd qilinganidek, marketing, eng avvalo, tovarlar to'planib, sotilmay qolgan va iqtisodiyot inqirozi kuchaygan sharoitda, uni shu inqirozdan chiqarish quroli sifatida ixtiro qilingan va yaratilgan ekan. Uning maqsadi nihoyatda keng va murakkab masalalarni hal qilishga qaratilgandir. Marketing ishlab chiqarishni xaridor ehtiyojiga moslashtirib, talab va taklifning muvozanatiga erishgan holda, uni tashkil etgan korxonalar, tashkilotlarga yuqori foyda keltirishdir.

Marketing maqsadlarini uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga bo'lish mumkin. Ular iqtisodiy ko'rsatkichlar va firmaning o'xshash mahsulotni ishlab chiqaruvchilar orasidagi mavqei bilan belgilanadi. Marketingning asosiy tasdiqlangan maqsadi bo'lib, inson ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekanligini hisobga olgan holda, "Marketing tizimining haqiqiy maqsadi nima?" degan savolga umumlashgan tarzda to'rtta muqobil javob mavjud:

- maksimal yuqori iste'molga erishish;
- iste'molchilarning maksimal qondirilishiga erishish;
- maksimal keng tanlash imkoniyatini ta'minlash;
- hayot sifatini maksimal ko'tarish.

Hayot sifati murakkab tushuncha va u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: sog'liqni saqlash, ta'limning ahvoli, hayot davomiyligi, aholi bandligi, tovarlarning miqdori, assortimenti, arzonligi, aholining xarid qobiliyati, madaniy va jismoniy muhitning sifati. Marketing maqsadlari firma maqsadlariga erishish quroli hisoblanadi. Marketingni qo'llaydigan firmaning asosiy umumlashgan maqsadi va vazifasini Filipp Kotler quyidagicha ta'riflaydi:

"Kompaniya ishi = mijoz kutadigan natijalar."

Umumlashtirishning pastroq darajasida firmaning aniqroq miqdor va sifat borasidagi maqsadlari haqida gapirish mumkin. Firmaning sifat jihatdan maqsadlari, odatda, firmaning obro'-e'tiborini oshirishga yo'naltirilgan, uning ijtimoiy muhimligini kuchaytiradi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- mashhurlikni oshirish;
 - yuqori imijga erishish;
 - bandlikka, mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
 - ta'lim, sport, madaniy va boshqa tadbirlarni qo'llab-quvvatlash.
- Miqdoriy maqsadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:
- foydaning hajmi;
 - sotilishlar hajmi;
 - bozor ulushining oshishi;
 - barqarorlikni ta'minlash;
 - xarajatlarni kamaytirish;
 - mehnat unumdorligi.

Miqdoriy maqsadlarning tanlanishi va tartibga solinishini soddalashtirib, biznes sohasida quyidagi hikmat paydo bo'ldi: "Firmaning maqsadini tanlash - bugun yuqori foyda olish yoki ertaga yuqori bozor ulushiga ega bo'lish orasida tanlashdan iborat". Bu ifoda mantiqqa va iqtisodiy ma'noga ega bo'lsa ham u muammoni haddan tashqari osonlashtirib yuboradi. Maqsad har bir xodim uchun individual ravishda va umuman butun kompaniya uchun aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak, shunda uni amalga oshirish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Shu munosabat bilan marketing maqsadlarini korxonaning ichki tartibini yaxshilashga, ya'ni texnologiyani takomillashtirishga, jihozlarni modernizatsiyalashga, xodimlarning malakasini oshirishga, vakolatli rahbarlikka va boshqalarga yo'naltirilgan deb belgilash mumkin.

Shunday qilib, firmaning maqsadi – u pirovard natijada nimaga erishmoqchi, vazifalari – qo'yilgan maqsadga erishish uchun nima qilishi kerak. Amalda marketing quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan:

- mavjud yoki potensial talabni aniqlash yo'li bilan u yoki bu mahsulot (tovar, xizmat)ni ishlab chiqarish zaruriyatini asoslash, bozor holatini tahlil qilish, bu ishni vaqti-vaqti bilan emas, balki doimiy ravishda bajarish. Shuningdek, nafaqat hozir ishlab chiqaradigan, balki kelajakda ham ishlab chiqaradigan mahsulotlarni kuzatib borish kerak.

- xaridorlar talabiga javob beruvchi mahsulot modellarining nusxalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot (IT) va tajribaviy konstruktorlik ishlari (TKI)ni tashkil etish, raqobatchilarning ish faoliyatini kuzatib borish;

- korxonaning ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy faoliyatini tartiblashtirish va rejalashtirish bu nafaqat kompaniya ishchilarining samaradorligini oshirishga, balki kompaniya haqida "juda ishtiyqli ish beruvchi" degan mish-mishlarga olib keladi. Bu esa kompaniyani va uning mahsulotlari reklamasini yanada kuchaytiradi

- tovarlarni sotish usullarini takomillashtirish;
- ishlab chiqarish va sotish sohasida firmaning bosh maqsadlariga erishish uchun uning butun faoliyatini, shu jumladan, transportirovka, o'rash, sotish, reklama, texnik va servis xizmat ko'rsatishning operativ boshqarilishini tartiblashtirish va yo'naltirish.

1.3. Iste'molchining ustuvorligi

Avtokompaniyalar avvallari deyarli barcha avtomobillarini qora rangda ishlab chiqarishgan, «bu davrda mijoz xohlagan rang qora edi». Bugungi kunda barcha avtomobillarni qora rangda ishlab chiqarish g'oyasi be'mani ko'rinadi. Turli xil rangdagi minglab mashinalar ham mijozlarni qoniqtirmayapti. Bugungi kunda vaziyat o'zgarib ishlab chiqaruvchilar uchun mijoz shoh darajasiga yetdi. Bugungi kunning iste'molchilari sizning mahsulotingiz, xizmatigingiz va brendingiz haqidagi fikrini sizga aytish va ta'sir etish xususiyatiga ega. Xaridorlarning xatti-harakatida bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi, degan tabiiy savol tug'iladi.

Nega Nordstrom kompaniyasi (ingliz tilidan tarjima qilinganda - Nordstrom, Inc. - Amerika hashamatli do'konlar tarmog'i. 1901-yilda Jon U. Nordstrom va Karl F. Uollin tomonidan asos solingan bo'lib, u poyabzal do'koni sifatida paydo bo'lib, kiyim-kechak, poyabzal, sumkalar, zargarlik buyumlari, aksessuarlar, kosmetika va atirlar bo'limlari bilan to'liq xizmat ko'rsatadigan chakana savdo tarmog'iga aylandi) agar mijoz u sotgan tovar qismlarini olib kelsa, uni qayta qabul qiladi, chunki mijoz shuni xohlaydi. Nordstrom shuning uchun ham mavjud. Bugungi kundagi xaridorlar avvalgilaridan tubdan farq, qiladi shu sababli ham «sotuvchi» bozorlari «xaridor» bozorlariga aylanmoqda. Ishlab chiqaruvchilar xaridorlar fikridan kelib chiqib, o'z mahsulotini differentsiatsiya qila boshladilar. Lekin aynan nima xaridorlarning bunalchalik katta rol o'ynashiga sabab bo'ldi? Bunda asosiy 5 ta sababni ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Iste'molchi doimo haq

To'g'ri, ba'zi holatlarda xaridor xato fikr bildirishi mumkin, lekin ishlab chiqaruvchi uchun buning ahamiyati yo'q, u har doim iste'molchi ehtiyojini to'liq qondirish uchun javobgar va iste'molchi fikri kompaniya uchun omad kaliti bo'lib xizmat qiladi.

2. Mijozlarni saqlab qolish yangilarini jalb qilishdan osonroq

Statistik ma'lumotlarga qaraganda o'z mijozimizni saqlab qolish yangisini jalb qilishga ko'ra, besh marotaba arzonroqqa tushadi.

3. Shikoyatlar turli manbalar orqali juda tez tarqaladi

Kompaniya haqidagi har qanday salbiy fikr iste'molchi tomonidan boshqa subyektlarga yetkazilsa kompaniya obro'sining tushish holati

kuzatiladi, shu sababli har bir korxonada tushunarsiz holatlar yuzaga kelmasligiga, iloji boricha, harakat qiladi. Chunki salbiy xabar raketadan ham tez yuradi, ijobiy xabar toshbaqadan ham sekin yuradi.

4. Xaridorlarsiz biz hech qanday biznes yurita olmaymiz

Biznes faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishi har tarafdin xaridorlarga bog'liq.

5. Xaridor fikridan kelib chiqib brend yutadi yoki yutqazadi

Xaridorlarning turli xususiyatlaridan kelib chiqib ularni segmentlarga ajratish va maqsadli segmentni tanlab unga xizmat ko'rsatish shu bilan birgalikda xaridor ishonchini qozonish lozim.

1.4. Marketing jarayoni

Marketing jarayoni to'rtta elementdan iborat: strategik marketing tahlillari, marketing-mixni rejalashtirish, marketingni amalga oshirish va marketing nazorati.

Marketing jarayoni




1.4.1-chizma. Marketing jarayonining tarkibiy tuzilishi

Marketing jarayoni ikkita katta qismga ajraladi: birinchisi, mijozlar uchun qiymat yaratadigan tadbirlardan iborat. Bu jarayonning eng katta va asosiy qismidir, va u o'z navbatida, to'rt bosqichga bo'linadi. Bunga javoban, kompaniya mijozlardan qiymatni qo'lga kiritishi lozim, bu

marketing jarayonining ikkinchi qismi hisoblanadi. Qadamlar quyidagi chizmada ko'rsatilgan (1.4.2-chizma).

Ko'pgina hollarda marketing jarayoni quyidagicha talqin qilinadi: Marketing jarayoni korxonaga yoki firma maqsadlarini aniqlash va ularga erishishga yordam beradigan bir qator qadamlar majmuyidir. Korxonaga yoki firma iste'molchilarining ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishi va rivojlanishini bu jarayon orqali aniqlab oladi. Muvaffaqiyatli marketing jarayoni uchun qadamlar quyidagicha.

- missiya;
- vaziyatni tahlil qilish;
- marketing strategiyasini rejalashtirish;
- marketing miks;
- joriy qilish va boshqarish.



1.4.2-chizma. Marketing jarayoni

Missiya bu odamlar bajarishi lozim bo'lgan muhim topshiriqni anglatadi.


Vaziyatni tahlil qilish menejerlar tashkilotning ichki va tashqi muhitini tashkilotning qobiliyatini, mijozlarini va ish muhitini tushunish uchun tahlil qilish uchun foydalanadigan usullardan iboratdir.

118139

Marketing strategiyasi barqaror raqobatbardosh ustunlikka erishishning asosiy maqsadi bilan rejalashtirishga uzoq muddatli, istiqbolli yondashuv hisoblanadi.

Marketing miks "firma marketing maqsadlariga bozorda erishish uchun foydalanadigan marketing vositalari majmuyi" sifatida tavsiflanadi. Marketing tizimida qo'yilgan maqsadga erishish uchun xaridorlar va boshqa subyektlarga ta'sir etish uchun marketing vositalari, ya'ni marketing usullari yig'indisi, uslublari zarurdir. Shunday vositalardan marketing-miks, marketing kompleksi bo'lib hisoblanadi. Bularni marketing nazariyasiga 1964-yilda birinchi bo'lib Garvard biznes maktabi professori N.Borden kiritgan. Marketologlar tayyorlash tizimida marketing kompleksi 4 «P» deb nomlanib, Makkarti tomonidan 1960-yilda bu model taklif etilgan. Ushbu modelda marketingning to'rtta asosiy elementlari ajratib ko'rsatilgan: tovar (product), narx (price), joy (place), siljitish (promotion).

Marketing faoliyatida ehtiyoj va muhtojlikni ayirboshlash orqali qondirish jarayonida, albatta, inson ishtirok etadi. Shuning uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan marketing elementlari tarkibiga 5 «P» ham kiritilib, u kishilar (people) ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Marketing-miks elementlari 1.4.3-chizmada ko'rsatilgan.



1.4.3-chizma. Marketing tizimidagi besh asosiy narsa

1968-yilda F.Kotler marketing-miks elementlari tarkibiga publik-rileyshnz (public relations) va siyosatni (politics) qo'shib, oldingi 4 «P»ni 6 «P»ga kengaytirib ko'rsatdi.

4 «P» modelini qo'llanilishi cheklanganligiga qaramasdan, marketing nazariyasi shakllanishi va amaliyotining rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydi.

Marketing-miks keng qo'llanadigan shaklda 4 ta marketing submik-sini o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar: tovar miksi, shartnoma-miksi, kommunikativ-miks, taqsimot-miksi. Tovar miksi tovar siyosatini shakllantiradi, tovar bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar: dizayn, uni bezatilishi, mahsulot sifati, o'rovi, xaridorlarga xizmat ko'rsatish, kafolat xizmati siyosati, tovar diversifikatsiyasi, assortiment siyosati va hokazo.

Shartnoma siyosati tovarni oldi-sotdi akti shartlari kelishuvini va bitim ko'rinishida ularni chizmalashtirishni amalga oshiradi. Bunday chora-tadbirlarga: narx siyosati, ustama va chegirma tizimi, tovar yetkazib berish va uni to'lov shartlari, shuningdek, kredit siyosati kiradi.


Taqsimot siyosati tovarni tayyorlanish joyidan oluvchiga yetkazib berishni amalga oshiradi. Bu siyosat sotish kanalini asoslash va tahlil qilish, marketing-logistika, savdo siyosati, sotish vositalari siyosati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish siyosati. Iste'molchilar va bozorlarning joylashuvi siyosati, yetkazib berish siyosati, tayyor mahsulotlarni omborlarga joylashtirish siyosati va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ siyosatning vazifasi xaridor ehtiyojini qondirish va foyda olish maqsadida talabni shakllantirish va tovar hamda xizmatni siljitish bo'yicha muqobil va samarali faoliyatni ta'minlash uchun marketing tizimining barcha obyektlarini korxonaga – mahsulot tayyorlovchilar bilan o'zaro harakatini tashkil etishdan iboratdir.

Joriy qilish bu dasturni yoki rejani, g'oyani, modelni, dizaynni, spetsifikatsiyani, standartni, algoritmi yoki siyosatni bajarishni tavsiflaydi.

1.5. Marketingning asosiy kategoriyalari

Marketingning asosiy kategoriyalari quyidagi chizmada keltirilgan:



1.5.1-chizma. Marketingning asosiy kategoriyalari

Ushbu tushunchalarning alohida tavsifini ko'rib chiqamiz.

Marketing markazida muhtojlik tushunchasi yotadi.

Muhtojlik– bu insonning biror narsa yetishmasligini his qilishidir. Insonlar tabiatidan kelib chiqib muhtojlikning quyidagi turlari mavjud:

Fiziologik muhtojlik (oziq-ovqat, kiyim-kechak, issiqlik, xavfsizlik);

Ijtimoiy muhtojlik (ma'naviy yaqinlik, ta'sir, muhabbat)

Shaxsiy muhtojlik (bilim, obro' qozonish)

Muhtojlik sezish holatida 2 ta jarayon amalga oshishi mumkin: muhtojlikni qondirish vositasini topish yoki undan voz kechish.

Ehtiyoj – bu insonning madaniy darajasi va shaxsiga mos keladigan muhtojlikning muayyan shakli. Issiq havoda ko'pchilikning tashnalikni qondirish hissi turlicha, Rossiyada yaxshi sovuq kvass, Germaniya – pivo, Hind okeanidagi ekvatorial orollarda – kokos sutiga ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni ehtiyojlarning tarkib jihatdan shakllanishiga olib keladi. O'z navbatida ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yishadi. Inson ehtiyojlari cheksiz lekin ularni qondiruvchi vositalar soni cheklangan. Insonning moliyaviy mablag'i cheklanganligi bois u o'z ehtiyojlari ichidan eng maqbulini tanlaydi.

Talab – bu xarid qilish quvvati bilan ta'minlangan ehtiyoj hisoblanadi. O'tgan davrdagi jamiyatda aniq vaqt oralig'idagi talab hajmini statistik ko'rsatkichlardan foydalanib aniqlash mumkin. Hozirgi kunda va kelajakda kutiladigan talab hajmini aniqlashda bir qancha muammolar mavjud bunga sabab sifatida esa vaqt o'tgan sari talab tarkibining uzviy o'zgarishini ko'rsatib o'tish mumkin.


Tovar bu ehtiyojni qondira oladigan va e'tiborni jalb qilish uchun bozorga taklif etilgan mahsulot. Tovar ehtiyojni qondira olish qobiliyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- ehtiyojni qondira olmaydigan;
- ehtiyojni qisman qondiradigan;
- ehtiyojni to'liq qondiradigan.

Jamiyat rivojlanishi bilan birgalikda uning a'zolari ehtiyojlari tarkibiy jihatdan yangilanib boradi. Ehtiyojlarimiz ularni qondirishimiz uchun undovchi vosita, ya'ni, motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Ehtiyojlarning motivatsion nazariyalari orasida eng mashhuri Maslouning

motivatsion nazariyasi bo'lib hisoblanadi. Maslouning fikriga ko'ra, ehtiyojlar muhimlik jihatiga ko'ra ma'lum iyerarxik ko'rinishga ega. Birinchidan, fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi muhim ahamiyatga ega (1.5.2-chizma), ikkinchi bo'lib esa xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj qondiriladi. Ushbu ehtiyojlar qondirilgandan so'ng, inson faoliyatida ketma-ket ijtimoiy ehtiyojlar va shaxsiy kamol topish ehtiyojlari paydo bo'la boshlaydi.

Marketologlarning eng asosiy vazifalaridan biri iste'molchilarning real talablarini aniqlashdan iborat. Buning uchun iste'molchi guruhini aniqlash uning ehtiyojlarini tahlil qilish va kelajakda kutiladigan o'zgarishlarni o'rnatishdan iborat. Aniqlangan ehtiyojlar asosida xaridor talabiga mos keluvchi tovar ishlab chiqarish zarur.



1.5.2-chizma Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi

Ayirboshlash – bu iqtisodiy subyektlar o'rtasida o'zaro tovarlarni almashinish jarayoni.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida ayirboshlash jarayonida quyidagilar talab qilinadi:

- kamida ikkita predmet mavjudligi;
- har bir shaxs boshqa tomonga nisbatan ma'lum qiymatga ega bo'lgan tovarga ega bo'lishi kerak;
- har bir subyekt qaror qabul qilish uchun erkin bo'lishi kerak (almashinuvni qabul qilish yoki rad etish);
- har bir subyekt boshqa subyekt bilan munosabatlarga kirishish jarayonida ishonchlilik tamoyili bo'lishi lozim.

Agar ushbu shartlar bajarilsa ayirboshlash jarayoni amalga oshadi.

Ayirboshlash pul vositasida yoki barter usulida amalga oshirilishi mumkin.

Bozor (market) – keng ma’noda muomala sohasi bo‘lib, tovar ayirboshlash munosabatlari va jarayonlari majmuyidir. Bunda tovar bilan oldi-sotdi munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va pul muomalasi qonunlari asosida amalga oshadi. Ko‘pincha, marketingda bozor deganda ma’lum tarmoq tovarlariga ehtiyoj sezuvchi va uni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lgan potensial iste’molchilarning majmuyi tushuniladi.

Bozor ma’lum bir qiymatga ega bo‘lgan turli xil obyektlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin. Masalan, iste’mol tovarlari bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, mehnat bozori, kapital bozor va boshqalar shular jumlasidandir. Iste’molchilarning turiga qarab iste’mol bozori va korxonalar (tashkilot) bozoriga bo‘linadi.

Iste’mol bozori – bu tovarlar va xizmatlarni o‘zining shaxsiy ehtiyoji uchun sotib oladigan yakka shaxslar va oilalar majmuyidan iborat bo‘lib, ommaviy iste’molchilarga egaligi, raqobatning xilma-xilligi va markazlashmagan strukturaga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Korxonalar (tashkilotlar) bozori deganda o‘z navbatida, ishlab chiqarish – texnik maqsadlarda boshqa tovarlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchi korxonalar va shoxobchalarning majmuyi tushuniladi.

Davlat tashkilotlari bozori deganda esa o‘z faoliyatlarini yuritish uchun tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchi yoki ijaraga oluvchi hamma bo‘g‘indagi davlat tashkilotlari tushuniladi.

Ishlab chiqarish – texnik maqsadlarda foydalaniladigan mahsulotlar bozori kam sonli xaridorlarga egaligi, lekin tovarlarning katta miqdorda sotilishi bilan xarakterlanadi.

Bozorda kim yetakchilik qilishiga qarab bozorlar “sotuvchi bozori” va “xaridor bozori” ga bo‘linadi.

“Sotuvchi bozori” – unda tovarga bo‘lgan talab taklifdan oshib ketadi. Bunday bozorda sotuvchi hukmronlik qiladi, xaridorning esa faol ishtirokchi bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. Bunday holatda “pul tovar orqasidan yuguradi”.

“Xaridor bozori” – bunday bozorda taklif talabdan ko‘p shuning uchun xaridor (iste’molchilar) taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar orasidan xohlaganini tanlash imkoniyatiga ega. Bunday bozorda xaridor-

lar ustunlikka ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar bozorning eng faol ishtirokchilariga aylanadilar. Bunday holatda “tovar pul orqasidan yuguradi”.

Talab va taklifning miqdori va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi “muvozanatli bozor” deb yuritiladi. Muvozanatli bozorni ta'minlashning asosiy yo'llari quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarishning talabini va asosiy bozorni to'yintirish; yetarli darajada mahsulot zaxirasini barpo etish xaridorgir mahsulotlar narxini oshirish va aksincha, talab uncha mavjud bo'lmagan mahsulotlar narxini pasaytirish va boshqalar.

1.6. Marketing nazariyasi konsepsiyasi

Marketing konsepsiyasi tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining har xil bosqichlarida uning yo'nalishini belgilaydigan qarashlar tizimidan iboratdir. Shu bilan birga, marketing konsepsiyasi deganda, korxonalar yoki tashkilotning iste'molchilarga mo'ljallangan, integratsiyalangan maqsadli yo'nalishi tushuniladi. Marketing konsepsiyasi rejalashtirilayotgan va amalga oshirilayotgan korxonalar yoki tashkilot faoliyatining strategik tahlili asosida ishlab chiqiladi.

Marketing konsepsiyasini ishlab chiqish, odatda, quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- ichki va tashqi muhit strategik tahlilini amalga oshirish;
- marketing faoliyati va korxonaning maqsadlarini aniqlash;
- marketing strategiyasini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan natijalarga erishish maqsadida marketing faoliyati elementlarini tanlash.

Marketing evolutsiyasining birinchi yirik bosqichini XX asrning boshidan 30-yillarning o'rtasigacha deb hisoblash qabul qilingan. Bunda marketing tashkilotlar, korxonalar va shaxslar o'rtasidagi tovar va xizmatlar harakatining nazariyasi yoki mahsulotni sotish bo'yicha korxonaning funksiyasi deb tushunilardi. Shu vaqtda ketma-ket ikkita konsepsiya paydo bo'ldi: ishlab chiqarish konsepsiyasi va tovar konsepsiyasi.

Ishlab chiqarish konsepsiyasi – mahsulot ustunligi tarzida belgilanadi, bunda eng muhim masala yaxshi tovar ishlab chiqarish va uni xaridorga arzon narxlarda sotish deb hisoblanadi. Konsepsiya shiori – «imkoni boricha ko'proq tovar ishlab chiqar, chunki bozor talabi chek-

siz». Tovar konsepsiyasi iste'molchi e'tiborini tovarga, uning sifatiga va narxiga qaratishni talab etadi. Ya'ni, kompaniyalar o'z faoliyatlariga e'tibor qaratishadi, birinchi navbatda bozorga chiqarilgan mahsulotlarini iste'molchilar sotib olishi haqida o'ylashadi. Iste'molchilar o'xshash tovarlarni sifatlarini boshqa firmani shunday tovarlari bilan solishtirib ko'radilar. Bu konsepsiyani, ko'pincha, kompaniya, firma, tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlar ham ushlab turadilar, biroq tovar konsepsiyasi muvaffaqiyat keltiravermaydi.

Sotish konsepsiyasi turli xil qo'llab-quvvatlashlar asosida iste'molchilarni mahsulot haqida xabardor qilishni anglatadi. Firmaning mahsulotini «mana, tovar tayyor, kelavering va savdolashing» shiori bilan sotishni mo'ljallash birinchi o'ringa chiqadi. Tovar va savdo marketingi konsepsiyalari mahsulot ishlab chiqarish hali seriyali, ya'ni yalpi tus olmagan davrda maydonga kelgan edi. Tovarlarining yangi turlari va xillari hisobiga yuqori darajada foyda qo'lga kiritilar edi, chunki, cheksiz talabga ega bo'lgan bozorda tovarlarga nisbatan talab benihoya katta edi.

Marketing rivoji tarixida o'tgan asrning 50-yillari muhim bosqich bo'ldi. Ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish noto'g'ri yo'l ekanligi ko'rinib qoldi. Marketing – ishlab chiqarishni bozor talabiga moslashtirish konsepsiyasi, uning asosini iste'molchiga – «bozor ustunligi»ga mo'ljall olish tashkil etdi. Marketing boshqaruvining bozor konsepsiyasi yanada rivojlandi.

An'anaviy marketing konsepsiyasi o'tgan asrning 50-yillari o'rtalaridan boshlab marketing bozor konsepsiyasi tarzida boshqarishda firmaning faqat bozor strategiyasini emas, balki ishlab chiqarish strategiyasini ham belgilaydigan yetakchi vazifaga aylandi. An'anaviy konsepsiyaga ko'ra, marketing – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotish demakdir. Shunday qilib, ishontirish (ko'niktirish) bilan bog'liq barcha tadbirlar, mahsulot va xizmatlarni sotish marketing deb ataladi. Bu marketing konsepsiyasi tovarlar va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash va sotishga urg'u beradi, ammo iste'molchilar ehtiyojini qondirishga kam e'tibor qaratadi. Ushbu konsepsiya quyidagi xususiyatlarga ega:

a) ushbu konsepsiyaning asosiy e'tiborini mahsulotga qaratadi, ya'ni bizda mahsulot bor va biz uni sotishimiz kerak, iste'molchilarni mahsulotimizni sotib olishga ishontirishimiz kerak,

b) marketing xodimlarining barcha sa'y-harakatlari mahsulotni sotishga qaratilgan. Ular sotish hajmini oshirish uchun shaxsiy savdo va savdoni qo'llab-quvvatlash (reklama) kabi barcha vositalarni qo'llaydilar;

d) barcha marketing faoliyatining yakuniy maqsadi savdoni maksimalashtirish orqali foyda olishdir.

1.6.1-jadval

Marketingning an'anaviy konsepsiyasi	
Fokus	Mahsulot
Vosita	Sotish
Yakuniy maqsad	Maksimal savdo orqali foyda

Marketingning zamonaviy konsepsiyasi

Zamonaviy marketing konsepsiyasi iste'molchilarning istaklari va ehtiyojlarini yetaklovchi xususiyat deb hisoblaydi va ushbu ehtiyojlarni eng samarali ta'minlashi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berishga e'tiborini qaratadi. Shu sababli, marketing iste'molchilarning ehtiyojlarini aniqlash bilan boshlanadi, keyin uni maksimal darajada qondirishni ta'minlay oladigan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni rejalashtiradi. Boshqacha aytganda, mahsulot va xizmatlar xomashyo va texnika mavjudligiga ko'ra emas, balki mijozlarning ehtiyojlariga ko'ra rejalashtiriladi. Bundan tashqari, barcha tadbirlar (tadqiqot va ishlab chiqarish, sifat nazorati, taqsimlash, sotish va boshqalar) iste'molchilarning ehtiyojini qondirishga yo'naltiriladi. Zamonaviy konsepsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

a) ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi mijozlarga yo'naltirilgan. Marketing faoliyati iste'molchilarning ehtiyojlarini baholash bilan boshlanadi va bu ehtiyojlarni samarali qondiradigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishni rejalashtiradi. Shuningdek, narxlash, qadoqlash, tarqatish va sotishni qo'llab-quvvatlash kabi boshqa barcha marketing amaliyotlari uchun ham amal qiladi,

b) mahsulotni rejalashtirish, narxlashtirish, qadoqlash, tarqatish va sotish kabi barcha muvofiqlashtirilgan faoliyat turlari marketing harakati

sifatida birlashtiriladi. Bunga marketingni integratsiya qilish deyiladi. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

- iste'molchilarning ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotni ishlab chiqish:

- Iste'molchilar mahsulot, uning xususiyatlari, sifati, mavjudligi va boshqalar haqida bilib olishlari uchun reklama tadbirlarini olib borish;

- maqsadli iste'molchilarning sotib olish qobiliyatini va to'lovga tayyor bo'lishini hisobga olgan holda mahsulot narxini belgilash;

- mahsulotni yanada jozibador qadoqlash, baholash va iste'molchilarni mahsulotni sotib olishga rag'batlantirish maqsadida savdo-sotiqni rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish;

- iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil boshqa choralarini ko'rish.

d) barcha harakatlarning asosiy maqsadi, mijozlar ehtiyojini qondirish orqali maksimal daromadga erishishdir. Bu shuni anglatadiki, agar mijozlar qoniqish hosil qilsa, ular mahsulot yoki xizmatni sotib olishda davom etadi va bu esa ko'plab yangi mijozlar qo'shilishiga sabab bo'ladi. Bu, o'z navbatida, sotish hajmining ortishiga va shu bilan birga daromadlarning o'sishiga olib keladi.

1.6.2-jadval

Marketingni zamonaviy konsepsiyasi	
Fokus	Iste'molchilar ehtiyoji
Vosita	Marketing harakatlarini koordinatsiyalash
Yakuniy maqsad	Iste'molchi ehtiyojini qondirish orqali daromad olish

Biznesning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi anglab yetilganda, marketing ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olish va iste'molchilarni ehtiyojlarini qondirish darajasining sifatini oshirishini kafolatlashga va jamiyatning uzoq muddatli manfaatlariga e'tibor qaratishi kerak.

Zamonaviy marketing konsepsiyalari juda keng va iste'molchiga qaratilgan bo'ladi, bu oddiygina ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molchiga yetkazish emas, balki "mijozlar auditoriyasi"ni shakllantirish va ular har birining ehtiyoj va xohishlariga binoan mahsulot yaratishni ang-

latadi. Shu sababli sotuvchilar uchun iste'molchilarni tushunishda zamonauiy marketing konsepsiyasi muhim hisoblanadi va bu orqali sotuvchi duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga yechim topadi.

Ijtimoiy marketing konsepsiyasi. Bu konsepsiya shuni anglatadiki, kompaniyalar faqatgina iste'molchi uchun emas, balki jamiyat uchun ham faoliyat ko'rsatishadi. Kompaniya daromadi, iste'molchi xohishi va jamiyat farovonligi o'rtasida balans ta'minlanadi.

1.7. Mijozlarni ushlab turish va loyallik

Xaridor talabini qanday qondirish mumkin? Kim yutqazishni xohlaydi albatta hech kim, o'rnatishlar shuni ko'rsatadiki, xaridorni manzur qila olgan kompaniya doim muvaffaqiyatga erishgan. Xaridorni qayta sotib olish uchun jalb qila olish muhim ahamiyatga ega. Xaridorlarni ushlab turish uchun bir qancha tavsiyalar mavjud bo'lib ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. So'rang, tinglang va muloqotga kirishing – har doim mijozni o'zi kutgan narsasi bilan ta'minlang. Xaridor uchun kerakli narsa haqida eshita oling. Yaxshi tinglovchi yaxshi sotuvchi ham bo'la oladi. Xaridorni tinglay olish uning ehtiyojiga eng mos keluvchi tovarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

2. Berilgan va'dalarni bajarishga harakat qiling. Xaridorning tovar, uning narxi va yetkazib berish bilan bog'liq xizmatlarda tushunmovchiliklarning oldini olish sotish paytida muhim rol o'ynaydi. Iшонchlik har qanday munosabatlarning muhim qismi sanaladi. Iшонchni yo'qotish biznesda katta yo'qotishlarga olib keladi.

Bu qoida biznesning barcha elementlari, shu jumladan, turli kelishuvlar va ularning muddatlarini o'z ichiga oladi.

3. Xaridorlar bilan do'stona munosabatda bo'ling, xaridorga doimo u kutgan narsadan ham ko'prog'ini berishga harakat qiling. Har bir xaridor unga xuddi muhim insondek munosabatda bo'lishlarini xohlaydi.

4. Innovator bo'ling. Xaridor bozordagi yangi narsalarni qidirishga o'ch bo'ladi. Birozgina innovatsiya yangi xaridorlarni jalb qilishda yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida raqobatchilar orasida bozor ulushingizning oshishiga olib keladi.

5. O'z tovaringizga ishoning. Sotish bu shunchki ishonchning almashtiruv jarayonidir. Bu boshqalarga ham ushbu tovarga nisbatan ishonch

uyg‘otish hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘zingiz ishongan narsaga boshqalarni ham ishtorirish osonroq kechadi.

6. Jilmaying, kulishni bilmaydigan odam do‘kon ochmasligi kerak. Kulgu – siz xaridor haqida pozitiv fikrda ekanligingizni bildiradi. Bu esa sizga xaridor bilan muloqotga kirishishda qulaylik tug‘diradi.

7. Beshta W ning kuchini tushuning. Sotuvchi uchun xaridorning muammolarini tushuna olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammo-larni to‘g‘ri aniqlash uchun 5 W ni yaxshi tushunish talab etiladi Who? (Kim/) What? (Nima?) Where? (Qayer?) When? (Qachon?) Why? (Nega?). Bularning barchasi muammoni osonlik bilan aniqlashda yordam beradi.

8. Oltin qoidani eslang, o‘zingizni xaridor o‘rniga qo‘yib ko‘ring. Agar siz xaridor bo‘lganingizda, o‘zingizni qanday tutar edingiz, shundan kelib chiqib, xaridor bilan muloqotga kirishing.

Xaridorlarning tovar sotib olish uchun qaytib kelish va kompaniya xizmatlaridan qanchalik ko‘p foydalanish darajasi ularning sodiqligini ifodalaydi. Xaridorlar kompaniyaga sodiqlik darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Yuqori	Kapalaklar	Chin do‘stlar
Potensial foydalilik	Notanishlar	Chaqir tikanaklar
Past	Qisqa muddat	Uzoq muddat
	Rejalashtirilgan loyallik (sodiqlik)	

1.7.1-chizma. Loyallikning tasniflanishi

Har bir guruh turli xil munosabatlarni boshqarish strategiyasini talab qiladi.

Notanishlar guruhi past darajadagi foydalilik va sadoqatni ifodalaydi. Kompaniya taklifi va ularning ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlik past darajada. Ushbu mijozlar uchun aloqalarni boshqarish strategiyasi oddiy: ularga hech narsa sarf qilmang har bir almashinuvdan shunchaki pul ishlab oling.

Kapalaklar potensial jihatdan foydali, ammo sadoqatli emas. Ushbu guruh xaridorlari ehtiyojlari bilan kompaniya tovar taklifi o‘zaro mos keladi. Biroq haqiqiy kapalaklar kabi siz ular bilan qisqa muddatda

aloqada bo'lasiz keyin ular sizni tark etadi, bunga misol qilib fond birjasi investorlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu guruh xaridorlarni sadoqatli xaridorlarga aylantirish kamdan kam hollarda muvaffaqiyatli kechadi, shu sababli qisqa muddatda ulardan, iloji boricha, ko'proq foyda olishga harakat qiling.

Haqiqiy do'stlar ham foydali, ham sodiqdirlar. Ularning ehtiyojlari va kompaniyaning takliflari o'rtasida kuchli muvofiqlik mavjud. Kompaniyalar ushbu xaridorlar guruhi bilan yanada ko'proq muloqot o'rnatish ularning ishonchini qondirishga harakat qiladilar. Haqiqiy do'stlar o'z tajribalarini boshqalarga yetkazish orqali yangi xaridorlarni jalb qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Chaqirtikanaklar kompaniyaga juda sodiq lekin kam foydalilik darajasiga ega, bunga misol qilib bankda o'z hisob varag'iga ega bo'lgan undan tez-tez foydalanadigan, lekin unda juda kam miqdorda pul saqlaydigan mijozlarni keltirib o'tish mumkin. Ushbu turdagi xaridorlar eng muammoli xaridorlar guruhi bo'lib, agar ular yetarli foyda keltirmasa, tovar narxini oshirish va ko'rsatiladigan xizmatlar darajasini pasaytirish orqali ularni «jazolash» zarur.

Ushbu guruhlashtirishni amalga oshirishdan asosiy maqsad har bir xaridorlar guruhiga mos holda strategiya ishlab chiqishdan iborat.

Nazorat va mulohaza uchun savollar


1. Marketing deganda nimani tushunasiz?
2. Fransiyada marketingning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilgan?
3. Marketing va sotish o'rtasida qanday farqlar bor?
4. Marketingning maqsadi nimalardan iborat?
5. Marketing tizimini haqiqiy maqsadi nima?
6. Marketing nazariyasi konsepsiyasi va uning evolutsiyasi qanday?
7. Iste'molchining ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?
8. Marketing jarayonining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
9. Makkarti tomonidan qanday model taklif qilingan?
10. Marketingni asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
11. Maslouning ehtiyojlari iyerarxiyasi nimalardan iborat?
12. Ishlab chiqarish konsepsiyasi bilan tovar konsepsiyasi o'rtasidagi farqni ko'rsating?
13. Zamonaviy marketing konsepsiyasini tushuntirib bering.
14. Mijozlarni ushlab turishda nimalarga e'tibor berish kerak?

2-MODUL. MARKETINGNING FUNKSIYALARI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI

2.1. Marketing funksiyalari va faoliyati mazmuni

Marketing funksiyasini korxonaning boshqa funksiyalaridan farqi shundan iboratki, marketing funksiyalari xo'jalik yurituvchi subyektlar, uning iste'molchilari, mijozlari o'rtasida ayirboshlash jarayonini amalga oshirish va tashkil etishga qaratilgandir. Shuning uchun ham marketing funksiyalari doimo o'zgarib boradigan ehtiyojdagi talabni shakllanishi yaratilishi, rivojlanishida javobgarlikka egadir.

Marketingning universal funksiyalari sotib olish, sotish, tashish, saqlash, standartlashtirish va baholash, moliyalashtirish, xavflar (risk)ning oldini olishni va marketing axborotlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Biroq, zamonaviy marketing bozor ma'lumotlarini to'plash va ushbu ma'lumotni tahlil qilish kabi boshqa funksiyalarga ega. Mahsulotni loyihalashtirish va rivojlantirishda yordam berish uchun marketing funksiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing funksiyalari quyidagi grafikda yaqqol o'z ifodasini topadi (2.1.1-chizma):



2.1-chizma. Marketing funksiyalari

Bozor haqida ma'lumot (axboroti). Iste'molchilarning ehtiyojlarini, istaklarini va talablarini aniqlash va keyinchalik aniq mahsulotni va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotish uchun turli qarorlar qabul qilish uchun aniqlangan ma'lumotlarni tahlil qilish marketingning eng muhim vazifalaridan biridir. Tahlil maqsadi tashkilotning ichki zaif tomonlarini va kuchli tomonlarini, shuningdek, maqsadli bozorning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va demografik ma'lumotlarini baholashni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar bozor segmentlarida ham qo'llaniladi.

Bozorni rejalashtirish. Bozorni rejalashtirish firmaning marketing maqsadlariga erishishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar bozordagi ustunlikni yoki bozor ulushini oshirishni o'z ichiga olishi mumkin. Bozorni rejalashtirish funksiyasi ishlab chiqarish darajalari, qo'llab-quvvatlash (promotion) va boshqa harakat dasturlarini qamrab oladi.

Ayirboshlash funksiyasi. Sotib olish va sotish – marketingning ayirboshlash funksiyalari hisoblanadi. Ular mijozning talablarini qondirish uchun firma takliflari yetarli miqdorda bo'lishini ta'minlaydi. Ayirboshlash funksiyalari reklama, shaxsiy sotish va savdoni maksimallashtirish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Mahsulotni loyihalashtirish va rejalashtirish. Mahsulot dizayni mahsulotni maqsadli bozorga jalb qilishda yordam beradi. Bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida nafaqat mahsulot xarajatlari, balki mahsulot dizayni, mosligi, shakli, uslubi va hokazolar ishlab chiqarish jayronida qarorlar qabul qilishda juda katta ahamiyatga ega.

Fiziologik taqsimlash. Marketingning fiziologik taqsimlash funksiyalari transport va saqlashni o'z ichiga oladi. Yuk tashish funksiyasi ishlab chiqarish joylaridan mahsulotlarni xaridorlarga qulay joylarga ko'chirishni va saqlash vazifasini mahsulot sotilguncha ushlab turishni o'z ichiga oladi.

Standartlashtirish va baholash. Standartlashtirish oldindan belgilangan spetsifikatsiyalarda mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Standartlashtirish mahsulot taklif etilgan sifat va miqdorga javob berishini kafolatlaydi. Bu mahsulot ishlab chiqarilishida bir xillik va mustahkamlikka erishishda yordam beradi. Baholash – har xil guruhlardagi ma'lum predmetlarga asoslangan mahsulotlarni tasniflashni anglatadi. U o'lchov, vazn va hokazolarni nazorat qilish standartlarini o'z ichiga oladi. Baholash narxlash qarorlarida ham yordam beradi. Yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar yuqori narxlarni jalb qiladi.

Moliyalashtirish. Marketingning moliyaviy funksiyalari kanal a'zolari yoki iste'molchilar uchun kredit berishni o'z ichiga oladi.

Xavflarning oldini olish. Xavfning oldini olish muhim marketing vazifalaridan biridir. Marketingning xavf-xatarlarini olish iste'molchilar kelgusida sotib olishlari mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar yaratish va sotishdan kelib chiqqan iste'mol xaridlari haqida noaniqliklarga ishora qiladi.

Qadoqlash va brendlash. Qadoqlash mahsulotga mo'ljallangan qadoqni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Qadoqlash va etiketlash hozirgi kunda reklama vositasi sifatida xizmat qiladi, brending umumiy tovar nomi va tovar belgisini ajratadi. Xizmat ko'rsatish sohasida ham brendlash juda muhim hisoblanadi.

Mijozlarni qo'llab-quvvatlash. Mijozlarni qo'llab-quvvatlash juda muhim vazifadir. Savdo bo'yicha maslahat, savdo-sotiqdan so'ng mijozlarga shikoyatlar va unga tuzatishlar, kredit xizmatlari, texnik xizmat ko'rsatish va iste'molchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suv tozalash vositasi 7 yil davomida xizmat ko'rsatish kafolati bilan sotiladi va bu marketingning muhim vazifasi sifatida qaraladi.

2.2. Marketing vazifalari

Har bir tijorat kompaniyasi marketing faoliyatidagi maqsadlariga erishish uchun bir qancha vazifalarni bajarishi zarur bo'lib, ular quyidagilar:

1. Real va potensial xaridorlarning ehtiyojlarini aniqlash, tahlil qilish va baholash

Har qanday biznesda xaridor haqidagi ma'lumotlarni bilish muhim ahamiyatga ega. Samarali biznes faoliyatini yurituvchilar o'z xaridorlarini yaxshi tushunishadi hamda tovar va xizmatlarni ularga yetkazishning eng samarali usullarini bilishadi. Xaridor nima uchun aynan sizning mahsulotingizni sotib olmoqchi ekanligini tushunishingiz talab etiladi. Ularning aniq bir turdagi tovar va xizmatga nisbatan ehtiyoji qanchalik tez-tez yuzaga keladi? Xaridor ehtiyojlarining hozirgi holatini bilishdan tashqari uning kelajakda turli omillar ta'sirida qanday shakllanishi mumkinligini ham aniqlashi zarur. Bu esa xaridorlarning sotib olish jarayonini bevosita kuzatish va ularning hisobini olib borish orqali amalga oshiriladi.

2. Yangi tovar (xizmat) ishlab chiqarishda marketingning rolini oshirish

Yangi tovarni ishlab chiqarishda marketing faoliyatini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Marketologlar iste'mochi ehtiyojlariga to'la mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish taklifini berishi lozim. Yangi tovar yaratish jarayonida bevosita xaridor bilan ushbu tovar haqida muloqotga kirishish ham muhim ahamiyatga ega. Shu orqali muammoga yechim topish yanada osonlashadi. Har bir mijoz talabidan kelib chiqqan holda turli dizaynli mahsulot yaratishda ham marketingning o'rni katta. Marketolog yangi mahsulot ishlab chiqarish haqidagi g'oyalarni chuqur tahlil qilishi va ular orasidan korxonaga imkoniyatlariga mos keluvchi va xaridor ehtiyojini to'la qondirishga qaratilgan eng optimal variantini tanlab olishi zarur. Bundan tashqari, marketologlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi va texnologiyalarga yaxshi tushunishi zarur.

3. Sotish va sotishdan keyingi jarayonlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish

Marketingda xizmat ko'rsatishni takomillashtirish differensiatsiya siyosatida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda ko'plab tovarlar turli xususiyatlariga ko'ra bir-biriga o'xshaydi, lekin ular aynan xizmat ko'rsatish darajasi bilan o'zaro farqlanadi. Masalan; xaridor fast-fud mahsulotini buyurtma qilmoqchi bo'lsa u turli do'konlarning xizmat ko'rsatish darajasini o'zaro solishtiradi va buyurtma beradi. Shu sababli marketologlar raqobatchilardan ajralib turish va xaridorlarni jalb qilish uchun marketing xizmatlaridan foydalanadi. Hozirgi kunda raqobat muhiti rivojlangan sharoitda yangi xaridor jalb etishdan ko'ra mavjudlarini ushlab turish va bunda xizmat ko'rsatish darajasini tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

4. Kommunikatsiya siyosatini shakllantirish

Xaridorlarni kompaniya ishlab chiqarayotgan mahsulot haqida axborot bilan ta'minlash va ular bilan tovarga oid sohalarda muloqotga kirishish jarayoni kommunikatsiya siyosatining asosini tashkil qiladi. Kommunikatsiya siyosatining asosiy roli u kompaniyaning ovozi bo'la olishidadir. Kommunikatsiya elementlaridan foydalanib xaridor xayolida tovar haqida pozitiv fikr uyg'otish asosiy maqsadlardan bo'lib hisoblanadi. Har bir maqsadli guruhning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kommunikatsiya elementlarini oqilona tanlash ham lozim. Websayt

yaratish va xaridorlar orasida tovarni muhokama qilishga imkon yaratish ham korxonaga muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadi.

5. Raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish

Raqobatchilarni o'rnatish sizga xaridorlar orqali o'zingizni tashqari-dan kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqobatchi faoliyatini yaxlit tarzda o'rnatish yana bir qancha afzalliklarga ega:

- raqobatchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;
- raqobatchilarning avvalgi, hozirgi va kelajakdagi strategiyalarini aniqlay olish;
- korxonaning kelajakdagi strategiyalarini ishlab chiqishda raqobatchi strategiyalaridan foydalanish;
- investitsiyalarning kelajakdagi foyda keltirish darajasini aniqlash va boshqalar.

6. Assortiment siyosatini shakllantirish

Assortiment siyosatini amalga oshirish tovarning hayotiylik davri bilan bog'liq bo'lib, eng asosiy maqsadi o'z vaqtida tovarga kerakli o'zgartirishlarni kiritishdan iborat.

7. Narx siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish

Narx siyosatini ishlab chiqish marketing strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Chunki narx asosida bozor tartibga solib turiladi. Narx yordamida iste'molchining talabi shakllanadi. Marketing kompleksi elementlari orasida faqat narxgina korxonaga foydasini shakllantiradi qolgan uchta element, ya'ni tovar, sotish va rag'batlantirish bevosita xarajat bilan bog'liq. Bundan tashqari, raqobat muhitini shakllantirishda ham narx muhim o'rin tutadi, ya'ni raqobat vositasi bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, bir qancha vazifalar ham mavjud.

Meffert 1986-yilda marketing vazifalarini uchta guruhga bo'lib ko'rsatadi:

- korxonaning bozordagi faoliyati bilan bog'liq vazifalar;
- korxonaning ichki faoliyati bilan bog'liq vazifalar;
- korxonaning tashqi soha bilan amalga oshiruvchi operatsiyalari bilan bog'liq vazifalar.

2.3. Marketingning asosiy tamoyillari

Marketing tamoyillari kompaniyaning samarali marketing strategiyasini ishlab chiqishi uchun foydalanadigan marketing g'oyalari bo'lib hisoblanadi.

Marketingning eng fundamental tamoyili bo'lib iste'molchiga yo'naltirilganlik hisoblanadi hamma faoliyat inson ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Marketing strategiyasiga asoslangan holda marketingning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- marketingni boshqarish–tegishli maqsadlarga erishishda turli vazifalarni bajarish jarayonida marketingni boshqarish faoliyati;
- rejalashtirish –turli marketing dasturlarini yaratish, marketing faoliyatini uzoq, o'rta va qisqa muddatli rejalashtirish;
- bozor tadqiqotlari –korxonaning iqtisodiy sharoitlari va ta'minot imkoniyatlari;
- segmentatsiya–eng muhim bozor segmentlarini izlash va ular uchun tovarlarni yetkazib berish;
- moslashish–real va potensial talabga nisbatan moslashuv jarayoni.
- innovatsiya–yangi tovar yaratish.
- rag'batlantirish–tovarni targ'ib qilish, tovar haqidagi axborotni iste'molchilarga yetkazish. Mazkur marketing tamoyillariga qat'iy rioya qilish kompaniya tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Biznes nuqtayi nazaridan marketingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- rejalashtirilgan biznes ko'rsatkichlariga erishish;
- tovarlarni realizatsiya jarayonini samarali boshqarish;
- samarali marketing siyosati va strategiyasini tanlash;
- korxonaga maqsadlarini uning imkoniyatlar va moddiy resurslari bilan muvofiqlashtirish uchun kompleks yondashuvdan foydalanish.

Bozor faoliyati nuqtayi nazaridan marketingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tovar bozordagi holat va ishlab chiqaruvchi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, iste'molchi ehtiyojini qondirishi kerak;
- tovarlarni bozorda realizatsiya qilishda eng samarali yo'lni tanlash kerak;

- bozor ulushini oshirish yoki uzoq muddat saqlab turish;
- bozor bilan samarali muloqotni ta'minlash, barcha mavjud reklama vositalaridan samarali foydalanib, talabni faol ravishda shakllantirish.

Ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan marketingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bozor muhitidan kelib chiqqan holda tovarga doimiy yangiliklar kiritib turish; iste'molchining mahsulot sifati bo'yicha qarashlaridan kelib chiqib yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xodimlarning ijodiy tashabbuskorligini oshirish uchun kompaniyaning yangi usullarini ishlab chiqish;
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.


Tovarni sotish kanalini shakllantirish bo'yicha marketingning asosiy tamoyillari quyidagicha:

- kompaniyaning mahsulotlarini talab qilingan hajmda, oxirgi joyda foydalanuvchi uchun eng munosib joyga va belgilangan muddatda yetkazib berishni tashkil qilish;
- barqaror va ishonchli tovar tarqatish kanalini yaratish;
- har bir kanal bosqichlarida mahsulotni reklama qilish samaradorligini oshirish va nazorat qilish;
- marketing faoliyatini tahlil qilish, taqdim etilayotgan mahsulotlar va taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida hisobotlarni taqdim etish.

2.4. Marketingda taktik rejalashtirish va nazorat

Korxonada o'z faoliyatini amalga oshirishda strategik va taktik rejalashtirishdan foydalanadi. Strategik rejalashtirish odatda uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib korxonaning asosiy maqsadlariga erishishga yo'naltiriladi. Taktik rejalashtirish esa faoliyat mobaynida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish va turli vaziyatlarga oid qarorlar qabul qilishda ishlatiladi. Marketingda rejalashtirish jarayoni quyidagi chizmada ko'rsatib o'tilgan (2.4.1-chizma):

Nazorat – marketing faoliyatining yakuniy bosqichi. Bu yerda vaziyat tahlil qilinadi, agar ayrim kamchiliklar kuzatiladigan bo‘lsa, taktik va strategik rejalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishga zarurat paydo bo‘ladi.



2.4.1-chizma. Marketingni rejalashtirish

Bajariladigan vazifalarga qarab nazoratning quyidagi turlari mavjud:

- uzoq muddatli marketing strategiyasining bajarilishini monitoring qilish tanlangan strategiyaning bozorda ro‘y berayotgan haqiqiy jarayonlarga mos kelishini aniqlash maqsadida korxonaning marketing faoliyatini muntazam, har tomonlama va obyektiv tekshirish;
- taktik qisqa muddatli (yillik) marketing rejalarini nazorat qilish - belgilangan maqsadlarga erishishning joriy nazorati (sotish, bozor ulushi, tovarlarga bo‘lgan iste‘molchilarning munosabati va boshqalar);
- marketing rejalarini amalga oshirishni operativ nazorat qilish.

2.4.2-jadval.

Strategik va taktik qarorlarning o‘zaro farqlari

Strategik qarorlar	Taktik qarorlar
Umumiy yo‘nalishga daxldor	Maqsadga erishish usullarini o‘z ichiga oladi
Qayta ishlab chiqish qiyin	O‘zgartirish oson
Alternativ variantlari mavjud emas	Turli alternativ kombinatsiyalarni qo‘llash mumkin

Marketing nazorati uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning turlari, soni va darajasi batafsil nazorat maqsadlariga bog'liq. Marketing nazorati ko'rsatkichlari quyidagicha:

Oddiy (tavsiflovchi) ko'rsatkichlar, qoida tariqasida, korxonada yoki hodisalarning uzoq muddatli maqsadlarini ifodalashda, ularning miqdoriy jihatdan ifodalash qiyin (masalan, mahsulotning ekologik xavfsizligini iste'molchilar orasida mukammal tasvir yaratishda) ishlatiladi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar ko'proq qo'llaniladi va mutloq, nisbiy va indeksli ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Sifat ko'rsatkichlari miqdoriy ko'rsatkichlar umuman ishlatilmaganida (masalan, iste'molchilarni tavsiflash, ularning odatlari, imtiyozlar va boshqalar) ishlatiladi.

Universal ko'rsatkichlar korxonada faoliyatini umumiy ravishda tahlil qilishda qo'llaniladi.

Marketing nazoratining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- maqsadlarga erishish darajasini belgilash;
- yaxshilanish imkoniyatini aniqlash;
- korxonada moslashuvchanligini talab qilingan atrof-muhit o'zgarishlariga qanchalik mos kelishini aniqlash.

Marketing maqsadlari tahlili unga erishish bo'yicha asosiy vazifalarni shakllantirishga imkon beradi. X.Meffert 1986-yilda 3 ta o'zaro bog'liq marketingni kompleks vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

• talabni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan bozor faoliyatiga kiruvchi vazifalar;

- firma yoki korxonada faoliyati bilan bog'liq vazifalar;
- tashqi muhit va jamoatchilik bilan bog'liq vazifalar.

Marketing vazifalari natijasida marketing jarayonini barcha bosqichlariga mos keluvchi marketing funksiyalari shakllanadi va doimo tartibga solib boriladi.

2.5. Talabning holati va rivojlanishiga ko'ra marketing turlari¹⁴

Marketing talabni qondirishga qaratilgan faoliyat bo'libgina qolmay, balki talabga ta'sir ham qilishdir. Bu ta'sir qanday bo'lishi kerak

¹⁴ 1078. Маркетинг фаолияти истеъмолчилар талабини ўрганиш, БМИ ва МДлар бўйича тавсия қилинган 15 минг номдаги мавзулардан. Т.: ТДИУ, 2005.

yoki boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish va yangi talabni vujudga keltirish kerakmi? Marketing faoliyatining bu aniq maqsadlarini –bozorda mavjud bo'lgan vaziyatni hisobga olish bilan, xaridorlar qiziqishini tahlil qilish bilan aniqlanadi. Talab marketing maqsadini, shu bilan birga, kerakli marketing strategiyasini tanlashga imkon beradi. Bir necha talab darajasini va unga mos keluvchi bir qancha strategiyasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Quyidagi talab darajasi va unga mos keluvchi marketing strategiyasini ko'rib chiqamiz:

1. Salbiy talab. Agar xaridorlarning ko'pchilik qismi tovarni qabul qilmasa va undan qochsa, bozor salbiy talab vaziyatida bo'ladi. Marketing xizmatlarining vazifasi – nima uchun bozor tovarni qabul qilmayapti, marketing dasturi tovarlarni mukammallashtirish orqali, narxlarni pasaytirish orqali tovarga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish mumkinligini tahlil qilish va talabni yanada faol qo'llab-quvvatlashdir.

1.Mavjud bo'lmagan talab. Iste'molchilar tovar bilan qiziqmasliklari va e'tibor bermasliklari mumkin. Bu holda marketingning vazifasi – xaridorlarda ushbu tovarga nisbatan qiziqish uyg'otishdir.

2.Yashirin talab. Ko'pgina iste'molchilar bozorda mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar bilan qondirilishi mumkin bo'lmagan talabga ega bo'ladilar. Bu holda marketingning vazifasi – potensial bozor hajmini aniqlash va talabni qondirishga qodir bo'lgan samarali tovarlar yaratishdan iborat.

3. Pasayayotgan talab. Ertami-kechmi, har qanday korxonaning bir yoki bir necha tovariga bo'lgan talabning pasayishiga duch keladi. Bu sharoitda konyunkturaning pasayish sabablarini tahlil qilish lozim va yangi maqsadli bozorlar topish yo'li bilan, tovar xususiyatlarini o'zgartirish yoki yanada samarali aloqalar (kommunikatsiya) o'rnatish bilan tovar yetkazib berishni rag'batlantirish mumkinligi aniqlanadi. Bu yerda marketingning vazifasi – pasayib borayotgan talabning oldini olish uchun, tovarni taklif qilishga ijodiy yondashish lozimligini unutmastlikdir.

4.Doimiy bo'lgan talab. Ko'pchilik korxonalarda tovar yetkazib berish mavsumiy, kundalik, va hatto soatbay tebranishga ega. Bu korxonalarining asosiy fondlarini kam yoki ko'p yuklash muammosini tug'diradi. Masalan, jamoat transportining asosiy qismida «tig'iz vaqtda» yo'lovchilar haddan ziyod ko'p bo'ladi. Bu vaziyatda marketingning vazifasi – o'zgaruvchan (egiluvchan) baholar yordamida,

rag'batlantirish va boshqa ta'sir qilish usullari orqali talabning vaqt bo'yicha tebranishini tekislash yo'llarini izlashi lozim.

5.To'laqonli talab. Bu talab to'g'risida tadbirkorlar o'z savdo tushumlaridan, foydalaridan to'liq qoniqish olgan holdagina gapiradilar. Marketing vazifasi iste'molchilarning tovarni afzal ko'rishiga va raqobatning kuchayishiga qaramasdan talabning mavjud darajasini ushlab qolishga harakat qilish lozim. Bu sharoitda tovar sifatini yanada oshirish, unga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, tovarning iste'molni qondirish darajasini doimiy nazorat qilish birinchi o'ringa chiqadi.

6.Haddan tashqari yuqori bo'lgan talab. Bozordagi talabni qondirish mumkin bo'lgan darajadan talab darajasi yuqori bo'ladi. Bu holda marketingning vazifasi – talabning vaqtinchalik yoki doimiy ravishda pasaytirish yo'lini izlab topishdir. Bu vaziyatda narxlarni ko'tarish orqali, talabni qisqartirishga qaratilgan rag'batlantirishlar, servisni pasaytirish va boshqa choralar yordamida haddan tashqari yuqori bo'lgan talabni kamaytirishga harakat qilinadi. Bu vaziyatda marketingning maqsadi – talabni butunlay yo'q qilish emas, balki faqatgina uning darajasini pasaytirishdan iborat.

7. Noratsional talab. Tovarga bo'lgan talabga qarshi harakat qilish, sog'liqqa zararli tovarlarga talabni kamaytirish aniq maqsadli harakatlarni talab qiladi, sigaretlar, spirtli ichimliklarning tarqalishiga qarshi turli tadbirlar o'tkaziladi. Marketing vazifasi mahsulot zarari to'g'risida ma'lumotlar tarqatish, narxlarni ko'tarish va tovarlarga egalik qilishni cheklashlar orqali, iste'molchilarni o'z odatlaridan voz kechishga ishon-tirish.

Shunday qilib, talabning 8 holatiga to'xtalib o'tdik. Mana shu holatlarning har biriga to'g'ri keladigan marketing turlari mavjuddir.

Konversion marketing – salbiy talabni bosib o'tishga yordam beradi, ya'ni yo'q joyda talabni vujudga keltiradi, bunga ishon-tirish va tovar to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlarni inkor etish orqali erishiladi. Masalan, urushdan keyingi yillarda sotuvda, sanoatda ishlab chiqilgan mayonez paydo bo'ldi. Xaridorlar buni tezda qabul qilmadilar. Faqatgina reklama vositasi bilangina mahsulotga talab vujudga keltirildi va taklif muvozanatlashtirildi.

Rag'batlantiruvchi marketing – talabni uyg'otadi, tovarlar xaridor-ni qiziq-tirmasa va bugungi kunda o'z qiymatini yo'qotgan bo'lsa, tovar-lar noto'g'ri joylashtirilgan bo'lsa va boshqa bir necha hollarda talab

mavjud bo'lmashligi mumkin. Bunday sharoitda rag'batlantiruvchi marketingning maqsadi iste'molchi bilan tovar o'rtasida foydali o'zaro aloqa o'rnatishdan, imkoniyatlarni yaratishdan va shunday qilib, talabni yaratishdan iboratdir.

Potensial talab mavjud, uni real talabga aylantirish kerak. Bu sharoitda **rivojlanuvchi marketing** turidan foydalaniladi. Potensial talabni real talabga aylantirish uchun birinchi navbatda yangi tovarlar yaratish ustida ishlash kerak, ya'ni talabni yangi sifat darajasida qondirishga erishish kerak. Rivojlanuvchi marketing - yashirin talabni qamrab oluvchi va uni real talabga aylantiruvchidir.

Talabning pasayishi turli davrlarda har qanday tovar duch keladigan hodisa. Bu holatda **remarketing**dan foydalaniladi. Remarketingning maqsadi talabni tiklash zarurligini bildiradi, ya'ni, tushib borayotgan talabni jonlantirishdir.

Talab o'zgarib turadi, talabni barqaror tutib turish kerak. Bu holatda **sinxromarketing** turidan foydalaniladi. Sinxromarketing – tebranib turuvchi talabni nisbatan barqarorlashtirishga va uni tartibga solishga yordam beradi. Bunday talab mavsumiy va boshqa tebranishlar bilan xarakterlanadi. Buning natijasida tovar taklifi talabga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun sinxromarketingning strategiyasi talab va taklif me'yorini tekislashdan iborat.

Talab firmaning imkoniyatlariga aniq javob beradi, talabning bir tekisda bo'lishiga erishish kerak. Bu sharoitda **qo'llab-quvvatlovchi marketing** turidan foydalaniladi. Qo'llab-quvvatlovchi marketing – tovarlar va xizmatlar assortimentini to'ldirish, yangilash va narxlarni pasaytirish orqali mavjud bo'lgan talab va ehtiyoj darajasini saqlab qolishga imkon beradi. Shuningdek, bozorda tovarlarga bo'lgan talabni yuqori darajada ushlab turishga va raqobatda muvaffaqiyat qozonishga olib keladi.

Talab haddan tashqari yuqori, talabni pasaytirishga erishish lozim. Bu holatda **demarketing** turidan foydalaniladi. Demarketing maqsadi narxni ko'tarish, servisni qisqartirish yo'li bilan talabni vaqtinchalik yoki surunkasiga pasaytirishdan iborat.

Nosog'lom talab sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlarga nisbatan paydo bo'ladi. Bunda **qarama qarshi harakatlanuvchi marketing** noratsional ehtiyojlarni qondiruvchi talab va xizmatlarga bo'lgan talabni

kamaytirish yoki butunlay yo‘q qilishga xizmat qiladi. Bunga antireklama vositasida erishiladi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Marketingni funksiyalarini tushuntirib bering.
2. Marketing vazifalari nimalardan iborat?
3. Marketingni asosiy tamoyillarini tushuntirib bering
4. Bozor faoliyati nuqtayi nazaridan, marketingning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. Marketingda strategik va taktik qarorlarning o‘zaro farqlari nimada?
6. Meffert X. nechta o‘zaro bog‘liq marketingni kompleks vazifalarini ajratib ko‘rsatadi?
7. Talabning holatiga va bozorni rivojlanishiga ko‘ra, marketingni qanday turlarini bilasiz?
8. Sinxromarketing deganda nimani tushunasiz?
9. Haddan tashqari yuqori bo‘lgan talabga qanday marketing qo‘llaymiz?
10. Salbiy talabni bosib o‘tishga qanday marketing qo‘llash mumkin?

3-MODUL. MARKETING TADQIQOTLARI VA AXBOROTLAR TIZIMI

3.1. Marketing tadqiqotlari

Marketing tadqiqotlari "ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va oxirgi foydalanuvchilarni marketologlarga marketing imkoniyatlari va muammolarini aniqlash va topishda foydalaniladigan axborotlar orqali bog'lovchi; marketing faoliyatini ishlab chiqish, takomillashtirish va hisoblash; marketing samaradorligini nazorat qilish va marketingni jarayon sifatida tushunishni rivojlantirishni o'z ichiga olgan jarayonlar yoki jarayonlar majmuyidir. Marketing tadqiqotlari ushbu masalalarni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni aniqlaydi, axborot yig'ish usulini belgilaydi, ma'lumotlarni to'plash jarayonini boshqaradi va amalga oshiradi, natijalarni tahlil qiladi va ularni bayon qiladi.

Marketing tadqiqotlari ko'plab marketologlar va iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'riflanadi.

Masalan, Amerika Marketing Assotsiatsiyasi bu kategoriyani quyidagicha ifodalaydi: "Tovarlar va xizmatlarni sotish bilan bog'liq muammolar to'g'risida ma'lumotlarni muntazam yig'ish, yozish va tahlil qilish."¹⁵

Richard Krisp fikricha, "marketing tadqiqotlari - bu marketing sohasidagi har qanday muammoga tegishli faktlarni muntazam va to'liq o'rnatish va tadqiq qilishdir."¹⁶

Klark fikricha, "Marketing tadqiqotlari –bu mahsulotlar dizayni, bozorlarni, reklama va sotuvni boshqarishni obyektiv o'rnatishdir"¹⁷.

Garri Xarper "Marketing tadqiqotlari - bu mahsulotni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchiga yetkazib berish va sotish bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha marketing ishlarini boshqarish, yig'ish, ro'yxatga olish va tahlil qilish bo'yicha olib borilgan barcha tadqiqotlar natijalarini qamrab oluvchi jarayon" sifatida ta'riflaydi.¹⁸

¹⁵ *The Definition of Marketing*. American Marketing Association.

¹⁶ Richard D. Crisp. *Marketing Research*. McGraw-Hill, 1957. 798 pages.

¹⁷ Dorie Clark. *Reinventing You: Define Your Brand, Imagine Your Future*. Source: www.dorieclark.com

¹⁸ <http://www.yourarticlelibrary.com/marketing/marketing-research-meaning-definition-and-objectives-explained/25862>

Marketing mahsulotlari va xizmatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni muntazam yig'ish, yozish va tahlil qilish marketing tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing tadqiqotining maqsadi marketing aralashmasining (marketing miks) o'zgaruvchan elementlari mijozlarning xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishini aniqlash va baholashdir. Bu atama, odatda, bozor tadqiqotlari bilan bir xil tushuncha yoki sinonim so'zlar sifatida qaraladi. Biroq mutaxassislar amaliyotchilar ular o'rtasida farq borligini ta'kidlashadi, chunki bozor tadqiqotlari bozorlar bilan shug'ullanadi, marketing tadqiqotlari esa bevosita marketing jarayonlari bilan shug'ullanadi.¹⁹

Marketing tadqiqotlari odatda ikkita kategoriya juftligiga bo'linadi:

- iste'molchi marketing tadqiqotlari;
- **business-to-business** (B2B) marketing tadqiqotlari yoki muqobil ravishda, metodologik jihatdan:

- sifatli(mahsulot sifatiga oid) marketing tadqiqotlari;
- miqdoriy marketing tadqiqotlari;
- miqdoriy tadqiqot ma'lumotni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan grafiklar, jadvallar yoki diagrammalar kabi raqamli shaklda taqdim etiladi.

- sifatli tadqiqot iste'molchi idroklari haqida ma'lumot beradi, masalan:

- xaridorlar mahsulotlar va xizmatlar haqida qanday fikrda;
- iste'molchilarga nima yoqadi yoki yoqmaydi;
- yangi mahsulotdan nima kutishmoqda.

Iste'molchi marketing tadqiqotlari bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilarning afzalliklari, munosabati va xatti-harakatlarini tushunishga qaratilgan qo'llaniladigan sotsiologiyaning bir shakli bo'lib, marketing kompaniyalarining samaradorligi va qiyosiy muvaffaqiyatini tushunishga qaratilgan. 1923-yilda ACNielsen kompaniyasini ta'sis etish bilan Artur Nilsen tomonidan iste'molchi marketing tadqiqotlari sohasi statistik fan sifatida namoyon bo'ldi.²⁰

¹⁹ McDonald, Malcolm (2007), *Marketing Plans* (6th ed.), Oxford, England: Butterworth-Heinemann, ISBN 978-0-7506-8386-9

²⁰<http://www.nielsenmedia.com/nc/portal/site/Public/menuitem.d7deb7344c5a8ffe818e6c1047a062a0/?vgnnextoid=10097f5e82854010VgnVCM100000880a260aRCRD>

Marketing tadqiqotlarining kelib chiqishi va rivojlanishi Angliyaga borib taqaladi. Professor Artur Bovie 1911-yilda tasodifiy tanlov usulini qoʻllagan va "Working Class Households" deb nomlangan maqola chop etadi. Keyinchalik u "marketing tadqiqotlari otasi" sifatida tanilgan nemis prof. Wilhelm Vershofen tomonidan rivojlantiriladi.

Shunday qilib, marketing tadqiqotlari marketing muammolarini aniqlash va hal etish bilan bogʻliq qarorlar qabul qilishda boshqaruvga yordam berish maqsadida axborotni tizimli va obyektiv identifikatsiya qilish, toʻplash, tahlil qilish va joriy qilish sifatida ham tavsiflanishi mumkin.²¹ Marketing tadqiqotining maqsadi – bozor, raqobatchilar, isteʼmolchilar, mahsulot yoki xizmatlar haqida foydali maʼlumotlarga ega boʻlish va samarali boshqaruvni taʼminlashdir.

3.2. Axborot marketingning poydevori

Marketingni samarali amalga oshirish uchun korxonalar isteʼmolchilarning xohishlari va ehtiyoji, bozor talabi, raqobat, tarqatish kanallari va boshqalar haqida maʼlumotga muhtojdir. Ushbu maʼlumotlar muntazam yangilanib turishi kerak, chunki korxonalar dinamik muhitda ishlaydi:

- **texnologiyalardagi oʻzgarish** – bu oʻzgarish yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va yangi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishga yoʻl ochadi (masalan, raqamli gadjetlarning yaratilishi(book reader) bosma kitoblarga talabni kamaytiradi);

- **isteʼmolchilarning dididagi oʻzgarishlar** – baʼzi mahsulotlarga boʻlgan talab baʼzida keskin kamayadi, boshqa mahsulotlarga ehtiyoj esa oʻsadi.

- **raqobatbardosh mahsulotlarning oʻzgarishlari** – yangi raqobat mahsulotlarini joriy etish yoki narx-navo siyosatidagi oʻzgarishlar mahsulotga boʻlgan talabga sezilarli darajada taʼsir qilishi mumkin.

- **iqtisodiyotdagi oʻzgarishlar** – iqtisodiy muhitning yaxshilashishi yoki yomonlashishi milliy yoki mintaqaviy darajadagi daromadga taʼsir qiladi. Bu jarayon turli mahsulotlar turli xil tarzda taʼsir qilishi mumkin, masalan, kundalik zarur mahsulotlar va oziq-ovqat mahsulotlari.

²¹ Malhotra, Naresha K. (2002), *Basic Marketing Research: A Decision-Making Approach*, Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, ISBN 978-0-13-376856-5, . .

Kompaniyalar samarali faoliyat yuritishi uchun qanday ma'lumot kerak bo'lishi mumkin? Bu savolga quyidagicha yondashish mumkin:

- *Bizning xaridorlarimiz kimlar?*

Ular yoshmi yoki keksa; erkakmi yoki ayol; mahalliy xaridormi yoki milliy, xalqaro; ularning daromadi qanday?

- *Mijozlar bozordagi qarorlarni qanday qabul qilishadi?*

Ular mahsulot xarid qilishda qanday ma'lumotlar haqida fikr yuritishadi? Ularning qaror qabul qilishi uchun qancha vaqt ketadi? Ular mahsulotlarni o'rinbosar mahsuloti bilan solishtiradimi?

- *Bizning mahsulotimiz bozorda qanday sotilmoqda?*

Sotuv darajasi o'smoqdami / kamayaptimi yoki barqarormi? Bozor sig'imi o'sib bormoqda / qisqarmoqdami yoki barqarormi; biz kompaniyaning bozor ulushini oshiryapmizmi?

- *Raqobatchilar tomonidan yangi mahsulotlarni joriy qilmoqdami?*

Raqobatchilar tomonidan yangi taklif etilgan mahsulot narxi arzonmi yoki qimmatroq, unda qanday yangi xususiyatlar mavjud, raqobatchi kompaniya o'z mahsulotini qanday sotmoqda va targ'ib qilmoqda?

- *Bozordagi o'zgarishlarga qanday qilib muvaffaqiyatli javob bera olamiz?*

Biz yangi mahsulotlarni ishlab chiqarmoqdami yoki eski mahsulotlarni o'zgartira olamizmi? Mavjud mahsulotlarni yangi bozorlarga chiqarishimiz kerakmi? Ushbu o'zgarishlar kompaniyaning korporativ maqsadlariga mos keladimi?

Kompaniyalar o'z faoliyatida qanday hajmdagi axborotga muhtojlik sezishadi? Bu ham firma faoliyatida muhim masalalardan biri hisoblanadi va quyidagicha ifodalanadi:

- Amaliyotchi marketologlar odatda yetarli marketing axborotlarini to'plashda yoki yetarlicha aniq va ishonchli axborotga ega bo'lishda qiyinchilik sezishadi. Qaror qabul qilishda bu axborotlar juda muhim hisoblanadi, lekin amaliyotda bu jarayon quyidagicha yuz beradi:

– ko'pgina marketing qarorlari to'liq bo'lmagan va ishonchsiz ma'lumotlarga asoslanadi. Chunki barcha to'plash mumkin bo'lgan ma'lumotlar mavjud emasligi; ma'lum bir hodisa yoki jarayon bo'yicha axborot to'plashning ba'zi hollarda ko'plab xarajat yoki vaqt talab qilishidir.

Kompaniya yoki biznes tashkilotlari o'z faoliyatini samarali tashkil qilish va yuritishda zarur bo'lgan axborotlarni qay tarzda qo'lga kiritishadi?

3.3. Marketing axborot tizimi va uning xususiyatlari

Marketing axborot tizimi – marketing bo'yicha barcha masalalarda qaror qabul qiluvchiga barcha zarur ma'lumotlarni va axborotlarni taqdim etuvchi mexanizmdir; tovarlar yoki xizmatlar, narx, reklama, sotish, tanlov va boshqalar haqida muntazam axborot oqimini beradigan tizim hisoblanadi. Tashqi atrof-muhit komponentlarini tekshirish va monitoring qilishning muhim texnologiyasi marketing axborot tizimidir. Ko'pgina adabiyotlarda marketing axborot tizimi marketingning hayot qoni ham deyiladi, chunki marketing axborot tizimi turli manbalardan muhim ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va qaror qabul qiluvchiga tarqatadi.

Marketing menejerlari mijozlarning o'zgaruvchan istak va ehtiyojlarni aniqlash uchun muntazam ma'lumotga muhtojlik sezishadi. Bundan tashqari, raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlarini bilish va taqsimlash kanalini samarali amalga oshirish uchun axborot zarurdir. Haqiqatan ham, menejer nima bo'lishidan qat'iy nazar, faqat aniq va ishonchli ma'lumot yordamida samarali faoliyatini amalga oshiradi. Axborotsiz biron bir masala bo'yicha qaror qabul qila olmaydi. Shunday qilib, ratsional va samarali qaror qabul qilish uchun biznesni tashkil qilishda marketing axborot tizimi ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Faktlar, baholashlar, fikr va boshqalar marketing axborotlari tarkibiga kiradi. Bu axborotlar asosida muhim qarorlar qabul qilinadi, lekin axborot albatta to'liq, aniq va yangilangan bo'lishi kerak. Umuman olganda, biznes tashkilotlari yoki kompaniyalar marketing axborot tizimi orqali iste'molchilarning tovarning o'ziga xos xususiyati (hajmi, dizayni, turi, sifati); ma'lum vaqtdagi talab miqdori; iste'molchilar tomonidan afzal ko'rilgan mahsulot yoki xizmat narxi; iste'molchilar tomonidan tanlangan kanal taqsimoti; xaridorlarning motivlari; raqobatning mavjud darajasidagi dilerlarning xatti-harakati; hukumat siyosatining bozorga ta'siri haqida ma'lumot olishni xohlashadi. Marketing axborot tizimi muntazam ravishda amalga oshiriladigan, hech qachon to'xtab qolmaydigan jarayon hisoblanadi, chunki marketing

menejerlari uning yordami bilan rejalar, dasturlar, siyosat, strategiyalar va boshqalarni ishlab chiqishadi. Inson faoliyati, mashinalar, texnologiyalar va boshqalar shunga o'xshash narsalar marketing axborot tizimining ajralmas qismidir. Kompaniyadagi maxsus xodimlar har qanday marketing qarorlarini qabul qilish uchun muntazam ravishda marketing axborot tizimidan foydalanishadi. Turli xil olimlar va marketing mutaxassislari marketing axborot tizimi haqida turlicha ta'riflashadi:

Filipp Kotler marketing axborot tizimini quyidagicha ta'riflaydi:

"...marketing axborot tizimi – odamlar, uskunalar va jarayonlardan iborat bo'lib, marketing qaror qabul qilish uchun kerakli, o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarini saralaydi, tahlil qiladi, baholaydi va tarqatadi."²²

Uilyam Stantonning fikriga ko'ra, "Marketing axborot tizimi marketing qarorlarini qabul qilishda foydalanish uchun axborotni yaratish, tahlil qilish, tarqatish, saqlash va olish bo'yicha muntazam ravishda tashkil etiladigan jarayondir."²³

Busch va Xyustonning fikriga ko'ra, "Marketing axborot tizimi marketing qarorlarini qabul qilishda foydalanish uchun axborot manbalarini yaratish va tartibga solish uchun yaratilgan tuzilmalar, shaxslar, mashinalar va jarayonlardan iborat."²⁴

Korxonalarda axborot tizimi ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi.


Korxonada ichki axborot tizimi muayyan faoliyatining joriy xarajatlari, sotuv hajmi, ombordagi mahsulot qoldig'i, mavjud va kelishi kutilayotgan xaridorlar, ta'minlovchilar ko'lamini va boshqa marketing faoliyatiga bog'liq bo'lgan axborotning o'z vaqtida jamlanishini, qayta ishlashini va undan foydalanishni nazarda tutadi. Bu yerda muhim o'rinni axborot qay tarzda, qancha vaqt mobaynida yig'ilishi, umumlashtirilishi egallaydi. Axborot olish tezligi, sifati esa qaror qabul qilishda samarali ahamiyat kasb etadi. Demak, axborotga bo'lgan ehtiyojni o'z o'rnida va aniq belgilash hamda firma faoliyatida undan foydalanish jihlatlarini avvalroq belgilab olish lozim.

²² Kotler, P., *Marketing Management* (Millennium Edition), Custom Edition for University of Phoenix, Prentice Hall, 2000, p. 9; Quelch, J.A. and Jocz, K.E., *All Business is Local: Why Place Matters More than Ever in a Global, Virtual World*, Penguin, 2012, p. 4

²³ Stanton, William J (1984). *Fundamentals of marketing*, McGraw-Hill.

²⁴ Paul S. Busch, Michael J. Houston. *Marketing: Strategic Foundations*. R.D. Irwin, 1985. ISBN 0256028435, 9780256028430. 903 pages.

Marketing tashqi xabarnoma – axborot tizimi marketing va tijorat faoliyatiga xos bo‘lgan barcha olinadigan xabarlar, uslubiy ishlanmalar natijalaridan tashkil topadi. Kundalik matbuot (ro‘znoma va maxsus jumallar), ta‘minotchi va iste‘molchilar bilan bo‘lgan muloqot natijalari, reklama e‘lonlari va boshqalar bevosita xabarnomani olish manbai bo‘lishi mumkin. Marketing axborot tizimining asosiy xususiyatlari uzluksiz jarayon, aniqlik, ishonchlilik va to‘liqlik, barqarorlik va mavjudlik, o‘zaro bog‘liq komponentlar, to‘g‘ri vaqt va hokazolardir. Ular quyidagi 3.3.1-chizmada aniq ko‘rinadi:



3.3.1-chizma. Marketing axborot tizimining asosiy xususiyatlari

1. Uzluksiz jarayonligi. Marketing axborot tizimining muhim vazifasi to‘g‘ri qaror qabul qilish va nazorat qilish uchun zarur ma‘lumotlarni to‘plash, ularni tanlash, tahlil qilish va baholashdir. Ushbu funktsiya muntazam ravishda davom etishi sababli marketing axborot tizimi uzluksiz jarayon sanaladi.

2. Ishonchliligi va to‘liqligi, aniqlilik. Marketing axborot tizimi ratsional va tezkor qaror qabul qilish uchun aniq, ishonchli va to‘liq ma‘lumot beradi. Ma‘lumotlarning bunday turlari raqobat muhitida majburiy holga aylanadi.

3. Barqarorlik va mavjudlik. Marketing axborot tizimi tomonidan ta‘minlanadigan ma‘lumotlarning asoslari bir xil bo‘lganligi sababli axborot, odatda, doimiy va o‘zgarmas bo‘lib boradi. Axborot texnologiyalaridagi katta rivojlanishlar sabab axborot oqimidagi doimiylik va bir xillikka erishish bugungi kunda osonlashib bormoqda.

4. O‘zaro (bir-biriga) bog‘liq komponentlar. Marketing tadqiqotlari, marketing ma‘lumotlari, ichki rekordlar(hisobotlar) va axborot tahlillari marketing axborot tizimining tarkibiy qismidir. Ushbu kompo-

nentlar axborotni to'liq, ishonchli va yangilangan qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

5. To'g'ri vaqt. Qaror –oqilona va tezkor bo'lishi kerak. Qarorda tezkorlik bo'lmasa, u foydasiz, ma'nosiz bo'lib boradi. Agar bugungi to'plangan axborotlar asosida ertaga qaror qabul qilinsa, bu qaror ma'nosiz bo'lib qoladi. Marketing axborot tizimi tezkor va ratsional qaror qabul qilish uchun to'g'ri, aniq axborotni o'z vaqtida taqdim etadi.

Shunday qilib, marketing axborot tizimi bozorni kengaytirish, samarali marketing rejasi, atrof-muhitni monitoring qilish, mahsulotlar yetkazib berishda, marketing dasturini shakllantirishni va amalga oshirishni, baholashni va nazoratni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Marketing tadqiqotlari jarayonida olingan ma'lumotlar qayta ishlanishi, umumlashtirilishi kerak. Bunda 3 soha ajratiladi:

- tartibga solish;
- masshtablashtirish;
- umumlashtirish va tahlil qilish.

Ma'lumotlarni tartibga solish ma'lumotlarni kategoriya bo'yicha, ularni tahrirlash va natijalarni kodlashtirish, shuningdek ularni toifalash-tirishdan iborat. Kategoriya bo'yicha ma'lumotlarni tartibga solish oldindan berilgan shartli sinf yoki zonalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tahrirlash deganda, ishlash imkoniyati ko'rinishga ega bo'lgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish tushuniladi. Ko'rib chiqilgan materiallar ma'lumotlarini jadval ko'rinishida ko'rsatish ularni tabellashtirishni bildiradi.


Shkalalashtirish aniq o'lchamlari orqali aniqlash asosida ma'lumot-larni klassifikatsiyalashni bildiradi. Amaliyotda nominal shkala, tartibli shkala va son shkalalari qo'llaniladi.

Axborotlarni qayta ishlash uchun yozma va tahliliy uslublar ishlati-ladi. Marketingda tahliliy uslublar ichida ko'proq: trend tizimi, regres-siya va korrelatsiya uslubi, diskriminant tahlil, klaster tahlili, omillar tahlili va boshqalar qo'llaniladi.

3.4. Marketing tadqiqotlari jarayoni

Marketing tadqiqotlari jarayonini boshlash uchun quyidagi qadamlarni bajarish kerak (3.4.1-chizma):

1-qadam. Muammoni aniqlash va tavsiflash – har bir firma o‘z zimmasiga olgan vazifani bajarishda kerak bo‘lgan eng muhim qaror bo‘lib, uning maqsadi tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan muammoni aniqlashdan iboratdir. Muammo yetarli darajada aniqlangan bo‘lishi kerak, chunki u juda noaniq bo‘lsa yoki tor doirada o‘rganilgan bo‘lsa, unda aniq xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Muammoni to‘g‘ri aniqlash uchun har bir firma savollarga aniq javob berishlari kerak: Nima o‘rnatish kerak? va nima uchun tadqiqot qilish kerak (qaror qabul qilish kerak)?



3.4.1-chizma. Marketing tadqiqoti jarayonining tuzilishi

2-qadam. Tadqiqot rejasini ishlab chiqish va rivojlantirish. Ushbu bosqich tadqiqot maqsadiga talluqli axborotni to‘plashni o‘z ichiga oladi. U quyidagilardan tashkil topadi:

➤ **Ma’lumot manbalari:** tadqiqotchi tadqiqot muammosiga oid ma’lumotlarni birlamchi manbadan yoki ikkilamchi manbadan yoki har ikkala ma’lumot manbasidan to‘plashi mumkin. Asosiy manbalar – kitob yoki tadqiqot hisobotlarida mavjud bo‘lmagan dastlabki ma’lumotlar bo‘lsa, ikkilamchi ma’lumotlar kitoblarda, jurnallarda, hisobotlarda va hokazolarda topilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar hisoblanadi.

➤ **Tadqiqot yondashuvlari:** ikkilamchi ma'lumotlar kitoblar, jurnallar, hisobotlarda, internetda va hokazolarda mavjud bo'ladi. Ammo asosiy ma'lumotlarni to'plash va bajarish uchun quyidagi tadqiqotlarni o'tkazish mumkin:

- **kuzatishga oid tadqiqotlar.** Tadqiqotchi faqatgina bozorda sodir bo'lgan voqealarni kuzatib ma'lumotni to'plashi mumkingina bo'lib qolmay va ba'zida mijozlar bilan sotib olish tajribasi haqida bilish uchun do'stona suhbatlar ham o'tkazadi;

- **etnografik tadqiqotlar:** Bu kuzatish tadqiqotining shunday shakli, bunda tadqiqotchilar hech qanday bozor yoki laboratoriya sharoitida emas, balki haqiqiy hayotdagi holatini o'rganadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – odamlarning turmush tarzini (ularning turmush tarzini); ularning hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun nima qilish kerakligini, mahsulot va xizmatlarni qanday iste'mol qilish, shaxsiy va kasbiy hayotida kerak bo'lgan narsalarga ehtiyojini bilishdan iborat;

- **fokus-guruh tadqiqotlari:** Moderator tomonidan taqdim etilgan umumiy mavzuni olti nafardan o'n nafar kishi muhokama qiladigan guruhiy muhokamaning shaklidir. Moderator – guruh muhokamasini olib boruvchi va guruh dinamikasida malakali, yetarli darajada tajribaga ega bo'lgan shaxsdir. Guruh a'zolari tomonidan kerakli ma'lumot olinishi uchun moderator muhokama mavzusidan chiqib ketmaslikni va mavzu doirasida muhokama qilinishini nazorat qiladi;

- **so'rov tadqiqotlari:** Bu odatda mijozning mahsulot haqidagi bilimi, afzalliklari va qoniqish darajasi haqida bilish uchun tavsiflovchi tadqiqotdir. So'rovlarni o'tkazishning eng yaxshi usuli so'rovnomalar orqali amalga oshiriladi;

Mahsulotni ishlab chiqish va rivojlantirish jarayonida innovatsion marketing mijozlar va foydalanuvchilarni doimiy ravishda jalb qilish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bundan ko'zlangan maqsad - iste'molchilar va bozorlardan rivojlanish, yangilik va o'zgarishlar haqida ma'lumot olishdir. Konsepsiyaga ko'ra, prototip va beta-testlari ko'rinishida mahsulotni kelgusida qabul qilishni testdan o'tkazish va tajribalarni va g'oyalarni rivojlanish jarayoniga kelgusi yuksalish uchun birlashtirishdir. Innovatsiya asoslangan holda kompaniyalarning qaror qabul qilishi 5 ta bosqichdan iborat bo'ladi, agar tadqiqot jarayonidan so'ng bildirilgan takliflar yoki tavsiyalar ishonchli yoki dolzarb bo'lsa qaror qabul qilinadi va amaliyotga joriy qilinadi (4.4.2-chizma).

Innovatsion marketing mijozning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va qondirish, yangi bozorlarni ochish yoki firmaning mahsulotini yangi bozorda samarali joylashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Innovatsion marketingning boshqa marketing instrumentlaridan farq qiluvchi xususiyati bu firma tomonidan avval qo'llanilmagan metodni joriy qilishdir. Yangi marketing usuli innovatsion firma tomonidan ishlab chiqilishi yoki boshqa firmalar yoki tashkilotlar tomonidan qabul qilinishi mumkin. Yangi va mavjud mahsulotlar uchun ham innovatsion marketing usullarini joriy etish mumkin.



4.4.2-chizma. Innovatsiyaga asoslangan holda qaror qabul qilishning 5 ta bosqichi

Marketing va innovatsiyalar biznes uchun daromad keltiradi. Samarali marketing rejasi va amalga oshirilishi savdo foydasi va daromadlarning oshishiga olib keladi. Bu quyidagi o'lgangan natijalarni ko'rsatishi mumkin:

- savdo daromadlari, kompaniya foydasi va mijozlar qoniqishining davomiy o'sishi;
- korxonaning kapital xarajatlaridan ko'p bo'lgan barqaror foyda;
- investitsiyalarni qaytarish bo'yicha biznesning barqaror o'sishi;
- ishchilarni ushlab turish va ishga yollashning ko'payishi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Marketing tizimini qanday subyektlari mavjud?
2. Marketing logistikasi nechta funksiyadan iborat?
3. Tarmoqli marketing tuzilmasini tushuntirib bering.
4. Neyromarketing deganda nimani tushunasiz?
5. Benchmarketingni ma'nosini tushuntirib bering.
6. Innovatsion marketingning maqsadi nima?
7. Internet marketing menejerlarni asosiy vazifalarini sanab bering.
8. Global marketing deganda nimani tushunasiz?
9. Global marketingning afzalliklari nimalardan iborat?
10. Mahalliy marketingni mazmunini tushuntirib bering.

5-MODUL. STRATEGIK MARKETING

5.1. Marketingda strategik rejalashtirish

Korxonalar uchun rejalashtirish faoliyatning yuqori darajasini ifodalab, sotish va foyda olish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Rejalashtirishning asosiy qismi strategik rejalashtirishdan iboratdir. Strategik rejalashtirish – bu korxonani istiqbolda qurish, korxonaning iqtisodiyotda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni, rolini bilish va yangi darajaga erishish yo'llari, vositalarini ishlab chiqishdir. Strategik rejalashtirishda aniq hisoblangan ko'rsatkichlar bo'lmaydi, balki turli prognozlar asosida mo'ljallar, kelgusiga nazar tashlashdan iboratdir. Strategik rejalashtirish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Joriy strategiyani aniq bilib olish
- Mahsulot portfelini tahlil qilish
- Korxonaga strategiyasini tanlash
- Tanlangan strategiyani baholash.

Joriy strategiyani amalga oshirishini aniq bilmay turib kelajakdagi masalalarni yechish uchun yechim qabul qilib bo'lmaydi, ya'ni, tashqi va ichki omillarni e'tiborga olish zarur bo'ladi. Tashqi omillar: firma faoliyatining ko'lami va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turli-tumanlik darajasi; firmaning umumiy tavsifi va keyingi xususiyatini tiklashi va xususiy mulkning ma'lum qismini xarid qilishi; keyingi vaqtda firma faoliyatining tuzilishi va yo'nalganligi; firmaning mo'ljallangan imkoniyatlari; tashqi xavflarga munosabati.

Ichki omillar: firmaning maqsadlari; mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sarmoya kiritishning muayyan tuzilishi va ne'matlarni taqsimlash mezonlari; rahbariyat va muayyan amaliyot tomonlaridan moliyaviy tavakkallikka munosabati; ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlar sohasida kuchlarni to'plash sathi va darajasi; alohida funksional bo'linmalari (marketing, ishlab chiqarish, xodimlar, moliya, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar)ning strategiyalari.

Mahsulot portfelini tahlil qilish. Strategik rejalashtirishning muhim instrumentlaridan biri mahsulot portfelini tahlil qilish. Bu esa biznesning ba'zi qismlari bir-biriga o'ta bog'liqligini yaqqol tasvirlaydi, ba'zi mahsulot hajmi, yig'indisi oddiy qo'shib yig'indi qilib qaralgan natijadan katta farq qiladi, firma uchun mahsulotlarning alohida qismlari holatidan

ko'ra biznesning alohida qismlari muhimroq. Mahsulot portfelini tahlil qilish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi, ya'ni, firma pog'onalarini tanlash, firmaning iyerarxiyasini aniqlash, firmani o'lchamini aniqlash, mahsulot portfelini tahlil qilish matritsasining parametrlarini aniqlash zarur. Shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun sohani o'ziga jalb qila olishi, firmaning raqobatbardoshligi, firmaga xavf soluvchilar va imkoniyatlar, ne'matlar va xodimlarning malakasi kabi yo'nalishlarni o'rnatishni o'z ichiga qamrab oladi. Firmaning mahsulot portfelini joriy holati haqida tasavvurga ega bo'lish uchun mahsulot portfelining matritsasi tuziladi va tahlil qilinadi.

F.Kotler firmaning strategik rejalashtirishi haqida bunday deb yozadi: «*Firmaning maqsadlari, uning marketing sohasidagi imkoniyatlari orasidagi strategik muvofiqlikni qo'llashni boshqaruv jarayonidir. Strategik rejalashtirish firmaning aniq ifodalangan dasturiy bayonotiga, yordamchi maqsadlar va vazifalarni mo'ljallashiga, sog'lom xo'jalik portfeli va o'sish strategiyasiga tayanadi*».

Korxonani rivojlantirish rejasi strategik rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Har qanday sharoitda bajarilishi majburiy bo'lgan uzoq muddatli rejalarning ishlanmasidan mutlaqo farqli strategik rejalashtirishni yaratish va amalga oshirish lozim. Strategik reja korxonaning o'zgarishlariga sezgir va tez moslashuvchan bo'lishi kerak. Bunda xo'jalik faoliyatining bosh yo'nalishlari tahlili amalga oshiriladi va ayrim tovarlarning rentabelligi aniqlanadi. Rentabellik darajasiga ko'ra uni savdoda qoldirish yoki qoldirmaslik, jalb etish yoki jalb etmaslik qarorini qabul qilish kerak bo'ladi. Yuqori rentabellik tovarlarga ko'proq moliyaviy resurslarni safarbar etish, kam foydalilaridan chetlasha borishga qaratilgan ishlarni rejalashtiriladi. Tashkilotlarni boshqarishning eng yuqori pog'onasida strategiya bosh harakat yo'nalishi deb tushunilsa, tashkilot pog'onasida bu maqsadga aylanadi. Korxonaga strategiyasini ishlab chiqishda bozordagi holatga qarab uchta masalaga duch keladi:

- qaysi biznesni tugatish ;
- qaysi biznesni davom ettirish;
- qaysi biznesga o'tish.

M.Porter tomonidan bozorda firmaning faoliyat ko'rsatish strategiyasining uchta asosiy ishlab chiqish sohasi borligi aniqlangan. **Birinchi soha** ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq. Bunda

mahsulot tannarxi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (ishlab chiqarishni yaxshi tashkil etish va ta'minlash, yaxshi texnologiya va muhandis-konstruktorlik ishlari, mahsulotni yaxshi taqsimlash tizimi va hokozalar) yuqori saviyada amalga oshirilishi lozim. **Strategiyani ishlab chiqarishning ikkinchi sohasi** mahsulot ishlab chiqarishda ixtisoslashtirish bilan bog'liq. Bu holatda firma yuqori ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirishi kerak va o'zining mahsulotini ishlab chiqarish sohasida marketing qilishi kerak. Bu toifadagi firmalar ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun yuqori salohiyatga, ajoyib dizaynerlarga yuqori sifatli mahsulot bilan ta'minlaydigan murakkab tizimga, shular qatori rivojlangan marketing tizimiga ega bo'lishi lozim. **Strategiyani aniqlashdagi uchinchi soha** firma bozorining ma'lum segmentiga qayd qilinishi va tanlangan bozor segmentiga firma imkonini yo'naltirish zarur. Bu holatda firma hamma bozorda ishlashga harakat qilmay, ma'lum aniq segmentda ishlaydi. Bunda firma mahsulot ishlab chiqarishda ixtisoslashtirish siyosatini o'tkazish orqali xarajatni kamaytirishga intiladi.

Korxonani o'sish strategiyasi o'z ichiga korxonaning kelgusida yana qanday tovarlarni sotishni o'zlashtirishi, qaysi mahsulotlar bozoriga e'tiborni kuchaytirishi, kuch sarflashini oladi.

Korxonani o'sish strategiyasini uch bosqichdagi tahlil asosida ishlab chiqish mumkin. Birinchi bosqichda hozirgi faoliyat doirasidagi foydalanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari aniqlanadi. Bunda o'sishni jadal-lashtirish omili orqali erishiladi; tovar yoki bozorning mavjud holatida imkoniyatlarni topish va o'sishga intilish o'rin egallaydi. Imkoniyatlari turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, tovarni bozorga chuqurroq singdirish (xaridorning e'tiborini ko'proq qozonish maqsadida raqobatchiga nisbatan tovarni arzonroq sotish, sotilgan tovarlar ma'lum songa yetganida xaridorga mukofot berish bilan rag'batlantirish, shu tovarning yangi iste'molchilarini topish) yo'li bilan sotishni ko'paytirish mumkin.

Boshqa imkoniyati bozor chegarasini kengaytirish, ya'ni yangi bozorlar topish va mavjud tovari bilan ularda savdo-sotiq yuritishdan iboratdir. Navbatdagi imkoniyati tovarni takomillashtirish, ya'ni mavjud tovardan keskin farq qiladigan, sifati, iste'mol qiymati yuqori bo'lgan tovarning yaratilishi bilan bog'liqdir.

Ikkinchi bosqichida korxonalar tarmoq doirasida boshqa korxonalar bilan hamkorlikda (integratsiya) ishlashi mumkin. Bunda shu tarmoq

doirasida taqsimot tizimi qattiq nazorat qilinadi. Bunda raqobatchi firmalar ustidan doimiy nazorat olib boriladi.

Korxonaning o'sish strategiyasining uchinchi bosqichida tarmoq doirasida o'sish imkoniyatlari qolmagan bo'lsa, korxonaning mavjud turiga yaqinroq yangi yo'nalishini tanlash, o'zlashtirishdan iborat jarayon amalga oshiriladi.

Strategik rejalashtirish korxonada faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohasidagi barcha harakatlarning maqsadga muvofiq yo'nalishini aks ettiradi. So'ngra har bir yo'nalish bo'yicha batafsil rejalar tuziladi, chunki marketing konsepsiyasini qo'llaydigan korxonalar faoliyat natijalari ko'proq savdo sohasi bilan belgilanadi, rejalar orasida tovar nusxasini yaratishdan boshlab to pirovard sotishga qadar tovar harakati jarayonlarini qamraydigan marketingni rejalashtirish alohida o'rinni egallaydi.

Asosiy ko'rsatkich ma'lumotlar yig'indisi, joriy marketingga oid vaziyat bayoni, xatarlar va imkoniyatlar tafsili, vazifa va muammolar tafsili, marketing strategiyasi, harakat dasturi, byudjet va nazorat.

Strategik rejalashtirishning asosiy xususiyati umum doimiy ravishda operativ va strategik nazoratga tayanishidir. Bu esa strategiyaga tayinli davr mobaynida turli o'zgarishlarni kiritish va tashqi muhit sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

Strategik rejalashtirish jarayonida bevosita strategiyani ishlab chiqish bosqichi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Dastlabki harakat bosqichi bo'lib, firmaning istiqbolini tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu bosqichda: asosiy tashqi xavf-xatarlar, imkoniyatlar, «favqulodda» holatlarni vujudga kelish tendensiyalari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari hal etiladi.

Ikkinchi harakat bosqichida raqobatchilik kurashidagi mavqei tahlil qilinadi. Ushbu bosqichning asosiy vositasi bo'lib firma faoliyatining qaysi yo'nalishida «raqobatchilik strategiyasini takomillashtirib, firmaning yalpi ish faoliyatini yaxshilash mumkin?» degan savolga javob topiladi.

Uchinchi, eng muhim harakat bosqichi – strategiyani tanlash hisoblanadi. Bunda firmaning turli faoliyatlari bo'yicha istiqbolini qiyoslash, tanlangan strategiyani amalga oshirishda turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha resurslarni taqsimlash asosiy o'rin egallaydi.

Lekin ko'pgina hollarda firmaning mavjud imkoniyatlari kelgusi istiqbol uchun ma'qul bo'lmaydi. Buning sabablari bo'lib, firmaning ichki faoliyati doirasida yalpi strategiyani ishlab bo'lmaslik, uzoq va qisqa istiqbolda ularning mos kelmasligi yoki boshqaruvchilarining rejalashtirish ishlarida tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanlik sharoitlarini ishlab chiqish zarurati hisoblanadi.

Keyingi harakat bosqichi – diversifikatsiya yo'llarini tahlil qilish jarayoni sanaladi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi bo'lib, amaldagi faoliyatining ko'lemi, tanlovdagi kamchiliklarni va kelgusida firma uchun samarali bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash hisoblanadi.

5.2. Marketing strategiyasi tizimi

Marketing strategiyasi deganda ma'lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyilining modelidan foydalanish tushuniladi.

“Strategiya” atamasi yunoncha so'z bo'lib, “generalning san'ati” demakdir. “Strategik boshqarish” atamasi 1960-1970-yillarda yuqori pog'onada amalga oshiriladigan boshqarishni ishlab chiqarish darajasidagi boshqarishdan farqini ifodalamoq uchun kundalik hayotga kirib keldi.

Strategiyani amalga oshirish eng murakkab va uzoq vaqt mobaynida olib boriladigan jarayon bo'lib, korxonaning istiqboldagi maqsadlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi. Strategiyani amalga oshirish uni ishlab chiqishga nisbatan ancha og'ir vazifadir. Shuning uchun strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda uni tanqidiy nuqtayi nazardan baholash zarur bosqich bo'lib, bunda olib borilayotgan siyosat ko'zlangan maqsadga muvofiq kelmay qolsa, bu holat chuqur tahlil etilib, strategiyaga tegishli o'zgarishlar kiritib boriladi.

Tashqi va ichki muhitda vujudga keladigan yangi shart-sharoitlar korxonaning strategiyasini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, “Sovplastital” qo'shma korxonasi o'z faoliyatining ilk davrida faqat plastmassadan tayyorlanadigan 10 xil turdagi sun'iy gul mahsulotlarini ishlab chiqargan. Yillar davomida olib borilgan doimiy izlanish va bozorni chuqur tahlil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni o'rnatish natijasida qo'shma korxonaning plastmassa, rangli shisha, chinnidan tayyorlanadigan mahsulotlar va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda korxonaning 30 dan ortiq mamlakatlarga o'z mahsulotlarini eksport

qilmoqda. Bunga “Sovplastital” qo‘shma korxonasi bozorda yuz berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida va tezlik bilan tahlil qilib, bozorning yangi talablariga mos keladigan aniq marketing strategiyasini ishlab chiqib erishdi.

Korxonalar o‘z muvaffaqiyatini marketing strategiyasi orqali ta‘minlashga harakat qiladilar. Korxonalar tomonidan ishlab chiqiladigan marketing strategiyalarini uch darajada ko‘rib chiqish mumkin:

- korporativ;
- funksional;
- instrumental.

Korporativ strategiyalar asosan korxonalar resurslaridan bozor ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaxshiroq foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu bilan bog‘liq holda ular faoliyat hajmining kengayishi, bozor talabini qondirish, korxonalar ishchilarining tashabbusini va ijodini rag‘batlantirish, yangi faoliyat sohalari yaratish kabi masalalarni hal qilishga qaratilgan. Ya‘ni korporativ strategiya korxonani umumiy rivojlanishining yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Korporativ strategiyani amalga oshirish maqsadlari:

- bo‘limlar o‘rtasida resurslarni taqsimlashni optimallashtirish
- turli bo‘limlarning harakatlarining muvofiqligini ta‘minlash
- Kadrlar siyosati
- umumiy strategiyalar, shu jumladan biron bir bo‘linmaga tegishli bo‘lmagan vakolatlardan foydalangan holda individual biznes bo‘linmalarining umumiy strategiyada integratsiyasini ta‘minlash.

• aksiyadorlar manfaatlarini maksimal darajada hisobga olishni ta‘minlash

• diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish (ko‘plab kompaniyalar o‘sish masalasini ko‘taradilar va vaqti-vaqti bilan diversifikatsiyaga o‘tadilar; masalan, turizm va tibbiy xizmatlar bilan shug‘ullanadigan kompaniya va boshqalar)

- natijalar ustidan nazoratni ta‘minlash
- inqirozni yengib o‘tish (inqirozga qarshi strategiyani amalga oshirish kompaniyaning asosiy muammolarini hal qilish uchun qisqa vaqt ichida katta mablag ajratishni talab qiladi; bu mablag‘larni to‘plash qiyin; kompaniyalar majburan bitta sohani sotishga yoki yopishga majbur bo‘lishadi, bunday bo‘linmani sotish pul olib keladi).

Korporativ strategiyalar uch guruhga bo'linadi: portfelli strategiyalar, o'sish strategiyalari va raqobat strategiyalari.

Marketingning funksional strategiyalari korxonadan tomonidan maqsadli bozorlarni tanlash va ular uchun mos strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ular ham uch guruhdan iborat, ya'ni: bozorni segmentlash strategiyalari, mavqelashtirish va marketing kompleksi strategiyalari. Funksional strategiyalar bo'lim va xizmatlar harakatlarini korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari darajasida aniqlashtiradi. Masalan, ishlab chiqarish sohasidagi funksional strategiya yaroqsiz mahsulotni ishlab chiqarmaslik, xomashyo yo'qotishlarini kamaytirish va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

Marketingning instrumental strategiyalari korxonaga marketing kompleksi doirasida (tovar, narx, siljitish, sotish) maqsadli bozordagi marketing harakatlarining samaradorligini oshirish uchun eng yaxshilarini tanlab olishga (vujudga kelgan bozor holatini hisobga olgan holda) imkoniyat beradi. Strategiyalarni to'rt guruhga bo'lish mumkin: oziq-ovqat strategiyalari, narx strategiyalari, taqsimlash va siljitish strategiyalari.


Portfelli strategiyalar. Marketing amaliyoti «portfel»ni bir-biriga bog'liq bo'lmagan xo'jalik bo'linmalari, bir kompaniya yoki firma strategik jamlanmasi ko'rinishida ko'rib chiqadi (moliya sohasida kapitalarni joylashtirishga o'xshash holda). Bular asosida korxonaning turli faoliyat sohalarini ularning bozor ehtiyojlarini qondirish va har bir sohaga kapital qo'yilmalarni amalga oshirishdagi o'rni va roli nuqtayi nazaridan boshqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar samarali hal etiladi. O'z portfelining tahlili ko'p profilli firmaga cheklangan resurslarni turli xil tovar bozorlari o'rtasida taqsimlashga yordam berishi kerak. Korxonaning resurslarini bozor faoliyatining xo'jalik yo'nalishlarini tanlash asosida boshqarish «jozibalik – raqobatbardoshlik matritsasi» deb nomlanadigan Boston konsalting gruppasi (BKG) uslubidan foydalanish yordamida amalga oshiriladi. Bu uslub «Djeneral Elektrik» va «Makkenzi» firmalariga ham tegishlidir. BKG matritsasida ikkita mezon qo'llaniladi: o'sishning marketing imkoniyatlari – korxonaning mahsulotiga talabning o'zgarish sur'atlari ko'rsatkichlari bozorning jozibaligi indikator sifatida va ichki potensial – eng xavfli raqobatchiga nisbatan olingan bozor ulushi raqobatbardoshlik indikator sifatida (5.1.1-chizma).

Bozordagi ulush

Bozor o'sishining yuqori sur'atlari

«Yulduzlar»	«Kiyin bolalar»
«Sog'iladigan sigirlar»	«Itlar»

Bozor o'sishining past sur'atlari



5.1.1-chizma. BKG matritsasi

Bozordagi ulush eng xavfli raqobatchi yoki bozor yetakchisiga nisbatan hisoblanadi. Bunda «bozor ulushi» o'qi uchun bo'linish chizig'i «1» orqali o'tadi. Bu yerda quyidagi qoida amal qiladi: agar korxonalar ulushi raqobatchi ulushiga nisbati 1 dan kam bo'lsa, u past bo'ladi, 1 dan katta bo'lsa, u holda korxonaning ulushi baland bo'ladi. To'rtta kvadratdan har biri ham investitsiyalar, ham marketing strategiyalari nuqtayi nazaridan alohida yondashuvlarni talab etadigan bir-biridan farq qiluvchi har xil vaziyatlarni tasvirlaydi. Bu yerda quyidagi strategiyalar amal qilishi mumkin:

«Yulduz» – rivojlanayotgan tarmoqda yetakchilik qilayotgan tovar yoki tovarlar guruhining shartli belgilanishi. «Yulduz»lardan tushgan foyda juda muhimdir. Lekin, shu bilan birga keyingi o'sish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Demak, firma strategiyasining asosiy maqsadi – yetakchilikni saqlash va mustahkamlash. Buning uchun mahsulotni takomillashtirish, narxni pasaytirish, reklama tadbirlarini kuchaytirish, keng taqsimot kabilar maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Biroq tarmoq rivojlanishining sekinlashishi bilan «yulduz» «sog'iladigan sigir»ga aylanadi.

«Sog'iladigan sigir» deb odatda nisbatan yetuk, rivojlanishi barqarorlashgan va qisqaruvchi tarmoqda yetakchi o'rinni egallaydigan tovar va tovar guruhlariga aytiladi. Sotish barqaror holatda ekanligi va asosiy xarajatlar davridan o'tilgan bo'lsa, tabiiyki, sotishdan kelgan foyda hali ham uning bozordagi ulushini saqlab turish uchun zarur bo'lganidan ortiq bo'ladi va boshqa assortiment guruhlari yoki alohida tovarlarni rivojlantirish va saqlab turish uchun ishlatiladi. Bunday sharoitlarda

firma maksimal foyda olishga intiladi, erishish vositalari esa odatda sotish kanallarini ta'minlab turish, «eslatuvchi reklama», narxdan chegir-malar, takroriy xaridlarni rag'batlantirish hisoblanadi.

«Qiyin bola» (boshqacha nomi – «so'roq belgisi») – bu tez rivojlanuvchi tarmoqda ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobati va iste'molchilarning uncha ko'p bo'lmagan ko'magi sharoitlarida tovar yoki tovar guruhlari. Bozor ulushi katta emas. Firmaning vazifasi investitsiyalash manbalarini topish va tanlangan yo'nalish doirasida rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Strategiyaning yangi sotish kanallarini topish, tovarni siljitishga xarajatlarning kengayishi, narxni pasaytirish kabi variantlari samarali, bozordan chiqib ketish varianti ham bo'lishi mumkin.

«It» – bu qisqarayotgan bozorda juda kichik ulushdagi tovar yoki tovarlar guruhi. «It» sifatida ko'pincha iste'molchilar tomonidan tan olinmagan tovarlar, yoki raqobatchilar tovaridan ancha orqada bo'lgan tovarlar, yoki ko'p xarajat talab etuvchi va o'sish imkoniyatlari kam bo'lgan tovarlar namoyon bo'ladi. Strategik qarorlarning variantlari: narxning pasayishi va xizmat ko'rsatish hajmining kamayishi, sodalashtirish yo'li bilan foyda olish, bozordan chiqib ketish.

BKG usuli bo'yicha tahlil qilish yagona portfel tarkibida korxonaning o'rmini aniqlash, istiqbolli strategiyalarni prognozlashga imkoniyat beradi. Tez o'suvchi yo'nalishlar investitsiyalarga ehtiyoj sezadi, sekin o'suvchilari esa ortiqcha mablag'larga ega bo'ladi.

Sotishlar hajmi va foyda summasi bo'yicha deyarli har bir yo'nalishning ulushini hisoblash mumkin. Shu bilan bir qatorda matritsani qo'llash ma'lum darajada cheklangan, chunki u faqatgina barqaror sharoitlar va ko'rsatkichlarning cheklangan doirasi bo'yicha natija berishi mumkin.

5.3. O'sish strategiyalarini ishlab chiqish

Bozorlarni jozibadorligini oshirishda olimlar matritsalaridan keng foydalanganlar. Dji-I-Makkenzi matritsasi. Bu ko'p o'lchamli matritsa bo'lib (bozorning «jozibaligi» korxonaning strategik vaziyati), bozorning jozibaligi darajalariga bog'liq holda korxona potensialidan samarali foydalanish bo'yicha ko'proq differensiallangan marketing qarorlarini qabul qilish imkonini beradi (5.1.2-chizma).

Strategik vaziyat

	Kuchli	Kuchsiz
Yuqori	«Optimallashtirish»	«Kuchaytirish yoki ushlab qolish»
Bozorning jozibaligi		
Past	«To'liq foyda chiqarib olmoq»	«Ketish»

5.1.2-chizma. Dji-I-Makkenzi matritsasi

BKGdan farqli ravishda bu matritsa baholashda qatnashadigan omillar sonini ancha ko'paytiradi va barqaror bo'lmagan rivojlanish sharoitlarida uni qo'llash imkonini yaratadi. «Bozor jozibaligi» ko'rsatkichi quyidagi omillar kompleksi bilan ifodalanadi:

- bozor o'lchamlari va uning o'sishi shartlari;
- narxlar darajasi;
- foyda me'yori;
- raqobat holati;
- bozorga chiqish uchun to'siqlar;
- huquqiy cheklovlar;
- ijtimoiy roli va boshqalar.

«Strategik vaziyat» ko'rsatkichi (raqobatli vaziyat, ichki potensial), shuningdek, turli xil omillar (sof daromad, moliyaviy ahvol, sotilishlarning samaradorligi, narxning raqobatbardoshligi, korxonada madaniyati, boshqarish uslubi, korxonada imkoniyatlari va boshqalar) yordamida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarni baholash korxonaning investitsiya, bozor holatini, shuningdek, uning potentsiali ahvolini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsion vaziyat korxonada o'sishini ta'minlash uchun investitsiyalarning real va optimal kattaliklarining nisbati sifatida aniqlanadi.

Bozordagi vaziyat amaldagi bozor strategiyasining bozorda yetakchilikka erishish va potensial iste'molchilarning ixloslari nuqtayi nazaridan optimal strategiyaga nisbati bilan baholanadi.

Korxonada potentsialining ahvolini uning real ahvolining ishlab chiqarish, xodimlar, moliya va marketingni samarali boshqarishga erishish nuqtayi nazaridan optimal holatiga nisbati bilan belgilaydilar. Ko'rsatilgan uchta ko'rsatkichdan har biri birga teng bo'lsa, korxonada bozorda

yuqori strategik holatga ega bo'ladi. Ko'rsatkichlardan birortasi nolga teng bo'lsa, korxonaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kamayadi.

O'sish strategiyalari bozor talablariga yaxshiroq javob berishi uchun korxonaga qaysi yo'nalishda rivojlanish kerakligini, shuningdek, buning uchun o'z resurslari yetarli yoki chetdan jalb qilish va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish kerakligini aniqlaydi.

O'sishni boshqarishni Ansoff matritsasi asosida amalga oshirish mumkin. Bu matritsa mahsulotlarni sotish istiqbollarinin noaniqlik darajasiga yoki mazkur mahsulotning mazkur bozorga kirish imkoniyatlariga bog'liq holda mahsulot va bozorlarni tasniflash uchun qurol hisoblanadi.

U yoki bu strategiyaning marketing jihatidan jozibaligi Ansoff matritsasi bo'yicha sotilishlar kattaligi va kutiladigan xavf-xatar darajasi bilan aniqlanadi (5.1.3-chizma).

		<i>Mahsulot</i>	
		Mavjud tovarlar	Yangi tovarlar
Mavjud bozorlar	BOZORLAR	«Bozorga kirish»	«Mahsulotning rivojlanishi»
	Yangi bozorlar	«Bozorning rivojlanishi»	«Diversifikatsiya»

5.1.3-chizma. Ansoff matritsasi

Sotilishlarning potensial hajmi mazkur bozor segmentining sig'imi bilan, xavf-xatar darajasi esa (% ifodasida) ekspert yo'li bilan belgilanadi. Olingan ko'rsatkichlar mazkur strategiyani amalga oshirish uchun kutiladigan xarajatlar kattaligi bilan ham solishtiriladi. Shunday qilib, o'sish strategiyasi muhim bo'ladi, agar korxonaga bozordagi o'zining tovarlari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlaridan to'liq foydalanmagan bo'lsa. Korxonaning marketing urinishlari har bir strategik kvadrantning yo'nalishini shartlab qo'yadi. Xususan, bozorga kirish strategiyasi, qoida bo'yicha, an'anaviy xaridorlar bilan tovarlarni rag'batlantirish, bozor ulushini ko'paytirish, raqobatchilardan xaridorlarni yoki yangi iste'molchilarni jalb qilish.

Bozorni rivojlanish strategiyasi – bu, asosan, yangi iste'molchi segmentlarga, yangi hududiy bozorlarga va yangi sotish tarmoqlariga chiqish.

Mahsulotni rivojlanish strategiyasi yaxshilangan yoki yangi tovarlarni tayyorlash (innovatsiya, yangi marka, assortiment modifikatsiyasi, mahsulot parametrlarini yaxshilash, instrumental va emotsional tavsiflarni rivojlantirish) hisobiga sotuv o'sishiga yo'naltirilgan.

Diversifikatsiya strategiyasi yangi bozorlar uchun mo'ljallangan yangi mahsulotlar bilan bog'liq. Albatta, bu strategiya qiyin va xatarli, chunki u korxonani yangi sohalarga olib chiqadi. Ularning muvaffaqiyati uchun yirik kadr va moliya resurslarini jalb qilish talab etiladi.

Raqobatchilar strategiyasi. Korxonaga potensial iste'molchilar va bir vaqtda asosiy raqobatchilarga nisbatan siyosatni ko'proq jalb qilish mavqeidan bozordagi ustunlikni shakllantiradi. Bu yerda, eng avvalo, raqobat tahlili asosida ma'lum jarayon o'rganiladi va korxonaga o'zining ham, bozordagi raqobatchilarga ham raqobat ustunligiga baho berish zaruriyati paydo bo'ladi. O'z navbatida, **raqobat ustunligi** raqobatchilarga nisbatan ma'lum ustunliklarni yaratuvchi korxonaning bozor faoliyati tavsifini ifodalaydi. Raqobat ustunligini yaratish raqobatchilarning mos harakatlari ustidan ustunlikni ta'minlovchi tovar, narx, taqsimlash, rag'batlantirish sohasida marketing kompleksini tayyorlash bilan bog'liq.

Raqobat strategiyasining marketing ma'nosi shundan iboratki, ular korxonaga tomonidan bozorning ma'lum ulushini ushlab qolishga (bozorning alohida segmentini) yoki uning ko'payishiga ko'maklashadi. Buning uchun quyidagi model va matritsalar ishlatiladi: umumiy raqobatchi matritsa, raqobat kuchi modeli, raqobat ustunligi matritsasi va raqobatchi reaksiyasi modeli.

Umumiy raqobatchi matritsa. Amerikalik tadqiqotchi M.Porterning umumiy raqobatchi matritsasi shundan kelib chiqadiki, korxonaning bozordagi raqobat ustunligi uchta asosiy yo'l bilan ta'minlanadi (5.1.4-chizma).

Xarajatlar pasayishi Mahsulot differentsiallasuvi

Keng

«narx yetakchiligi»

«mahsulot yetakchiligi»

Raqobat sohasi

«bo'shliqdagi yetakchilik»

Tor

5.1.4-chizma. Umumiy raqobatchi matritsa

Narx yetakchiligi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish mumkinligiga asoslanadi. Bu yerda asosiy bo'lib xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish, mukammal texnologiyalarni kiritish, investitsiyalar barqarorligi, standartlashtirilgan tovarlarni ishlab chiqarish hisoblanadi. Narx – bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biri. Shuningdek, u ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulot yetakchiligi tovarlar differentsiatsiyasi mumkinligi bilan ta'minlanadi. Asosiy o'rinni tovarni mukammallashtirish, markali mahsulotni rivojlantirish, servis, dizayn, imijni tashkil etish va boshqalar bilan bog'liq jarayonlar egallaydi. Iste'molchilar uchun tovar qadrining oshishi iste'molchining kerakli tovar uchun yuqoriroq narx berish tayyorligiga olib keladi. Shunday qilib, bu yerda hukmron rolini marketing o'ynaydi.

Bo'shliqda yetakchilik narx yoki mahsulot ustunligini bozorning torroq segmentlarida ishlatishni bildiradi. Shu bilan birga korxonada tomonidan tanlangan segment kuchliroq raqobatchilar e'tiborini o'ziga tortmasligi kerak. Ma'lum darajada bu amaliyot asosan korxonada tomonidan iste'molchilarning tor guruhini ajratish uchun qo'llanilishi mumkin.

Korxonaning raqobat ustunligi matritsasi quyidagi matritsada keltirilgan strategiyalar bilan ifodalangan bo'lishi mumkin (5.1.5-chizma).

Bozordagi holat	Oldindan harakat qiluvchi strategiyalar	Passiv strategiyalar
Bozor yetakchilari	«Ishg'ol qilish» «Himoya»	«Tutib olish» «Blokash»
Bozor yetakchilarini ta'qib qiluvchilar	«Hujum» «Kurs bo'yicha yorib o'tish»	«Kurs bo'yicha bo'ylab borish» «Qurshab olish»
To'g'ri raqobatchilikdan qochmoq	«Maydonlarda kuchlarni to'plash»	«Holatlarni saqlash» «Aylanib o'tish»

5.1.5-chizma. Raqobatchilar ustunligi matritsasi

Korxonaning harakatlar tavsifi va bozordagi egallagan o'rni u yoki bu strategiyani tanlashni oldindan belgilaydi. Shunday qilib, ko'pgina raqobatchilar uchun «sanash nuqtasi» sifatida bozorda ustun o'rinni egallovchi **bozor yetakchisi** xizmat qiladi. Bozordagi vaziyatdan qanoatlangan korxonalar, odatda, to'g'ri raqobatdan qochadilar. Biroq, raqobatchi ustunliklari yig'ilishi bilan yetakchiga ochiqdan ochiq qarshi chiqqa oladigan va hujum qila oladigan korxonalar yetakchilarni ta'qib qiluvchilarga aylanadilar.

Oldindan harakat qiluvchi strategiyalarni (aktiv) yoki passiv turlarni tanlash, asosan, korxonaning bozordagi holatiga bog'liq bo'ladi.

«**Bozorni ishg'ol qilish**» – bu strategiya narxli yoki mahsulotli yetakchilikni qo'llash, yangi iste'molchilarni izlash, iste'mol intensivligini oshirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

«**Bozorni himoyalash**» – korxonaning faoliyat sohasida «vafodor» iste'molchilarni servis xizmati, reklama vositalarini samarali ishlatish, rag'batlantirish yordami bilan ushlab qolishga intilish.

«**Tutib olish**» – qabul qilingan zarur choralarni harakat samarasini pasaytirish maqsadida raqobatchi ta'qibchilarning yangi kiritishlariga javob harakatlar.

«**Bozorni bloklash**» – raqobatchi ta'qibchilar tomonidan marketing-miksni (tovar, narx, siljitish, taqsimlash) ishlatish borasida biror ustunlikka erishish imkoniyatiga yo'l qo'ymaslik.

«**Hujum**» («ro'paradan qilingan hujum») – raqobatchining o'zi qo'llagan vositalari bilan raqiblarga ta'sir qilishdan iborat. Muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ro'paradan qilingan hujum, hujum qiluvchidan yirik kuch ustunligini talab qiladi (harbiy strategiyaga nisbatan analog bo'yicha bu munosabat 3:1 ga teng deb qabul qilingan).

«**O'pirish**» («yon tomondan yorib o'tish») – yetakchi bilan uning zaif joylari ko'rinuvchi strategik yo'nalishda olib boriladigan kurashni nazarda tutadi. Bu strategiyadagi klassik yondashuv – narx orqali hujum qilish, ya'ni o'sha tovarlarni pastroq narxlarda taklif etish.

«**Kurs bo'yicha borish**» – o'zining yechimlarini raqiblar yechimi bilan moslashtirgan, ko'nikuv xatti-harakatni tanlagan, bozorning katta bo'lmagan qismida faoliyat olib boruvchi raqobatchining strategiyasidir. Bunday firmalar «tinch birga yashash» va bozorni oldindan belgilab o'ylab bo'lib olish maqsadini ko'zlaydilar.

«**O'rab olish**» – yetakchining zaif joylarini bilib olish asosida mos

ustunlikni jamlab, shu bilan raqobatchining turli tomonlaridan o'tishga shart-sharoit yaratish.

«Manfaatli maydonlarga kuchlarni to'plash» – faoliyat hajmi katta bo'lmagan firma o'zining xabardorligini yaxshiroq ro'yobga chiqarishi yoki asosiy raqobatchilar bilan to'qnashuvdan saqlanib qolishi mumkin.

«O'rinni saqlash» – raqobatchilarning e'tiborini olmagan bozor faoliyatida doimiylikni saqlash.

«Aylanib chiqish» – raqobatchilar bilan to'g'ri to'qnashuvdan saqlanish. Shu bilan birga firma raqobatga chidamagan tovarlarni ishlab chiqarib servis xizmatlarini yaxshilamay, raqobatchilar nuqtayi nazari-dan jozibasiz bo'lgan sotish kanallari va rag'batlantirishdan foydalanish va boshqalar.

Marketingning funksional strategiyasiga birinchi navbatda maqsadli bozor strategiyasi, segmentatsiya va mavqelashtirish kiradi. **Maqsadli bozor** – bu aniq bozor, unda firma marketing imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarish uchun o'zining faoliyatini tashkil etadi. Maqsadli bozorlarni aniqlash jarayoni amaliy marketingda eng mas'uliyatli payt hisoblanadi. Bu yerda uchta yondashish aniqlangan: ommaviy, differensiallashgan va konsentrlashgan.

Ommaviy marketing hamma iste'molchilarning umumiy ehti-yojarini afzal ko'rgan holda butun bozor ahvolidan xabardorlikni uyushtiradi va bu borada kuchini ommaviy talabli bo'lgan tovarlar sotish hajmini ko'paytirishga qaratadi. Bu yerda potensial iste'molchilarning ahamiyatli sonini jalb qilishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqiladi. Chuqur marketing izlanishlarini olib borish zarurati yo'qolgani sababli marketingga bo'lgan xarajatlar ham nisbatan kam bo'ladi.

Differensiallashgan marketing ayrim segmentlarda, ayrim vaqtda har xil talablar va tavsiflarga ega bo'lgan ularning majmualarida qo'llaniladi. Bu yerda iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirish, bozordagi o'rinni kelajakda mustahkamlash maqsadida korxonada tomonidan turli iste'molchilar guruhining ehtiyojarini chuqurroq o'rnatishga to'g'ri keladi, ya'ni chuqur marketing izlanishlarini olib borish, ayniqsa tovar assortimentini kengaytirish, reklama faoliyati, rag'batlantirish va sotish yo'nalishlarida. Bularning hammasi marketingga sarflangan xarajatlarni ko'paytiradi.

Konsentrlashgan marketing alohida iste'molchilar guruhlarining

(segmentlarining) o'ziga xos talablarini hisobga oladi, ularga maksimal ravishda moslashadi, yangi iste'molchilarni jalb qilish maqsadida bozorga kirib borishi davom etadi. Korxonaning vazifasi mahsulot sotilishini maksimalashtirish emas, balki barqarorlik, doimiy xarajatlar, bozor ulushining yetarliligi va iste'molchilarning e'tiborini qozonishga erishishdan iborat. Hozirgi industrial jamiyatda iste'molchilar «o'rtacha» xaridorga mo'ljallangan tovarlar bilan qoniqib qolmaydi, shuning uchun firmalar ommaviy va differensiallashgan marketing usullaridan tobora ko'proq konsentrlashgan marketing texnikasiga o'tmoqdalar.

Har qanday boshqa biznes faoliyati singari, rejalashtirishni boshqarish va ish faoliyatini yaxshilash uchun umumiy strategiya kerak. Bugungi kunda raqamli marketing strategiyasini qo'llash juda muhimdir. Uning yordami bilan siz yakuniy maqsadni hisobga olgan holda tanlov qilishingiz mumkin. Bu, ayniqsa raqamli marketing sohasida juda muhimdir, chunki bu sohada ko'plab sohalar mavjud. Raqamli marketing strategiyasi hatto qo'rqinchli ko'rinishi mumkin. Ammo bu kompaniyalarga o'zlarining brendlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Internetda ko'p vaqt sarflaydigan mijozlarga faol ravishda yetkazish uchun haqiqiy imkoniyat beradi. Raqamli marketingning bir qancha turlari mavjud:

- kontent marketing;
- elektron pochta marketingi;
- qidiruv tizimi marketingi (search engine marketing (SEM));
- qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO);
- kontekstli reklama;
- ijtimoiy media marketing;
- hamkorlik marketing.

Raqamli marketing strategiyasining asosiy maqsadi barcha elementlarni yagona rejaga birlashtirib, sizga vaqt, pul va kuch sarflaydi. Raqamli marketing strategiyasini tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Auditoriyani o'rganish, yani marketing faoliyati to'plamini ishlab chiqishdan oldin, siz kimga murojaat qilishni bilishingiz kerak. Shuning uchun, sizning birinchi qadamingiz auditoriyani o'rganishdir. Buning ko'p usullari mavjud, ammo eng ommabop va samarali usullar quyidagilardan iborat:

ustunlikni jamlab, shu bilan raqobatchining turli tomonlaridan o'tishga shart-sharoit yaratish.

«*Manfaatli maydonlarga kuchlarni to'plash*» – faoliyat hajmi katta bo'lmagan firma o'zining xabardorligini yaxshiroq ro'yobga chiqarishi yoki asosiy raqobatchilar bilan to'qnashuvdan saqlanib qolishi mumkin.

«*O'rinni saqlash*» – raqobatchilarning e'tiborini olmagan bozor faoliyatida doimiylikni saqlash.

«*Aylanib chiqish*» – raqobatchilar bilan to'g'ri to'qnashuvdan saqlanish. Shu bilan birga firma raqobatga chidamagan tovarlarni ishlab chiqarib servis xizmatlarini yaxshilamay, raqobatchilar nuqtayi nazaridan jozibasiz bo'lgan sotish kanallari va rag'batlantirishdan foydalanish va boshqalar.

Marketingning funksional strategiyasiga birinchi navbatda maqsadli bozor strategiyasi, segmentatsiya va mavqelashtirish kiradi. **Maqsadli bozor** – bu aniq bozor, unda firma marketing imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarish uchun o'zining faoliyatini tashkil etadi. Maqsadli bozorlarni aniqlash jarayoni amaliy marketingda eng mas'uliyatli payt hisoblanadi. Bu yerda uchta yondashish aniqlangan: ommaviy, differensiallashgan va konsentrlashgan.

Ommaviy marketing hamma iste'molchilarning umumiy ehtiyojlarini afzal ko'rgan holda butun bozor ahvolidan xabardorlikni uyushtiradi va bu borada kuchini ommaviy talabli bo'lgan tovarlar sotish hajmini ko'paytirishga qaratadi. Bu yerda potensial iste'molchilarning ahamiyatli sonini jalb qilishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqiladi. Chuqur marketing izlanishlarini olib borish zarurati yo'qolgani sababli marketingga bo'lgan xarajatlar ham nisbatan kam bo'ladi.

Differensiallashgan marketing ayrim segmentlarda, ayrim vaqtda har xil talablar va tavsiflarga ega bo'lgan ularning majmualarida qo'llaniladi. Bu yerda iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirish, bozordagi o'rinni kelajakda mustahkamlash maqsadida korxonalar tomonidan turli iste'molchilar guruhining ehtiyojlarini chuqurroq o'rnatishga to'g'ri keladi, ya'ni chuqur marketing izlanishlarini olib borish, ayniqsa tovar assortimentini kengaytirish, reklama faoliyati, rag'batlantirish va sotish yo'nalishlarida. Bularning hammasi marketingga sarflangan xarajatlarni ko'paytiradi.

Konsentrlashgan marketing alohida iste'molchilar guruhlarining

(segmentlarining) o'ziga xos talablarini hisobga oladi, ularga maksimal ravishda moslashadi, yangi iste'molchilarni jalb qilish maqsadida bozorga kirib borishi davom etadi. Korxonaning vazifasi mahsulot sotilishini maksimallashtirish emas, balki barqarorlik, doimiy xarajatlar, bozor ulushining yetarliligi va iste'molchilarning e'tiborini qozonishga erishishdan iborat. Hozirgi industrial jamiyatda iste'molchilar «o'rtacha» xaridorga mo'ljallangan tovarlar bilan qoniqib qolmaydi, shuning uchun firmalar ommaviy va differensiallashgan marketing usullaridan tobora ko'proq konsentrlashgan marketing texnikasiga o'tmoqdalar.

Har qanday boshqa biznes faoliyati singari, rejalashtirishni boshqarish va ish faoliyatini yaxshilash uchun umumiy strategiya kerak. Bugungi kunda raqamli marketing strategiyasini qo'llash juda muhimdir. Uning yordami bilan siz yakuniy maqsadni hisobga olgan holda tanlov qilishingiz mumkin. Bu, ayniqsa raqamli marketing sohasida juda muhimdir, chunki bu sohada ko'plab sohalar mavjud. Raqamli marketing strategiyasi hatto qo'rqinchli ko'rinishi mumkin. Ammo bu kompaniyalarga o'zlarining brendlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Internetda ko'p vaqt sarflaydigan mijozlarga faol ravishda yetkazish uchun haqiqiy imkoniyat beradi. Raqamli marketingning bir qancha turlari mavjud:

- kontent marketing;
- elektron pochta marketingi;
- qidiruv tizimi marketingi (search engine marketing (SEM));
- qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO);
- kontekstli reklama;
- ijtimoiy media marketing;
- hamkorlik marketing.

Raqamli marketing strategiyasining asosiy maqsadi barcha elementlarni yagona rejaga birlashtirib, sizga vaqt, pul va kuch sarflaydi. Raqamli marketing strategiyasini tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Auditoriyani o'rganish, yani marketing faoliyati to'plamini ishlab chiqishdan oldin, siz kimga murojaat qilishni bilishingiz kerak. Shuning uchun, sizning birinchi qadamingiz auditoriyani o'rganishdir. Buning ko'p usullari mavjud, ammo eng ommabop va samarali usullar quyidagilardan iborat:

- tahlil (veb-saytingizda, elektron pochta marketing platformasida va ijtimoiy tarmoqda);
- anketalar va fikrlar shakllari;
- savdo va mijozlarni qo'llab-quvvatlash xodimlari bilan muhokamalar.

Ushbu uchta usul sizga mijozlaringiz kim ekanligi, qanday maqsadlarni ko'zlayotganlari, ular qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani va sizning kompaniyangiz ularga qanday yordam berishi mumkinligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni beradi. Ushbu ma'lumotlar bilan qurollanib, siz xaridorlarning turli xil profillarini yaratishingiz mumkin, shunda siz auditoriyangiz qanday maqsadlarga erishmoqchi ekanligini bilib olasiz va shunga mos ravishda o'z maqsadlaringizga yo'naltirishingiz mumkin.

2. Sizning raqamli marketing strategiyangiz "kompaniyani reklama qilish" yoki "auditoriyangizni ko'paytirishdan ko'ra katta maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak. Marketing maqsadlarini belgilashning eng yaxshi usullaridan biri bu SMART-dan foydalanish zarur:

- Specific – aniq;
- Measurable - o'lchanadigan;
- Attainable - erishish mumkin;
- Relevant – taqqoslanadigan;
- Time-bound – vaqt bo'yicha cheklangan.

SMART raqamli marketing maqsadi quyidagicha ko'rinishi mumkin:

Bizning veb-saytlarimizni ommalashtirish uchun yetarli auditoriyaga ega bo'lish uchun pochta orqali ro'yxatimizni obunachilar sonini har kvartalda 2 ming nafarga ko'paytiring. Agar siz alternativ usulni ishlatmoqchi bo'lsangiz, marketing natijalaringizni oshirish uchun maqsadlar va asosiy natijalar metodologiyasidan foydalanishingiz mumkin.

3. Strategiyani ishlab chiqish juda qiyin vazifadir va har safar noldan hamma narsani qilayotganday tuyulishi mumkin, ammo bu unchalik to'g'ri emas. Buni amalga oshirish uchun qaysi holatlarda kerakli natijalarga erishganingizni va qaysi holatlarda erishmaganingizni tushunish uchun avvalgi harakatlaringizni tahlil qilish kerak bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi chizmalardan tortib tanqidiy ma'lumotlarga qadar barcha materiallarni monitoring qilish kerak. Masalan, avvalgi

blog postidagi iqtiboslardan Instagramda chizma sifatida foydalanish mumkin.

4. Barcha asosiy fikrlarni yaxshilab o‘ylab ko‘ring. Sizning ijodiy tasavvuringiz qanchalik baland bo‘lishidan qat’i nazar, har doim hal qilib bo‘lmaydigan vaziyatlar ko‘p, ular bilan hisoblashish kerak. Strategiyani ishlab chiqish orzular bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Aksincha, mavjud cheklovlar bilan nimaga erishishingiz mumkinligini tushunishga urinishdir. Raqamli marketing instituti "sizning manbalaringizni aniqlash"da quyidagi omillarni hisobga oladi:

- Raqamli marketingga qancha pul sarflashingiz mumkin?
- Natija uchun kim javobgar?
- Ba’zi vazifalar yoki majburiyatlarni subpudratchilarga yetkazishga majbur bo‘lasizmi?
- Qanday marketing kanallaridan foydalanasiz va har bir kanal bilan qanday maqsad bog‘liq?

Ushbu asosiy elementlarni oldindan aniqlab olish kerak, shunda siz har qanday cheklovlarga qaramay muvaffaqiyatli bo‘ladigan strategiyani ishlab chiqishingiz mumkin.

5. Agar sizda barcha asosiy elementlar mavjud bo‘lsa – auditoriyangiz, maqsadlaringiz va manbalaringiz - ularni yagona raqamli marketing strategiyasi shabloniga birlashtirish vaqti kelgan bo‘ladi. Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi, siz ham sinov va xatolardan o‘tasiz! Raqamli marketingning qaysi sohasi eng yaxshi natijalarni beradi? Taniqli brendlar ushbu savolga bitta javob yo‘qligini isbotladilar. Ya’ni, hammasi rejalaringizni qanday amalga oshirishingizga bog‘liq.

Kontent marketing namunasi: Buffer – 2016-yil 16-iyun kuni ijtimoiy tarmoqlarda postlarni joylashtirish uchun xuddi shu nomdagi xizmatni rivojlantiradigan Amerikaning Buffer kompaniyasi. Buffer "dunyodagi eng ochiq kompaniya" deb nomlangan - uning rahbarlari birinchilardan bo‘lib barcha xodimlarning oylik maoshlarini oshkor qilish amaliyotini joriy etishgan va jamoaning barcha a’zolari dunyoning istalgan joyida ishlashlari mumkin. Kontent marketingi haqida gap ketganda, eng ommabop ijtimoiy media post-rejalashtiruvchisi Bufferni eslamaslik qiyin. Ushbu xizmatni yaratgan kompaniya ko‘pincha kontent marketingidan "to‘g‘ri" foydalangan. Dastlab kompaniya rahbarlari birinchi navbatda mehmon nashrlariga tayanib ish tutishdi. Ular yaratgan tarkib turli xil saytlarga joylashtirildi, chunki ular uni

taniqli bo'lishni xohlashdi. Buffer asoschilaridan birining ta'kidlashicha, ushbu strategiya ularga birinchi 100000 mijozlariga erishishga yordam bergan.

Biroq, ular o'zlarining saytlariga e'tibor bermaslikdan norozi edilar. Ammo keyingi yillarda kompaniya o'z bloglarida yuqori sifatli materiallarni joylashtirish orqali ushbu sohada obro'-e'tibor qozondi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Strategik rejalashtirishning maqsadi nimadan iborat?
2. Korporativ strategiya mazmunini izohlab bering.
3. Strategik rejalashtirish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
4. Korxonada tomonidan ishlab chiqiladigan marketing strategiyalari nechta darajada amalga oshsa optimal bo'ladi?
5. Ansof matritsasiga izoh bering.
6. Umumiy raqobatchi matritsasini tushuntirib bering.
7. Bozorni bloklash deganda nimani tushunasiz?
8. Differensiallashgan marketing deganda nimani tushunasiz?
9. Raqobatchilar ustunligi matritsasini izohlab bering.
10. Marketingning funksional strategiyalari nechta guruhdan iborat?

6-MODUL. TALABNI QONDIRISHNI TADQIQ ETISH VA PROGNOZ QILISH

6.1. Talab tushunchasi, uning turlari, talabga ta'sir etuvchi omillar


Ehtiyojning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ko'rinishi va amal qilishi talabdir. Lekin talab ehtiyojdan farq qiladi va mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Uning farqi shundan iboratki, kishilarning ehtiyoji o'sib boraveradi, cheksizdir. U pul bilan ta'minlansa va sotib olish imkoniyatiga ega bo'lgan taqdirda talabga aylanadi. Demak, aytish mumkinki, **talab** – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj sotib olish uchun zarur bo'lgan pul bilan ta'minlanmasa, u “xohish”, “istak” bo'lib qolaveradi. Bozordagi narxlarni o'zgarib turish darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini va ma'lum miqdorlarini sotib olishga layoqati bo'lgan ehtiyoj talab deyiladi. A. Marshall talab va taklif qonunini va shunga muvofiq bahoni tahlil qilishga alohida e'tiborni qaratdi. U tahlilni talabdan boshladi: «Sotilishi ko'zda tutilgan tovar miqdori qancha ko'p bo'lsa, unga qo'yiladigan baho shuncha past bo'lishi kerak, negaki u o'z xaridorlarini topa olsin. Baho pasayganda talab qilinadigan tovarlar miqdori ko'payadi, baho oshganda esa – kamayadi. Bunda bahoning pasayishi bilan talabning oshishi o'rtasida qat'iy o'rnatilgan bir xil nisbat bo'lmaydi». Talablar turlicha bo'ladi. Bir xil tovar va xizmatga bo'lgan talabning ikki turi bor va ular bir-biridan farq qilinadi. Shu boisdan, yakka talab va bozor talabi bo'ladi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonasi, firmaning moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lgan talabi – bu yakka talab deyiladi. Bir qancha iste'molchilarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi.

Misol keltiramiz. Bir kg guruch narxi 10 ming so'm bo'lsa, talab 4 kg bo'ladi, (bir oy davomida) 5 ming so'm bo'lsa, 8 kg bo'ladi, 4 ming so'm bo'lsa, talab 10 kg ga chiqadi. Bozor talabi esa, 2 tonna, 4 tonna, 6 tonna va hokazo bo'lishi mumkin. Talab iste'molchining muayyan vaqt

mobaynida har xil narxlarda sotib olishi mumkin bo'lgan mahsulot miqdori.³²

Tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.

Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda ham tasvirlash mumkin: yotiq chiziq bozor talabi miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi (6.1.1-chizma).



6.1.1-chizma. Talab egri chizig'i

Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni tasviriy aks ettiradi. Undagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi.

Turli xil tovar talablari

Salbiy talab. Agar bozor mahsulotga nisbatan salbiy javob qaytarsa, bu iste'molchilar ushbu mahsulot yoki xizmatning barcha taklif qilingan afzalliklar va xususiyatlaridan xabardor emasligini anglatadi. Bunday holat yuz berganda, xizmat ko'rsatish firmasining marketing bo'limi potensial xaridorlarning ruhiyatini tushunishi va xizmatni rad etishning asosiy sababini aniqlashi kerak. Misol uchun, agar yo'lovchilar konduktorning avtobusga chiqish chaqiruvidan bosh

³² O'Sullivan, Arthur; Sheffrin, Steven M. (2003). *Economics: Principles in Action*. Upper Saddle River, New Jersey: Pearson Prentice Hall. p. 79. ISBN 9780131334830.

Birinchi guruh – eng yuqori daromadga ega bo'lgan xaridorlar, amalda ular jami xaridorlarning 10%ni tashkil etadi. Ular eng oliy navli tovarlarni xarid etadilar, xarid quvvati hamda o'z guruhi izzat nafi bunga imkon beradi. Bunday guruhlar har bir mamlakatda bor, ularning daromad miqdori shu mamlakatning umumiy boyligiga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi guruh – har bir mamlakatdagi o'rtacha daromad egalari-dir, ularning soni juda ko'p, garchi bu guruh ichida yana o'ziga xos tabaqalanish bo'lsa-da, umuman olganda shu mamlakatda bozorning umumiy standartini belgilaydigan, yalpi tovarlarning asosiy xaridorlari shular hisoblanadi.

Uchinchi guruh – bir shaxs hisobiga eng kam daromad oladigan xaridorlardan iborat. Ular aksariyat hollarda ijtimoiy ta'minotning turli ko'rinishlaridan foydalanadilar, o'z daromadlarining 80%ga yaqinini asosiy ehtiyojlarni qondirishga sarflaydilar.

7.2. Bozor segmentatsiyasi xususiyatlari

Korxonaning marketing dasturlari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bozorni segmentlarga qanday to'g'ri ajratish kerakligini, bozorning maqsadli segmentlarini tanlashni, joylashishni aniqlashni va har bir tanlangan segment uchun marketing kompleksini ishlab chiqishni aniq bilish kerak. Eng keng tarqalgan - iste'molchilar guruhlari bo'yicha segmentatsiya. Bozorni segmentlashtirish jarayoni quyidagi bosqichlar-da ketma-ket faoliyat sifatida namoyish etilishi mumkin:

- 1) potensial mijozlarning xulq-atvori va ehtiyojlarini tahlil qilish;
- 2) segmentatsiya xususiyatlarini va mezonlarini tanlash;
- 3) bozor segmentatsiyasini amalga oshirish;

- 4) bozorning maqsadli segmentlarini tanlash;
- 5) mahsulot, korxonaning bozorda joylashishi;
- 6) marketing miksni ishlab chiqish;
- 7) marketing kompleksini amalga oshirish va tovarlarni bozorda joylashtirishni nazorat qilish.

Albatta butun jarayonni amalga oshirish, vazifani bajarish ko'p vaqtni talab qilishi mumkin, chunki u katta ma'lumotni o'qishni o'z ichiga oladi va tahlil qilish, talqin qilish va ba'zi fikrlarni bayon qilishda juda ko'p mahorat talab qiladi. Ko'p tahlil qilish kerak va ko'plab qarorlar qabul qilish kerak bo'lsa ham, sotuvchilar odatda bu jarayonni soddalashtirish uchun kengaytirilgan tizim sifatida STP deb ataladigan jarayondan foydalanadilar, ya'ni:

Segmentation → Targeting → Positioning.

Segmentation – segmentatsiya qilinadigan bozorni aniqlashni o'z ichiga oladi;

Ushbu segmentatsiyalashda ishlatiladigan qarorlarni tahlil qilish, tanlash va qo'llash; va profillarni rivojlantirish. Ushbu yondashuv mijozga yo'naltirilgan bo'lsa-da, boshlang'ich harakati har doim mahsulot va uning imkoniyatlari hisoblanadi. Segmentatsiya mezonlarini tanlash va bozorda har bir segmentni uning harakati va ehtiyojlarini belgilaydigan xususiyatlarga ko'ra tavsiyalash kerak.

Masalan, mashina sotib olishni istaganlar orasida tezkorligi va chidamliligi muhim deb biluvchilar bor, boshqalar esa qulay va keng ichki makonni qidirmoqdalar, boshqalar esa oilaviy sayohatlar uchun xavfsiz va qulay avtomobil qidirmoqda va hokazo.

Targeting – (maqsadlash) jozibadorlikni baholashni o'z ichiga oladi va har bir segment maqsadli bo'lishi kerak. Har bir segmentni baholash kerak. Segment hajmi foyda keltirishi uchun katta bo'lishi kerak. O'sish dinamikasini o'rganish, xususiyatlari va foyda jihatidan boshqa segmentlar o'rtasida sezilarli farqlarga ega bo'lish kerak aks holda joylashishni aniqlashning ma'nosi yo'q. Segmentdan kutilayotgan daromad marketing va boshqa xarajatlardan yuqori bo'lishi kerak.

Positioning - joylashtirish bu mahsulotni maqsadli auditoriyani aniqlash. Natijada, potensial mijoz ushbu mahsulot uning muammolarini hal qilishini, unga qiziqadigan va bozorda o'xshashlaridan farq qiladigan imtiyozlar berishini tushunib oladi, yani:

- raqobatchilar qanday o'xshash mahsulotlarni taklif qilishadi?

- ularning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- maqsadli auditoriya ular bilan qanday bog'liq?
- mahsulotning qaysi xususiyatlari bozorda noyobdir?
- ulardan qaysi biri maqsadli auditoriyani ko'proq qadrlaydi?
- qaysi birini takrorlash qiyin?
- raqobatchilar joylashishni aniqlashda qanday xatolarga yo'l qo'yadilar?

Albatta buning uchun sizga bozorni o'rganish va raqobatchilarning mahsulotlari qanchalik muvaffaqiyatli ekanligini bilish, ular qanday joy egallashlarini aniqlash, mahsulotingizning ular orasidagi o'rnini aniqlash zarur bo'ladi. STP (Segmentation - Targeting - Positioning) modeli segmentatsiya, maqsad va joylashishni yagona jarayon sifatida ifodalaydi. Ya'ni, joylashishni aniqlash - bu oxirgi bosqich. Siz potensial mijozlaringiz kimligini, qaysi segmentlarni ajratish mumkinligini va bundan keyin qaysi biri bilan ishlash foydaliroq bo'lishini bilib olasiz.

Bozorni bo'g'inlashdan asosiy maqsad quyidagilar hisoblanadi:

- iste'molchilarning nimaga ehtiyoji borligi haqida kengroq ma'lumot to'plash mumkin bo'ladi;
- aniq bozorda raqobat kurashi tabiatini yaxshiroq bilish imkoniyati tug'iladi. Natijada raqobat kurashida yengib chiqishi uchun tovar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi aniqlanadi;
- chegaralangan resurslardan va imkoniyatlardan qaysi yo'nalishlarda foydalanish kerakligi aniqlanadi;
- marketing va tovar sotishda xizmat xodimlarining energiyasi eng istiqbolli iste'molchilarga qaratiladi;
- marketing faoliyat rejasini tuzganda har bir bozor segmentining o'ziga xos-xususiyatlarini e'tiborga olish imkoniyati tug'iladi va boshqalar.

Umuman olganda bozorni segmentlash talabni oydinlashtirish, differentsiallash, pirovard natijada esa marketing strategiyasi va taktikasining eng optimal variantini tanlash imkoniyatini beradi.

Odatda, segmentlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Makrosegmentlash deb nomlanadigan birinchi bosqichda "tovar bozori" aniqlanadi. Mikrosegmentlash deb nomlanadigan ikkinchi bosqichda esa ilgari aniqlangan bozor ichida iste'molchilar segmentlari aniqlanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bozorni segmentlarga ajratish va kishilarni guruhlar bo'yicha o'rnatish o'z-o'zidan hech narsa bermaydi, chunki har bir kishi bir guruh emas, balki ko'proq guruh a'zosi hisoblanadi. J. Karver bu muammoni shunday bayon etadi: «O'rta iste'molchi» tushunchasi xato, chunki faqat takror-takror tasnif natijasigina guruhlarini o'xshashliklarini aniqlashi mumkin, daromadlar darajasi, irq, millat, e'tiqod va shu kabi har qanday mezonlar bilan qo'shilgandagina ahamiyat kasb etadi. Masalan, millat mezonini uning atrofidagi masalalar kompleksidan ajratib olinadigan bo'lsa, iste'molchi odatlarini tahlil qilishda uning salmog'i yo'qolib boradi. Uning o'zi yonma-yon turadigan daromadlar, narxlar va boshqalar darajasi mezonlari bilan birgalikda olinganda bu mezon muhit ta'siriga ega bo'ladi. Bozorni segmentlarga ajratish xaridorlarning talab va ehtiyojlarini aniqlash masalasini hal etishning ideal vositasi bo'la olmaydi, ammo shunga qaramay bu usul ishbiarmonlarni bu boradagi ishlarga qiziqtirish uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

7.3. Bozor segmentatsiyasi turlari

Bozor segmentini aniqlashning uchta usuli mavjud. Birinchi – tovarning afzalligiga qarab segmentlash. Bunda iste'molchilar qanday tovarni xohlayotganligiga qarab segmentni aniqlash tushuniladi. Ikkinchi usul – iste'molchilarning xulq-atvorini hisobga olgan holda segmentlash. Uchinchi usul – iste'molchilar xarakteriga qarab segmentlash hisoblanadi.

Tovarning afzalligiga qarab segmentlash. Firmalar yangi tovarlarga bo'lgan talabni o'rnatish maqsadida tovarning afzalligi, muhimligiga qarab segmentlashdan ham foydalanadi. Bunga quyidagi misol keltirish mumkin. Masalan, qahva ko'p tarqalgan ichimliklardan hisoblanadi. Uning tarkibida kofein moddasi mavjud. Bugungi kunda shunday iste'molchilar ham mavjudki, ular kofeinsiz qahvani xohlaydilar. Demak, bozorning ana shu segmenti iste'molchilari uchun ham kofeinsiz qahva ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Yoki tovarning afzalligiga qarab segmentlashga televizor orqali tarkibida spirt bo'lmagan pivo haqida beriladigan reklamani ham kiritish mumkin.

Iste'molchilarning xulq-atvoriga qarab segmentlashning yana bir turi xaridorlarni qanday tovar markasini xarid qilganligiga qarab

identifikatsiyalash emas, balki qanday tovar nomenklaturasini xarid qilganligiga qarab identifikatsiyalash hisoblanadi. Iste'molchilarni tovar nomenklaturasiga qarab aniqlashda raqobatchilar tovarlari haqida ham ma'lumot to'plash mumkin bo'ladi. Mana shu olingan ma'lumotlar asosida korxonada iste'molchilarning kengroq guruhini qamrab olish strategiyasini ishlab chiqadi. Shuningdek, tovar nomenklaturasiga qarab bozorni segmentlashning maqsadlaridan yana biri tovarlarning faol iste'molchilarini topishdan iboratdir. Faol iste'molchilar esa, ularning tovarni xarid qilish davriga qarab aniqlanadi.

Iste'molchilar tavsifiga qarab segmentlash. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, bozorni segmentlashning uchinchi usuli – bu iste'molchilarni tavsifi bo'yicha guruhlash hisoblanadi. Bu yerda asosiy belgi bo'lib iste'molchilarning demografik, geografik tavsiflari va ularning hayot tarzi hisoblanadi.

Demografik segmentlash – deganda iste'molchilarning daromadlar darajasi, yoshi, jinsi, millati, kasbi-kori, oilaviy ahvollari kabi belgilari bo'yicha guruhlarga ajratish tushuniladi.

Geografik segmentlash – geografik kartani qo'llashga asoslangan eng oddiy usul hisoblanadi. Bu usulni aholining madaniy urf-odatlarida va ular yashayotgan hududlarning iqlimida farq bo'lganda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Geografik belgi bo'yicha segmentlash bozorning har xil geografik zonalariga bo'linishini nazarda tutadi. Bozorni geografik segmentatsiyalashda, barcha iste'molchilarni muayyan bozor segmentlarida taqsimlash uchun quyidagi mezonlar olinishi mumkin: iqlim sharoiti; aholi zichligi va hajmi; ma'muriy bo'linish; yashash joyi; aholi punktining urbanizatsiya darajasi va boshqalar. Iqlim sharoiti asosida past, o'rta yoki yuqori namlik va past, o'rta yoki yuqori haroratli hududlarni ajratish mumkin. Bozor segmentatsiyasining geografik belgilari shu bilan tugamaydi. Masalan, segmentatsiyani aholi punktlarining quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: madaniy markazlar; kurort shaharlari; diniy markazlar; kon shaharlari va boshqalar. Tabiiy ofatlar ehtimoliga qarab bozorni yuqori va past seysmik faolligi bo'lgan hududlarga bo'lish mumkin.

Bozorni psixografik xususiyatlar bo'yicha segmentatsiyalash - bu bozorning barcha xaridorlarini qadriyatlar, e'tiqodlar, mahsulotni sotib olish uchun motivatsiya va shaxsning o'ziga xos mezonlari bo'yicha bir xil guruhlarga bo'lish jarayoni. Psixologik turlarga qarab bozor

segmentatsiyasi. Turmush tarzi umuman insonning turmush tarzi va u o'z vaqtini va pulini qanday sarflashi bilan belgilanadi. Turmush tarzi odamlarning faoliyatini, ularning qiziqishlari va fikrlarini aks ettiradi. Hayot tarzi kabi tushunchalar yordamida odamlar o'zlarida sodir bo'layotgan voqealarni sharhlaydilar, ularni izohlaydilar, tushunadilar va bashorat qiladilar, o'z qadriyatlarini voqealar bilan muvofiqlashtiradilar. Ushbu konstruktiv tizim qat'iy individual emas. U o'zgaruvchan tashqi muhitdan signallarni tushunish uchun odamning ehtiyojiga qarab doimiy ravishda o'zgarib turadi. Hayot tarzidagi o'zgarishlar ularni insonning qadriyatlari va shaxsiyatiga mos kelishi uchun zarurdir. Hayot tarzini o'lchashning eng keng tarqalgan usullaridan biri psixografiyaga asoslangan.

Optimal psixografik segmentatsiya modeli bir nechta mezonlarga javob berishi kerak:

1. Bu segmentlarni taqqoslashda ko'proq farqlashga imkon beradi.
2. Ichki mos keladigan segmentlarni ishlab chiqaradi.
3. U ta'sirchan fikrlarni taqdim etadi.
4. Bu barqaror yechimlar usullarini yaratadi.
5. Bu jarayonni prognoz qilishni ta'minlaydi.

Umumiy psixologik yondashuv o'rganilayotgan guruhdagi har bir iste'molchining shaxsiy xususiyatlarini, ularning iste'molchi sifatida o'zini tutish sabablarini, hayotiy qadriyatlarini, xulq-atvori va hatto e'tiqodlarini hisobga olishga asoslangan. Demografik va psixologik o'lchovlar bir-birini to'ldiradi va birgalikda ishlatilishi kerak. Demografiya yoshi, jinsi, ma'lumoti, oilaviy holati kabi obyektiv miqdoriy ko'rsatkichlarni taqdim etadi. O'z navbatida, psixografiyada nisbatan sezib bo'lmaydigan hodisalar - odamlarning motivlari, qiziqishlari, ijtimoiy holati va hayotiy qadriyatlari hisobga olinadi. Ushbu ma'lumotlar demografik ma'lumotlarni to'ldiradi va iste'molchilarni yanada ko'proq tavsiflaydi. Psixologik o'lchovlar demografik, xulq-atvor va ijtimoiy-iqtisodiy o'lchovlarga qaraganda ancha kengroqdir. Psixografik tahlil sotuvchilarga o'z mahsulotlarini xaridorlarning turmush tarzini tushunishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida turli segment vakillari bilan yanada samarali aloqada bo'lishga imkon beradi. Shu bilan birga, siz yangi yoki mavjud bo'lgan mahsulotni qanday joylashtirishni, uni ma'lum bir turmush tarziga rioya qilgan iste'molchilarga qanday qilib "yetkazish" mumkinligini aniqlay olasiz. Usulning asosiy g'oyasi

standart o'zgaruvchilardan tashqariga qarash, maqsadli auditoriyaning harakatlari, umidlari, qo'rquvlari va orzulariga muvofiq mahsulotni taqdim etishdir.

VALS (Value and lifestyle - Qadriyatlar va turmush tarzi) - amerikalik olimlarning tadqiqotlari, aniqlangan turli toifadagi iste'molchilarning hayotiy qadriyatlar tizimi. VALS 1978-yilda sotsiolog Arnold Mitchell va uning SRI (Simmons Market Research Bureau, Mediamark Research International) international tashkilotidagi hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. U darhol reklama agentliklari tomonidan qabul qilindi va hozirda SRI konsalting bo'limining mahsuloti sifatida taklif qilinmoqda.

Psixografik segmentatsiyaning VALS tasnifiga ko'ra, tanlov motivatsiyasi 3 xil bo'lishi mumkin:

1. Ideallarga intilishga asoslangan motivatsiya: Ushbu motivatsiya bilan iste'molchi bilim va prinsiplarga asoslanib tanlov qiladi.

2. Yutuqlarni rag'batlantirish: Ushbu turki bo'lgan iste'molchi o'z tengdoshlari oldida muvaffaqiyatni namoyish etadigan mahsulotlar va xizmatlarni sotib oladi.

3. O'z-o'zini ifoda etuvchi motivatsiya: Iste'molchilar o'zlarining ijtimoiy jalb etilishini, xilma-xilligini, o'ziga xosligini va xavf-xatarini ta'kidlaydigan mahsulotlarni sotib olishadi.

Xulq-atvor bo'yicha segmentlashda iste'molchilar qarashlari, qiziqishlari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Bunga iste'molchilarni jamiyat manfaati yo'lida qayg'uradiganlar, o'z sog'ligini sevuvchilar, oilasi uchun qayg'uradiganlar guruhlariga ajratish misol bo'la oladi. Ushbu segmentatsiyalashning maqsadi mijozlarni segmentlarga ajratishdir, bu esa mijozlar guruhining aniq ehtiyojlari yoki istaklarini qanday hal qilishni, ularning sayohatlarini qanday optimallashtirishni va biznesning potensial qiymatini aniqlashni tushunishga imkon beradi. Mijozlarning xulq-atvoriga qarab segmentlashning to'rtta asosiy asosiy afzalliklari bor:

1. Shaxsiylashtirish. Har bir mijozlar guruhi uchun, tegishli savdo taklifini shakllantirish va eng kerakli vaqtda, ularni savdo kanali bo'ylab samarali targ'ib qilish uchun mashhur bo'lgan kanallar orqali yuborish kerak.

2. Prognozlash. Xaridorlarning xaridlari, ularning xatti-harakatlari va kelgusidagi xaridlarini taxmin qilish va ta'sir qilish uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish kerak.

3. Ustuvorlik. Vaqtni, byudjetni va mablag'larni qanday qilib to'g'ri taqsimlash to'g'risida, biznesning eng katta potensialiga ega segmentlarga yo'naltirilgan holda oqilona qarorlar qabul qilish.

4. Samaradorlik. Mijozlarning asosiy segmentlardagi o'zgarishlarni vaqt o'tishi bilan biznesning holati va uning samaradorligini kompaniyaning maqsadlariga muvofiqligini baholash uchun doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Mijozlar segmentlari hajmi va qiymatini aniqlash va vaqt davomida "ijobiy" va "salbiy" segmentlar o'sishi yoki qisqarishini monitoringi.

An'anaga ko'ra, segmentatsiyaning oltita asosiy turini ajratish odatiy holdir:

- foyda izlash;
- xarid qilish uchun sabab;
- foydalanish darajasi, iste'mol qilish chastotasi;
- brendga sodiqligi;
- xaridning tasodifiylik darajasi;
- xarid qilishga tayyorligi.

Quyida har xil xatti-harakatlarni hisobga olgan holda 6 turdagi xaridorlarning tavsiflarini keltiramiz:

1. Narxga sezgir xaridor, yani uning talabi narx o'zgarishi bilan katta farq qiladi, bunday xaridor mahsulot uchun juda past narxlarni qidiradi.

2. Aqlli xaridor (Smart shopper) - bunday xaridor sotib olishdan oldin sotib olish shartlari va mahsulotning xususiyatlarini sinchkovlik bilan o'rganadi.

3. Xavf-xatarlarni oldini oladigan xaridorlar - bu to'g'ri sug'urta qilmasdan sotib olishga tayyor bo'lmagan ehtiyotkor sotuvchi, masalan, agar tovarda kamechilik bo'lganda xaridor pulini qaytarib olib bo'ladimi degan savollarga javob izlaydi.

4. Tasdiqlashga muhtoj bo'lgan xaridor tovar sharhlarini qidirayotgan xaridor, ishlatganlarning fikri bilan qiziqadi, u mahsulot ommabop va foydalanuvchilar orasida talabga ega ekanligini tasdiqlashni qidiradi.

5. Shoshilmaydigan xaridor - bu sotib olishga mablag'i bor va imkoniyatga ega bo'lgan xaridor, lekin u shoshilmayapti, chunki u bu yerda

hozir sotib olishning hojati yo'q va va tanlash uchun vaqtga egaman deb o'ylaydi.

6. Ishonuvchan xaridor - bu takliflarga juda quloq soladigan impulsli xaridor, agar mahsulot yoki xizmat uni qiziqтира, sotib olishi mumkin.

Respublikamizda olib borilayotgan marketing faoliyatlarida aholi asosan 5 guruhga bo'linadi:

- maktab yoshigacha;
- maktab yoshida;
- 18– 30 yoshgacha;
- 30– 50 yoshgacha;
- 50 yosh va undan kattalar.

Bu bo'linish respublikamiz aholisini ilmiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Iste'mol buyumlariga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishida mamlakatdagi oilalarning katta-kichikligi muhim ahamiyatga ega. Marketingda asosan mamlakat aholisi oilasining soni bo'yicha 3 guruhga bo'linadi:

1– 2 kishi;

3– 4 kishi;

5 va undan yuqoriroq.

Amalda, demografik segmentatsiya har bir mamlakatning ro'yxatga oluvchilar tomonidan ishlatiladigan har qanday o'zgaruvchidan foydalanishi mumkin. Oddiy demografik o'zgaruvchilar va ularning tavsiflovchilari quyidagicha:

Yosh: masalan, 5 yoshgacha, 5-8 yosh, 9-12 yosh, 13-17 yosh, 18-24, 25-29, 30-39, 40-49, 50-59, 60+

Jinsi: erkak, ayol

Kasbi: o'zini o'zi band qiluvchilar, yarim professional, professional, ma'muriyat, sotuvchilar, konchilik, boshlang'ich ishlab chiqaruvchi, talaba, uy bekalari, ishsiz, nafaqaga chiqqan.

Ijtimoiy-iqtisodiy: Boylar, orta qatlam, orta qatlamdan pastroqlar, kambag'allar, qoshshoqlar.

Oilaviy ahvoli: turmushga chiqmagan, uylangan, uylanmagan, ajrashgan, beva.

Oilaviy ahvoli: yosh turmush qurmagan; bolasiz yosh oilalar; 5 yoshgacha bolalari bo'lgan yosh oilalar; keksalar uyida bolalari yo'q, yolg'iz keksa.

Oila hajmi: qaramog'idagi shaxslar soni: 0, 1-2, 3-4, 5 +

Ta'lim darajasi: boshlang'ich maktab, tugallangan o'rta, tugallanmagan o'rta, universitetni tugatgan, oliy ma'lumotli, doktorant, Phd, DSc.

Uy egasi: ijaraga olingan, ipotekaga ega bo'lgan uy, hovlida yashaydiganlar.

Kelib chiqishi, dini.

Marketingni boshqarishda alohida berilayotgan segmentatsiya belgisi - bu xaridorni sotib olishdagi xulq-atvoridagi belgilari hisoblanadi. Filipp Kotler o'zining kitobida bir necha belgilarni ko'rsatib o'tadi. Ular quyidagilar:

Tovarni sotib olish sababiga ko'ra: doimiy, alohida sabablarga ko'ra.

Sotib olishdan manfaatiga ko'ra: sifati, xizmat ko'rsatish turlari, iqtisod qilish uchun.

Foydalanuvchi sifatidagi o'rniga qarab:

- foydalanmaydigan;
- oldin foydalangan;
- doimiy foydalanuvchi;
- yangi foydalanuvchi;
- endi foydalanmoqchi bo'lgan;
- tovarlarga bo'lgan munosabatga qarab.

Yuqorida aytib o'tilgan belgilar xaridorni xarakterini to'la-to'kis ochib berishga, uni tovarga bo'lgan munosabati va sotib olish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi.

7.4. Bozor segmentatsiyasining asosiy tamoyillari

Korxonaning raqobat kurashida g'olib chiqishi bozor segmentlari qanchalik to'g'ri tanlanganligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunda bozorni segmentlashning me'zonlarini bilish zarur. Quyidagi bozor segmentining asosiy me'zonlari va ularning tavsifi keltiriladi:

1. Segmentning miqdoriy o'lchamlari. Segment miqdorining o'lchami deganda, bozor sig'imi qancha potensial iste'molchilar borligi va ular qanday maydonlarda yashashlari tushuniladi. Bular asosida korxonada qanday ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishlari va sotish tarmog'ining hajmini belgilab oladilar.

2. Segmentning muhimligi. Segmentning muhimligi deganda u yoki bu iste'molchilar guruhining bozor segmentida qanday o'rin egallab turganligi tushuniladi. Korxonana ana shu segmentning o'rniga qarab faoliyatini tashkil etishi zarur bo'ladi.

3. Segmentning foydaliligi. Segmentning foydaliligi deganda korxonaning ma'lum bir segmentda ishlashi uning qanday rentabellik darajasini ta'minlashi tushuniladi. Korxonana u yoki bu bozor segmentining foydaliligini baholashda foyda me'yori, qo'yilgan kapital hajmida daromadning hissasi, aksiya dividendlarining miqdori va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanadi.

4. Segmentning samaradorligi. Segmentning samaradorligi korxonaning mazkur tanlangan bozor segmentida ishlash tajribasi, mazkur segmentda ishlovchi xodimlarning mahsulotni siljitishga qanchalik tayyor ekanligi kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

Unuman olganda, bozorni segmentlash korxonaning muayyan bozorda samarali faoliyat ko'rsatishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kompaniya bir nechta segmentlarni qamrab olishi uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

1. Kompaniyaning resurslari
2. Mahsulot bir xillik darajasi
3. Mahsulot hayot siklining bosqichi
4. Bozorning bir xillik darajasi
5. Raqobatchilarning marketing strategiyalari

Jahon amaliyotida bozorda assortimentni segmentatsiyasining 7 asosiy usuli mavjud:

- mahsulot guruhlari bo'yicha;
- mahsulotning asosiy xususiyatlari;
- mahsulot hajmi bo'yicha;
- mahsulotni qadoqlash turi bo'yicha;
- ishlab chiqaruvchi bo'yicha;
- narx segmentlari bo'yicha;
- shuningdek bir nechta parametrlarning kombinatsiyasi.

Bozorning maqsadli segmentini aniqlagandan so'ng, kompaniya raqobatchilar mahsulotlarining xususiyatlari va imijini o'rganishi va o'z

mahsulotining bozordagi o'rnini baholashi kerak. Raqobatchilarning pozitsiyalarini o'rganib chiqib, kompaniya o'z mahsulotlarini joylashtirishga qaror qiladi. Ya'ni, bozorda mahsulotning raqobatbardosh mavqei ta'minlash. Aytishimiz mumkinki, mahsulotni tanlangan bozorda joylashtirishni maqsadli segmentlarini topishning mantiqiy davomi, chunki bozorning bitta segmentida mahsulotning pozitsiyasi mijozlarning boshqa segmentda qanday qabul qilishidan farq qilishi mumkin. Mahsulotning bozordagi o'rnini belgilovchi omillar nafaqat narxlar va sifat, balki ishlab chiqaruvchi, dizayn, chegirmalar, xizmat ko'rsatish, mahsulot imiji va ushbu omillarning nisbati ham ta'sir qiladi. Bu yerda yuzaga keladigan asosiy muammo, agar xaridor ushbu mahsulotni nisbatan yuqori narxga ega bo'lgan o'rta sifatli deb tasniflasa. Bunday muammolarni hal qilish uchun joylashishni aniqlash marketing miksdan unumli foydalanish zarur, kompaniya xaridorlar uchun yaratilgan mahsulotlar to'g'risida tahlil qilayotganligini ularga taklif qilishimiz kerak, shunda ular taklif etilayotgan mahsulotni o'zlarining ideallariga moslashtiradilar. Tabiiyki, ma'lumot berishda iste'molchining aldanishi va noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishi mumkin emas, u mahsulotning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanishi kerak. Segmentatsiyalashning eng samarali shakllaridan biri bu mijozlarni mahsulotni qidirayotgan imtiyozlariga qarab tasniflashdir. O.Yankelovich³⁷ soatlar sotib olishda kerakli imtiyozlarga asoslanib segmentlashni qo'lladi. Uning so'zlariga ko'ra, "xaridorlarning taxminan 23 foizi soatni eng past narxlarda sotib olishgan, qolgan 46 foizi esa chidamlilik va umumiy sifat omillarini hisobga olgan holda, 31 foizi esa biron bir muhim voqeani ramziy eslatma sifatida sotib olgan." Yillar davomida eng taniqli soatlar kompaniyalari deyarli o'z e'tiborlarini uchinchi segmentga qaratib, qimmatbaho soatlar ishlab chiqarish va ularni zargarlik do'konlarida sotishni rejalashtirdi. Firma "Yu. S. Time" dastlabki ikki segmentga e'tiborini qaratishga qaror qildi, Timex soatlarini yaratdi va ularni faol savdo do'konlarida sotishni boshladi. Kompaniya tomonidan qabul qilingan segmentatsiya strategiyasi uning dunyodagi eng yirik soatlar kompaniyasiga aylanishiga yordam berdi.

Bozor segmentatsiyasi, odatda, mavjud va potensial mijozlardan tashkil topgan, keng iste'molchini yoki biznes bozorini iste'molchilar-

³⁷ Cm. Daniel Yankelovich. «New Criteria for Market Segmentation». — Harvard Business Review, March-April 1964, p. 85.

ning kichik guruhlariga (segmentlar sifatida) birlashgan umumiy xususiyatlarga asoslangan holda bo'lish jarayoni hisoblanadi.

7.5. Maqsadli bozor segmentlarini tanlash va tovarni bozorda joylashish pozitsiyasi

Bozor segmentini aniqlashning turli xil usullari aniqlangan. Biznes-to-biznes (B2B) sotuvchilari bozorni biznesning har xil turlari yoki mamlakatlarga ajratish mumkin. Savdo iste'molchisi (B2C) sotuvchilari bozorni demografik segmentlarga, turmush tarzi segmentlariga, xatti-harakatlar segmentlariga yoki boshqa mazmunli segmentlarga ajratishadi.

Bozorning segmentatsiyasi turli bozor segmentlari turli marketing dasturlarini, ya'ni turli takliflar, narxlar, reklama, tarqatish yoki marketing parametrlarini birlashtirilishini talab qiladi. Bozorning segmentatsiyasi nafaqat eng daromadli segmentlarni aniqlash uchungina emas, balki ularning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va motivlarini xarid qilish uchun asosiy segmentlar profilini ishlab chiqishdir. Keyinchalik, marketing strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun segmentatsiyani tahlil qilishdan foydalaniladi. Ko'pgina marketologlar marketingni rejalashtirish maqsadlari uchun asos yaratishda S-T-P yondashuvidan foydalanadilar; Segmentatsiya → Targeting → Joylashuv. (7.5.1-chizma).



7.5.1-chizma. S-T-P yondashuvi


Boshqacha aytganda, bozor segmentatsiya qilingan, maqsadga qaratilgan bir yoki bir nechta segment tanlangan va mahsulot yoki xizmatlar

tanlangan maqsadli bozor yoki bozorlar bilan rezonanslashadigan tarzda joylashtirilgan. **Bozorni pozitsiyalashtirish** – bu alohida bozor segmentlarida mahsulot konsepsiyasini aniqlash texnologiyasidir. Pozitsiyalashtirishning maqsadi – mavjud va shakllanayotgan fikrlarni tadqiq qilish, xaridorlar yoki ularning guruhini mahsulot parametrlariga bo‘lgan munosabatini baholash tahlilidan, maqsadli bozorni ushbu segmentida mahsulotni raqobatli afzalligini ta’minlashda shunday tovar pozitsiyasini marketing chora-tadbirlarini o‘tkazish yo‘li bilan tuzishdan iborat.

Mahsulotni samarali pozitsiyalashtirish uchun talab va taklifni muhim tavsifnomalarini, xarid to‘g‘risida qaror qabul qilishda mo‘ljal bo‘lib hisoblanuvchi omillar ta‘sirini o‘rnatish zarur. Aniqlovchi omillar esa mahsulot sifati, sifat darajasi, ishonchliligi, energohajmi, dizayni va tovarni raqobatbardoshligini boshqa ko‘rsatkichlari bo‘lishi mumkin.

Pozitsiyalashtirish so‘zini chuqurroq tahlil qilsak, siz biror sport turiga muxlislik qilasiz yoki biror turdagi mahsulotni takroriy tarzda sotib olasiz, bu holatda ushbu turdagi tovarlar sizning onggingizda o‘z pozitsiyasiga ega ekanligi kelib chiqadi. Marketingda pozitsiyalashtirish jarayoni deganda xaridor ongida tovar yoki xizmat haqida tovarning muhim atributlari orqali pozitiv tasavvur hosil qilishga harakat qilish jarayoni hisoblanadi. Misol uchun, avtomashina ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘z avtomobillarining tezligi, jozibadorligi, yoqilg‘i tejankorligi kabi xususiyatlari bilan o‘z mahsulotini pozitsiyalashtirishga harakat qilishadi.

Marketingda tovarlarni pozitsiyalashtirishda pozitsiyalashtirish xaritasi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu xaritada bir xil turdagi o‘zaro raqobatlashuvchi tovarlar tasvirlanadi. Ushbu xaritada yana tovarning muhim xususiyatlari ham tasvirlanib shunga ko‘ra tovar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar xaritadan o‘z o‘rnini egallaydi. Ayrim kompaniyalar ushbu xaritadan foydalangan holda o‘z tovarining xususiyatlarini belgilab oladilar. Ushbu chizmada 3 ta ozuqa mahsulotlari o‘zaro solishtirilgan. 2-turdagi brend eng sifatsizi bo‘lib ozuqaviy jihatdan ham ta‘m ko‘rsatkichi jihatidan ham iste‘molchida salbiy fikr uyg‘otadi. 3-turdagi brendning ozuqaviylik darajasi yuqori lekin ta‘m jihatdan kamchilliklarga ega. Ular orasida xaridor ongida eng pozitiv fikr yaratuvchi ozuqa mahsuloti bu 1-turdagi brend hisoblanadi.



7.5.1- chizma. Brendlar ustuvorligi

Tovarni pozitsiyalashtirishdan eng asosiy maqsad bo'lib bozordagi qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlab olish hisoblanadi. Agar sizning mahsulotingiz raqobatchi tovaridan ko'ra samaraliroq tarzda iste'molchi ehtiyojini qondira olsa sizning tovaringiz raqobatdosh tovarga nisbatan xaridor uchun ustunlikka ega bo'ladi.

Kompaniyalar o'z tovarini pozitsiyalashtirish jarayonida quyidagi muhim ko'rsatkichlarga e'tibor berishi zarur:

- pozitsiyalash qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tahlil qilish;

- uzoq muddatga mo'ljallanganligi;
- ahamiyatga ega bo'lishi;
- tushunarli va o'zaro bog'liq bo'lishi;
- o'zaro farqlanadigan bo'lishi.

Kompaniyalar tovarni pozitsiyalashtirishda tovarning avvalgi pozitsiyasidagi xaridorlarni yo'qotadi. Radio stansiyasining formati o'zgartirilishi yangi pozitsiyani yuzaga keltiradi va natijada hozirgi tinglovchilarning ayrimlarini yo'qotadi. Ayrim kompaniyalarda esa bunday o'zgarishlar kuzatilmasligi mumkin, chunki ular o'zaro bog'liq bo'lmagan bir qancha bozorlarga tovar ishlab chiqarishadi. Masalan, Nike kompaniyasi sportga aloqasi bo'lgan va bo'lmaganlarga ham o'z mahsulotini sotishga harakat qiladi.

Tovarni pozitsiyalashtirish uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Tovarda turli o'zgarishlarning tez-tez takrorlanishi xaridorlarning jahlini chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, tovarning texnologik xususiyatlarini innovatsion tarzda o'zgartirish unchalik ham to'g'ri emas chunki hozirgi kunda bunday o'zgarishlarni nusxalash va o'zgartirish oson. Shu sababli o'zgartirish kiritishda tovarning texnologik ko'rsat-kichlaridan tashqari boshqa asosiy xususiyatlariga e'tibor bergan ma'qul.

Sizning mahsulotingiz xaridoring fikridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilishi ya'ni iste'molchiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki, iste'molchisiz hech qanday biznes mavjud bo'lmaydi. Maqsadli guruh ehtiyojiga mos keluvchi tovarni yaratish kompaniya muvaffaqiyati kaliti hisoblanadi.

Sizning pozitsiyalash siyosatingiz xaridor uchun tushunarli bo'lishi lozim bu ham katta ahamiyatga ega. Masalan: «Tim Horton doimo toza va har doim yaroqlidir» ushbu tushuncha har bir xaridorda Tim Horton mahsulotiga nisbatan pozitiv fikr uyg'otadi.

Pozitsiyalash siyosati boshqa raqobatchilarnikidan o'zaro farqlanishi lozim. Bu holat amalga oshgandagina xaridorga nisbatan pozitsiyalashtirish samarali kechadi. Agar tovarlar o'zaro farqlanmasa xaridor uchun qaysi tovarni sotib olishi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Tovarlarning o'zaro farqlanishi xaridor uchun kompaniya tovarini oson tanib olish imkonini beradi. Masalan; Kanada shinalari shina bozorida Kanadada ishlab chiqarilganligini ta'kidlash orqali o'z o'rniga ega.

Tovarni pozitsiyalashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- foydalilik jihatiga ko'ra pozitsiyalashtirish;
- maqsadli guruhga ko'ra pozitsiyalashtirish;
- narxga ko'ra pozitsiyalashtirish;
- sotish usuliga ko'ra pozitsiyalashtirish;
- xizmat ko'rsatish darajasiga ko'ra pozitsiyalashtirish.

Pozitsiyalashtirishning birinchi turi tovarning foydalilik jihatini pozitsiyalash hisoblanadi. Ushbu usulda tovarning naflilik xususiyatlari orqali xaridorning tovar haqidagi fikri yaratiladi. Tovar sifatining yaxshi bo'lishi raqobat muhitida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Masalan avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya yoqilg'i ishlatilishi jihatdan gibrid tovar yaratishi mumkin. Ya'ni avtomashinani yurgizishda turli xildagi yoqilg'idan ishlatish imkoni bo'ladi. Bu holat xaridorlar uchun qulaylik tug'diradi va foyda hajmi oshishiga olib keladi. Yoki tufli ishlab chi-

qaruvchi kompaniya uning stilini o'zgartirishi yoki qulay-ligini oshirishi mumkin bu ham foydalilik jihatdan pozitsiyalashtirishga misol bo'ladi.

Maqsadli guruhga ko'ra pozitsiyalashtirish oddiy bo'lib alohida olingan xaridorlar guruhi tanlab olinadi. Ushbu alohida olingan guruh maqsadli bozorni ifodalaydi. Ushbu pozitsiyalashtirish turi tovar xaridorlarning ma'lum guruhidan tashqari boshqa hech kimga tegishli emasligini ko'rsata olishi lozim. Bunday pozitsiyalashtirish usuli bugun mashhur bo'lishi mumkin lekin keyinchalik uni o'zgartirish zarurati paydo bo'ladi.

Narxga ko'ra pozitsiyalashtirishda 2 turdagi narxlardan foydalaniladi yuqori va past narxlar. O'rtacha narxlar yordamida pozitsiyalashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki, bir xil darajadagi tovarlar juda ko'pchilikni tashkil etadi.

Ayrim turdagi tovarlar sifat jihatdan yoki ko'rsatiladigan xizmat darajasi jihatdan unchalik yuqori o'rin egallamasligi mumkin, lekin, ular ijtimoiy statusi darajasi yuqoriligi sababli yuqori narxlar orqali pozitsiyalashtirish siyosatini qo'llashi mumkin bo'ladi. Past narxlar orqali pozitsiyalashtirishda tovar sifati va servis darajasini e'tibordan chetda qoldirish unchalik ham to'g'ri emas. Bu turdagi usuldan asosan, mebel bozorlarida foydalaniladi.

Tovarlarni sotish kanallarini shakllantirish orqali ham pozitsiyalashtirish mumkin. Ayrim turdagi tovarlar o'zining maxsus sotilish joyiga egaligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Misol uchun, **Jonas Brothers** amerikalik pop-rok guruhining disklari nafaqat do'konlarda balki kiyim do'konlarida ham sotilishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Yangi tovar uchun yangi sotish kanalini yaratish korxonaga uchun katta foyda keltiradi. Masalan, Amazon kompaniyasi o'z mahsulotlarini onlayn tarzda sotish uchun amazon.com saytini yaratgan.

Tovar sotishdagi servis orqali pozitsiyalashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Pozitsiyalashtirishning bu turida xaridorlarga ko'rsatiladigan xizmatlarga e'tibor qaratiladi. Masalan, xaridor qaytarib olib kelgan tovarni hech qanday so'rovlarisiz qaytarib olish, sotib olish uchun kelgan xaridorni choy, kofe, qulay stulga taklif qilish, haftaning barcha kunlarida ochiq bo'lish kuniga 24 soat ishlash kabilarning hammasi servisga misol bo'ladi.

Samarali pozitsiyalashtirish siyosati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) Bozorni tahlil qilish

- talabning geografik jihatdan tuzilishini o'rganish;
- turli xil bozor segmentlari hajmi va potensialini o'rganish;
- xaridorlarning ehtiyojlarni aniqlash va raqobatchilar tovariga nisbatan munosabatini o'rganish.

2) kompaniyaning ichki sohasini tahlil qilish

- kompaniyaning resurslari, kamchiliklari, maqsadlari va imkoniyatlarini aniqlab olish;
- xizmat ko'rsatish uchun bir nechta segmentlarni tanlash.

3) raqobatchilarni tahlil qilish

- raqobatchilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash;
- pozitsiyalashtirishning bir qancha muqobil variantlarini tahlil etish.

Bozorni pozitsiyalashtirishni to'g'ri tashkil etilishi marketing rejasi va kompleksini samarali ishlab chiqarish shart-sharoiti bo'lib hisoblanadi.

7.6. Bozorning potensial segmentini aniqlash

Bozorning segmentatsiyasi - ommaviy bozorlarni o'xshash ehtiyojlar va istaklar bilan guruhlariga bo'lish jarayonidir³⁸. Segmentlarga bo'linishning mantiqiy asoslari - kompaniyalarning raqobatbardosh ustunlik va yuqori natijalarga erishishidir:

- firma sanoat talabining segmentlarini aniqlashi;
- maxsus talab segmentini maqsad qilishi;
- har bir maqsadli bozor segmenti uchun "marketing aralashmasi" ni rivojlantirishi lozim.³⁹

Biznes-tarixchi Richard S. Tedlou bozor segmentatsiyasining evolyutsiyasida to'rt bosqichni ajratib ko'rsatadi:

1. Fragmentatsiya (1880-yilgacha): Iqtisodiyot mahalliy yoki mintaqaviy miqyosda mahsulot sotuvchi kichik hududiy yetkazib beruvchilar bilan tavsiflangan.

2. Birlashma yoki ommaviy marketing (1880–1920-yillar): transport tizimlari rivojlangani bois iqtisodiyot birlashtirildi. Standartlashtirilgan markali mahsulotlar milliy darajada taqsimlangan. Ishlab chiqaruvchilar

³⁸ Pride, W., Ferrell, O.C., Lukas, B.A., Schembri, S., Niininen, O. and Cassidy, R., *Marketing Principles*, 3rd Asia-Pacific ed, Cengage, 2018, p. 200

³⁹ Madhavaram, S. & Hunt, S. D., "The Service-dominant Logic and a Hierarchy of Operant Resources: Developing Masterful Operant Resources and Implications for Marketing Strategy," *Journal Of The Academy Of Marketing Science*, Vol. 36, No. 1, 2008, pp 67-82.

mahsulot hayotining dastlabki bosqichlarida bozorlarga kirib borish uchun ijobiy masshtab samarasiga erishish uchun qat'iy standartlash-tirishni talab qilganlar.

3.Segmentatsiya (1920–1980-yillar): bozor miqdori oshgani sayin, ishlab chiqaruvchilar turli xil demografik va psixologik bozor segment-larining ehtiyojarini qondirish uchun turli xil sifatli nuqtalarda turli modellarni ishlab chiqarishga muvaffaq bo'lishdi. Bu demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va turmush tarzi omillariga asoslangan bozorni farq-lash davri.

4.Giper-segmentatsiyalash (1980-yillar): bozorning yanada tor seg-mentlarini belgilashga o'tish. Texnologik rivojlanish, xususan, raqamli aloqa sohasida marketologlar shaxsiy iste'molchilar yoki juda kichik guruhlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bu ba'zan yakka tartibdagi marketing sifatida tanilgan.⁴⁰

Bozor segmentatsiyasining amaliyoti bozorchilar tomonidan nazariy darajada o'ylanmasdan oldin paydo bo'lgan.⁴¹

Bozor segmentatsiyasi strategiyasi

Marketologlar uchun asosiy e'tibor – bozorni segmentga ajratish kerakmi yoki yo'qmi degan savollar muhokama qilinadi. Kompaniya falsafasiga, resurslariga, mahsulot turiga yoki bozor xususiyatlariga bog'liq ravishda, biznes bir-biridan farqlanmagan yondashuv yoki farqli yondashuvni rivojlantirishi mumkin. Farqlanmagan yondashuvda, sotuv-chi segmentatsiyani e'tiborga olmaydi va xaridorlarning ko'p sonli ehtiyojarini qondiradigan mahsulotni ishlab chiqadi. Farqli yondashuv-da firma bir yoki bir necha bozor segmentlarini maqsad qilib oladi va har bir segment uchun alohida takliflar ishlab chiqadi.⁴²

⁴⁰ In his oft-cited work, *New and Improved: The Story of Mass Marketing in America*, Basic Books, N.Y. 1990 pp. 4–12, Richard Tedlow outlines first three stages: fragmentation, unification and segmentation. In a subsequent work, published three years later, Tedlow and his co-author thought that they had seen evidence of a new trend and added a fourth era, termed Hyper-segmentation (post 1980s): See Tedlow, R.A. and Jones, G., *The Rise and Fall of Mass Marketing*, Routledge, N.Y., 1993, Chapter 2

⁴¹ Fullerton, R., "Segmentation in Practice: An Overview of the Eighteenth and Nineteenth Centuries," in Jones, D.G.B. and Tadjewski, M. (eds), *The Routledge Companion to Marketing History*, Oxon, Routledge, 2016, p. 94

⁴² *Business Dictionary* Online: <http://www.businessdictionary.com/definition/undifferentiated-marketing.html>

Segmentatsiyaga asosiy strategik yondashuvlar

Segmentlar soni	Segmentatsiya strategiyasi	Sharhlar
Nol	Farqlanmagan strategiya	Ommaviy marketing: segment yo'q
Bir	Fokus strategiya	Nisha marketing: kichik, aniq belgilangan maqsadli bozorga e'tibor qarating
Ikki yoki undan ortiq	Farqli strategiya	Bir nechta nishalar: 2 yoki undan ko'proq e'tiborni tortadigan maqsadlar, aniq belgilangan harakatlar
Minglagan	Giper-segmentatsiyalash	Yakka tartibdagi marketing: har bir mijoz uchun taklifni moslashtiring

Bir qator omillar kompaniyaning segmentlash strategiyasiga ta'sir ko'rsatadi:

Kompaniya resurslari: resurslar cheklangan bo'lsa, konsentratsion strategiya yanada samarali bo'lishi mumkin.

Mahsulotning o'zgaruvchanligi: Yuqori darajada bir xil mahsulotlar uchun farqlanmagan marketing yanada mos kelishi mumkin. Ko'p turga ega bo'lgan mahsulotlar (masalan, avtomobillar) uchun farqlangan (differenziatsiya) yoki konsentratsion yondashuv qo'llaniladi.

Mahsulotning yashash davri: Yangi mahsulotlar uchun bir versiyani ishga tushirish bosqichida foydalanish mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan bu segmentlangan yondashuvga kengaytirilishi mumkin. Bozorga ko'proq raqobatchilar kirsam, uni farqlash kerak bo'ladi.

Bozorning tavsifi: mahsulotni sotib oluvchilar o'xshash didga ega bo'lsa yoki turli xil sifat darajasidagi mahsulot uchun mukofot to'lamoqchi bo'lmasa, unda farqlanmagan marketing qo'llaniladi.

Raqobat faoliyati: raqobatchilar differenziatsiya qilingan yoki konsentratsiyalangan bozor segmentatsiyasini qo'llashsa, farqlanmagan marketingni ishlatish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kompaniyaning boshqa bozor segmentatsiyasi yondashuvidan foydalanishi mumkinligini ko'rib chiqish kerak.

Bozordagi faoliyat strategiyalarini asoslashda uch turdagi strategiyalar ishlatilishi mumkin:

- differensiallanmagan marketing;
- differensiallangan marketing;
- konsentrlangan marketing.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bozor munosabatlarining tiklanishi va shakllanishi davrida tadbirkorlik tuzilishida ko'plab korxonalar differensiallanmagan marketing strategiyasini ushlab turdi. Bu strategiya firmani xaridorlarni xarid jarayoni va tovarga bo'lgan munosabat hamda motivatsiyasidagi turli-tumanlikka emas, balki xaridor ehtiyojlarida qiziqishni umumiyligiga mo'ljalni oladi.

Bunday tovarlar va marketing dasturlarini ishlab chiqish orqali firma o'z maqsadiga xaridorlarni o'rtacha massasini qondirib erishishi mumkin. Strategiyani ishlatuvchi firmalar muvaffaqiyatining muhim omili bo'lib standartlashtirishi va tovar ishlab chiqarishni umumiyligi hisoblanadi. Differensiallanmagan marketing strategiyasi mahsulot ishlab chiqarish va sotishda kam xarajatlarni ta'minlaydi. Biroq X.Meffert ta'kidlaganidek, «bu strategiya zamonaviy marketing tamoyillariga qarama-qarshi turadi».

Marketingni zamonaviy konsepsiyasida ikkita strategiya ko'riladi: differensiallangan va konsentrlangan marketing.

Differensiallangan marketing strategiyasida firmadan uning faoliyatini bir necha segmentda ular uchun maxsus ishlab chiqarilgan tovarlar va marketing dasturlari bo'lishini talab qiladi. Bu strategiya xaridorlarning motivlari va tushunchalariga mos keluvchi marketing dasturi va xaridorlarga mo'ljallangan marketingni asosiy tamoyiliga mos keladi. Bu strategiya xaridorni bozordagi holatini to'liq ifodalaydi, shuning uchun, qoidaga ko'ra, yuqori sotish hajmini va konsentrlangan marketing strategiyasiga nisbatan kichik tavakkalchilik darajasini ta'minlaydi.

Differensiallangan marketing strategiyasi yuqori investitsiya, ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlarini talab qiladi, shuning uchun u yirik korxonalar uchun zarurdir. Mahsulot differentsiatsiyasi – turli bozorga chiqishning keyingi imkoniyatidir. Bu, birinchi navbatda, tovar taqsimlashda diversifikatsiya strategiyasini olib borishga asoslanadi. Konsentrlangan marketing strategiyasi korxonalardan bozorning foydali segmentiga, ya'ni bitta yoki bir necha segmentiga e'tiborni qaratishni talab qiladi. Bu bozor segmentiga firma bitta yoki bir necha mahsulot bilan hamda maqsadli marketing dasturi bilan yondoshadi. O'z mazmuniga ko'ra, bu strategiya bozor chuqurchasi konsepsiyasiga mos keladi, ya'ni shunday bozor segmentida ishlash kerakki, tovar ushbu firma va uning yetkazib berish imkoniyatlari uchun ko'proq mos keluvchi bo'lib hisoblanadi. Konsentrlangan marketing strategiyasi ko'proq kichik va

o'rtta korxonalar uchun mos keladi, chunki bozorning barcha segmentlarida ishlash uchun hamda qayta yetarli moliyaviy vositalarni bo'lishi talab etilmaydi. Alohida o'ziga xos bir talab namoyon bo'ladigan hodisa tarzida olib qaraladi. Bozorni segmentlash, bozorni o'rnatishning asosiy usulidir. Uning yordamida bozor (uning tarkibiy qismlari) segmentlarga bo'linadi.

Bozor segmenti – bu iste'molchilar, tovarlar, raqobatchilarning shunday ajratilgan qismiki, ular uchun umumiy xususiyatlar xosdir. Bozorni to'g'ri segmentlash, shu segmentning spetsifik ehtiyojlariga qat'iy rioya qilingan holda kam xarajatlar bilan tovar yetkazib berishni to'g'ri tashkil qilishdan iboratdir. Makrosegmentlash bozorlarni hududlar, mamlakatlar bo'yicha ularning sanoatlashuviga qarab bo'lishni ko'zda tutadi. Mikrosegmentlash esa bir mamlakat iste'molchilarini yanada batafsilroq mezonlar bo'yicha guruhlariga bo'ladi. Ichkarida segmentlashda segmentlash jarayoni keng iste'molchi guruhlari bilan boshlanib, keyin tovar yoki xizmatlarni oxirgi iste'molchilari klassifikatsiyasiga bog'liqligiga qarab bosqichma-bosqich chuqurlashadi.

Chuqurda segmentlash tor iste'molchi guruhlari (segmentlari) bilan boshlanib, keyin tovarni ishlatish va qo'llanish sohasidan bog'liqligiga qarab kengaytirishni nazarda tutadi. Avvaldan segmentlash maksimal bozor segmentini o'rnatishga mo'ljallangan marketing tadqiqotining boshlang'ich bosqichidir.

Yakuniy segmentlash – bozor muhiti sharoitlari va firmaning o'z imkoniyatlarini tartibga solib o'tkazishdagi bozor tahlilini yakunlovchi bosqichidir. U iste'molchilar talabiga va firma imkoniyatiga javob beruvchi segmentga tovarlarni pozitsiyalashtirish maqsadida bozorni optimal segmentini qidirish bilan bog'liq.

Bozor segmentatsiyasining tamoyillari quyidagilardir:

- geografik tamoyil;
- psixografik tamoyil;
- demografik tamoyil;
- xulq-atvor tamoyili;
- holat tamoyili.

Geografik tamoyil orqali bozorni joylashuvi, aholining soni va zichligi, tijorat faoliyatining tuzilishi, hududning rivojlanish dinamikasi, inflyatsiya darajasi, huquqiy cheklashlar hisobga olinadi.

Psixografik tamoyil natijasida hayot tarzi, shaxsning tipi, jamoat holati kabi hisobga olinib, turmush tarzi shaxsning o'z faoliyatida, qiziqishlarida, qat'iyatida va e'tiqodlarida o'z aksini topadi. Shaxsning turi esa hayotdan mamnun, melanxolik, o'zgaraldek ish ko'ruvchi, o'zbiarmon va boshqa xislatlarda bo'lishi mumkin.

Demografik tamoyillarda oilani soni va sifat tarkibi, oilaning hayotiylik sikli bosqichi, daromadlilik darajasi, mashg'ulot turi, ma'lumoti, millati kabilar inobatga olinadi hamda bozor segmentatsiyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Xulq-atvor tamoyili orqali xarid qilishga yo'l, foydalanuvchi maqomi, iste'mol jadalligi, bog'lanib qolish darajasi, tovar haqida ma'lumot berish, tovarga bo'lgan munosabati hisobga olinadi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Bozor segmentatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor segmentatsiyasining qanday turlarini bilasiz?
3. Bozor segmentatsiyasining asosiy tamoyillarini aytib bering.
4. Maqsadli segmentni tanlash deganda nimani tushunasiz?
5. Makrosegmentlash va mikrosegmentlash deganda nimani tushunasiz?
6. Bozor segmentatsiyasining tamoyillarini tushuntirib bering
7. Tovarni pozitsiyalashtirish deganda nimani tushunasiz?
8. Demografik tamoyil va geografik tamoyil orasida qanday farq bor?

8-MODUL. RAQOBATLI STRATEGIYALAR

8.1. Raqobat tushunchasi va mohiyati

Raqobat bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim xususiyati. U amal qilishi uchun ma'lum shart-sharoit muhayyo bo'lishi talab qilinadi. Raqobat faqat bozor iqtisodiyoti muhitida bo'lishi mumkin, chunki undagina u zarurat bo'ladi, shuningdek, unga yo'l ham ochiladi. Shunday ekan bozor munosabatlarining yuzaga kelishi ayni bir vaqtda raqobatchilikning shakllanishini bildiradi. Bozor iqtisodiyotining shakllanishidagi klassik yo'l G'arb mamlakatlarida bo'lib, u yerda raqobatchilik muhiti uzoq yillar mobaynida, davlatning ishtirokisiz, o'z-o'zidan, ya'ni stixiyali yuz bergan. Shu yo'sinda erkin raqobat paydo bo'lgan. Iqtisodiyotda monopollashuv tendensiyalari paydo bo'lish munosabati bilan erkin raqobat cheklanadi, shu sababdan sog'lom raqobatchilik muhitini yaratishda davlat ham qatnashadi. Buni davlatning antimonopol siyosatida ko'rish mumkin. Bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratishga emas, balki uni saqlab qolishga, kezi kelganda qaytadan tiklashga, raqobatning madaniylashgan usullarini qaror toptirishga qaratiladi. Davlatning xususiy monopoliyalarni jilovlashga qaratilgan tadbiri 1890-yilda AQShda qabul qilingan "Sherman qonuni" bo'lib, u tarixda antitrust qonuni deb nom olgan. Keyinchalik bu qonun bir necha marta monopoliyalarga qo'yilgan talablarni jiddiylashtirish uchun qayta ko'rib chiqilgan. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'muriy choralar boshqa mamlakatlarda ham ular sharoitlari taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Antimonopol qonunchilik asosan quyidagi uch yo'nalish bo'yicha shakllanadi.

1. Ishlab chiqarish tizimi (tarkibi)ni boshqaruvchi qonunlar yoki ular moddalarini aniq belgilash. Ularga ko'ra odatda hech bir korporatsiya u yoki bu turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig'ini nazorat qilishga haqqi bo'lmaydi..

2. Barcha yirik korporatsiyalarning ishtirokchilari boshqa korporatsiyalarning aksiyalarini ma'lum cheklangan miqdordan ortig'iga ega bo'la olmasliklari kerak.

3. Narxlarni talab va taklif muvozanati belgilangan darajadan yuqori yoki past tutib turishni, narx xususida kelishib olishni man qiluvchi antikartel qonunlarni joriy etish.

Iqtisodiyotni tartibga soluvchi “ko‘zga ko‘rinmas qo‘l” raqobatdir. Shunday ekan, har bir mamlakat iqtisodiyotining qay darajada rivojlanishi shu davlatdagi raqobat muhitining amaldagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, erkin bozor iqtisodiyotining negizini tashkil etuvchi munosabatlardan biri - bu raqobat deyish mumkin.

Zero, raqobatni rivojlantirmay va uni himoyalash mexanizmini yaratmay turib, iqtisodiyotni erkinlashtirish yoki iqtisodiy samaradorlikka erishishni tasavvur qilish qiyin.

Raqobat – iqtisodiyotni harakatga keltiradigan kuch, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda uning roli beqiyosdir

Raqobatga bugungi kunga qadar bir qancha ta’riflar berilgan bo‘lib, Adam Smit uni “ko‘zga ko‘rinmas qo‘l” deb atagan edi. Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o‘z mavqeyini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imijga ega bo‘lish uchun kurashdan iborat jarayondir.

- integrallashgan firmalar yangi texnologiyalarga sekin ko'nikish tendensiyasiga ega bo'ladilar, chunki bu katta xarajatlar bilan bog'liq;

- integratsiya ta'minotchilarni erkin tanlash xususida firmaning imkoniyatlarini cheklaydi;

- vertikal integratsiya qadriyatlar zanjiridagi har bir bosqichda quvvatlarni balansligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga olib keladi.

- «Oldingi» yoki «orqaga» integratsiya turli malaka, mahorat va ishbop qobiliyatlarini talab etadi.

Shunday qilib, vertikal integratsiya strategiyasining ham kuchli, ham kuchsiz tomonlari bo'lishi mumkin. Integratsiyaning qanday yo'nalish va qanday miqyoslarini tanlash quyidagilarga bog'liq:

- integratsiya kompaniyaning strategik jihatdan muhim bo'lgan ish sohalari xarajatlarini pasaytirish yoki tabaqalashtirishni chuqurlashtirish tomoniga yaxshilashga qodirmi?

- kapital xarajatlar, javob reaksiyaning chapdastligi va tezligiga, ma'muriy xarajatlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- raqobat ustunligini yaratishga qodirmi?

Boshlovchilikning ustunliklari va kamchiliklari.

Vaqt omili strategiyani tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi: ustunlikka erishish uchun «qaldirg'och» firmaning «qaltis vaqtda strategik harakat kerakmi yoki kerak emas?» degan savolga javob beradi.

Strategik qadamlarni birinchi bo'lib qo'ygan firma shundagina yuqori natijalarga erishishi mumkin, qachonki: tashabbuskorlik firmaning obro' orttirishiga yordam bersa.

Xomashyo, yangi texnologiyalar ta'minotchilari, sotish tarmoqlari bilan erta o'rnatilgan aloqalar mutloq ustunlikni egallashga imkoniyat yaratishi mumkin. Birinchi xaridorlar takroriy xaridlarni amalga oshirib kompaniyaga kuchli ixlosmandlikni saqlab qoladilar.

Ammo kutish har doim ham muvaffaqiyatsiz yondashuv bo'lavermaydi.

«Qaldirg'och»lar uchun qiyinchiliklar paydo buladi, qachonki:

- birinchi bo'lib yurish, yo'lboshchilardan keyin yurishga qaraganda ancha qimmatga tushadi;

- texnologik o'zgarishlar shunchalik tez amalga oshadiki, ilk investitsiyalar tezda samarali bo'lmay qoladi.

- kutayotganlarga bozorga kirish osonroq, chunki xaridorlar har doim ham «qaldirg'och»larga sadoqatni saqlab qolavermaydilar.
- ilgari ketayotganlarning mahorat va "nou-xau"laridan osongina nusxa ko'chirilishi mumkin yoki hatto orqada qolayotganlar tomonidan takomillashtirilishi ham mumkin.

Raqobatni kuzatib borish tizimi quyidagi to'rt asosiy savolga javob topishga asoslanadi:

- raqobatchining asosiy maqsadlari nimadan iborat?
- ushbu maqsadlarga erishish uchun ayni paytdagi joriy strategiya qanday?
- raqiblar o'z strategiyasini amalga oshirish uchun qanday vositalarga egalar?
- ular kelgusida qanday strategiyalarni ilgari surishlari mumkin?

Dastlabki uch savolning javobi kelgusi strategiyalarni avvaldan prognozlashga imkon beradi. To'rtta savolning barchasi bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida raqiblarning faoliyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Ko'plab yirik firma va kompaniyalar raqobatni kuzatishga katta e'tibor berib, kerakli ma'lumotlarni to'plash uchun katta mablag'larni sarflaydilar.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Raqobat deganda nimani tushunasiz?
2. Bozorda raqobat nechta bosqichdan o'tadi?
3. Raqobatning ijobiy va salbiy jihatlarini aytib bering.
4. Subyektning mavqei qachon ustun deb hisoblanadi?
5. Oligopoliya deganda nimani tushunasiz?
6. Raqobat munosabatlari nechta bosqichda amalga oshiriladi?
7. Raqobat ustunligiga qanday erishiladi?
8. Hujumkor strategiyaning oltita asosiy turlarini sanab bering
9. "Kurashga chaqiruvchi" strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
10. F. Kotler firmaning bozordagi ulushidan kelib chiqqan holda raqobatchilik strategiyasini qanday turlarga ajratib ko'rsatadi?

9- MODUL. TOVAR SIYOSATI

9.1. Tovar va xizmat tushunchalari mohiyati

“Tovar” soʻzi lotincha “produce” – hosil qilmoq feʼlidan kelib chiqadi. “1575-yildan buyon” tovar “soʻzi ishlab chiqarilgan narsaga nisbatan qoʻllanila boshlagan⁴⁴. Tarixiy davrlarga kelib tovar munosabatlari jamiyat iqtisodiyotining barcha tomonlarini keng va chuqur qamrab oladi.

Tovar ishlab chiqarish vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy mehnat taqsimotining roʻy berishi. Bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, oʻz navbatida, qiyosiy ustunlik tamoyili boʻyicha, yaʼni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi;

2) shaxsiy va xususiy mulkchilikning shakllanishi, ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi. Bunda ular oʻz mulklari hamda mehnat natijalarini oʻzlari tasarruf qiladilar. Iqtisodiy alohidalik xoʻjalik faoliyatiga oid barcha qarorlarni ishlab chiqaruvchining oʻzi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qoʻyadi va bozor iqtisodiyoti vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, yaʼni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi.

Tovarning iqtisodiy maʼnosi birinchi boʻlib Adam Smit tomonidan izohlangan.⁴⁵ Klassik iqtisodchilar va Karl Marksning nazariyasiga koʻra tovar – bu mehnat asosida ishlab chiqarilgan va bozorga sotish uchun olib chiqilgan har qanday narsa.

Tovarni tushinishda tovarning mazmunini, uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir. Tovarga taʼrif berishda ham iqtisodchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, Ye.F.Borisov taʼrifiga koʻra «Tovar – bu bozorda boshqa tovarga ekvivalent asosida ayirboshlashga moʻljallangan, mehnat orqali yaratilgan ijtimoiy naflilik-

⁴⁴ <http://www.wikipedia.org/uz>

⁴⁵ Адам Смит. "Исследование о природе и причинах богатства народов". – Москва. Эксмо, 2016, 203 стр.

dir».⁴⁶ Bundan ko‘rinadiki, u tovarga inson mehnati mahsuli sifatida qaraydi.

V.I.Vidyapin va boshqalar tahriri asosida tayyorlangan darslikda «ne‘mat» va «tovar» tushunchalariga keng izoh berilgan. Unda tovar iqtisodiy ne‘matning maxsus shakli bo‘lib hisoblanishi ko‘rsatib berilgan: «Tovar – bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan maxsus iqtisodiy ne‘mat».⁴⁷ Bu va boshqa qator olimlarning fikrlari asosida ta’kidlash mumkinki, tovar – bu biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo‘lgan, ayirboshlash uchun yaratilgan mehnat mahsuli.

Tovar ikki xususiyatga ega: bir tomondan, u kishilarning qandaydir ehtiyojini qondira oladigan, ikkinchi tomondan esa, boshqa buyumlarga ayirboshlana oladigan buyumdur. Boshqacha aytganda, tovar naflilikka (iste‘mol qiymatiga) va qiymatga egadir. Marketingda tovar deganda, ehtiyoj yoki talabni qondirishi mumkin bo‘lgan va bozorda taklif etilgan har qanday narsa tushuniladi. Ishlab chiqarish sohasida tovarlar xomashyo sifatida sotib olinadi va tayyor mahsulot sifatida sotiladi.

XX asrlargacha iqtisodiyotda ayirboshlash va savdo jarayonlari markazida tovar muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunga kelib, ayniqsa, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida yana bir asosiy tushuncha, “xizmat” tushunchasi paydo bo‘ldi. Xizmat deganda, avvalo, mehnat mahsulotini tushunish lozim. Ushbu mahsulotning asosiy belgilanishi bo‘lib, insonlarning aniq talablarini qondirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xizmat – bu insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Servis faoliyati deganda yakka tartibdagi xizmatlarni ko‘rsatish orqali insonlar talabini qondirishga yo‘naltirilgan faoliyat turini tushunish lozim. Ushbu turdagi faoliyat bilan turli xildagi tashkilotlar shug‘ullanadi. Ular jumlasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar va turli mulk shakliga ega bo‘lgan servis korxonalari kiradi. Ular mehnatining natijasi bo‘lib xizmat hisoblanadi.

Xizmatlar iqtisodiy faoliyat turi sifatida ko‘p vaqtlardan beri mavjud. Birinchi bo‘lib, “xizmat” tushunchasini fanga klassik iqtisodiy maktab namoyandasi fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey kiritgan. U

⁴⁶ Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.144.

⁴⁷ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с.143.

xizmatlarni faqat inson tomonidan emas, balki jism va tabiat kuchi tomonidan ham ko'rsatiladi, deb hisoblagan.⁴⁸

Klassik iqtisod maktabi asoschisi Adam Smit o'z tadqiqotlarida xizmatlar sohasini alohida tadqiq qilmagan. Olim xizmatga mehnat sifatida qaraydi va mehnat (xizmat) ishlab chiqarilish jarayonining o'zida iste'mol bo'lishini, unumli va unumsiz mehnat (xizmat)larga bo'linishini aytib o'tgan. Shuningdek, A.Smit mehnat (xizmat) qiymat yaratmasligini, qiymat faqat moddiy sohada yaratilishini e'tirof etgan.⁴⁹

Marksizm maktabi asoschisi Karl Marks ham xizmatlarni alohida tadqiq etmasa-da, u o'z asarlarida "samarali xizmat" tushunchasini ishlatadi. Xususan, u transport xizmatlarini sanoat rivojida samarali xizmatlar sifatida baholaydi. Shuningdek, K.Marks jamiyatda kapitalist va ishchilarni pulning chiqish manbai sifatida, xizmat ko'rsatuvchilarni pulni kirish manbai sifatida e'tirof etadi.⁵⁰

Neoklassik maktab vakili Alfred Marshall xizmatlar to'g'risida ancha dadil va Shu bilan bir qatorda, mantiqan asoslangan fikrlarni maydonga tashlagan va xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslarini shakllantirishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. U xizmatlarni mehnatning nomoddiy, 1 sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalari sifatida talqin qilgan. Aynan, A.Marshall barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning barchasi mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibor qaratgan. U birinchi bo'lib, insonning hayot faoliyatida va ehtiyojini qondirishida moddiy noz-ne'matning o'ta muhim va zarur ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan turli nomoddiy noz-ne'matlar va xizmatlarning ham katta ahamiyati borligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.⁵¹

XX asrlargacha iqtisodchi olimlar xizmatlarni ko'zga ko'rinmaganligi sababli, uni alohida kategoriya sifatida talqin etmaganlar. Keyinchalik sanoat va fan-texnika rivojlanishi natijasida xizmatlar sohasi alohida iqtisodiy tizim sifatida ajralib chiqdi. Natijada, postindustrial jamiyat yuzaga keldi (9.1.1-jadval).

⁴⁸ Жан Батист Сей, Фредерик Бастиа. "Трактат по политической экономии". – Москва. Дело, 2000.

⁴⁹ Адам Смит. "Исследование о природе и причинах богатства народов". – Москва. Эксмо, 2016.

⁵⁰ Карл Маркс: Капитал. Санкт-Петербург. ИГ Лениздат, 2013 г.

⁵¹ Альфред Маршалл. Принципы экономической науки. Москва. Прогресс. 1993.

Kishilik jamiyatining rivojlanish evolutsiyasi⁵²

Agrar jamiyat		Industrial jamiyat	Postindustrial jamiyat
Farqli xususiyatlari			
Qishloq xo'jaligi		Sanoat	Xizmatlar ko'rsatish
Amal qilish davrlari			
Insoniyat bo'lganidan XVIII asrning ikkinchi yarmigacha	paydo boshlab XVIII asrning ikkinchi yarmigacha	XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr oxirlarigacha	XX asrning 60-yillaridan hozirgi vaqtga qadar

Iqtisodchi olim M.M.Muxammedov “xizmat” tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: “moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, inson mehnati bilan yaratilgan barcha ne'matlar, ular oldi-sotdi obyektiga aylanishi yoki aylanmasligidan qat'iy nazar, bitta ibora bilan, ya'ni “xizmat” iborasi bilan nomlanadi. Uning tarkibiga esa oldi-sotdi vositasida bozor orqali iste'molchiga borib yetadigan xizmat ham, umuman bozorga daxldor bo'lmagan qismi ham kiradi”.⁵³

Yana bir iqtisodchi I.S.Ochilov “xizmat” tushunchasiga “insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli ko'rsatilishi mumkin bo'lgan faoliyati” deb, “xizmat ko'rsatish”ga esa, “insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli faoliyati amalga oshirilgan qismi” deya ta'rif keltiradi, ya'ni, “xizmat ko'rsatish”ni aniq manzilga yo'naltirilgan xizmat sifatida qaraydi.⁵⁴

Xizmat iste'molchisi – bu shaxsiy ehtiyoj uchun xizmatni oluvchi, buyurtma beruvchi yoki uni olish va buyurtma berish niyatida bo'lgan fuqarodir. Xizmatni bajaruvchi-iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilot yoki tadbirkor. Xizmatning natijasi bo'lib, tovarning iste'mol xususiyatlarini qayta tiklash (o'zgartirish, saqlash), buyurtmaga binoan yangi mahsulot yaratish, iste'mol sharoitlarini yaratish, sog'liqni,

⁵² С.Н.Диянова, А.Э.Штезел. Маркетинг сферы услуг. Учебное пособие. -Москва: Магистр, 2012.

⁵³М.М.Мухаммедов va boshqalar. Xizmat ko'rsatish va turizmning nazariy asoslari. Monografiya. - Samarqand: SamISI, 2016 yil.

⁵⁴I.S.Ochilov. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand: SamISI, 2010-yil 26-bet.

shaxsning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash va boshqa bir qator muhim vazifalar hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish tushunchasi servis tushunchasiga qaraganda kengroq ma'noni bildiradi. Ya'ni, xizmat ko'rsatish – bu biron-bir samaraga erishishga qaratilgan har qanday faoliyatdir. Milliy hisoblar tizimida ham iqtisodiyot sohasi sifatida xizmatlar sohasi kiritilgani, ya'ni servis sohasi atamasi mavjud emasligi ham fikrimizning isbotidir.

Servis esa – xizmat ko'rsatishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, turizm xizmatlari, keng ma'noda, biroq uning tarkibiga kiruvchi mehmonxona servisi tor ma'noda qo'llaniladi. Shuningdek, ayrim holdalarda servis deyilganda tovar sotilganidan keyin ko'rsatiladigan xizmat (yetkazib berish, o'rnatish, ta'mirlash va hokazo) tushuniladi. Bu ma'noda yondashadigan bo'lsak, servis – mijozni tovarni sotib olganidan keyin ehtiyojlarini to'liq qondirilishidir. Shuningdek, xizmat ko'rsatish bevosita amalga oshirilsa, servis bilvosita amalga oshiriladi. Xizmat – foydali mehnat sarfi hisoblansa, servisning foydali yoki foydasizligining ahamiyati yo'q, servis shunchaki inson tomonidan payqalsa bo'lgani. Misol uchun, stomatolog tibbiy xizmat ko'rsatadi. Stomatolog huzurida navbat kutayotganda mijozga kofe ichish, jurnal mutola qilish taklif etilsa, bu servis hisoblanadi (9.1.2-jadval).

9.1.2-jadval

Xizmat va servis tushunchalarining farqli xususiyatlari

Farq qilishi	Xizmat	Servis
Qamrab olish darajasiga ko'ra	Umumiy	Xususiy
Taqdim qilinishiga ko'ra	Bevosita	Bilvosita
Taqdim qilinadigan vaqti	Tovar yoki xizmat sotilayotgan paytda	Tovar yoki xizmat sotilishidan oldin yoki keyin
Foydalilik xususiyati	Iqtisodiy foyda keltiradi	Iqtisodiy foyda keltirishi ham keltirmasligi ham mumkin

“Servis” tushunchasi (ingliz tilida service – xizmat, xizmat qilish), ingliz tilidagi ma'noni, ya'ni “xizmat ko'rsatish, turli xizmatlarni taqdim etish”ni anglatadi. Shu bilan birgalikda, “servis” so'zini ma'nosi bizni oxirgi o'n yilliklardagi iqtisodiy amaliyotimizda aniq mohiyatga ega

bo'ldi. 70–80-yillarda mamlakatimizda servis zamonaviy talablarga javob beruvchi, mashhur firmalarni texnik yangiliklari va qimmatbaho tovarlari hayotini uzaytirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda ishlovchi malakali ishchilar tomonidan bajarilgan xizmatlar kompleksi bilan bog'langan.

“Servis” tushunchasi bilan bir qatorda “xizmat” tushunchasi ham keng foydalanildiki, u boshqa kishiga foyda ne'mat yordam keltiruvchi harakatni anglatadi. Shunday qilib, servis faoliyati mohiyatini tushunish foyda, xizmat tushunchalari bilan bog'langan ekan. Umuman olganda, “xizmat” va “servis” tushunchalari bir xil ma'noga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga ular zamonaviy xizmat ko'rsatish turini aks ettiruvchi “servis xizmati” so'z birikmasini ham hosil qilishi mumkin.

Real iqtisodiyotda tovar va xizmat hech qachon sof turda harakat qilmaydi. Taniqli amerika o'quv qo'llanmasi mualliflari, quyidagilarni ta'kidlaydilar: «Haqiqatda qarib har doim tovarlarni xarid qilish hamroh xizmatlar bilan kuzatilib boradi va har qanday xizmatlarni xarid qilish hamroh tovarlar bilan kuzatilib boriladi. Shunday qilib, tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi farqni tushinish uchun shu narsani anglash lozimki, ushbu predmetlar bir-biriga qarama-qarshi hisoblanmaydi, balki yagona kontinumning ikki tomonini aks ettiradi». Masalan, har qanday tovarni xarid qilish uning reklamasi, saqlanishi, namoyish qilinishi, o'rashi, yuklash – tushirish, kafolatlangan va kafolatlangandan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar bilan bevosita bog'langan. Restoranda mijozga sotish uchun tovar sifatida nafaqat ovqatni taklif qilishadilar, balki oshpazlar, ofitsiantlar xizmatlari, ovqatlanish uchun mumkin bo'lgan stol va binolar, ayrim holatlarda esa dam olish dasturlari ham taqdim etiladi. Sezilmaydigan axborot xizmatlarini ola turib, biz tovar sifatida namoyon bo'layotgan qog'oz yoki magnit lentasidagi ma'lumotni xarid qilishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa keladiki, bir-biriga qarama qarshi tovar va xizmat chambarchas bog'liqdir.

Servis iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida xizmatlar tarafga o'zgarish vujudga kelmoqda, ya'ni hozirgi jamiyatda ko'pchilik oldi – sotdi munosabatlari xizmatlar ko'rsatish sifatida ko'rilmogda. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasining nisbatan kengayish tendensiyasi ko'zga tashlanmogda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu yo'nalishda «tovarlar - xizmatlar» tizimida tenglik o'zgarib bormogda».

9.2. Tovar va xizmatning iste'mol xususiyatlari, uning aholi ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha talablar

Tovar ishlatilish maqsadiga ko'ra, asosan, iste'mol tovarlari va sanoat tovarlari turlariga bo'linadi. Iste'mol tovarlariga to'xtaladigan bo'lsak, iste'mol tovarlari – bu shaxsiy iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlardir. Ular kundalik talab tovarlari, dastlabki tanlov asosida olinadigan tovarlar, alohida talabdagi tovarlar, passiv talabdagi tovarlarga bo'linadi.

Kundalik talab tovarlariga kundalik turmush uchun zaruriy oziq-ovqatlar, kir yuvish, tozalash vositalari, uy xo'jaligi uchun zaruriy mayda tovarlarni kiritish mumkin.

Kundalik iste'mol tovarlarini iste'mol qilish intensivligiga ko'ra ularni o'z navbatida 3 ta quyi guruhga ajratish mumkin:

- doimiy ehtiyojdagi asosiy tovarlar (non, xo'jalik sovuni);
- impulsiv tarzda sotib olinadigan tovarlar (saqich, gazeta);
- favqulodda holatlar uchun xarid qilinadigan tovarlar (zont).

Dastlabki tanlov asosidagi tovarlar safiga: mebel, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or uchun elektr jihozlari kiradi va u xaridorlarni qiyoslashni, narx, moda, dizayn jihatidan tanlovda bir muncha mulohaza yuritishni talab qiladi. Ushbu tovarlar:

- o'xshash tovarlar (sifat jihatdan bir-biriga yaqin, lekin dizayn, narxi bo'yicha farqlanadi);
- alohida ko'rinishdagi tovarlar (rangi, fasoni, navi jihatidan).

Alohida talabdagi tovarlar - muayyan turdagi iste'molchilarni o'zining alohida iste'mol xususiyatlari orqali jalb qiluvchi tovarlar turkumi. Alohida talabdagi tovarlarni izlab topish uchun xaridor ko'p vaqt sarflaydi va mijoz ularni o'zi uchun zarur deb hisoblaydi. Odatda, bunday turdagi tovar iste'molchilari boshqa o'rinbosar tovarlarga nisbatan befarq bo'ladilar. Misol uchun, agar siz maxsus brenddagi shokoladni xarid qilmoqchi bo'lsangiz, boshqa turdagi muqobil variantlardan voz kechasiz. Alohida talabdagi tovarlar boshqa turdagi tovarlardan narxining nisbatan yuqoriligi bilan ham ajralib turadi.

Passiv talabdagi tovarlar – xaridorlarga notanish yoki ular xususi-da juda kam o'ylaydigan tovarlardan tarkib topadi. Ishlatish vaqtiga ko'ra:

- qisqa muddatli foydalanishga oid tovarlar:

- uzoq muddatli foydalanishga oid tovarlar:

Tovarlar va xizmatlar assortimenti – bu foydalanish bo‘yicha bir-biriga juda o‘xshash tovarlar (xizmatlar) guruhidir.

Sanoatda ishlatiladigan tovarlar. Ular ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi va yangi qiymat yaratish darajasiga qarab quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- materiallar va detallar;
- kapital shaklidagi mulk (inshootlar, yordamchi dastgohlar);
- yordamchi materiallar va xizmatlar.

Ular tayyor mahsulotning asosini tashkil etmaydi, uning sifati, ko‘rinishi, xususiyatlarini oshiradi, mahsulotni tayyorlashga xizmat qiladi. Xarajat sifatida mahsulot tannarxiga qo‘shiladi. Masalan, yozuv qog‘ozi, moylovchi yog‘lar, toshko‘mir – yoqilg‘i sifatida, qalamlar, ip, podkladka materiallari va h.k.

Tovarni iste‘mol qilishda tovarning iste‘mol xususiyatidan tashqari uning sifati ham muhim ahamiyatga ega.

Tovar sifati – bu tovarning o‘z funksiyalarini bajarishda ko‘rinadi va u quyidagi parametr bilan xarakterlanadi, ya‘ni uzoq muddat xizmat ko‘rsatishi, pishiqiligi, foydalanishda soddaligi va boshqalar.

Marketing fani bo‘yicha tovar sifati xaridorlar bergan baho bilan o‘lchanadi.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar
Tayyorlash texnologiyasi
Ishonchlilik va uzoq vaqt davomida ishlatilishi
Mo‘ljallangan maqsadga mos kelishi
Tashishga va saqlashga yaroqliligi
Ekologik xususiyatlari
Ergonomik xususiyatlari
Estetik xususiyatlari
Xavfsizlik ko‘rsatkichlari

9.2.1-chizma. Tovarning sifat xususiyatlari⁵⁵

Iste‘mol jarayonida tovarning o‘ziga xos alohida xususiyatlari bo‘lgani kabi, xizmat iste‘molida ham bir qancha elementlar mavjud. Har qanday servis faoliyati mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan.


⁵⁵ Marketing: Ўқув қўлланма / Ф.Т. Базарова. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; –Т.: Иктисод-Молия, 2015. - 424 б

rilgan. Shu sababli talabni o'rnatish servis sohasi mexanizmini tushunish uchun zarur hisoblanadi.

Ehtiyojni qondirish degani – bu biror bir yo'q narsani bor qilish, kerakli narsani berishdir. Lekin, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, ehtiyoj qiyin strukturaga egadir. Unda ikki asosiy komponent ajralib turadi: obyektiv va subyektiv.

Ehtiyojlardagi obyektivlik – bu insonning tashqi tabiat va ijtimoiy muhit va o'z organizmi xususiyatlaridan real bog'liqligidir. Bunday talablar uyquga, ovqatga, nafas olishga va boshqa biologik talablarga bo'linadi. Ularsiz hayot mumkin bo'lmaydi, shuningdek ayrim qiyin ijtimoiy talablar. Ehtiyojlardagi subyektivlik – bu subyekt tomonidan taqdim etiladi, u tomonidan belgilanadi, unga bog'liq bo'ladi. Ehtiyojlarning subyektiv komponenti – bu inson tomonidan o'zining obyektiv muhtojligini anglashidir (to'g'ri yoki illyuziyali). Obyektiv muhtojlik va ushbu muhtojlikni subyektiv tushunish o'rtasidagi qiyin munosabatlar, servis faoliyati uchun juda keng imkoniyatlar yaratadi (9.2.2-chizma).

Xizmatlar aynan o'sha ehtiyojlarni qondirish funksiyasini bajaruvchi xususiyatga ega. Ularni iste'mol jarayonida 4 ta xarakteristika orqali farqlash mumkin (9.2.2-chizma).



9.2.2-chizma. Xizmatlarning «4 S» bilan ifodalanishi⁵⁶

Sezilmaslik xususiyati. Xizmatlar moddiy mahsulot bo'lib hisoblanmaydi. Ular ijtimoiy – madaniy (nomoddiy) sohalariga tegishli bo'ladi, chunki, iste'molchini ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji-

⁵⁶ Authorized adaptation from the United States edition, entitled Principles of Marketing, 17th edition, ISBN 978-0-13-449251-3, by Philip Kotler and Gary Armstrong, published by Pearson Education © 2018.

ni jismoniy, intellektual, ma'naviy ehtiyojini qondirish bo'yicha xizmatlarni ijro etuvchilar faoliyati aniqlaydi. Ularni xarid vaqtida ko'rish yoki baholash mumkin emas. Bunday xizmatlar obyekt bo'lib, shaxsan iste'molchi hisoblanadi.

Servis va iste'molchining o'zaro bog'liqligi. Xizmatlar iste'molchi va ijro etuvchilarning o'zaro ta'siri natijasidan tashkil topganligi sababli, xizmatlarni ko'rsatish jarayoni (ishlab chiqarish) iste'mol bilan birga parallel ravishda yuz beradi. Ma'lumki, moddiy shaklda tovarlarni ishlab chiqarish, uni sotuvidan oldin bo'ladi, faqat undan keyingina iste'mol jarayoni boshlanadi.

Saqlanmaslik. Xizmatlarning hayotiy sikli moddiy tovardan tubdan farq qiladi, xususan, saqlash bosqichining mavjud bo'lmaganligi bilan xizmatlarni saqlanmasligi bozor konyukturasini yaxshilab o'rnatishni, talab va taklifni mutanosibligini talab etadi, chunki xizmatlar talab bo'lmaganga qadar «omborlarda» turib qoladigan mahsulot emas.

Bu xizmatlar sifati ko'p hollarda manbaning holati, uning malakaviy tajribasi, kayfiyatiga bog'liq bo'ladi. Har bir sohasidagi xizmatlar o'zining o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi, ya'ni, ularni sifati qanday sharoitlarda kim uni rad etishga bog'liq bo'ladi. Bunday o'zgaruvchanlikni bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, bunday turdagi xizmatlar bir vaqtning o'zida ko'rsatiladi va qabul qilinadi, bu esa ularning sifatini nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Sifatning doimiy emasligi ehtiyoj yuqori bo'lgan davrda xizmat sifatini saqlashni muammoli qilib qo'yadi. Ko'p narsalar xizmat ko'rsatish vaqtida uni rad etish holatiga bog'liq bo'ladi. Aynan bir kishi bugun sizga yaxshi xizmat ko'rsatishi mumkin, ammo ertasi kuni sifatsiz xizmat qilishi mumkin. Bunday sifatsiz xizmat ko'rsatishni turli sabablari bo'lishi mumkin: xizmat sifatidagi o'sish va tebranishlar, mehmondo'stlik industriyasi sha'niga mijozlar tomonidan aytiladigan e'tirozlar norozilikning bosh sababi bo'lib hisoblanadi.

9.3. Brending va servis

Texnologiya va texnologiyalarning yuqori darajada rivojlanishi zamonaviy biznesni brendlar bilan raqobatlashishga yo'naltirdi, ularning mustahkamlanishi kompaniyalarga bozorda katta ustunliklarni taqdim etadi. Zamonaviy brendlar kompaniyalar faoliyatining muhim tarkibiy qismi, tijorat faoliyatining o'ziga xos belgisidir. Ular ishonch, barqaror-

lik, iste'molchilar uchun ma'lum bir umidlar ramzidir. Brendlar iste'molchi ongida mustahkam o'rin egallab yaxlit imijni uyg'otadi: "yuqori sport turlari. Nike yutuqlari". Mahsulotlardan farqli o'laroq, brendlar ishlab chiqarishda yaratilmaydi, ular iste'molchilar ongida shakllanadi va mavjud bo'lib, iste'molchilar idroki va mahsulotning funksional imkoniyatlari o'rtasidagi hissiy aloqani ta'minlaydi.

Brend - bu to'g'ri boshqarilgan holda ta'sir va qiymat yaratadigan Tovar markasida (brendda) ifoda etilgan haqiqiy va virtual fikrlar to'plami.⁵⁷ Muvaffaqiyatli har qanday kompaniya o'z brendini shaxsga aylantirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Odamlar ma'lum narsalarni o'zlarining his-tuyg'ulariga qarab sotib olishadi. Iste'molchining brendga bo'lgan munosabati bu yerda muhim omil hisoblanadi. Agar mijoz tovar tarixi haqida turli tafsilotlarni bilsa u o'zini bu katta oilaning bir qismi kabi his qila boshlaydi. Brend mahsulotning o'ziga xos imijini yaratadi, uni muqobil mahsulotlarning kulrang massasidan ajratib turadi va raqobatlashish imkoniyatini yaratadi. Brendli tovarlarga ega firmalar raqobatchilariga qaraganda ancha muvaffaqiyatli, xaridorlar segmenti ancha kengroq.

Korxonada faoliyatida tovar va xizmatlarning iste'molchilar orasida alohida o'rini belgilash uchun "brend" va "branding" tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda "brend" tushunchasining umumiy ta'rifi keltirilmagan, shuning uchun mavjud bo'lganlarning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Brend – raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinatsiyasidir.⁵⁸

Brend – aniq bir ishlab chiqaruvchining tovarlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qilish, shuningdek, uni raqobatchilar mahsulotidan differentsiatsiya qilish uchun mo'ljallangan nom, termin, simvol yoki chizma yoki shu elementlarning kombinatsiyasidir.⁵⁹ Shunday qilib, brend - sotuvchining mahsulotlarini va xizmatlarini belgilaydigan ism, tovar belgisi yoki tovar markasidir. Brend mahsulotning javobgarligini oshiradi,

⁵⁷ Clifton R., Maughan E. The Future of Brands. London : Macmillan Press Ltd, 2000. P.

⁵⁸ <https://www.ama.org/search/?s=brand>

American Marketing Association

⁵⁹ Аакер Д. А. Создание сильных брендов // Пер. с англ. – М.: Изд. дом Гребенникова, 2003 – 400 с.

iste'molchilarga mahsulotni aniqlashni osonlashtiradi, iste'molchilarga ma'lum sifatni kafolatlaydi.

Brend ba'zi mahsulotlar yoki xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan ramziy shaklda berilgan ma'lumotlarga asoslanadi va maqsadli auditoriya uchun alohida ahamiyatga ega. Brend elementlarning kompleks rivojlanishi tufayli noyob bo'lib qoladi:

- ism;
- dizayni (logotip, ranglar va shriftlardan - markali kiyimlargacha);
- korporativ madaniyat va xulq-atvor (barcha xodimlarga xos bo'lgan normalar va qadriyatlar; kompaniyaning madhiyasi va "musiqa logotipi" deb ataladigan kiyimlar);
- korporativ aloqa (PR va reklama tadbirlari);
- mahsulotning o'zi va uni qadoqlash uchun ishlatiladigan materiallar;
- o'ziga xos aromatlari (parfyumeriya yoki shunchaki qadoqlash hidi).

Brendning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- tovarlar va xizmatlar bozorida ma'lum bir joyni egallash;
- ishlab chiqaruvchi kompaniya va uning mahsulotlari o'rtasida yaxshi munosabatlarni o'rnatish;
- kompaniyaning tan olinishini ta'minlash;
- tovarlar va xizmatlar sifatini kafolatlash;
- oqilona narx siyosatini shakllantirish;
- savdo hajmini oshirish uchun zamin yaratish;
- mahsulot sotishni yo'lga qo'yish va doimiy biznes sheriklarini izlash.

Ammo brend vaqt sinovidan o'tishi kerak. Brendlangan mahsulot - bu xarid qilish muhitida ma'lum bo'lgan tasdiqlangan mahsulot hisoblanadi.

Brending – brendni yaratish va rivojlantirish, mahsulotlarni ajratib ko'rsatishning asosiy usuli, mahsulotni bozorga chiqarish va brend asosida iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlar yaratish jarayonidir. Qisqacha aytganda, branding mahsulot yoki xizmatning yaxlit va ommalashgan imijini yaratishga qaratilgan bir qator tadbirlardir. Yanada qisqacha ta'rif bersak: brendni boshqarishdir. Branding maqsadi – aniq brend obrazini yaratish va kommunikatsiya yo'nalishini aniq

shakllantirishdir. Brending bozorni tadqiq qilish, mahsulotni joylashtirish, tovar belgilari yaratish, identifikatsiyalash, vizual va verbal identifikatsiya qilish tizimlari va brend g'oyasini aks ettiruvchi jarayonlarni amalga oshiradi.

Rebrending brendni biznesning hozirgi holatiga va kompaniya rejalariga muvofiq keltirishga yordam beradi. Rebrending barcha brendlarning kommunikatsiya o'zgarishlarini o'z ichiga oladi: tovar o'ramidan tortib reklama materiallariga qadar. Rebrending brendni rivojlanishiga yordam beradi. Brend audit brendning raqobatbardosh brendlarga nisbatan bozorda mavjud holatini tahlil qilishdir

Brend quyidagilarda yordam beradi:

- Tovarni identifikatsiya qilish, ya'ni tovar ishlab chiqarilishi bilanoq tanilishi kerak

- Raqobatchilar mahsulotlaridan ajralib turishiga, ya'ni mahsulotni umumiy massadan ajratish

- Iste'mochilarda yoqimli obrazni hosil qilish, ya'ni brend ularda ishonch uyg'otishi zarur

- Tovar bilan bog'langan turli emotsiyalarni jamlash

- Xaridorda sotib olish haqida qarorning paydo bo'lishi va tanlovining to'g'riligiga ishonch hosil qilish, ya'ni qabul qilgan qarorining to'g'riligidan qoniqish hissining paydo bo'lishiga yordam beradi

- Brend bilan o'z hayoti obrazini assotsiatsiya qiluvchi doimiy xaridorlar guruhini shakllantirish.

Brendning xarakterli xussusiyati shundaki, u unga nom bergan tovardan ajralishi va o'zi mustaqil tovarga aylanishi mumkin. ya'ni, haqiqiy brend har doim yuqori bahoga loyiq bo'ladi. Aynan, shu masala u yoki bu savdo markasini brend bo'lishi yoki bo'lmasligini hal qiladi. Psixologik nuqtayi nazarga ko'ra, insonlar o'zaro reklama kommunikatsiyasiga kirishish va o'z-o'zini namoyon qilish vositasi sifatida ham brenddan foydalanishi mumkin.

Brend xususiyatlari va turlari

Marketing amaliyotida brendlarning bir nechta xususiyatlari borligi ta'kidlanadi.

1. Har bir brend unga xaridorlar va potensial mijozlar tomonidan berilgan muayyan atributlar – funksional va emotsional assotsiatsiyalarga ega bo'ladi. Brendning atributlari pozitiv ham, negativ ham bo'lishi mumkin, ular bozorning turli segmentlari uchun har xil kuchga ega bo'lishi mumkin.

2. Har bir brend uning mohiyatini belgilovchi bosh, asosiy xarakteristikaga ega bo'ladi (Brand Essence).

3. Brendning barcha atributlari yig'indisi brend bo'yicha mutaxassis yaratadigan va saqlab turadigan brendning individualligini (Brand Identitu) tashkil qiladi. Brendning individualligi brend nimani bildirishi va brend mualliflarining iste'molchilarga nisbatan uzoq muddatli va'dalarini ifodalaydi.

4. Har bir aniq vaqt davomida har qanday brend muayyan imijga ega bo'ladi - bu shu damda iste'molchilar ongida mavjud bo'lgan assotsiatsiyalarning noyob yig'indisidir. Bu assotsiatsiyalar brendning aynan shu paytda nima ifodalayotganini bildiradi, ular brend mualliflarining iste'molchilarga aynan shu paytdagi va'dalaridir. Xususan, brend imijini reklama kompaniyasi ham shakllantirishi mumkin.

Brend imiji – bu xaridorlarning aynan ongida mavjud bo'lgani bo'lsa, brendning individualligi esa uzoq muddatlar bilan bog'lanuvchi tushunchadir.

Taniqlilik darajasi bo'yicha brendlar turlari

Brend har qanday hodisa kabi iste'molchilar ongiga ta'sir ko'rsatish va ular xohishlarini shakllantirish imkoniyatiga ega.

Kuchli brend – bu shunday brendki (strong brand), uni mazkur tovar kategoriyasi iste'molchilarining 60 foizi yaxshi biladi boshqa markalardan ajratib oladi. Rivojlanayotgan brendni 30 foizidan 60 foizigacha iste'molchilar tanishadi va ajratishadi. Zaif brend – bu raqobatchilar orasidan 30 % iste'molchilar tanib oladigan brenddir.

Brending obyektlariga ko'ra brendlar turlari:

Brending nazariyasining yirik mutaxassislaridan biri Linn Anshouning fikricha, brend tushunchasi an'anaviy tarzda tushunilayotgan tushunchadan ancha kengdir.

Brendning bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan bir nechta tiplari mavjudligini ta'kidlab, quyidagi tasnifni taklif qiladi:

Tovarlar brendlari (Product brands) – bu bozorda paydo bo'lgan brendlarning eng birinchisidir. Ular brendingning asosi, yadrosi hisoblanadi, chunki ular brendning boshqa tiplariga nisbatan miqdoriy ustunlikka ega va iste'molchilar tomonidan birinchi navbatda eslanadilar.

Servis (xizmat) brendlari (Service brands) - bozorda bu brendlar tovarlar brendlariga nisbatan kam, chunki ko'zga ko'rinib, sezish organlariga ta'sir etishi qiyin bo'lgan xizmatlarni chiroyli holda taqdim qilish ancha murakkabdir.

- Tashkilotlar brendlari (Organizational brands) – bu korporatsiyalar, notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ta'lim muassasalarining brendlaridir.

- Voqea-hodisalar brendlari (Event brands) – bu doimiy ravishda sport, shou biznes va san'at olamida yuz beradigan voqea-hodisalar brendlaridir. Bu kabi tadbirlar tashkilotchilari o'z maqsadlariga ko'pincha brendingning an'anaviy instrumentlaridan foydalanish orqali erishadilar. Ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini nufuzli sport turnirini namoyish qilish vaqtidagi tanaffuslarda reklama qilishga intilishadi va bu brendning bahosi hisoblanadi.

- Shaxslar brendlari (Personal Brands) – sportchilar, xonandalar, siyosatchilar, biznesmenlar har doim ham insoniyat jamiyatida mavjud bo'lishgan, ammo ular aynan bugungi kunda boshqa brendlarga o'xshab qolishdi. Ularning brend sifatidagi xususiyati shundaki, ularning mashhurligi o'z faoliyatidan tashqari juda keng sohalarga tarqaladi, sportchilar va siyosatchilar reklamada, xonandalar – kinoda suratga tushadilar, aktyorlar va biznesmenlar sport musobaqalari o'tkazadilar va b.

- Geografik brendlar (Geographical brands) – bular shaharlar, mamlakatlar, kurortlardir. Brendning bu turi turistik biznesda juda ommalashmoqda. Masalan, Sent-Mortsdagi tog'-chang'i kurorti, Frantsiyadagi Riv era va Seyshel orollari shunday brendlarga misol bo'la oladi.⁶⁰

Brendni yaratish bosqichlari:

1. Tadqiq va tahlil qilish, bu raqobatchilar faoliyatini o'rganishdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni rejalashtirishdan avval marketing tadqiqotlarini o'tkazish va mahsulotni baholash lozim, ya'ni mahsulot :

⁶⁰ Lin Anshu, Jun Wu & Ulysses J. Brown III (2015) Do Stereotypes Ignite Polysemy and Strengthen Consumer-Based Brand Equity?, Journal of Promotion Management, 21:5, 531-547

- butunlay yangi;
- ishlab chiqaruvchi uchun yangi (raqobatchilarning harakatiga javob sifatida);
- yangi avlod vakili, yaxshilangan konfiguratsiyaga ega;
- an'anaviy (line extinction), assortimentni kengaytiradigan, raqobatchilardan nishani olib qo'yadigan bo'lishini belgilab olish kerak bo'ladi.

So'ngra marketing nishasi ishlab chiqiladi. Ushbu guruhdagi raqobatchi-markalar va ularning qanchalik darajada o'rnatilganligi aniqlanadi. Kim ushbu mahsulotdan foydalanadi, kim uni sotib oladi, kim konsultatsiya beradi yoki ekspertizani o'tkazadi, bularning barchasi oxirigacha aniqlanadi. Bo'lg'usi brendning narx/ sifat sistemasidagi pozitsiyasi shakllantiriladi, ya'ni ushbu brendni qaysi xaridorga sotish va undan qanday foyda olish mumkinligi hisoblanadi.

2. Strukturasi ishlab chiqish

Brendlar portfelini rivojlantirish strategiyasi yoki brending nuqtayi nazariga ko'ra brendlar arxitekturasi ishlab chiqiladi (Promotion).

Portfelning ikkita modeli mavjud: "zontikli", uni yana Branded House deb ham atashadi (brend –tom, umumiy uy), ikkinchisi alohida brendlarning kompleksi – House of Branded (brendlar uyi).

Birinchi vaziyatda barcha kuchlar tovarlarning hamma guruhlarini qamrab oladigan yagona brendni yaratishga qaratiladi. Masalan: Jonson & Jonson (bunda tana va sochni parvarishlovchi vositalar bir nom ostida chiqariladi). Zontikli brendning yorqin namunasi – "Genius" savdo markasidir, u turli asbob-uskunalar, kompyuter sichqonchalaridan tortib skanerlargacha taklif qiladi.

Ammo iste'mol bozorida tovarlarni supermarketlar tarmog'i orqali sotish vaqtida bitta peshtaxtada brendning barcha turdagi mahsulotlarini joylashtirish imkoni bo'lmaydi (shampunlar alohida, kremlar alohida joylashtirilishi ma'lum), shunda brend bo'linib ketishga majbur bo'ladi.

Bu kabi megabrendlar rivojida muayyan tavakkalchilik ham mavjud: birgina mahsulotning omadsizligi tovarlarning barcha guruhlariga ta'sir ko'rsatishi va brendni parchalanishi mumkin.

3. Nom tanlash ("Brand-name").

Har qanday brendga nom kerak. U tanlangan segmentga mos kelishi zarur. aksincha bo'lsa, stereotiplarni yengish uchun qo'shimcha harajatlarni qilishga majbur bo'linadi. Talaffuz qilish oson (har doim eshitiladi va

tezroq eslab qoladi) ijobiy (brend haqida gap ketganda paydo bo‘ladigan ijobiy his-tuyg‘ular unga sodiqlik garovidir) bo‘lishi kerak.

4. Brend imijini yaratish. (“Brand Image”)

“Brend qurilishi” bo‘yicha mutaxassislarning ayrimlari (“Brand Building”) “brend-zina”ning quyidagi bosqichlaridan foydalanishni taklif qiladilar:

- identifikatsiya (u nima?)
- ahamiyati (u nima uchun?)
- reaksiya (men u haqida nimani o‘ylayman?)
- munosabat (u bilan qanday assotsiatsiyalar bog‘liq?).
- Kevin Keller esa brendni olti blokga ajratadi:
- xarakterli xususiyatlari
- foydalanish xususiyatlari
- imij
- baholash va his-tuyg‘ular
- rezonans (qanday his-tuyg‘ular).⁶¹

Brendni yaratish reklama kompaniyasining rivojlanishi bilan yakunlandi. Brendni ilgari surish usullari kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Hozirgi vaqtda brend egasi uning mashhurligini va tan olinishini oshirishga yordam beradigan ko‘plab vositalarga ega. Eng keng tarqalganlari:

- reklama bannerlari va e‘lonlar taxtalari;
- televizorda namoyish etiladigan videolar;
- radio reklama;
- markali mahsulotlar;
- chizmaiy sayt;
- ish uchrashuvlari va o‘quv tadbirlarini tashkil qilish;
- tomoshabinlarni hayratda qoldiradi;
- ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat;
- ixtisoslashgan hamjamiyatni tashkil etish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish;
- brend haqida (tovar) haqida ma’lumot tarqatish, orator ma’ruza-chilarni jalb qilish.

⁶¹ Кевин Лейн Келлер-Стратегический бренд-менеджмент. Создание, оценка и управление марочным капиталом. Вильямс, 2016, 305 с.

Asl nom va ifodali logotip brendni tan olish uchun katta ahamiyatga ega. Iste'molchi xizmat yoki mahsulot sotib olish imkoniyatini ko'rib chiqishda aynan shu ikki elementni hisobga oladi. Potensial mijoz ongida kompaniyaning umumiy g'oyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun brendni yaratishda siz ism va logotipni tanlash masalasiga alohida e'tibor berishingiz kerak.

Logotip quyidagicha bo'lishi kerak:

- samarali (esda qolarli);
- noyob (raqobatchilardan maksimal darajada farqlanishni ta'minlash uchun);
- ranglar uyg'unligi (g'oyalar va tafsilotlar ko'pligi logotipga zarar yetkazadi);
- kompaniya g'oyalarini ifoda eta olish, uni buzmaslik va ijobiy imij yaratish;
- iste'molchi kompaniyaning ramziy shaklda aks ettirilgan qiymatlarini to'g'ri idrok qilishi kerak.

Yozuv va belgi birgalikda paydo bo'lganda logotiplar universal yechimdir. Vaqt o'tishi bilan, tovar taniqli bo'lgandan so'ng, siz faqatgina logotipni qoldirishingiz mumkin. Shuningdek, siz o'zingizning brendingizning moslashuvchanligini oshirish uchun logotip elementlarini ajratib qo'yishingiz va ushbu qismlarni turli xil holatlarda alohida ishlatishingiz mumkin. Har bir brend, hatto sifatli va hurmatga sazovor bo'lsa ham, brendga aylanmaydi. Maqomni ko'tarish jiddiy moliyaviy investisiyalarni talab qiladi. Brendni yaratish uchun tovar egasi ajoyib tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar siz brendni qanday va nima uchun yaratishni yaxshi bilsangiz, sizga mos keladigan nomni tanlash, ko'zni qamashtiradigan logotipni ishlab chiqish va muayyan vaziyatda eng mos reklama usullarini tanlash osonroq bo'ladi.

Muvaffaqiyatli brendni yaratish uchun sizga uchta asosiy ingrediyent kerak:

- xaridorlarni tushunish;
- mijozlarga do'stona munosabat;
- adolatli (ochiq) joylashishni aniqlash.

Odamlarning hayotiga ta'sir qilish. Nima qilsangiz ham, o'zingiz uchun emas, ular uchun qilayotganingizni unutmang. Ularga foyda, ishonch va ular yanada yaxshilanishiga umid qiling. Bu tajribalarni

yaratadi, bu esa o'z navbatida xotiralarni yaratadi. Bugun biz ko'rib turgan ko'plab ramziy logotiplar bir nechta bosqichlarni boshdan kechirgan. Apple, Starbucks va Twitter o'zlarining emblemasi harflar yoki ularning kombinatsiyasi ko'rinishidagi logotipga qaraganda ko'proq tanib olinadigan narsalarga aylandi.

Brend hayotining sikllari. Brendni chiqarish (dastlabki qadamni bosish va o'sish). Bu brend-buldingdagi eng ko'p harajat talab qiladigan bosqichdir. U bir nechta davrlarga bo'linadi. Boshlang'ich davr uchun asosiy vazifa o'sish sur'atini oshirish yoki qisqa davr ichida maksimal darajadagi sotuvga erishishdan iborat bo'ladi.

Sotishni joriy qilish bo'yicha texnik vazifalarni hal qilish va infrastrukturani rivojlantirishdan tashqari A va B gacha instrumentlarning barcha guruhleri bo'yicha markani bozorga olib kirish uchun kompleks reklama kompaniyasi ishlab chiqiladi.

Media rejalashtirish asosiy urg'uni auditoriyaga, ya'ni maksimal darajada qamrab olishga e'tibor qaratadi. Tovar aylanishi har qanday vaziyatda o'sib boradi ("Pivo Pit" 6 oy davomida oborotni 16 foizga oshirdi, ma'lumki, bu reklamaga emas, balki yangi tovarga bo'lgan reaksiyadir). Ammo bu davrda realizatsiya reklamaga bo'lgan xarajatlarni qoplashi mumkin emas, ya'ni bu davrda brend hali sof foyda keltirmaydi.

Massiv reklama kompaniyasi distributiv tarmoqning o'sishi bilan to'liq muvofiqlashtirilishi zarur. Peshtaxtalarda yo'q mahsulotni reklama qilish mumkin emas. Shuning uchun brend-menejment, logistika, sotish jarayoni bitta zanjirning halqalari hisoblanadilar.

Bu davrda brendni chiqarish katta xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni u uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi.

Etuklik davri. Asosiy vazifa - uzoq muddat davomida katta hajmdagi sotish darajasini ushlab turish va dividendlar olishni boshlash. Bir tomondan, xarajatlarning optimizatsiyasi, pasayishi kuzatilsa, boshqa tomondan turli marketing tadbirlari o'tkaziladi, tashkilotning barcha zvenolari ishi yaxshilanadi, personal, dilerlar rag'batlantiriladi, foyda olish jarayoni boshlanadi.

Bu davrdagi marketing tadqiqotlari o'zining birinchi xaridini qolganlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Reklama – informatsion tadbirlar tanlovning to'g'riligiga, imijni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Aynan, shu

davrda doimiy xaridorlarni rag‘batlantirish dasturlari ishlab chiqiladi – “brand loyalty”.

Brendning eskirishi (inqirozi). Vaqt o‘tishi bilan uchinchi bosqich – pastga qarab ketish bosqichi boshlanadi. Bu muddatning kelishini uzoqlashtirish uchun faqat reklama tadbirlari bilan cheklanib qolmaslik zarur.

Brendni sifatli tarzda rivojlantirish va tovarga xaridor diqqatini jalb qilishning yangidan - yangi usullarini o‘ylab topish zarur bo‘ladi. Hayot o‘zgarib, yangi ustuvor yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda, bozordagi vaziyat o‘zgarimoqda.

Tovar va xizmatlarni brendlash asoslari bir-biriga yaqin hisoblanadi. Xizmatga asoslangan kichik biznesni brendlash, tovarga asoslangan kompaniyalarning muammolariga qaraganda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Xizmatlar beqiyos va har bir mijoz tajribasi noyobdir. Hatto kichik mijozlar tajribasi tovar va xizmat obro‘sigacha jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu, ayniqsa, jonli reklama shaklida oson tarqaladigan kichik jamoalarda kichik korxonalar uchun ham amal qiladi.

Xizmatni brendlash – bu marketing va aloqa vositalaridan foydalanilgan holda e‘tibor qaratilayotgan xaridorlarning ongida qimmatli xizmatning ko‘rinishini yaratishdir. Kompaniyaning nomi, logotipi va ramzlari odatda brending faoliyatining markazida bo‘lib xizmat qiladi. Maqsad kompaniyaning identifikatsiyalovchi belgilarini ko‘rganda iste‘molchilar bilan rezonanslashadigan chizmani yaratishdir. Brendni eng sifatli, innovatsion, eng yaxshi qimmatli, eng foydali yoki eng kam narx sifatida farqlash brendning umumiy maqsadlari hisoblanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, tovar va xizmat brendingini amalga oshirish o‘zaro o‘xshash bo‘lsada, ma‘lum xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi:

- tovar ishlab chiqariladi, xizmat yetkazib beriladi;
- tovarlardan foydalaniladi, xizmatlar esa amalga oshiriladi;
- tovar nisbatan moddiy, xizmat mavhum va his qilishga asoslangan bo‘ladi.

Iste‘molchilarning katta qismi tovar markasi bilan brendni bir narsa deb o‘ylashadi. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramay, tovar va tovar markasi muhim farqlarga ega.

Tovar markasi bu mahsulot yoki paketga joylashtirilgan individual ishlab chiqaruvchining belgisidir. Bu chizma, so‘zlar yoki ikkalasining

kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Noyob korporativ logotip iste'molchiga mahsulotni raqobatdosh kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan o'xshash mahsulotlardan ajratib olishga imkon beradi. Bu mahsulotni bozorda boshqa takliflardan ajratib turadigan va uni maxsus qiladigan o'ziga xos uslub, dizayn yoki shiori bo'lishi mumkin. Savdo korxonasi yoki mahsulot ishlab chiqaradigan kompaniyaning farqlovchi belgisi chizmaiy ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, egasiga ushbu savdo markasidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi sertifikat beriladi. Ajratib turadigan belgi mahsulotga ham, qadoqqa ham joylashtirilishi mumkin. Tovar markasini ro'yxatdan o'tkazish orqali siz tovar yaratadigan pulning yagona monopol oluvchisi bo'lasiz. Brend raqobatchilarni sizning shaxsiy daromad manbaingizga ta'sir qilishining oldini oladi. Faqat savdo markasini ro'yxatdan o'tkazish kerakligini tushunish muhimdir

Brend - bu allaqachon bozorda mashhurlikka erishgan va iste'molchilar orasida talabga ega bo'lgan savdo markasi. Brendli mahsulotni reklama qilishda xaridorda mahsulot sifati bilan bog'liq ma'lum ma'lumotlarga ega bo'ladi. Marketologlarning ta'kidlashicha, agar iste'molchilarning 20% dan ortig'i mahsulotni ijobiy baholasa, uni brend deb atash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, brend - bu maqsadli auditoriyaning muhim qismining ongiga singib ketgan o'ziga xos savdo markasi.

Ishlab chiqaruvchining mahsuloti taniqli va mashhur bo'lib, raqobatchilarning mahsulotlari bilan taqqoslaganda, u brendga aylanadi. Darhaqiqat, brend - bu xaridorlarning talabiga ega bo'lgan va bozorda ma'lum bir joyni egallab turadigan savdo markasi. Bu avtomatik ravishda va qo'shimcha investitsiyalarsiz foyda keltiradi.

Tovar markasi va brend tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilamiz:

1. Tovar markasi chizmaiy ro'yxatdan o'tgan mahsulotning o'ziga xos belgisidir. brend - bu iste'molchining ongiga xos bo'lgan mahsulot tavsiflari majmui.

2. Ushbu ikkita tushuncha hissiyotlar mavjudligida ham farq qiladi. Brend mahsulot sotib olishga turtki beradi va tovar markasi mahsulot yoki xizmatning o'ziga xos belgisi rolini o'ynaydi.

3. Tovar markasi deyarli har bir kompaniyada mavjud va faqat bir nechtasida brend mavjud. Har bir brendli mahsulot markasiga ega bo'lishi kerak.

4. Brend iste'molchilarning ongida bo'lganligi sababli u o'nlab va hatto asrlar davomida yashay oladi. Tovar markasida bunday prognoz yoq.

5. Xaridorlar brendli tovarlarni mukammal sifat bilan birlashtiradilar. Bu tovar markasi uchun majburiy emas.

6. Brend ijobiy yoki salbiy zaryadga ega. Tovar markasida bu yo'q, chunki bu mahsulotlarning mutlaqo neytral farqlovchi belgisidir.

7. Brendlash - bu mahsulotni ilgari surishning samarali usuli, chunki iste'molchilar mashhur mahsulotni sotib olishga tayyor. Biroq, ular ko'pincha tovar markasi uchun pul to'lashni xohlamaydilar.

8. Tovar markasini yaratish ishlab chiqarish bilan bog'liq, bu esa katta miqdorda pul talab qiladi. Brend bunday qilmaydi. Bundan tashqari u sarmoyasiz avtomatik ravishda pul topadi. Pul topish motivatsiya yaratadi. Brend qanchalik kuchli bo'lsa, u shunchalik ko'p motivatsiya yaratadi va shunga ko'ra siz ko'proq pul topishingiz mumkin. Agar siz brenddan pul olmayotgan bo'lsangiz, unda biror narsa noto'g'ri yoki sizda hali brend yo'q.

Tovar markasining rivojlanishini mustaqil ravishda hal qilishi mumkin. Mahsulot brendga aylanishi uchun siz samarali strategiya ishlab chiqadigan professional brend agentligining xizmatlaridan foydalanishingiz kerak. Sizning kompaniyangiz mahsulotlari raqobatchilarning mahsulotlaridan keskin farq qilsa, bu sizga doimiy mijozlarni saqlash va yangi mijozlarni jalb qilish, daromadlarni ko'paytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, brend g'oyadan boshlanadi. G'oya keyinchalik odamning ongida aks etadi va ular haqida o'z fikrini shakllantiradi. Odamlar brend uchun to'lashga tayyor, chunki bu hissiyotlar majmuini beradi va ular tovar markasi uchun to'lashga tayyor emaslar, chunki u shunchaki so'zlar. Brend puldan ko'ra qimmatroqdir.

9.4. Tovar va xizmatni raqobatbardoshligini baholash usullari

Raqobat – bu erkin tadbirkorlikning ajralmas bir bo'lagidir. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakatimizni iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va rivojlanishda, dunyo bozorida ildam qatnashishda

tovarlar sifatini ko'tarib, ularni raqobatbardosh tovarlarga aylantirish eng dolzarb muammolardan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat alohida faollikka ega bo'ladi.

Har bir xaridor o'ziga yoqqan tovarni sotib oladi, iste'molchilar esa raqiblar tovariga nisbatan ko'proq ijtimoiy ehtiyojlariga mos keluvchilarini tanlashadi. Shuning uchun raqobatbardoshlik (tanlangan bozorda tovarni sotish imkoniyati)ni faqat raqiblar tovarni solishtirish orqali aniqlash mumkin. Raqobatbardoshlik nisbiy tushuncha, aniq bozorga va unga kirish vaqtiga bog'liqdir.

Tovar raqobatbardoshligini o'rnatish murakkab va o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- tovarni sotish bozorni o'rnatish;
- raqiblar haqida ma'lumotlar yig'ish;
- iste'molchilar talablarini o'rnatish;
- raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va bozorga sinov sotishlari bilan chiqish haqidagi qaror.⁶²

Bu masalalarni hal qilish korxonada tovar raqobatbardoshligi darajasini baholashning uzluksiz tizimini yaratishni talab qiladi.

Har qanday tovar bozorga chiqishi bilanoq o'z raqobat qobiliyatini yo'qota boshlaydi, bu jarayonni sekinlatish mumkin, bu iqtisodiy foyda va oldingi buyum raqobat qobiliyatini to'la yo'qotish paytigacha bozorga yangi tovar bilan chiqish imkoniyatini beradi.

Raqobat so'zi lotinchadan olingan bo'lib, maqsadga erishish uchun kurashishni bildiradi. Bozorda raqiblarning maqsadi xaridorni tovarni xarid qilishga jalb qilishdan iborat. Tovar raqobatbardoshligini asosiy sharti quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan xuddi shunday tovarga nisbatan eng katta yalpi foydali samaradan iborat:

$$Kq R/S \longrightarrow \max$$

bu yerda: R-tovarning foydali samarasi;

S-tovarni xarid qilish va foydalanishga oid xarajatlar (sotib olish xarajatlari);

Tovarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

⁶² Маркетинг: Ўқув қўлланма / Ф.Т. Базарова. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; - Т.: Иқтисод-Молия, 2015.- 424 б.

- bozorni tahlil qilib, o'zimizning tovarimizga o'xshash namunasini topib olish;
- bizning tovar bilan solishtiriladigan tovarlardagi asosiy ko'rsatkichlarni belgilash;
- o'zimizning tovarimizdagi integral raqobatbardoshlik xususiyatini aniqlash.

Raqobatning asosiy quroli bo'lib, talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish vositalari xizmat qiladi. Asosiy axborotni xaridorlar va tovar ishlab chiqaruvchilardan olishadi. Xaridorlarni asosan tovarning iste'mol qiymati qiziqtiradi. Raqobat asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: tovarlarning xizmatlari bo'yicha, bir xil ehtiyojni qondirishga qaratilgan raqobat, bir xil tovarni har xil firmalar ishlab chiqarish orqali bo'ladigan raqobat; yoki bir xil firma tomonidan har xil modifikatsiyada tovar ishlab chiqarish.

Narxlar orqali raqobatlashish eng keng tarqalgan.

Hozirgi davrda raqobat o'ziga xos qiyofa kasb etmoqda. Narxlar sohasida raqobat ishlab chiqarishni xarajatlar eng kam bo'ladigan mamlakatlarda yo'lga qo'yishni talab qiladi.

Narx bilan raqobat o'tmishda erkin bozor raqobati bo'lgan, bozorda bir xil tovarlar har xil narxlar bilan sotilgan davrlarda paydo bo'lgandi. Ishlab chiqaruvchi narxni pasaytirish bilan o'z tovarini ajratib ko'rsatishga, unga e'tiborni qaratishga va pirovard natijada, o'zi istagan bozor hissasini egallashga erishgan. Hozirgi zamon bozor sharoitlarida narx bilan ochiq raqobat amal qilmaydi, chunki ishlab chiqaruvchilardan biri narxni pasaytirishi bilan uning raqibi ham shu ishni qiladi, bu esa firmaning bozordagi mavqeyini o'zgartirmaydi, balki, umuman tarmoqdagi foydaning pasayishiga, asosiy fondlarni yangilash va kengaytirish uchun investitsiyalarning kamayishiga olib keladi. Natijada kutilgan zafar raqiblarni surib chiqarish o'rniga kutilmagan xonavayronlik va sinish yuz beradi. Shu sababli sanoat monopoliyalari narxlarni iloji boricha uzoqroq ushlab turishga, tannarxni hamda marketing xarajatlarini tobora pasaytirib, foydani ko'paytirishga intiladi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari tufayli raqobatning narx bilan bog'liq bo'lmagan usullaridan foydalanishning qulay sharoitlari yuzaga keldi.

Narxsiz raqobatda tovarning narxi emas, balki uning yuqori sifat, past iste'mol narxi, zamonaviy dizayn, servis xizmati, ishlab chiqargan firma shuhrati raqobat kurashining asosiy omiliga aylanadi.

Narxni pasaytirib bozorni egallash strategiyasini o'rnatishda quyidagi savollarga javob topiladi:

- boshqa tovarlarni raqobatbardoshligini belgilovchi omillar qaysilar?

- raqobatchi-firmalarning reklama vositalari va sotishni rag'batlantirish usullari qanday?

- qaysi savdo belgilari ishlatilmoqda?

- raqobatchilar tovarlarining o'ramasi-bezaklari, dizaynida nimalar ko'zga tashlanmoqda?

- tovarni kafolatli va undan keyingi ishlatish davrlarida qanday servis taklif qilinmoqda?

- milliy savdo tarmoqlari orqali tovar sotilmoqdami yoki firma o'z shahobchasini ochganmi?

- raqobatchilar qo'llayotgan tovar harakati (transport, zaxiralar hajmi, omborlari va ularning joylashuvi).

Natijada raqobatchi shunday harakat qilyaptimi? Boshqacha yo'li yo'qmi? P.S.Zavyalov fikricha «Raqobatbardoshlik deganda, tovarning bozorda xaridorgirligini ta'minlaydigan iste'mol va qiymat tavsiflari majmuini, ya'ni o'xshash raqobatchi tovarlarni ayirboshlashga taklif katta bo'lgan sharoitlarda xuddi shu tovarni pulga ayirboshlanish qobiliyatini tushunmoq lozim».⁶³

Xaridorning xarajatlari ikki qismdan tashkil topadi, uning bir qismini xarid xarajatlari (tovar narxi), ikkinchi qismini uni iste'mol etish bilan bog'liq xarajatlar tashkil etadi.


Raqobatbardoshlik keng tushuncha bo'lib, unga ko'plab omillar ta'sir etadi.

Firmaning raqobatbardoshligi darajasini baholashda tarmoq bozorida raqobat kurashi jadalligini belgilaydigan omillar tahlil uchun asos sifatida xizmat qiladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- raqobatchi firmalar soni va ularni qiyosiy quvvati;
- raqiblar harakatlarining diversifikatsiyalashuvi darajasi;
- bozordagi talab hajmini o'rnatish;
- mahsulotni tabaqalashuvi darajasi;

⁶³ Завьялов П.С. Конкурентоспособность и маркетинг / П.С. Завьялов // Российский экономический журнал. – 2005. – № 12. С. 50-58.

- iste'molchining bir ishlab chiqaruvchidan boshqasiga ko'chish harakatlari;
- bozordan chiqib ketish to'siqlari va ularning darajasi;
- bozorga kirib kelish va uning darajasi;
- yondosh tarmoq bozorlaridagi vaziyat;
- raqiblar strategiyasidagi farqlar;
- ushbu bozorda raqobat uchun alohida sabablarning bo'lishi, raqobat darajasi bozorning alohida bir jalb etuvchanlik yoki aksincha bezdiruvchanlik xususiyatlari bilan ham belgilanadi.



9.4.1 chizma. Raqobat kuchi modeli ⁶⁴

J.J.Lamben raqobatli afzalliklarni ikkita keng kategoriyalarga guruhlaydi – tashqi va ichki raqobatli afzalliklar, ya'ni firma va tovarni raqobatdoshligini tavsiflovchi raqobatli afzalliklardir. Tashqi raqobatli afzallik tovarni «bozor kuchini ifodalaydi, ya'ni u bozorni imtiyozli raqobatchiga nisbatan yuqoriroq sotish narxlarini qabul qilishga majbur qila oladi va mavjud tovarlardan norozi bo'lgan xaridorlarning istaklarini aniqlash va qondirishdagi afzalliklarga tayanadi. Ichki raqobatli afzallik firmaning ishlab chiqarish xarajatlari, raqobatchidan ko'ra kamroq tannarxga erishishga imkon beruvchi va ishlab chiqaruvchi uchun qiymat hosil qiluvchi tovarga asoslangan hamda sotish narxlarining bozor yoki raqobat tomonidan pasaytirilishiga ko'proq darajada bardoshli qiluvchi yuqoriroq unumdorlik oqibatidir».⁶⁵

Tovarni jalb etuvchanligi va raqobatbardoshligini ifodalovchi omillar klassifikatsiyasi sxemasini zanjir ko'rinishida ko'rsatish mumkin:

⁶⁴ Лукина.А.В. Маркетинг товаров и услуг:учеб.пособие-М.:ФОРУМ: ИНФРА-М,2017.- 239 с

⁶⁵ Маркетинг: Ўқув қўлланма / Ф.Т. Базарова. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Т.: Иқтисод-Молия, 2015. - 424 б.

narx – sifat – servis – marketing muhiti. Raqobatbardoshlik sifat va qiymat omillari bilan bog'liqdir. Ular sifat, iqtisodiyot va marketing ko'rsatkichlari yordami bilan to'liq tavsiflanishi mumkin.

Raqobat afzalliklarni aniqlayotganda iste'molchilar talabiga bo'ysunish kerak va mijozlar raqib afzalliklarni zarur deb qabul qilishida ishonch hosil qilishi kerak. Ko'p hollarda, quyidagi vaziyat sodir bo'ladi: korxonani aniq raqobat afzalliklarga ega bo'lsa ham ammo, ular to'g'risida iste'molchilar bilimiga ega emas, deb fikr yuritadi. Raqobat afzalliklari raqobatbardoshlikning omillari, ya'ni boshqa korxonalar bilan raqobat kurashida qatnashish qobiliyati bo'lib xizmat qiladi. Marketing imkoniyatlarni aniqlash uchun SWOT – tahlil (ingliz so'zlaridan tashkil topgan qisqartiruv: strength, weakness, opportunities, threats, ya'ni – kuch, imkoniyat, sustlik, tahdid) nomini olgan ya'ni tashkilotning kuchli va sust tomonlari, imkoniyat va tahdidlarning tahlili demakdir.

Matritsadan foydalanganda imkoniyatlar va tahdidlarning boshqa tomonga o'tishini ham hisobga olish kerak. Shunday, ishga solinmagan imkoniyat, agarda uni raqib ishlasa, tahdidga aylanishi mumkin. Aksincha, bartaraf etilgan tahdid firmaga qo'shimcha kuchli tomonga aylanishi mumkin. Shunday qilib, tahdid va imkoniyatlarni tahlili korxonaning ichki resurslar va imkoniyatlarni baholashga ko'maklashadi, tashqi muhit o'zgarishi yo'nalishlarini va korxonaning bu o'zgarishlarga moslashuv darajasini aniqlab beradi.

	Kuch		Sustlik
1.		1.	
2.	S	2.	W
3.		3.	
	Imkoniyat		Tahdid
1.		1.	
2.	O	2.	T
3.		3.	

9.4.2-chizma. SWOT tahlili matritsasi.⁶⁶

⁶⁶ Authorized adaptation from the United States edition, entitled Principles of Marketing, 17th edition, ISBN 978-0-13-449251-3, by Philip Kotler and Gary Armstrong, published by Pearson Education © 2018.

Hozirgi paytda rivojlangan davlatlarda servis faoliyatining strategiyasi va samaradorligi kriteriyalari o'zgarimoqda:

- servis korxonalarini boshqarish taraqqiy ettirilmoqda, boshqarish turlari (moliyalar, personal, krizis, innovatsiya mendjmenti va boshqalar) ko'paytirilmoqda;

- servis korxonasini ichidagi boshqaruv operatsiyalari rivojlantirilmoqda: konyukturani bashorat qilish, maqsadlarini ta'riflash, o'z imkoniyatlarini baholash, sherik va ta'minotchilarni tanlash va boshqalar;

- moliyaviy instrumentlar to'plamiga (investitsiyalarni boshqarish, kreditlarni jalb qilish, lizing, trast, faktoring, sug'urta va boshqalar) murojaat qilish holatlarining mavjudligi;

- turli texnologiyalarni rivojlantirish (boshqaruv, tashkiliy, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish texnologiyasi va boshqalar);

- servis falsafasi chuqurlashib iste'molchiga yo'natirilmoqda (mijozga yo'naltirilgan falsafa);

- qattiq servis (xizmatni bajarishga mo'ljallangan me'yorlarni bajarish) bilan bir qatorda yumshoq servis (iste'molchilarni yakka talablariga javob berish uchun xizmat ko'rsatishida qo'shimcha operatsiyalarni bajarish) ham faoliyat yuritmoqda;

- to'g'ri servis bilvosita servis (sotilgan tovar, ko'rsatilgan xizmat bilan bog'liq bo'lmagan, balkim iste'molchi bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga qaratilgan) bilan to'ldirilmoqda.

Raqobat jangida narx siyosati, mahsulot narxi va sifatini o'zaro optimal nisbati siyosatiga yo'l bermoqda. O'z o'rnida xizmatlar sifati uni standartlashtirish va xizmat ko'rsatish jarayonini xavfsizligi bilan bog'liq.

9.5. Tovar va xizmatlarning hayotiylik davri va ularni asosiy bosqichlari

Firmalar mahsulotning holatini aniqlashda uning yashash davrini tadqiq etishga tayanadilar. Tovar yashash davri (англ. Life cycle product) tovarning bozorga kirib kelishidan boshlab, to uning bozordan chiqib ketishiga qadar bo'lgan davrda amalga oshiriladigan tadbirlardan iborat konsepsiyadir. Birinchi marta tovarning yashash davri konsepsiyasini 1965-yili Teodor Levitt tomonidan e'lon qilingan.

Tovarning yashash davri to'rt tipga ajratiladi: mahsulotning katta sinfining yashash davri, mahsulot turining yashash davri, qo'llash usul-

larining yashash davri, mahsulot markasining yashash davri. Masalan, birinchisiga soatni misol qilib keltirsak, mahsulot turiga esa qo'l va osma soatlarni keltirish mumkin, qo'llash usullariga ko'ra esa qo'ng'iroqli soatlardan foydalanishni misol qilib keltirish mumkin.


Marketing maqsadlarida yashash davrining jami to'rtta tipi o'rganiladi, firma doirasida ikkinchi va uchinchi tiplariga ko'proq e'tibor beriladi. Birinchisi shu sinfga mansub mahsulotga talab pasayadigan davrda, to'rtinchisi esa raqobatchi firmaning mavqeyini aniqlash zaruriyati paydo bo'lganda qo'llaniladi.

Tovarning an'anaviy yashash davrida quyidagi bosqichlar ajralib turadi.

- ishlab chiqarish
- kirib kelish
- o'sish
- yetuklik
- to'yinish
- inqiroz (kasodlik).

Amalda har bir mahsulot uchun bu narsa har xil kechadi, ayrim tovarlar bozorga kirib kelishining uzoq davrini boshidan kechiradi, boshqasi tezda kirib keladi, tarqaladi, uzoq muddat barqaror saqlanib turadi.

Tovarning yashash davri bosqichlarini aniqlashning asosiy mezonini tovar sotish hajmi va foyda normasi dinamikasidir.



9.5.1-chizma. Tovarning hayotiylik davri⁶⁷

⁶⁷ Лукина.А.В. Маркетинг товаров и услуг:учеб.пособие. –М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2017.-239с

Mahsulot ishlab chiqarish bosqichi tovarni barcha hayotiy davrida muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish qancha samarali amalga oshirilsa, ya'ni loyihalashtirilayotgan tovar bo'yicha bozor talabi va xaridor ehtiyojini firma vaqt bo'yicha tezroq hisobga olsa, ushbu bosqichda xarajatlar shuncha kam bo'ladi. Firma yangi tovar bilan bozorga tezroq chiqadi va zarur foydani oladi.

Kirib kelish bosqichida sotish hajmining g'oyat keskin o'sishi bilan ajralib turadi. Bozor mahsulotni hali qabul qilmagan narxlar nisbatan yuqori bo'ladi. Savdo yuqori daromadli guruhlariga mo'ljallanadi. Raqobatchilar umuman oz. Shunday qilib, bu davr kapital sarflar davri hisoblanadi, sarflar keyinchalik foyda keltirishi mumkin, yoki mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechiladigan bo'lsa, ular to'liq xarajatlar hisobiga o'tkaziladi, ya'ni hisobdan o'chiriladi.

O'sish davrida tovar sotish hajmi o'sib boradi – iste'molchilar mahsulotni qabul qilgan va unga bo'lgan talab ta'minlangan bo'ladi. Har qanday mahsulot bu bosqichga yetib kelmaydi: ko'plari bozorga kirib kelish davridayoq kasodga uchraydi. Bozor sifati yuqori raqobatchi mahsulot bilan to'lib ketadi. Narxlar tobora arzonlashib boradi.

Yetuklik bosqichi tovar aylanmasini maksimalashtirish, bozorni kengayishini davom etishi va absolyut o'sishi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish va tovar taqsimlash tizimida tayyor mahsulot zaxiralari oshib boradi. Bozorda intensiv raqobat hukm suradi. Yangi modifikatsiyali tovarlarni kiritish ularni assortiment guruhini kengaytirish hamda xaridorlarga yangi xizmat ko'rsatish uslublarini kiritish intensiv innovatsiya chora-tadbirlari vositalari orqali amalga oshiriladi.

Mahsulotni yetuklik bosqichida marketingni asosiy strategiyalari bozorni modifikatsiyalash, tovarni modifikatsiyalash va marketing-miksni modifikatsiyalash bo'lib hisoblanadi. To'yinish davrida bozor va narxlar barqarorlashadi. Sifatsiz va raqobatga bardosh bermaydigan mahsulotlar bozordan siqib chiqariladi. Tovar sotish sur'atlari tobora pasayadi. To'yinish davrida firmaning umumiy maqsadi, mahsulotni barcha turlari bo'yicha to'liq sotishni tobora oshirib borishni ta'minlashga qaratiladi.

Inqiroz davrida mahsulotning sotilishi qiyinlashadi, foyda kamayadi, raqiblar maydondan ketadi. Bu bosqich davomida firmaning maqsadi «mahsulot tayyorlashni davom ettirishdan iborat» bo'ladi, mahsulotni bozorga yetkazib berishni to'xtatish haqida qat'iy qarorga kelgunga

qadar undan olish mumkin bo'lgan jami foydani siqib olish uchun shunday qilinadi. Tovarining hayotiylik davri ta'sir etuvchi omillar:

- tashqi (makromuhit);
- ichki (mikromuhit);
- marketing siyosati.

Talabni tartibga solish bilan siz katta foyda olish uchun yangi mahsulot hayotining turli bosqichlarini qisqartirishingiz yoki cho'zishingiz mumkin.

Tovarni yashash davri konsepsiyasi mahsulot assortimentini rejalaştirishda katta ahamiyatga egadir.

Moddiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlar bir birini doimiy ravishda to'ldiruvchi hisoblanadi. Ko'pchilik holatlarda tovarlarni xarid qilishga xizmatlarni iste'mol qilish hamroh bo'ladi. Masalan, ommaviy ovqatlanish xizmatlarini iste'mol qilishda, iste'molchi tovar oladi. Ushbu tovarga oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qiladigan joy, taomlar va ichimliklarni berish bo'yicha xizmatlar, psixologik dam olish va hokazolar kiradi.

Ma'lumki, deyarli hamma narsa mahsulot sifatida harakat qilishi mumkin: innovatsion ixtirodan tortib oziq-ovqat mahsulotlarigacha, qimmatli ma'lumotlardan san'at asariga qadar. Ammo, mahsulot qanday bo'lishidan qat'i nazar u har doim ma'lum bir hayot davrini bosib o'tadi. Xuddi har qanday organizm singari, mahsulot tug'ilishdan boshlanadi. Yani, bozorga kirish, faol o'sish va etuklik davri keladi, shundan so'ng muqarrar ravishda tovarlar bilan to'yinganlik davri boshlanadi. Tabiiyki, har bir kompaniya egasi o'zining "avlodlari" hayotining faol qismini uzaytirishga intiladi va shuning uchun savol tug'iladi: to'yinganlik fazasini qanday kechiktirish kerak? Yoki, agar u allaqachon kelgan bo'lsa, qanday qilib mahsulotni qayta jonlantirish va xaridorning unga bo'lgan qiziqishini qaytarish kerak?

Umuman tovarning hayotiylik davri va uning alohida bosqichlari tovarning o'ziga ham o'ziga xos bozorga ham bog'liq. Tovarlarining umri turli xil bozorlarda bir xil tovarlarning hayot davri boshqacha bo'lishi mumkin. Tovarlarining yashash davrini uzaytirishning bir necha yo'li mavjud bo'lib, ularning har birini samaradorligi ma'lum bir tovarga qandaydir darajada ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillarga bog'liq.

Mahsulotni takomillashtirish:

"G'ildirakni kashf qilish" shart emas, unga yangi qism yoki funktsiyani qo'shish kerak. Shu bilan birga, innovatsiya raqobatbardosh bo'lishi kerak yoki yaxshiroq - shunga o'xshash mahsulotlar uchun bozorda noyob bo'lishi kerak. Masalan, qo'l telefonlarni modifikatsiya qilish evaziga yashash davri uzayadi.

Yangi dizayn:

Dizaynni o'zgartirish shunchaki bir qarashda ko'rinishi mumkin bo'lgan mahsulotning yuzaki o'zgarishi emas. Iste'molchiga yuqori texnik ko'rsatkichlar berilsa (ko'p hollarda yetakchi kompaniyalar bir-birlarini yangi texnologiyalarni joriy etish tezligida ushlab turishadi), o'z tanlovini amalga oshirishdan oldin u mahsulotning tashqi ko'rinishiga ko'proq e'tibor berishni boshlaydi. Nokia mobil telefonlarining tarkibini eslaylik. Tabiiyki, ular texnik va funksional xususiyatlar jihatidan farq qiladi, ammo bugungi kunda Nokia dizaynga katta ahamiyat bermoqda. So'nggi uyali telefonlar uchun reklamalar mini-telefonlarning jozibali ko'rinishini ko'p jihatdan ishlatadi. Bu Nokianing boshqa ishlab chiqaruvchilardan ajralib turadigan markalarini boshqa markalarda topish mumkin bo'lgan telefonning imkoniyatlari emas, balki dizaynidir.

Yangi qadoqlash:

Xuddi shu tarkibga ega yangi qadoqlash - bu sifatni eslab qolish va shu bilan birga taraqqiyot bilan hamqadam bo'lish uchun yaxshi sababdir. Ehtimol, saqichning yangi turini o'ylab topishning iloji yo'qdir, paketni almashtirish esa oddiy masala. Yangi orbit keng saqich to'plami bilan bir xil.

Keng ko'lamli aksiyani qo'llab-quvvatlash:

Bu brendga yo'qolgan qiziqishni va har qanday qiziqarli ommaviy aksiyaning homiyligini qaytarishi mumkin. Masalan, Coca-Cola kompaniyasi to'rtinchi Assambleyaning "Restoran World Expo-2001" ning bosh homiysi edi (bu, albatta, Coca-Cola yangilanishlarining yagona homiylik loyihasi emas) va 1994-yil - Snickers brendi AQSh- mezbonlik qilgan 1994-yilgi Jahon chempionatiga homiylik qildi.

O'zingizning tadbiringizni tashkil qilish:

O'zingizning tadbiringizni tashkil qilish, o'zingiz va imkoniyatlaringiz haqida eslatishning ajoyib usuli. Bunga misol sifatida jahon gimnastika yulduzlarining "Galina Blanca-2001" shousi yoki,

masalan, "Mo'jiza Yogurt - Ski Sprint". Nescafe toza energiya ekstremal sport festivaliga mezbonlik qiladi.

Favqulodda vaziyatlar:

G'ayritabiiyki, ekstremal vaziyatlar ma'lum bir mahsulot yoki xizmatning umrini uzaytirish uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlar tanqislik, iqtisodiy inqiroz, oziq-ovqat tanqisligi, ekologik muammolarni anglatadi. Masalan, mamlakatimizdagi pandemiya axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi.

Yangi xizmat:

Yangi xizmat mavjud xizmat ko'rsatish majmuasiga jiddiy hamroh bo'lishi mumkin. Aytaylik, go'zallik saloniga kelgan mijozlarga kofe yoki choy taklif qilish mijozni keyingi safar ham shu salonga kelishga sabab bo'ladi.

Yangi shior yoki yangi reklama:

O'zingizni eslatish uchun variant. Har qanday, hatto eng muvaffaqiyatli shiorlar va reklama roliklari vaqt o'tishi bilan zeriktiradi va bezovtalanishni boshlaydilar, shuning uchun ularni hali ham tanazzul bosqichiga kirmagan kompaniyalar uchun o'zgartirish kerak. Snickers shiorlarining evolyutsiyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shunga ko'ra, shior o'zgaranda televizor ham, radio joylari ham o'zgaradi, ular bilan birga tashqi reklama va boshqa narsalar ham.

Yangi reklama kompaniyasining boshlanishi bu oldingi paragrafning kengaytirilgan versiyasidir, bunda nafaqat shior yoki video o'zgartirilmaydi, balki umuman reklama kompaniyasi boshqa reklama agentligiga topshiriladi yoki qayta boshlanadi. Xuddi shu brend ostida yangi mahsulotni chiqarish, iste'molchilarning ta'mini sinchkovlik bilan o'rganishi mahsulot turini kengaytirish uchun juda yaxshi usul hisoblanadi. Misol, saqich ishlab chiqaruvchi yetakchi Wrigley kompaniyasini dastlab, kompaniya o'z mahsulotlarining atigi uch xil turiga ega edi. Bugungi kunda Wrigley kompaniyasini bir nechta turdagi mahsulotga orbit saqich variantidan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ta'mga ega. Yangi maqsadli auditoriyani o'zlashtirishni kutgan holda, Wrigley kompaniyasi asta-sekin bozorda turli xil saqichlarni birma-bir sotmoqda.

Narx siyosatini tartibga solish:

Narxlar siyosatini tartibga solish narxlarni pasaytirish yo'nalishi bo'yicha ham o'sish yo'nalishi bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Shunga ko'ra, ma'lum narxlarni belgilab, kompaniya maqsadli

auditoriyasini kengaytirib, "yangi chegaralarni ishlab chiqadi". Tez ovqatlanish restoranlari tarmog' i - McDonald's muntazam ravishda narx siyosatini o'zgartiradi: yoki sendvichlarning yangi navlarini aholining barcha qatlamlari uchun arzon narxda sotilishi yoki mavjud mahsulotlar narxini pasaytirish orqali.

Ko'p sonli McDonald's aksiyalari ham shundan dalolat beradi. Masalan, ikkita sendvichni birining narxiga sotish, eng ko'p sotiladigan Big Mac sendvichining narxini pasaytirish, shuningdek ko'plab yangi mahsulotlarni kiritish mumkin.

Iste'molchilarga xizmatlar ularga xizmat qilish jarayonida amalga oshiriladi. Xizmatlarni taqdim etish deganda, xizmatning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xizmat bajaruvchisining faoliyati tushuniladi. Xizmatlarni taqdim etish alohida bosqichlarga bo'linadi. Ular jumlasiga zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash, bajarishning texnologik jarayoni, nazorat va baholash, xizmat ko'rsatish jarayoni kiradi. Shunday qilib, xizmatlar iste'molchilar va uni amalga oshiruvchilar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Xizmatning hayot davri bir necha bosqichlarga bo'linadi:

• iste'molchilarga taklif etilayotgan xizmatlar bo'yicha ma'lumot berish;

- xizmatga buyurtmani qabul qilish;
- xizmatni bajarish;
- xizmatni bajarish sifatini nazorat qilish;
- iste'molchi buyurtmasini berish.

Xizmat haqida iste'molchiga beriladigan ma'lumot xizmatning hayot davrini boshlab beruvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Bunda iste'molchi talab va ehtiyojiga qarab xizmat ko'rsatuvchi subyekt servis ma'lumotlarini taqdim qiladi va eng muhimi xizmatning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tadi.

Xizmatga buyurtmani qabul qilish bu shartli bosqich hisoblanib, birinchi bosqich ya'ni, xizmat haqidagi ma'lumot muvaffaqiyatli bo'lgan taqdirdagina amalga oshuvchi jarayondir. Iste'molchi berilgan ma'lumotlar asnosida o'z ehtiyojlariga ko'ra xizmatni tanlaydi va buyurtma beradi. Buyurtma shartlari iste'molchi va personalning o'zaro manfaatli kelishuviga asoslangan bo'ladi.

Xizmatni bajarish bu davr bajaruvchidan maxsus bilim, tajriba, malaka talab qiluvchi bosqichidir. Xizmatning iste'molchisi va bajaruv-

chisi o'rtasidagi o'zaro aloqalar aynan ushbu jarayonida sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro aloqalarning tavsifi taqdim etilayotgan xizmatlarning shakliga bog'liq bo'ladi, bevosita va bilvositalarga bo'linadi. Bevosita o'zaro aloqalarda xizmatni bajaruvchi va uning iste'molchisi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatiladi. Bilvosita o'zaro aloqalarda esa, aloqa vositachilar orqali yoki xizmatni bajaruvchisining yordamchi xodimlari yordamida amalga oshiriladi.

Xizmatni bajarish sifatini nazorat qilish xizmatning yuqori darajada yakunlanishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Bunda, asosan, xizmatni amalga oshiruvchi subyekt SUB (sifatni umumiy boshqarish) yoki TQM (total quality management) deb ataluvchi standartlar yordamida sifatni nazorat qiladi. SUB tizimining eng muhim elementlari quyidagilardir:

- iste'molchilarning talablari va ehtiyojlariga qarab mo'ljal olgan holda faoliyatni yo'lga qo'yish;
- bosh maqsad – iste'molchilarning talablarini qondirishga erishish jarayonida har bir xodimning ishtirok etishini ta'minlash;
- sifatni muttasil va uzluksiz oshirib borish;
- bosh maqsad – iste'molchi uchun xizmat qimmatini mumkin qadar oshirish va uning qiymatini mumkin qadar kamaytirishga erishishning oqilona tizimi deb hisoblangan jarayonlarga qarab mo'ljal olish;
- barcha qarorlarni xodimlarning intuitsiyasi yoki tajribasiga emas, balki faktlarga asoslangan holda qabul qilish.⁶⁸

Xizmatni (buyurtmani) berish provayderlar va mijozlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni belgilaydigan biznesning bir qismidir. Bu xoh ma'lumot, xoh vazifa bo'lishi mumkin, mijoz esa qiymatni topadi yoki natijada qiymatini yo'qotadi. Mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatish qiymatni oshiradi.⁶⁹ Ushbu bosqich bilan xizmatning hayot sikli yakunlanadi va iste'molchiga yetib boradi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, tovar va xizmatlarning hayot davrining ma'lum bir o'xshash jihati bo'lishiga qaramay ikkala tushuncha alohida tadqiq qilinadi va iste'molchiga yetib borish jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tadi. Ularning farq va nisbatan yaqin bo'lgan xusu-

⁶⁸ Total Quality Management and Six Sigma, Edited by Tauseef Aized p. 203. ISBN 978-953-51-0688-3

⁶⁹ https://www.researchgate.net/post/what_is_the_service_delivery_process

siyatlarini hozirgacha izlanuvchi olimlar nazariy jihatdan tahlil qilishga harakat qilib kelmoqdalar.


Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Marketingda tovar qanday vosita sifatida ta'riflanadi?
2. Tovar qanday xususiyatga ega?
3. Tovarning raqobatbardoshligi deganda nimani tushunasiz?
4. Tovarning yashash davri konsepsiyasini izohlab bering.
5. Passiv talabdagi tovarlarga misollar keltiring.
6. Tovar modifikatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Mahsulot differentsiatsiyasi nima?
8. Yangi tovar ishlab chiqarish jarayonini izohlab bering?
9. Tovar variatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
10. Tovar raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib bering.

10-MODUL. NARX SIYOSATI

10.1. Narx tushunchasi va mohiyati

Narx marketingning eng muhim elementlaridan biri bo'lib tor ma'noda tovar yoki xizmatni sotib olish uchun ishlatilgan pul miqdorini anglatadi. Keng ma'noda esa narx iste'molchilar tomonidan tovar yoki xizmatdan foydalanish uchun sarflangan qiymatlar yig'indisi hisoblanadi. Hozirgacha bo'lgan davrda narx iste'molchining tanloviga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib hisoblangan, lekin bugungi kunda narxsiz omillarning ham ahamiyati oshib bormoqda. Shunga qaramasdan narx firmaning bozordagi holatini ifodalovchi eng muhim elementlardan biri bo'lib qolmoqda. Narx marketing miks elementlari orasida daromadni shakllantiruvchi yagona element hisoblanadi qolgan elementlar esa xarajatni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari narx almashuv qiymatini yaratishda asosiy vazifani bajaradi. Narxni firmaning bozordagi holatiga ta'sirini talab va taklif grafiklari orqali ifodalash mumkin:



10.1-chizma. Talab va taklif modeli.

Bu yerda:

P–narx

S–taklif egri chizig'i

D–talab egri chizig'i

Q–miqdor

E–muvozanat miqdor va narx.

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, talab va taklif miqdori o‘zaro tenglashganda muvozanat narx yuzaga keladi. Agar ishlab chiqaruvchi tovar narxini muvozanat narxdan yuqoriroqda belgilasa unda bu tovarga nisbatan bozordagi mijozlarining bir qismini yo‘qotadi va aksincha narx miqdori pasaysa tovarga nisbatan mijozlar talabi miqdori oshadi. Bu yerda narxdan boshqa omillarni o‘zgarmas deb olish maqsadga muvofiq.

Narx korxonada daromadining asosiy manbai ekanligi quyidagi formula orqali ham ifodalanadi:

$$\Pi = (P \cdot U) - C$$

Bu yerda:

Π – korxonada foydasi

P – tovarga nisbatan belgilangan narx

U – sotilgan tovarlar hajmi

C – jami xarajatlar miqdori

Foydadan tashqari narx tovarning sotilish hajmiga, moliyaviy ko‘rsatkichlarga, bozor ulushiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Narx bamisoli barometr kabi bozor holatini ko‘rsatib turadi, tovar narxi pasayib ketsa, tovar bozori kasodlikka yo‘liqqan bo‘ladi, tovar nafsiz bo‘lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini tubdan yaxshilash zarurligi pul tarkibiga qo‘yiladi. Narxning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari ko‘rsatib beradi. Narx nimaga tegishli bo‘lishidan qat‘iy nazar (tovar, xizmat), beshta asosiy funksiyani bajaradi:

- bozor muvozanatini ta‘minlash funksiyasi;
- hisob-kitob, o‘lchov funksiyasi;
- iqtisodiy regulyator funksiyasi;
- raqobat vositasi funksiyasi;
- ijtimoiy himoya funksiyasi.

Bozor narxining asosiy xususiyatlari ularning doimo o‘zgarib turish qobiliyatidir. Narxlar hech qachon sababsiz o‘zgarmaydi. Yuqori narxlar esa yuqori sifatli, yangi iste‘mol qobiliyatiga ega bo‘lgan tovarlarga o‘rnatiladi. Narx darajasiga tovarning raqobatbardoshligi va bozordagi o‘rni bog‘liqdir. Narx belgilash maqsadlari: bozor ulushini ko‘paytirish, qisqa vaqt ichida eng ko‘p foyda olish, yuqori foyda normasini uzoq muddat saqlab qolishdan iborat.

Birlamchi narxni aniqlashga vaqt bo‘yicha narx darajasini aniqlash hisoblash ta‘sir qiladi. Bu hisoblash bozor segmentiga, tovarning yashash davriga, talab va taklifning potensial miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Marketingda tovar siyosati ijtimoiy tovar ishlab chiqarishning barcha bosqichlari, yangi ishlab chiqarishning, taqsimlashning, almashuv va iste'molchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuritiladi. Narxlar faqat iste'moldagina emas, balki ishlab chiqarishdagi o'zgarishlardan ham darak beradi. Narxlarning boshqa muhim vazifasi – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni rag'batlantirishdir. Narxlar mexanizmi ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini ko'paytirishgina emas, balki ishlab chiqarishning eng tejamli usullarini ishlashni ham rag'batlantiradi.

Marketingda narx bir qancha vazifalarni amalga oshiradi:

Rag'batlantirish narxni o'zgartirish orqali siz talab va taklifga ta'sir qilishingiz mumkin. Davlat ilg'or tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun ushbu sohadagi barcha narx cheklolarini bekor qilishi mumkin, bu esa ishlab chiqaruvchiga daromad stavkasini oshirishga imkon beradi va uni yanada intensiv ishlashga undaydi. Sotishni rag'batlantirishning turli xil usullari mavjud (masalan: qismlarga bo'lib sotish, chegirmalar).

Muvozanat narxlar bozor mexanizmlarining faoliyatida, talab va taklif darajasini muvozanatlashuvida muhim rol o'ynaydi.

Buxgalteriya hisobi narxlari xarajatlarni, tayyor mahsulot hajmi va ularni sotish qiymatini hisobga olishga imkon beradi. Bundan tashqari, tovarlar narxi YAIM va boshqa makro va mikroiqtsodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Qayta taqsimlash - narxlar orqali mamlakatning milliy daromadlari (ijtimoiy mahsulot) aholining turli qatlamlari, hududlar va sanoat tarmoqlari o'rtasida taqsimlanadi. Masalan, hukumat alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari va avtomobillar uchun yuqori narxlarni belgilaydi, shunda daromadlar zarur tovarlar narxlarini nisbatan past darajada ushlab turish uchun foydalaniladi.

Qiyosiy narx ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan mahsulotlarni bir-biri bilan taqqoslash uchun ishlatiladi. Ayniqsa, agar ular sifati jihatidan farq qilmaydigan bir xil maqsadga mo'ljallangan tovarlar bo'lsa. Bunday holda, narx ularni taqqoslash uchun deyarli yagona mezon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'plab xaridorlarning fikricha, narx darajasi mahsulot sifati darajasini aks ettiradi: "sifatli mahsulot hech qachon arzon bo'lmaydi!" Ya'ni, narx

mahsulotni bozorda ("nufuzli narx" deb nomlangan) joylashtirish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Signal narxda ma'lum ma'lumotlar, ma'lum bir bozor signallari mavjud. Mahsulot narxi orqali sotuvchi bozorni ushbu mahsulotning qaysi iste'mol segmentiga yo'naltirilganligini xabardor qiladi. Masalan, "Arzon narxlardagi hudud" shiori kompaniyaning mahsulotlari past va o'rta daromadli keng iste'molchiga qaratilganligini anglatadi.

Raqobat narx raqobatning asosiy vositalaridan biridir. Talab qonuni-ga tayanib, firma o'z mahsulotlarining narxini pasaytirishi mumkin va agar ularning sifati raqobatchilarning mahsulotlari bilan bir xil darajada bo'lsa, sotishning o'sishi (shuningdek, bozor ulushi) deyarli kafolatlanadi.

Iste'molchi uchun narx faqat narx yorlig'idagi raqamdan uzoqdir, chunki, mahsulot uchun to'langan summa iste'molchi yo'qotishlarining eng ko'zga ko'rinadigan va osonlik bilan aniqlanadigan qismidir. Ushbu qism, shuningdek sotib olingan tovarlar miqdori, olingan qoniqish dara-jasini tavsiflashga asos bermaydi. Iste'molchi uchun narx ko'p kompo-nentli: bu iste'molchi sotib olgan mahsulot (imtiyozlar, manbalar, imko-niyatlar) uchun berishga tayyor bo'lgan imtiyozlar, manbalar, imkoni-yatlar (shu jumladan yo'qolgan imtiyozlar) ning umumiy to'plamidir. Iste'molchi uchun narx va narx yorlig'idagi raqam o'rtasidagi farq, ayniqsa iste'molchi boshqa mahsulotga va boshqa ta'minot manbaiga o'tganda aniq bo'ladi. Kompaniyaning narx siyosatining asosiy maqsad-lari ishlab chiqaruvchining mahsulotlarini sotishning ma'lum darajasini ta'minlash, bozorning ma'lum bir ulushini egallab olish va ushlab turish va daromadni maksimal darajada oshirishdir. Narx siyosatini ishlab chiqish jarayonida kompaniya quyidagi jarayonlarni tahlil qilish zarur:

- bozorga kirish uchun raqobatdagi mablag'lar orasidagi narxning o'rni;
- bozor segmentini saqlab qolish uchun kompaniya mahsulotining narxini aniqlashning samarali usuli;
- narxlar bo'yicha yetakchilik yoki ma'lum bir bozor yoki segmentda bozor yetakchisiga ergashish;
- yangi tovarlar narxlarini belgilash va boshqarish;
- barcha mijozlar uchun bazaviy narx yoki har xil asosiy narxlar;

- raqobatdosh kompaniyaga nisbatan xarajatlar nisbati va ishlab chiqaruvchining foyda darajasi tahlilini o'tkaza oladigan tashkilotlarning mavjudligi;

- mahsulot narxining maksimal chegarasi, foyda va narx o'zgarishi erkinligi darajasida cheklovlar mavjudligi.

Narxlarni belgilashda korxonalar rahbariyati quyidagi munosabatlarga alohida e'tibor berishi kerak:

- "narx - tovarlar" - narx iste'molchilar uchun tovarlarning foydali xususiyatlarini aks ettiradi;

- "narx - taqsimlash" - sotishni tashkil qilish sotilgan mahsulot narxining qiymatiga ta'sir qiladi;

- "narxlar - reklama" - xaridorlarning narxlar to'g'risida xabardorligi ularning ushbu narxlar darajasiga nisbatan sezgirligini oshiradi.

Tovarlarga narx belgilash sohasida marketing qarorlarini qabul qilish korxonalar uchun juda qiyin vazifadir, chunki bu foyda olish vositasi sifatida narxning alohida roli, shuningdek uning marketing miqsidagi o'ziga xos funksiyalari bilan bog'liq. Narx-navo siyosati mahsulot, tarqatish va korxonaning aloqa siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, marketing miqsning rivojlanishidagi yakuniy bosqichdir.

Marketing instrumentlari ishlab chiqaruvchi uchun yuqori va iste'molchi uchun past bo'lgan mahsulot narxini belgilashi mumkinligini har bir korxonalar rahbari yodda tutishi kerak.

10.2. Marketingda narx turlari va ularni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Barcha tijorat va ko'plab notijorat tashkilotlar o'zlarining tovarlari va xizmatlarining narxini eng asosiylaridan biri sifatida aniqlash muammosiga duch kelmoqdalar. Baholashda umumiy yo'nalishni tanlash, sotish hajmini oshirish, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va korxonaning bozor mavqeini mustahkamlash maqsadida yangi va mavjud bo'lgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlar narxini aniqlashning asosiy yondashuvi marketing asosida ta'minlanadi. Narxlar kompaniya marketingining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ular kompaniya faoliyatining boshqa jihatlar bilan chambarchas bog'liq, erishilgan tijorat natijalari ko'p jihatdan narx darajasiga bog'liq. Narx, albatta, iste'molchi uchun mahsulot qiymatini

idrok etish bilan bog'liq. Yangi mahsulotga o'tish paytida xarajatlarning asosiy manbalari iste'molchining mahsulot, yetkazib beruvchi, sotib olish jarayonining yangi xususiyatlariga muvofiq o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan psixologik) hisoblanadi. Mahsulot tannarxi narx va talabga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Mahsulot tannarxi qancha past bo'lsa, biznes eng yaxshi narxni belgilashi kerak. Har bir kompaniya xarajatlarni kamaytirishga intilishi kerak. Har bir sotuvchi o'zi ishlaydigan mahsulotlarning narxini bilishi shart. Xarajatlar biznesmen modelining bir qismidir. Musobaqa. Narxga ta'sir qiluvchi eng kuchli omil. Marketingni yaxshi biladigan bitta bilimdon kishi, raqobatchilar narxlarni belgilashlarini aytishdi. Bu bilan bahslashish qiyin. Raqobat narxga kuchli ta'sir qiladi: ko'proq raqobatchilar - past narx va aksincha, kamroq raqobatchilar - ko'proq narx. Lekin, har doim ham emas. Tashkilotning maqsadlari va strategiyalari. Har bir kompaniya daromadni maksimal darajada oshirishga intiladi va buning uchun turli xil mahsulotlar va narxlar bilan mos keladigan mahsulot portfelidan foydalanadi. Tashkilotning strategik maqsadlariga qarab, tegishli narxlash strategiyasi tanlanadi: yangi bozorga kirish, mavjud bo'lgan talabni rag'batlantirish. Narxlar strategiyasi umumiy strategiyaning maqsadlariga mos kelishi juda muhimdir. Maqsadli auditoriya va bozor hajmi. Liderlar va talablarning umumiy soni ham narxga ta'sir qiladi. Bozor hajmi qanchalik katta bo'lsa, u yanada jozibali bo'ladi. Katta bozor ko'plab raqobatchilarni jalb qiladi. Shuning uchun bozor va uning imkoniyatlarini sinchkovlik bilan o'rganish narxlarni belgilashdan oldin va eng yaxshi variantni tanlashda yordam berishi kerak. An'anaviy ravishda narxga va shunga mos ravishda sotish darajasiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar mavjud. Bular biznesga ta'sir qilmaydigan ko'rinadi, ammo boshqa tomondan bayramlarda chegirmalar kunini yaratish misollari - buning aksini ko'rsatmoqda. Narxga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni bilib, siz maqbul narxni belgilashingiz mumkin. Eng maqbul narx - bu korxonaga yoki tashkilot kerakli foyda olish uchun zarur miqdorda daromad oladigan xaridorlarni jalb qilishi mumkin bo'lgan narx. Ideal holda, bu mahsulot arzon narxga ega bo'lishi kerak, bu bozorda ma'lum bo'lishi, uni iste'molchilar yoqtirishi, iste'molchilar uni sotib olishni xohlashlari va u barcha raqobatchilarning eng yuqori savdo marjasiga ega bo'lishi kerak. Taniqli amerikalik professor va savdo, marketing va biznesni boshqarish

bo'yicha psixologik va motivatsion kitoblarning muallifi Brayan Treysi bu haqida yaxshi hikoya qiladi. Bir kuni, Garvard universitetida turli millatlararo korporatsiyalarning rahbarlari bilan uchrashuvda u tinglovchilardan "narxni kim belgilaydi?" Ko'pchilik, ularning ichida birinchi menejerlar, moliya va tijorat direktorlari, men va men deb javob bera boshladilar. Bunga javoban Brayan chuqur adashganliklarini aytdi. Raqobatchilar narxlarni belgilashadi. Aniqrog'i, raqobat narxlarni belgilaydi. Shuning uchun narxlarni belgilash asoslarini bilish narxlarni samarali o'rnatishi va foyda keltirishi mumkin.

Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narx – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda qo'llaniladigan narx. Ulgurji narx ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash–sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narx tovar birjalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

Ulgurji narx quyidagi tuzilishga ega:

- ishlab chiqarish tannarxi, korxonaning barcha xarajatlarining yig'indisi (o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlari);

- korxonada foydasi, korxonaning rentabelligi uchun zarur bo'lgan daromad stavkasini ta'minlaydigan stavka;

- aksiz solig'i, oziq-ovqat mahsulotlari va hashamatli mahsulotlar uchun bilvosita soliq;

- qo'shilgan qiymat solig'i.

Ulgurji narx sotish narxidan qanday farq qiladi?

Ulgurji narx - bu ishlab chiqarish tannarxi + korxonada foydasi.

Sotish narxi - kompaniya tovarlarni ulgurji xaridorga sotadigan haqiqiy narx. U korxonada foydasi, aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi.

Misol: Ulgurji narxni hisoblash.

Ishlab chiqarish narxi: 200 so'm (bir dona). Kompaniya 25 % li daromdani rejalashtirsin:

Ishlab chiqarish birligiga foyda: $200 * 0,25 = 50$ so'm.

Ulgurji narx: $200 + 50 = 250$ so'm

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) (20%): $250 * 0,2 = 50$ so'm.

Sotish narxi: $250 + 50 = 300$ so'm.

Agar kompaniya 10 % li daromdini rejalashtirgan bo'lsa quyidagich hisoblanadi:

Ishlab chiqarish birligiga foyda: $200 * 0,1 = 20$ so'm.

Ulgurji narx: $200 + 20 = 220$ so'm.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) (20%): $220 * 0,2 = 44$ so'm.

Sotish narxi: $220 + 44 = 264$ so'm.

Ushbu narxlash usuli xarajat va rentabellik ko'rsatkichlariga asoslangan. O'rnatilgan bozorlarda ishlashda siz raqobatchilarning siyosatini hisobga olishingiz kerak. Agar raqobatchilar o'z mahsulotlarini arzonroq narxlarda sotsalar, kompaniya katta ehtimol bilan o'z strategiyasini moslashtirishi va foyda kutishini pasaytirishi kerak.

Shartnoma narx – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx. Shartnoma narx odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgar olmaydi. Mazkur narx ham milliy, ham xalqaro bozorlarda qo'llaniladi. U xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narx – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narx. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi rolini o'ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati **chegaralangan (limitlangan)** va **dotatsiyalangan narxlarni** vujudga keltiradi. Chegaralangan narx – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o'zgarishi mumkin bo'lgan narx. Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi. Dotatsiyalangan narx – davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx. Bunday narxdan kam daromadli oilalar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx (инг. dumping-ташлаш) bozorda o'z mavqeyini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda chizmaiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi. Dempingdan uzoq vaqt foydalanish mamlakatlar o'rtasidagi tanglikni kuchaytiradi. Demping narxida tovarlarni eksport

qiluvchi mamlakatlarda eksport qiluvchilarning foydasi oshadi, narxlar oshadi va aholi turmush darajasi pasayadi. Demping obyekti bo'lgan mamlakatlarda mahalliy sanoat arzon import tovarlar bilan raqobatga bardosh bera olmaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, ishsizlik kuchayadi. Shu sababli, 1967-yilda Xalqaro dempingga qarshi kodeks qabul qilingan, unda dempingdan foydalanishda maxsus sanksiyalar qo'llaniladi.

Nufuzli narx – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, so'nggi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish – martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. Shunga qarab, ma'lum davrgacha o'zgaraydigan qat'iy (standart) narx va o'zgaruvchan narx qo'llaniladi. Shunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarishini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati tariflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

Erkin bozor narxi – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxidir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narx jamiyat va bozor munosabatlari barcha sub'ektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Egiluvchan narx - egiluvchan narxlar ko'pincha individual bitimlar amalga oshiriladigan bozorlarda uchraydi. Zargarlik buyumlari, antiqa do'konlar, dehqon bozorlar egiluvchan narxlardan foydalanadilar. Egiluvchan narxlar sanoat tovarlari uchun ham belgilanadi. Masalan, mashina va uskunalarini lizing bozorida bir xil narxda tuzilgan bitimlar kam uchraydi. Ushbu strategiyaga muvofiq, korxonalar xaridorning

savdolashish qobiliyatiga yoki boshqacha qilib aytganda, ularning xarid qobiliyatiga qarab bir xil mahsulot yoki xizmat narxlarini o'zgartiradi. Savdolasha oladigan xaridor, savdolasha olmaydiganlarga qaraganda kamroq haq to'laydi. Raqobat bozorlarida bugungi kunda korxonalar tobora egiluvchan narxlar strategiyasini olib bormoqdalar.

Bozor ko'lamini hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. **Hududiy narx** faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. **Milliy bozor narxi** bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxdir. **Milliy narx** mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafilligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. **Jahon bozori narxi** muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

10.3. Marketingda narx siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari


Tovarga narx belgilash marketolog oldidagi qiyin vazifalardan biri hisoblanadi. Iste'molchilarning mahsulot iste'mol qiymati haqidagi fikri narxning eng yuqori darajasini belgilaydi. Baholash siyosatining bir necha asosiy turli xil maqsadlari mavjud, ularning amalga oshirilishi qisqa, o'rta yoki uzoq muddatda amalga oshirilishi mumkin. Kundalik amaliyotda narx siyosati yordamida iloji boricha ko'proq maqsadlarning optimal nisbatlarini topish va amalga oshirish juda muhimdir. Agar iste'molchi mahsulot narxini uning nafilligidan yuqoriroq deb baholasa ushbu tovarni sotib olmaydi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar esa narxning quyi chegarasini tashkil qiladi. Agar mahsulot narxi unga sarflangan xarajatlardan past darajada belgilansa bu holat korxonaga zarar keltiradi.

Narx siyosatining eng tipik asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1)Sotuvni ta'minlash, korxonaning omon qolishi. Ushbu maqsad yuqori raqobat sharoitida ishlaydigan har qanday firma uchun, ya'ni bozorda shunga o'xshash mahsulotlarga ega bo'lgan ko'plab ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lganda, u asosiy hisoblanadi. Ishlab chiqarishni davom ettirish va bankrotlikning oldini olish uchun firmalar

so'tishni ko'paytirish va mijozlar tomonidan ijobiy javob olish unidida tovarlarga past narxlarni belgilashga majbur (bozorga kirish va ko'proq bozor ulushini egallash uchun). Bunday holda, foyda o'zining muhim ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Agar narx kamida o'zgaruvchan xarajatlarni va belgilangan xarajatlarning bir qismini qamrab oladigan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish bundan keyin ham davom etishi mumkin, ammo tadbirkorlik faoliyatining bunday narx siyosati faqat qisqa muddatda qabul qilinadi;

Merchandayzing faoliyatida mijozning birinchi taassuroti muhim o'rin tutadi chakana savdo do'konlarida o'z mahsulotlarini oyna oldiga qo'yib, o'z mijozini ushbu mahsulotni sotib olishga jalb qilishga harakat qiladi yoki bu ishni o'zining web sayti orqali amalga oshiradi. Statistikaning ko'rsatishicha, 53 % mijozlar agar korxonaga websaytiga kirish 3 sekund ichida amalga oshmasa ular o'z fikridan qaytishadi. Shu sababli xaridorda birinchi taassurotni iloji boricha yaxshi bo'lishiga harakat qilinadi.

Savdo korxonasidagi tirbandliklar ham xaridorning mahsulotni sotib olish haqidagi fikriga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida korxonaga o'z mahsulotlari joylashgan joyning xaritasini tuzishi va bu orqali xaridorlarga qulaylik yaratishi mumkin. Masalan, bir turdagi mahsulotlarni bir-biriga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq. Merchandising vositalaridan samarali foydala-

nish ijobiy natija beradi. Merchandising vositalari deyarli savdo maydonchasida bo'lgan va sotuvlar bilan bog'liq bo'lgan barcha narsadir. Asboblarda do'kon dizayni, savdo uskunalari, shuningdek, savdo maydonchasida yaxshi rejalashtirilgan mijozlar oqimi, xodimlar formasi va reklama materiallarini o'z ichiga oladi. Biroq, ushbu vositalarning samarali ishlashi uchun tayyorgarlik talab etiladi. Tayyorgarlik bosqichining bir qismi - maqsadli auditoriyaning talab qilinadigan segmentining afzalliklarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan planogramma (tovarlarni vitrinaga joylashtirish sxemasi). Planogramda mahsulotning asosiy xususiyatlari va uni do'kon javonlarida ko'rsatish usullari hisobga olinadi.

Merchandayzingni to'rtta tamoyili quyidagicha:

1. Ekspozitsiya. Mahsulotlar xaridorga aniq ko'rinadi.
2. Mahsulot haqida ta'sirchan axborot. Xaridorda sotib olishga ishonch hosil paydo qiladi.
3. Narxlar taqdimoti. Xaridor sotib olishning afzalliklarini tushunishi kerak.
4. Qulaylik. Mahsulotlarni o'z qo'llaringiz bilan olishingiz mumkin.

Merchandayzing faoliyatining bir qancha ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Avvalo ijobiy tomonlariga to'xtalsak:

1) savdo korxonasi tashrif buyuruvchi mijozlar hajmi oshadi - merchandayzing elementlari nafaqat savdo korxonasi ichkarisida, balki tashqarisida ham qo'llaniladi. Savdo korxonasining tashqi ko'rinishi ham mijozlar e'tiboridan chetda qolmaydi;

2) sotish hajmi oshishiga olib keladi agar siz mijozlarni xursand holda do'konni tark etishiga erishsangiz ular o'z tajribalari haqida boshqalar bilan ham o'rtoqlashishadi;

3) jozibali dizayn yaratiladi, siz merchandayzing elementlaridan foydalanib savdo korxonasi jihozlari dizaynini ham yaratishingiz mumkin, bu esa korxonada brendi obro'sining ortishiga olib keladi.

Kamchiliklari:

➤ qo'shimcha ishchi kuchi talab qiladi, buning natijasida xarajatlar miqdori ham oshadi;

➤ bir marta merchandayzingni qo'llash yetarli emas, ayrim hollarda merchandayzing elementlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida

mahsulotga talab kamayadi va natijada merchandayzingning elementlaridan yana bir bor foydalanishga to'g'ri keladi;

➤ xarajatlarning oshishi merchandayzing elementlaridan foydalanish, vaqt va mablag' tomondan turli xil xarajatlarni talab qiladi bu esa, o'z navbatida, foydaga ham ta'sir qiladi.

11.4. Sotish siyosati va uni rivojlantirish tendensiyalari

Savdo maqsadlarini aniqlamasdan, ushbu faoliyatni boshlashning ma'nosi yo'q, chunki uning to'g'ri yoki yo'qligini hech qachon aniqlab bo'lmaydi - natijada nima bo'lishi kerakligi ma'lum emas. O'zingizga quyidagi savollarni berishingiz kerak.

- kompaniya qanday savdo maqsadlariga erishmoqchi?
- ushbu maqsadlar qanchalik haqiqatga yaqin?
- savdo strategiyasi umuman kompaniyaning rivojlanish strategiyasini aks ettiradimi?

Ushbu savollarga javoblarni olgandan so'ng, savdo tizimini yaratish - bu aksiyadorlar tomonidan menejment orqali shakllantirilgan tarmoqning o'ziga xos jihatlari va kompaniya madaniyatining xususiyatlari bo'yicha standartlashtirilgan harakatlarning oddiy to'plamini shakllantirish kerak bo'ladi:

- sotish siyosatining maqsadlarini aniqlash;
- sotish siyosatining asosiy tamoyillari tavsifi;
- mijozlar tasnifi;
- kanaldagi savdo kanallari tavsifi;
- hududlarning tavsifi;
- sotish siyosatini amalga oshirish vositalari: sherikni tanlash mezonlari (distribyutor, diler);
- o'zaro ta'sir sxemasi, xodimlarning lavozim tavsifi, xodimlarni rag'batlantirish tizimi;
- xodimlarning hisoboti;
- mahsulot guruhlari ro'yxati (narxlar ro'yxati);
- sotish kanalining barcha ishtirokchilari uchun tijorat takliflari: chegirmalar, bonuslar, tavsiya etilgan narxlar;
- kredit siyosati, moliyaviy intizom, rag'batlantirish dasturlari;
- sotishni qo'llab-quvvatlash dasturi;

Har bir chakana savdo firmasi o'zining biznes rejasi asosida faoliyat olib boradi. Bundan tashqari u o'z faoliyatini amalga oshirishda turlicha strategiyalardan foydalanadi, ularning samaralisini izlashga harakat qiladi. Bu jarayonda sotish siyosatini samarali ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Sotish siyosati iste'mol tovarlarini yetkazib berishning ehtimol tutilgan variantlari tahlili va uning mahsulot taqsimotining hamma shaxobchalarida eng yuksak xo'jalik samarasiga erishishini ta'minlaydigan maqbul variantni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Har qanday biznes uchun asosiy maqsad sotish strategiyasi demografik tadqiqotlar asosida maqsadli potensial xaridorlarni izlab topishdir. Sizning mahsulotingizga barcha iste'molchi ham talab bildirmaydi. Misol uchun, "katta va uzun" kiyim-kechak do'koni katta yoshli erkaklar kiyimlarini sotishni maqsad qiladi. Buni yosh qizlarga sotish mantiqiga zid. Har qanday sotish strategiyasi moliyaviy tarafdin ta'minlanishi uchun belgilangan budjet mavjud bo'lishi lozim. Misol uchun, brendga ega firma turli sport o'yinlari, nashriyotdagi reklamalar, televideniya kabilarga homiylik qilishi uchun marketing budjetini shakllantiradi. Shuningdek, sotish strategiyasida budjetdagi o'zgarishlar nazoratga olinishi lozim. Keyinchalik, muvaffaqiyatli tugallangan strategiyalar uchun kelajakda ko'proq mablag' ajratiladi va muvaffaqiyatsiz tugaganlariga esa aksincha. Bundan tashqari, siz mijozlaringiz nega raqobatchingizning emas balki sizning mahsulotingizni, aksincha, raqobatchi firma mahsulotini afzal ko'rishini aniqlashingiz zarur.

Sotish strategiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- maqsadli bozorni aniqlash;
- sotish uslublarini ishlab chiqish;
- raqobat muhitini o'rganib chiqish;
- tendensiyalarni tahlil qilish;
- korxonaga boshqaruv tizimini shakllantirish.

Sotuvingizdan qat'iy nazar, maqsadli bozorni aniqlash kerak. Misol uchun, chaqaloqlar uchun o'yinchoq sotadigan kompaniya erkaklar moda jurnallarida o'z mahsulotlarini reklama qilishi befoyda bo'ladi. Bozordagi holatni o'rnatishdan tashqari kompaniyaning potensial mijozlarining joylashuvi, yoshi, jinsi va sarf-xarajat odatlari ham o'rganib chiqilishi kerak.

Barcha kompaniyalar savdo strategiyasini ishlab chiqishda o'z mahsulotlarini sotish va targ'ib qilish bo'yicha qanday yo'l tutish kerakligini

aniqlashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, siz mijozlarga pochta orqali murojaat qilasizmi? Telefon orqali? Yoki ommaviy marketing elektron pochta xabarlarini yuborish orqalimi? Ko'pgina kompaniyalar ushbu usullarning barchasidan foydalanadi – va undan ham ko'proq - potensial mijozni yuzma-yuz muloqot uyushtirishga intiladi.

Har qanday yaxshi savdo strategiyasida raqobat omili hisobga olinadi. Bu esa o'z navbatida qarama-qarshi firmalar strategiyasini o'rnatish va ehtimol uni o'zingizning savdo strategiyangizda ham qo'llash imkonini beradi. Yoki raqobatchining strategiyasini yanada takomillashtirish, shunga o'xshash mahsulotni arzon narxlarda sotish, mahsulot iste'mol qiymatini oshirish kabi usullarni qo'llash mumkin.

Agar siz korxonangizda ishlab chiqarilgan mahsulotlaringizni yaxshiroq sota olmayotgan bo'lsangiz, bilingki, umuman mukammal savdo strategiyasi yo'qligini tushunishingiz kerak. Afsuski, ba'zilar uchun bitta strategiya millionlab daromad keltiradi, boshqalari uchun esa bu bankrotlikka olib keladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, strategiyaning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud, ammo asosiysi siz faoliyat yuritadigan bozor turi. Bozorlarni ajratish mumkin bo'lgan to'rt parametr mavjud:

- oldindan taxmin qilish - boshqacha aytganda, barqarorlik;
- kutilmagan - ya'ni beqarorlik;
- sotuvchilarni bozorga ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- agressivlik bu bozordagi raqobat.

Shuning uchun, kompaniya uchun sotish strategiyasini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, quyidagi muhim jihatlarni aniqlash kerak:

- sotish siyosatini maqsadlari (shu jumladan miqdoriy jihatdan: mijozlar soni, bozordagi ulushi, sotish hajmi);
- maqsadli auditoriya (sizning mijozlaringiz kim, ular qayerda, sizning mahsulotingiz uchun qancha pul to'lashga tayyor va qancha iste'mol qilish kerak);
- tarqatish kanallari (mahsulotlaringiz mijozlaringizga qanday yetib boradi - to'g'ridan-to'g'ri, vositachilar orqali va boshqalar);
- sotuvlar byudjeti (savdo maqsadlariga erishish uchun kompaniyangiz qancha xarajatlarni rejalashtiradi);
- sotish rejasi, sotish strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bunda kompaniya ma'lum bir muddat davomida ishlashi kerak bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarni qayd etadi.

E'tibor bering, sotish strategiyasi yozilishi va tasdiqlanishi kerak. Agar yuqorida keltirilgan barcha savollarga javoblar faqat og'zaki ravishda kelishilgan bo'lsa, unda siz kompaniyada tasdiqlangan savdo strategiyasi yo'q deb taxmin qilishingiz mumkin. Ko'pgina savdo bo'limlari rahbarlari va boshqa top menejerlar ko'pincha ushbu "chizmaiyatchilik" ga ahamiyat bermaydilar va natijada kelajakda savdo maqsadlariga erishishni kuzatish vaqti kelganda o'zlari uchun jiddiy muammolar tug'diradilar. Aniq belgilangan strategiyasiz, masalan, savdo bo'limi boshlig'i, o'z bo'limining faoliyatini moliyalashtirish masalalarini (qo'shimcha ishchilarni jalb qilish, qo'shimcha ish joylari, jihozlar, xizmat safarlari va boshqalar) hal qilish ancha qiyinlashadi va kompaniya rahbari maqsadlarga erishishni nazorat qiladi, chunki og'zaki kelishuvlar yozuvda yozilganlarga qaraganda har doim har xil talqinlarga ega. Vaqti-vaqti bilan, mahsulot ma'naviy jihatdan eskiradi va yangilanish yoki butunlay almashtirilishni taqozo qiladi. Boshqa hollarda, iste'molchining muayyan mahsulotga qancha mablag' sarflashi iqtisodiy muhitdan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu turdagi tendensiyalarni tushunish savdo strategiyasini ishlab chiqishda katta omillardan biri hisoblanadi. Moliya bozoridagi o'zgarishlar va mahsulotga nisbatan talab qachon kamayishini bilgan holda tuzilgan strategiyalar yuqori samara beradi. Ya'ni, bozorni va iste'molchilarni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Bozor qanday ishlaydi?

Bozor tendensiyalari qanday?

Bizning raqobatchilarimiz kim va raqobatchilarga nisbatan bizning nuqtayi nazarimiz qanday?

Mahsulot iste'molchilarining maqsadli auditoriyasi nima?

Bozordagi iste'molchilar qanday imtiyozlarga ega?

Iste'molchilar imtiyozlari qanday o'zgaradi?

Mavjud mahsulot bozor tendensiyalariga mos keladimi?

Kompaniyaning rejalarini amalga oshirish uchun mahsulot va tovar taklifi qanday o'zgarishi kerak?

Raqobatchilardan sifat jihatidan farq qiladigan mahsulotni qanday chiqarish kerak?

Eng samarali marketing va reklama kanallari qanday?

Marketing va reklama faoliyati xarajatlari va foydalarini qanday to'g'ri baholash kerak?

Maksimal samaraga erishish uchun kim va qanday qilib kompaniyada marketing tamoyillarini qo'llashi kerak?

Sotish va tarqatish tizimi kompaniyaning maqsadlariga mos keladigan tarzda qanday tuzilishi kerak?

Kompaniyaning mahsulotlari qayerda va qanday sotilishi kerak?

Qanday texnologiyalar va sotish usullari sizning maqsadingizga erishishga imkon beradi?

Maqsadlarga erishish uchun tashkiliy tuzilma va xodimlar qanday bo'lishi kerak?

Qanday qilib xodimlarni rag'batlantirish va boshqarish kerak? Xodimlar qanday ko'nikmalarga va kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

Sotish strategiyasi bilan birga sotish taktikasini ham amlga oshirish zarur.

Sotish taktikasi - bu savdoni faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Sotish metodologiyasi asosan intellektual ravishda "sotuvchilar" tomonidan shakllantirilgan, ular har doim ham bozorda real vaziyatni, iste'molchilar xohishlarining o'zgarishini yoki kompaniyaning strategik yondashuvlarini baholay olmaydilar. Sotish taktikasini shakllantirish atrof-muhit omillari va bozor tendensiyalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Sotish taktikasi ko'p jihatdan sotuvchilarning ichki o'zini o'zi tashkil qilish, kasbiy ta'lim, mijozni tushunish masalalariga ham ta'sir qiladi. Bularning barchasi inqiroz sharoitida raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir. Sotish taktikasini qanday rivojlantirish kerak? Savdogarlar iloji boricha ko'proq foyda keltirishi uchun siz savdo shartlarini diqqat bilan o'rganib chiqishingiz kerak. Bu savdo hajmiga yoki yaxshi ish haqiga qarab bonus to'lovlari yoki komissiya foizlari bo'lishi mumkin. Siz uchun eng muhim narsa bu sizning ishchilaringizni qiziqtirishdir, shuning uchun, ushbu bo'limda tovarlarni sotish bilan shug'ullanadigan xodimlaringizni rag'batlantirish usullarini batafsil bayon qiling. Sizning bozordagi faoliyatingiz yoki mahsulotingizni rek-lama qilish yoki bir qator xizmatlarni taqdim etishda xodimlaringizdan samarali foydalaning. Shu bilan birga, xodimlaringizga maxsus savdo litsenziyalari kerakmi? Qanday qilib o'z mahsulotingizni sotasiz - dilerlik tarmog'i yoki distrib'yutorlar orqali? Sizning narx siyosatingiz sanoat va bozor standartlariga muvofiqmi? Xodimlar sizning savdo mafkurangizni bilishadimi? Nega sizning mijozlaringiz sizning xizmatigingiz-

dan foydalanishni yoki mahsulotingizni sotib olishni afzal ko'rish haqida fikr yuritishingiz lozim bo'ladi.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Savdoning dastlabki shakllari qanday usullardan boshlangan?
2. Chakana savdo va ulgurji savdoni mazmunini izohlab bering.
3. Korporativ chakana savdo korxonalari deganda qanday korxonalarni tushunasiz?
4. Iste'mol kooperativi nima?
5. «Merchandayzing» siyosati deganda nimani tushunasiz?
6. Savdo qilishning qanday yangi turlari va uslublarini bilasiz?
7. Taqsimlash kanallari necha bosqichdan iborat?
8. Savdo avtomatlari orqali tovar sotish deganda nimani tushunasiz?
9. M.Porter o'z tadqiqotlarida mamlakat tarmoqlari va firmalarining raqobat ustunligini belgilovchi omillarni nechta guruhga bo'lgan?
10. Chakana savdo firmalari qanday mezonlarga ko'ra farqlanadi?

12-MODUL. KOMMUNIKATSIYA SIYOSATI

12.1. Talabni shakllantirish va sotuvni rag‘batlantirishda kommunikatsiyaning ahamiyati

Sotishni rag‘batlantirish – bu ma’lum bir muddatda sotish hajmini oshirish maqsadida turli rag‘batlantirish vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu rag‘batlantirish vositalariga: mukofotlar, chegirmalar, ketma-ket tovarni sotib olgani uchun sovg‘alar, lotereya va o‘yinlar o‘tkazish, tovar bilan qo‘shimcha narsalar qo‘shib berish, bepul yetkazib berish va o‘rnatish, ma’lum muddatda sotilgan tovarga bepul xizmat ko‘rsatish va boshqalar kiradi.

Sotishni rag‘batlantirishda tovar to‘g‘risida ma’lum darajada axborotga ega bo‘lmagan iste’molchilarga murojaat qilinadi. Shuning uchun rag‘batlantirish siyosatining vazifasi – ularda firma tovarlarini keyingi vaqtda sotib olishga ishtiyoq tug‘dirish hamda doimo aloqada bo‘lishga chaqirishdan iborat. Odatda, talabni shakllantirish tadbirlari iste’molchilarga va sotuvchilarga qaratilgan bo‘ladi. Iste’molchilarni rag‘batlantirish ularga sezilarli tijorat imtiyozlari berishni ko‘zda tutadi:

- tovarni sotib olish hajmiga va doimiy aloqada bo‘lib turishga beriladigan imtiyoz;
- har xil shakldagi qarzlarga tovar sotish;
- tovarning ko‘p hajmda xarid qilinishini ko‘zlab namunalarni bepul tarqatish;
- tovarlarni vaqtincha ishlatish uchun bepul berish;
- ishlatilgan tovarni ma’lum shartlar bilan qabul qilish;
- yangi tovarlarni bo‘lajak xaridorlarga ko‘rsatish;
- tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarda sayohat uyushtirish;
- yangi tovarlarning bozorga kiritilishiga bag‘ishlangan matbuot konferensiyalari o‘tkazish;
- tovar narxini keskin tushirish to‘g‘risidagi radio, televideniya va matbuot orqali e‘lonlar.

Tovarlarga bag‘ishlangan rag‘batlantirish siyosati ularning sotib oluvchi xaridorlari turiga bog‘liq. Vositachilarni rag‘batlantirish, ularning faolligini va tashabbuskorligini oshirishga hamda iste’molchilar doirasini kengaytirishga mo‘ljallanadi. Talabning shakllanishi va sotish-

ni rag'batlantirish siyosati tovarning bozordagi hayotiy bosqichlariga muvofiq kelishi bilan har biriga mos mazmun bag'ishlashi shart.

O'tgan o'n yil davomida sotuvchilar mijozlar ommasiga yuqori standartlarga javob beradigan mahsulotlar sotishdi. Bu jarayonda ular ommaviy axborot vositalaridan samarali ravishda foydalanishdi. Ushbu strategiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun yirik savdo kompaniyalari bugungi kunda millionlab yoki hatto milliardlab dollarlarni televideniya, jurnal yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida o'z mahsulotini reklama qilish uchun sarflamoqda bu orqali esa millionlab mijozlarni bitta reklama bilan jalb etadilar.

Marketing kommunikatsiyalari barcha xabarlarini, ommaviy axborot vositalarini va bir tashkilot tomonidan bozor bilan bog'lanish uchun foydalanadigan hamda maqsadli auditoriyani o'z xabarlarini qabul qilishga va shunga mos ravishda harakatga undashga yordam beradigan faoliyatni o'z ichiga oladi. Ya'ni, marketingda kommunikatsiya savdo korxonasini ta'minotchilar va iste'molchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish, zarur ma'lumotlarni tezkor almashish jarayonini ifodalaydi. Kommunikatsiya siyosati (Promotion mix) – bu tovarni bozorga siljitish usullari yig'indisidir. Kommunikatsiyaning asosiy vositalari bo'lib (public relations) pablik rileyshnz – jamoat bilan aloqa; reklama; sotishni rag'batlantirish; maxsus ko'rgazmalar; shaxsiy sotuv hisoblanadi.

Marketingda kommunikatsiya sotuvga chiqarilishi mo'ljallanayotgan mahsulotlar bo'yicha xaridorlar tasavvurini oshirish, yangi tovarlarning ijobiy xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. 1950–1960-yillarda kommunikativ siyosat katta rol o'ynamagan, doimiy talabni ta'minlash uchun tovar taklifi hajmiga konsenratsiya bosh masala hisoblangan. 1960-yildan keyin sotishni tashkil etishda korxonalar kommunikativ vositalaridan foydalana boshlaganlar. Birinchi rejaga reklama va sotishni rag'batlantirish chiqqan. 1980-yillarda raqobatli kommunikatsiya bosqichi, 1990-yillardan boshlab raqobatli va integratsiyalangan kommunikatsiya bosqichlari rivojlana boshlagan. Kommunikatsiya raqobat kurashida muvaffaqiyat omili bo'lib hisoblanadi.

Marketing kommunikatsiyasining asosiy maqsadi - savdo-sotiqni rag'batlantirish, ilmiy jihatdan aytganda, tovarlar yoki xizmatlarni sotishni rag'batlantirish. Ba'zan siz birinchi navbatda talabni yaratishingiz kerak, ayniqsa mahsulot yangi bo'lsa. Xabardorlikni oshirish, iste'mol-

chilarni sotib olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni saqlab turish, brend va mahsulot imijini yaratish, o'zini doimo eslatib turish - bular marketing kommunikatsiyalarining qo'shimcha vazifalari. Doimiy va tizimli ravishda marketing aloqalari mijozlarga "xabar yuborish" va fikr-mulohazalarni to'plash orqali mahsulot yoki tovar imijini shakllantiradi. Nike, Coca-Cola, Mercedes - bu buyuk brendlar o'nlab yillar davomida tomoshabinlar bilan aloqa o'rnatib, ularga brend falsafasiga muhabbat va kuchli talabni keltirib chiqardi. Marketing kommunikatsiyalari xaridor bilan bitimning barcha bosqichlarida ishlaydi:

- sotib olishdan oldin, ularni mahsulot bilan tanishtiradi, ehtiyojni shakllantiradi;
- sotib olish paytida sizga tanlov qilishingizga yordam beradi;
- sotib olgandan so'ng, ular mahsulotni to'g'ri va qulay ishlatilishiga hissa qo'shadilar;
- keyingi talabni rag'batlantirish;
- brendning sodiqligini yaratadi.


Umuman olganda, marketing kommunikatsiyalarining vazifasi tovarning jozibadorligini maqsadli auditoriya vakillarining maksimal soniga yetkazishdir. Korxonada o'z firmasining yaxshi imijini yaratish uchun ko'plab kommunikativ jarayonlar bilan o'zaro kelishishga majburdir. Korxonada tovar bilan raqobatlashib kommunikativ raqobatga chuqurroq, ya'ni, bozorni muhimroq maqsadli segmenti va xaridorlari e'tiborini qozonishga harakat qilinadi. Kommunikativ siyosatda strategik va taktik choralarni o'z ichiga oluvchi faqat kompleks yondashuv talab etiladi. Buning uchun korxonadan tadbirkorlikning integratsiyalangan kommunikativ konsepsiyasini yaratish va rivojlantirish lozim bo'ladi. Integratsiyalangan kommunikativ jarayonning xususiyati bo'lib kommunikatsiya vositasi va jarayoni, tashuvchilar shakllarining turli-tumanligi hisoblanadi.

Kommunikatsiya quyidagicha tasniflanadi:

- kontakt turi bo'yicha shaxsiy va shaxsiy bo'lmagan;
- jadalligi bo'yicha jadal va takror;
- qo'llash chastotasi bo'yicha yagona va ko'p marotabalik;
- ta'sir natijasiga ko'ra samarali va samarasiz.

Bugungi marketing kommunikatsiyalarining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi: **Birinchidan**, iste'molchilar o'zgarib bormoqda. Ushbu axborot asrida iste'molchilar yanada ko'proq axborotlarga ega. Reklama agentliklari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga tayanishdan ko'ra ular o'zlari mahsulot haqida ma'lumot olish uchun internet, ijtimoiy media va boshqa texnologiyalardan foydalanishlari mumkin. Ular boshqa iste'molchilar bilan brend haqida ma'lumot almashish, hatto o'z brendlari yaratish uchun osongina ma'lumot almashishi mumkin. **Ikkinchidan**, marketing strategiyasi o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda bozorni segmentlashdan foydalanish orqali tor doiradagi bozor uchun mahsulot yaratish birinchi o'ringa ko'tarildi, shu sababli strategiyalarda ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. Nihoyat, raqamli texnologiyaning takomillashishi kompaniyalar va mijozlarning bir-biri bilan muloqot qilish jarayonida ulkan hajmdagi o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Axborot asrida sun'iy yo'ldosh va kabel, yangi axborot va kommunikatsiya vositalari yaratildi.


Raqamli texnologiyaning rivojlanishi natijasida kommunikatsiya siyosatida reklamalarni joylashtirishda gazeta, jurnal va televideniya dan foydalanish darajasi pasayib bormoqda. Buning natijasida esa kompaniya tomonidan xaridorlar bilan mahsulot haqida o'zaro muloqot o'rnatish ularning fikrini aniqlash va ularni jalb qilish kabi jarayonlar internet orqali amalga oshirilmoqda.



12.1.1-chizma. Integratsion marketing kommunikatsiyalari

Ko‘plab aloqa vositalarining rivojlanishi ko‘plab imkoniyatlar bilan birga bir qancha muammoli vaziyatlarni ham keltirib chiqardi. Marketinglar uchun xaridorlar bilan muloqot o‘rnatish uchun ko‘plab tarmoqlar yaratildi tarmoqlar orqali muloqot tizimini samarali tashkil etish muammosi mavjud. Ushbu muammoni hal qilish uchun integratsion marketing kommunikatsiyalaridan foydalanilmoqda (12.1.1-chizma)

Integratsiyalangan marketing kommunikatsiyalari maqsadli mijozlarni aniqlash va mijozlar uchun yaxshi muvofiqlashtirilgan rag‘batlantiruvchi dasturini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Kommunikatsiyada, eng avvalo, mahsulotni tanlangan auditoriyaga targ‘ib qilish uchun muqobil variantlarni tanlab olish kerak. Masalan, simsiz telefon ishlab chiqaruvchi korxonaga o‘z mahsulotini reklama qilish uchun turli veb-saytlarni gazeta jurnal va televideniyaning o‘rganib chiqadi va o‘z reklamasini uchun mosini tanlaydi (12.1.2-chizma).



12.1.2-chizma. Kommunikatsiya jarayoni elementlari

Kommunikatsiya yuqoridagi chizmada ko‘rsatilgan to‘qqiz elementni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlarning ikkitasi aloqa sohasidagi asosiy ishtirokchilar – jo‘natuvchi va qabul qiluvchi. Boshqa ikkita asosiy element bu aloqa vositalari – xabar va ommaviy axborot vositalari. To‘rtta asosiy aloqa funksiyalari - shifrlash, dekodlash, javob berish va qayta aloqa. Oxirgi element – bu tizimdagi shovqin. Bozorga kirish firma uchun mas‘uliyatli davr, uning tovarlari haqida hali ma‘lumotlar berilmagan. Bo‘lajak iste‘molchi quyidagi axborotlarni olishi shart:

- tovarning borligi va sotilish joyi;

- qaysi ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi;
- iste'mol qiymatining asosiy ko'rsatkichlari;
- xaridorlarni ko'niktirmay qolgan holda ularning himoya qilish kafolatlari.

Bo'lg'usi xaridorlarga axborotlar yetkazish uslublari quyidagilar:

- reklamalar (radio, televideniya, yozma);
- ko'rgazmalar o'tkazish;
- yig'ilishlar, anjumanlar va filmlar orqali yetkazish va boshqalar.

Axborotga ega bo'lmagan xaridorlarga murojaat qilish, ularning talabini uyg'otadi va tovarni sotib olishga undaydilar.

Talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirishda to'g'ri marketingning ahamiyati kattadir.

To'g'ri marketing – bu marketingning dialogik tizimidir, ya'ni sotuvchi xaridor bilan suhbatlashib, oxiri xaridorni buyurtma borligiga ishontradi. To'g'ri marketingning afzallik tomoni shundaki, siz o'z xizmatlaringiz natijasini o'z ko'zingiz bilan ko'rishingiz mumkin.

Telemarketing – bu to'g'ri marketingning bir shakli bo'lib, bunda mijoz bilan telefon orqali muloqot qilish tushuniladi. Telemarketingdan foydalanganda telefon qilish vaqtini to'g'ri tanlash kerak. Mutaxassislarning fikricha, eng optimal vaqt kunduzi soat 10 dan keyin va tushdan keyin soat 14–17 hisoblanadi.

Marketingning yangi tendensiyalari kompaniyaning savdo tizimida o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Klassik uslublar, ularning samaradorligiga qaramay, korxonaning bozordagi raqobatdoshligini oshirmaydi, shuning uchun bozorda mahsulot sotishni ko'paytirish uchun innovatsion yondashuvlar zarur. Ushbu zamonaviy texnikalardan biri treyd marketingidir.

Treyd marketingi (trade marketing) yoki savdo marketingi bu marketing yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi marketing kanalining barcha subyektlari ishlab chiqaruvchidan to yakuniy buyurtmachiga qadar o'zaro ta'sir o'tkazishdir. Natijada, bu sotuvlar sonining ko'payishiga, xaridorlarning mahsulot tan olinishiga va yangi mijozlarni jalb qilishga olib keladi.

Treyd marketingi - bu sotishni rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar uyushtirish orqali savdo hajmini oshirishga imkon beradigan marketing sohasi. Treyd marketingi - bu savdo hajmini oshirishga qaratilgan faoliyat majmui hisoblanadi. Treyd marketingi savdoni oshirishdan tashqari,

uning uzoq muddatli maqsadi - kompaniya, mahsulot yoki brendga bo'lgan sadoqatni oshirish.

Treyd marketingining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- muayyan mahsulotlarga e'tiborni jalb qilish (nafaqat mahsulot bilan iste'molchilar o'rtasida aloqa o'rnatish, balki uni yaratishda mahsulotning ijobiy imijini mustahkamlash, takroriy xaridlarni rag'batlantirish);

- brendning raqobatchilardan ustunligini namoyish qilish (sotuvchi va xaridor o'rtasidagi yaqin aloqa kompaniya obro'siga ijobiy ta'sir ko'rsatadi);

- mahsulot sotib olish to'g'risida ijobiy qarorni rag'batlantirish (chegirmalar, aksiyalar va boshqalar yordamida);

- takroriy sotuvlar sonining o'sishi (yangi mijozlar va eski mijozlarni jalb qilish orqali).

Treyd marketingi an'anaviy marketingdan sotishni rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan tadbirlardan farq qiladi. Savdo marketingi mahsulotlarni bilvosita reklama qilish vositalaridan foydalanadi. Bunday tadbirlar majmuasiga savdo zanjirining barcha subyektlari kiradi:

- ishlab chiqaruvchi;
- tarqatuvchi;
- sotuvchi;
- xaridor.

Treyd marketing strategiyasi

Treyd marketingi – bu vositachilar va chakana savdo do'konlari xodimlari uchun raqobatbardosh rag'bat. Kichik va o'rta kompaniyalar uchun rivojlanish va reklama vositasi sifatida juda yaxshi. Treyd marketing vositalaridan foydalanishdan oldin bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan strategiyani ishlab chiqish kerak:

- bozorni o'rganish va tahlil qilish;
- raqobatchilar va ularning mahsulotlarini baholash;
- kompaniyaning o'zi va uning bozordagi o'rnini tahlil qilish;
- marketing strategiyasining maqsadlarini belgilash;
- maqsadli auditoriyaning qiziqishlari va ehtiyojlarini o'rganish;
- brend pozitsiyasini ishlab chiqish;
- strategiyani iqtisodiy baholash.

Agar kompaniyaning cheklangan resurslari maksimal natijalarga erishsa, treyd marketing strategiyasi samarali deb hisoblanadi. Bu savdo hajmining o'sishi va iste'molchilar ongida brendning birlashishi hisoblanadi. Treyd marketingi uzoq muddatga mo'ljallanganligi sababli, strategiyaning samaradorligini vaqt o'tishi bilan baholash mumkin.

Treyd marketingining asosiy strategiyasi - bu savdo strategiyasi. Bu har bir savdo tashkilotida tovarlarning miqdori, assortimenti va joylash-tirilishi bo'yicha rejani ishlab chiqish. Reja har bir mahsulot uchun alohida o'tkazilgan ekspertiza asosida ishlab chiqiladi.

Savdo strategiyasi quyidagi muammolarni hal qiladi:

- tovarlarning ustuvor, asosiy va qo'shimcha elementlarini aniqlash;
- har bir savdo kompaniyasining assortimentini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan pozitsiyalar sonini aniqlash;
- ma'lum bir mahsulotni tarqatish kanalida joyni aniqlash (mahsulot toifasi, kategoriya bo'yicha joylashish maydoni, qo'shimcha savdo nuqtalari);
- har bir tovar uchun minimal talab qilinadigan zaxirani yaratish.

Har bir savdo nuqtasi uchun o'z savdo strategiyasini ishlab chiqish juda qiyin. Bu, ayniqsa, savdo kanallari ko'p bo'lgan yirik korxonalar uchun muammoli. Bunday tashkilotlar quyidagi toifalarga qarab guruh-larga bo'linadi:

- savdo do'konining formati (supermarket, kichik do'kon, pavilyon, chodir va boshqalar);
- savdo kompaniyasining joylashgan joyi;
- aylanma;
- savdo maydonchasining hajmi va boshqalar.

Savdo marketing strategiyasi aniq va ravshan bo'lishi kerak, chunki uni amalga oshirish savdo kompaniyalarining oddiy ishchilariga (savdo vakillari, savdogarlar va h.k) bog'liq.

Treyd marketing vositalarining umumiy tasnifi:

- pos (ingl. Point of Sales – sotish joyi) materiallari (varaqaqalar, narx belgilari, taqvimlar va boshqalar) tovarlar to'g'risida ma'lumot beradigan va potensial xaridorlarning e'tiborini jalb qiladigan;
- xaridorni pul mukofoti yoki mukofot evaziga xarid qilishga undovchi rag'batlantiruvchi reklama;

- sotuvda taqdim etiladigan mahsulotlar turini kengaytirishga qaratilgan aksiyalar (chegirmalar, debitorlik qarzlarning ko‘payishi, bonuslar va boshqalar);

- muddati o‘tgan debitorlik qarzdorlik miqdorini kamaytirishga ko‘maklashish (ayrim xaridor guruhlari uchun qarzni muddatidan oldin to‘lashni rag‘batlantirish uchun chegirmalar va imtiyozlar);

- ulgurji xaridorlarni ma‘lum miqdordagi tovarlarni sotib olayotganda bepul bonuslar bilan rag‘batlantiradigan xarid hajmini oshirishga qaratilgan aksiyalar;

- faol mijozlar bazasini kengaytirishga ko‘maklashish (kompaniya xodimlarini har xil rag‘batlantirish (savdo rejasini ortiqcha bajarganlik uchun belgilangan foizni to‘lash);

- ulgurji savdo vositalari, vositachilar, chakana savdo do‘konlari vakillari uchun biznes-savdo marketing tadbirlari (yangi mahsulotlar taqdimoti, biznes uchrashuvlar, konferensiyalar, ko‘rgazmalar);

- oxirgi xaridorga qaratilgan tadbirlar (mahsulot namunalari bepul tarqatish, lotereyalar, tanlovlar).

Treyd marketingi bozorda kichik kompaniyalarni rivojlantirish va rag‘batlantirishning yagona vositasidir. Faol ta’sir mahsulot va uning foydalanuvchisi o‘rtasida bo‘lgan ulgurji sotuvchilardan tortib yurish masofasidagi kichik do‘konlargacha bo‘lgan har bir odamning brend bilan ishlashni rag‘batlantiradi.


12.2. Savdo reklamasining iqtisodiy ijtimoiy mohiyati va ahamiyati

Reklama juda qadimda paydo bo‘lgan deb aytishimiz mumkin. O‘rta yer dengizi bo‘yidagi arxeologik qazishmalar paytida reklamaga oid turli chizma va belgilar topilgan. Rimda gladiatorlar jangiga odamlarni jalb qilish uchun devorlarga chizma chizishgan. Yunonistonning oltin davrida shaharchalarda chorvachilik, tayyor mahsulot, hatto kosmetika mahsulotlarini sotish haqida e‘lon qilganlar. Zamonaviy reklamalar qadimgilaridan tubdan farq qiladi. AQSH reklama agentliklari tomonidan reklama uchun yiliga 190 mlrd AQSH dollari sarflanmoqda. Birgina P&G reklama kompaniyasining o‘zi AQSH kompaniyalari reklamasini uchun yiliga 11,5 mlrd AQSH dollari sarflaydi.

Marketingni boshqarish jarayonida reklama dasturini ishlab chiqishda to'rtta muhim qaror qabul qilish kerak:

- reklama maqsadlarini belgilash;
- reklama budjetini o'rnatish;
- reklama strategiyasini ishlab chiqish;
- reklama samaradorligini baholash.

Reklamani ishlab chiqishda birinchi qadam reklamadan ko'zlangan maqsadlarni belgilash hisoblanadi. Ushbu maqsadlar marketingning umumiy dasturi asosida aniqlanishi kerak. Umumiy reklama maqsadi iste'molchilarni jalb qilish va iste'mol qiymatini yaratish orqali mijozlar bilan aloqalarni o'rnatishdan iborat.



12.2.1-chizma. Reklama yaratishdagi asosiy qarorlar

Reklama maqsadi ma'lum bir vaqt ichida muayyan maqsadli auditoriya bilan amalga oshirilishi kerak bo'lgan aniq aloqa vazifasidir. Reklama maqsadlari ularning asosiy maqsadlari bo'yicha tasniflanishi mumkin - mijozlarni xabardor qilish, ishontirish yoki eslatish. Reklamaning mohiyati ishlab chiqaruvchi manfaatidan kelib chiqib xaridorda tovarni sotib olish to'g'risida tasavvur uyg'otishi zarur. Reklamaga tovar ishlab chiqaruvchi o'z tovari bilan bozorga kirayotgani to'g'risidagi axborot deb qarash lozim.

Bunda soʻz tovar isteʼmolchining ehtiyojini maʼlum darajada qondirayotgani haqida borayotganini tushunish muhim. Ishlab chiqaruvchi manfaati mahsulotini bozorda sotishga, xaridor manfaati esa oʻz ehtiyojini qondirishga qaratilgan boʻladi. Ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchi oʻrtasidagi kommunikativ aloqa reklama hisoblanadi. Reklama korxonasi va bozor oʻrtasidagi butun aloqa tizimini oʻz ichiga oladi. Isteʼmolchi reklama qilinayotgan tovar toʻgʻrisida malakali bilimga, yaʼni tasavvurga ega boʻlishi kerak. Reklama xabarlarini shunday boʻlishi zarurki, u isteʼmolchida tovarga nisbatan ijobiy munosabat uygʻotishi va uni sotib olishga ishonch uygʻota olishi lozim. Reklama mazmuniga kelganda, unga tovarlarni va ularning isteʼmol qilish xususiyatini tashviqot qilish deb qaralishi shart. Ayrim qarash va gʻoyalarning shakllanishi tashviqot qilish reklamani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochadi.

Marketing faoliyati tajribasi shuni tasdiqlaydiki, reklamani taʼsirchanligi unga tovarlarni ishlab chiqaruvchidan tortib isteʼmolchiga boʻlgan harakat tizimidagi oʻrniga nechogʻli ahamiyat berilishiga bogʻliqdir. Reklamani samaradorligi esa jamoatchilik fikrining shakllanishi va isteʼmol narxlarining oʻzgarishi bilan oʻlchanadi.

Reklama maqsadlarini aniqlagandan soʻng, kompaniya har bir mahsulot uchun reklama budjetini oʻrnatadi. Tovarning reklama budjeti mahsulotning hayotiy aylanish davridagi bosqichiga bogʻliq. Masalan, yangi mahsulotlar, odatda, sezgirlik yaratish va isteʼmolchilarni oʻziga jalb qilish uchun nisbatan katta reklama xarajatlarini talab qiladi. Aksincha, yetuk brendlar, odatda, savdoga nisbatan kamroq xarajatlarni talab qiladi. Reklama savdodagi texnologiya jarayonining tarkibiy qismidir. Modomiki, tovar sotish chakana savdodagi asosiy texnologiya jarayoni ekan, reklama ham xaridorni eʼtiborini tortganda, uning talab va ehtiyojini aniqlangan paytdan, tovarni oqilona koʻz-koʻz qilishdan boshlanadi. Reklama tovarning xususiyatlari va sifati uni ishlatish, isteʼmol qilish usullari toʻgʻrisida oʻz vaqtida maslahat berish, doʻkonlardagi texnologiya jarayonlarini tashkil etishda muhim oʻrin tutadi. Soʻngra, biror tovarga qoʻshib olinadigan tovarlarni tavsiya etish ham reklamani diqqat markazida boʻlishi kerak. Chakana savdodagi reklamani qoʻllash joyiga, vazifasiga texnikaviy vositalarni qoʻllash va ulardan foydalanish uslublariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Qo'llanish joyiga ko'ra reklamalar do'konga kiruvchi xaridorlarga mo'ljallangan do'kon ichidagi va butun aholiga qaratilgan do'kon to'g'risidagi turlarga bo'linadi.

Vazifasiga ko'ra reklama vositalari aholining muayyan kategoriyalari va guruhlariga (maktab o'quvchilari va ularning ota-onalariga, ishchilarga, parhez taomga muhtoj bo'lgan kishilarga va shu kabilarga) mo'ljallangan bo'ladi.

Texnikaviy vositalarni qo'llash va ulardan foydalanish uslublariga ko'ra reklama quyidagi turlarga bo'linadi:

a) vitrina-ko'rgazma reklamasi (deraza va do'kon ichkarisiga o'rnatilgan vitrinalar, do'konlardagi va boshqa jamoat joylaridagi tovar ko'rgazmalari);

b) tasviriy, fotografik yoritilgan reklamalar (do'konlarning tamg'alari, reklama yozuvlari, plakatlari, preyskurantlar, ko'rsatkichlar, e'lonlar);

d) bosma reklama (varaqa, kataloglar, prospektlar, gazeta va jurnallardagi e'lonlar);

e) namoyish reklamasi (mahsulotlarni tatib ko'rish, kiyim-kechakning yangi modellarini namoyish qilish va shu kabilar);

f) kino-televizion va diapozitiv reklamasi;

g) ovozli reklama.

Reklama vositalari esa ma'lum darajadagi kishilarni o'ziga jalb etish maqsadida reklama murojaatlariga (to'g'ri aloqa reklamasi, maketlar, jamoat transportidagi turli yozuvlar, savdo binolarini reklama jihatidan bezash) tayanadilar. Reklama – bu ommani xabardor qilish usulidir. Iste'molchilar bilan yaqin aloqa o'rnatishda ommaviy axborot vositalari unga yordam qiladi.

Savdo reklamasi o'ziga xos xususiyati xaridorni chorlash va chiqarishdan iborat. Shu bilan birga, savdo reklamasi aholi salomatligi yo'lida tovarlarning ayrim turlarini iste'mol qilishni ko'paytirish maqsadida ularga ta'sir o'tkazish vositasidir.

Xalqning turmush darajasi osha borishi, savdoga bo'lgan talablar kuchayishi, ko'pincha, yangi talablar qo'yilishi reklama bilan bog'liqdir, chunki, savdo xalq iste'molini qondirish jarayonidir. Reklama savdo madaniyatini oshirishga ko'maklashmogi lozim. Reklama yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, xaridorlar o'zlariga zarur tovarlarni tez topib, oson va ko'p vaqt sarflamay sotib oladigan bo'ladi. Shu tariqa tovarni sotish

tezlashadi, savdo xodimlari mehnatining samaradorligi ortadi, muomala chiqimlari kamayadi. Savdo reklamasi alohida hammaga ma'lum bo'lgan ba'zi bir tovarlar to'g'risida foydali ma'lumotlar berish, shu tovarlarning xususiyatlari, qimmatli jihatlari, ularni ishlatish usullarini tushuntirishi kerak. Reklama maqsadlarini amalga oshirish uchun reklama strategiyasi ishlab chiqiladi. Reklama strategiyasi ikkita asosiy elementdan iborat:

- reklama xabarlarini yaratish;
- reklama vositalarini tanlash.

Budjet qanchalik katta bo'lmasin, reklama faqat iste'molchilar bilan shug'ullangan va yaxshi muloqot qilgan taqdirda muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Reklama samaradorligini o'lchash va reklama investitsiyalarining daromadlilik aksariyat kompaniyalar uchun juda muhim masaladir.

Reklama uchun har qanday xarajatlar to'lanishi kerak, ya'ni savdo o'sishi bilan foyda keltirishi kerak. Salbiy moliyaviy natijaga olib keladigan reklama kompaniyalari samarali emas. Har safar birinchi qadam aniq moliyaviy natijani hisoblash, ya'ni, foyda minus reklama, xarajatlarni ko'rib chiqing va uni reklamasiz davr bilan taqqoslang. Ko'pgina kompaniyalar reklama uchun sarflayotgan mablag'lari qanday darajada samara berayotganini bilishni xohlaydi. Reklama agentliklari muntazam ravishda reklama natijalarining ikki turini baholashlari kerak:

- kommunikatsiyaning samarasi;
- sotishning foydaga ta'siri.

Reklama agentligi tajribali matnchilar, rassomlar, televideniya produserlari, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlarni yagona ishbiarmon korxonaga birlashtiradi. Bu mutaxassislar boshqa odamlarga nisbatan nozik muloqotlarga moyilligi, reklama va bozor vositalarini yaxshi bilishi bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, reklama agentligi bu ijodiy xodimlar va tijoratchilardan iborat, mustaqil korxonadir. Agentlik mutaxassislarning hamkorlikda ishlashi va yakka mijozlar bilan samarali reklama yaratib berishlari uchun qulay muhit tug'diradi. Reklama agentligi reklama beruvchilar bilan reklamani xaridorlarga yetkazuvchi ommaviy axborot vositalari o'rtasida, go'ya vositachilik vazifasini bajaradi. Agentlik taklif etadigan xizmatlar ayrim reklama beruvchilar imkoniyatiga qaraganda sifat jihatidan yuksak, turi jihatidan g'oyat kengdir.

Reklama agentliklarini quyidagi prinsiplariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- ko'rsatadigan xizmatlari hajmiga ko'ra – universal;
- muayyan tovar va reklama vositalariga ko'ra ixtisoslashgan;
- faoliyati sohasiga ko'ra – ichki bozorda ish ko'radigan va ichki hamda tashqi bozorda ish ko'radigan turlari.

12.3. Xaridorlarga ta'sir etish uslublari

Iste'molchilarni rag'batlantirishning asosiy uslublari quyidagilardan iborat:

Tajriba namunalari. Uyga olib borib beriladigan, pochta orqali yuboriladigan, boshqa tovarlarga yoki reklama e'lonlariga ilova qilinadigan, tovar yoki xizmatlarning bepul namunalari taklif qilish.

Kuponlar. Ko'rsatuvchiga ma'lum tovarni sotib olishda kelishilgan tejashni beradigan sertifikatlar. Pochta orqali tarqatiladi, boshqa tovarlarga ilova qilinadi, jurnal yoki gazetadagi reklama e'lonlariga joylashtiriladi.

Pullik kompensatsiyalar (pulni qaytarish). Xarid amalga oshirilgach, realizatsiya qilinadigan narx chegirmalari. Iste'molchi ishlab chiqaruvchiga qandaydir shaklda xaridning tasdig'ini yuboradi va u to'langan pulning bir qismini «qoplaydi».

Upakovka (o'rash)ning imtiyozli narxi (chegirma). Tovar o'rami yoki etiketkasiga uni arzon narxda sotib olinishi o'ramdan foydalangan holda (masalan, bir pachka narxida ikkitasi) yoki tovarga qo'shimcha sifatida (masalan, tish cho'tkasi va pastasi).

Sovg'alar (mukofotlar). Sotilayotgan tovarni sotib olishda sovg'a sifatida nisbatan past narxda yoki bepul beriladigan tovarlar. «Ichkari-dagi sovg'a» o'ramning ichida yoki tashqarisida bo'lib, sotib olingan tovar bilan birga beriladi. «Pochta orqali bepul tovar» – bu xaridi tasdiqlangan xaridorlarga, masalan, o'ramning ma'lum bir qismi yoki shtrix kodini yuborish bilan uning sotib olingani tasdiqlanganda, o'sha iste'molchiga yuboriladigan tovar o'zini-o'zi bartaraf etuvchi mukofot – bu tannarxi uni sotib olmoqchi bo'lgan iste'molchi tomonidan to'lanadigan sovg'a.

Tez-tez xarid uchun taqdirlash dasturi. Mukofotlarni kompaniya tovarlarini yoki xizmatlarini doimiy sotib oladigan iste'molchilarga berishni ko'zda tutadigan dastur.

Sovrinlar (tanlovlar, aksiyalar, o'yinlar). Sovrin – bu xarid natijasida pul summasini, sayohat yoki tovar sotib olish imkoni. Tanlovga artistlar eng yaxshisini tanlab oladigan iste'molchilar ishlari qo'yiladi. Aksiyalar iste'molchilar o'z ismlari va boshqa ma'lumotlarini xabar qilib, uyida ishtirok etishlarini ma'lum qilishlarini talab etadi:

- g'oliblar tasodifiy ravishda tanlanadi. O'yin davomida har bir xaridi davomida biror narsa oladi. Bu bingo o'yini uchun raqam, so'z tuzish uchun harflar v.b. bo'lib, uni sovrin olishiga yordam beradi.

Doimiy mijozlarni rag'batlantirish. Pul yoki boshqa chegirmalar sotuvchi yoki ularning guruhi tomonidan mutanosib holda belgilanadi.

Bepul sinab (sotib) ko'rish. Keyinchalik sotib olinishini hisobga olib, tovarni bepul sinab (totib) ko'rishni taklif etish.

Kafolatlar. Sotuvchining tovar ma'lum vaqt davomida iste'molga yaroqliligi va aks holda sotuvchi tovar sifatini tiklashi yoki sotib olgan xaridorga pulni qaytarishi haqida yozma yoki og'zaki kafolati qo'shma rag'batlantirish. Ikki yoki undan ortiq savdo markalari (kompaniyalar) ta'sir etishni kuchaytirish uchun kuponlar, kompensatsiyalar yoki tanlovlar taklif etib birlashadilar.

Kesishgan rag'batlantirish. Bitta savdo markasi boshqa, raqobatlashmaydigan markadan ilgariylash uchun foydalanadi.

Savdo joyida ekspozitsiyalar va namoyishlar. Tovarlarini sotib olish va sotish joylarida o'tkaziladigan savdo ekspozitsiyalari (stendlari) va namoyishlar.

Iste'molchilarni rag'batlantirish uslubini tanlash. Iste'molchilarni rag'batlantirishning asosiy usullari ishlab chiqaruvchilar va chakana savdo sotuvchilari tomonidan rag'batlantirishni farqlash zarur. Birinchisiga misol qilib sanoatda tarqalgan mavjud avtomobillarning qiymati, sinov sayohati va xarid qiluvchilarga kreditlashning foydali shartlari kabi rag'batlantirishni ko'rsatish mumkin. Ikkinchisiga narxlar, kuponlarning (sotuvchilar nomidan) pasayishi, tanlovlar, bonuslar kiradi. Shuningdek, rag'batlantirish usullari ularning ustuvor savdo markasiga ta'siri bo'yicha ham bo'lish mumkin. Bir guruhga tovarlarning bepul namunalari, doimiy xarid uchun taqdirlash, ma'lum tovarni sotib olish bilan bog'liq kuponlar (agar ular reklama murojaatlariga kiritilgan

bo'lsa) va bonuslar uchun foydali takliflar yordamida ustuvorlikni shakllantirishga ko'maklashuvchi vositalar kiradi. Boshqa guruhga bir xil narxda hajmning oshishi, tovar bilan bog'liq bo'lmagan bonuslar, reklama konkursleri va aksiyalar, sotib olingan tovar narxining bir qismini narxini qaytarishga takliflar, chakana savdo bo'yicha kompensatsiyalar kabi ustuvorlikni shakllantira olmaydigan rag'batlantirish vositalari kiradi. Xulosa qilish mumkinki, savdoni rag'batlantirish reklama bilan birgalikda olib borilsa, ancha samarali bo'ladi. Tadqiqotlar natijasidan ko'rinadiki, o'tkazilgan faol reklama bilan birgalikda o'tkazilgan narxni rag'batlantirish savdo hajmini 19 % ga, savdo joyida reklama va stendli savdo – 24 % ga oshgan.

12.4. Marketing kommunikatsiyasi kompleksi

Marketing kommunikatsiya kompleksi samaradorligini oshirishda quyidagi asosiy shartlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

Kommunikatsiya maqsadi: Uzatuvchi qanday auditoriyaga yetib borayotganligi va qanday javob olmoqchi ekanini aniq bilishi lozim.

Ma'lumot tayyorlash. Xaridorlarning tajribasini va ko'zda tutilgan auditoriyaning ma'lumotlarini dekodlash usulini hisobga olmoq kerak.

Kanallarni rejalashtirish. Uzatuvchi o'z ma'lumotlarini ko'zlagan auditoriyaga eng yaxshi yetkazib bera oladigan kanallar orqali uzatish kerak.

Ma'lumot samaradorligi – uzatuvchining aks aloqa signallari bo'yicha ko'zlangan auditoriyaning uzatilgan ma'lumotlarga javobini baholay olishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan samaradorlik shartlari har qanday marketing kommunikatsiya kompleksiga kiruvchi qarorlar to'plamini belgilaydi. Marketing kommunikatsiyasining ikki asosiy vositasi – bu savdo xodimlari orqali shaxsli muloqotlar va reklama kanallari orqali shaxssiz muloqotlardir.

Shaxsiy savdo samaradorligi reklamadan ancha ko'pdir. Reklamaning yutug'i uning narxida: reklama yordamida bitta muloqot savdo agentining vizitidan ancha arzon.

Reklama qisqa vaqt oralig'ida qayta auditoriyalar bilan muloqot qilishga imkon bersa, agent esa oz sondagi mijozlarga bera oladi.

Tor doiradagi xaridorga kerak bo'lgan murakkab, alohida holda va keyin ishlatiladigan tovarlarga nisbatan umumiy tarzda soddalashtirilgan reklamadan ko'ra savdo agentining ta'siri kuchliroq.

Agent bevosita ta'sir etib xaridordan darhol buyurtma olishi mumkin, reklamalarning taniqliligi va imiji orqali ta'sir etish natijasi ancha vaqtdan so'ng olinadi. Shuning uchun kommunikatsiyaning shaxsiy ta'siri ikkinchi darajali bo'lgan hollarda iqtisod va ishlab chiqarishi nuqtayi nazaridan reklamadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Marketing tizimida kommunikativ jarayonlarni boshqarish:

1. Kommunikatsiyalar va tovarlarni ilgari surish strategiyalarini ishlab chiqish samarali kommunikatsiyalar algoritmini asoslash.

2. Hamkorlik, iste'molchilar va raqobatchilar bilan o'zaro harakatlanishning samarali tizimini ishlab chiqish.

3. Multimedia – kompaniyalarning optimal qarorlarini ishlab chiqish: reklama maqsadlarini tasdiqlash, reklama budjeti haqida qaror qabul qilish, reklama vositalarini tanlash, reklamaning samaradorligini baholash.

4. Bevosita marketing dasturini ishlab chiqish, savdoni optimallashtirish.

4 P - Product (Mahsulot), Place (Joy), Price (Narx), Promotion (Targ'ibot). Targ'ibot – marketingning zamonaviy ko'rinishi. Targ'ibot – sotuvchi va xaridor o'rtasidagi xaridorning xatti-harakati va fikrlashiga ta'sir etgan holda ma'lumot almashinuvi. Marketing menejerlarining asosiy vazifasi – mijozlar va ular guruhiga kerak mahsulot aynan qaysi joyda va ularga ma'qul narxni ma'lum qilishdir.

Targ'ibot usullari:

1. Shaxsiy (Personal selling) sotish – sotuvchi va potensial xaridor o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqotni bildiradi. Shaxsiy sotish orqali sotuvchi darhol xaridorning fikrini bilib olish va keyinchalik qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Ko'p marketologlar shaxsiy sotishni, tatbiq qilishni juda qimmat va murakkab hisoblaydilar.

2. Ommaviy sotish (Mass Selling) – bir vaqtning o'zida ko'plab potensial xaridorlar bilan muloqotda bo'lish. Odamlar gavjum joyda «ommaviy sotish»ning eng asosiy ko'rinishlaridan biri. An'anaviy OAV–jurnal, gazeta, radio va TV hamda internet orqali xat yuborishni o'z ichiga oladi. Reklama qilishda pul to'lanadi, lekin «ommaviy sotish»ning boshqa ko'rinishi bu publiciti – oshkoralik «tekin».

3. Sotishni targ'ibot qilish – (Sales promotion) – bu reklama qilish, ommaviy yoki shaxsiy sotishdan boshqa – mahsulotga mijozlarning qiziqishini orttirgan holda sotish xatti-harakatlari.

Elektron pochta orqali marketing – elektron xabarlardan foydalangan holda odatda bir guruh odamlarga tijorat xabarini yuborish harakati. Keng ma'noda, potensial yoki hozirgi mijozga yuborilgan har bir elektron pochta e-mail marketing deb hisoblanishi mumkin. Bu elektron pochta orqali reklama yuborish, biznesni so'rash yoki savdo yoki xayr-ehsonlarni so'rash uchun foydalanishni o'z ichiga oladi. E-mail marketing strategiyalari odatda uchta asosiy maqsaddan bittasiga erishishga, sadoqatni, ishonchni yoki brend xabardorligini oshirishga intiladi. Ushbu atama odatda savdogarning hozirgi yoki oldingi mijozlar bilan munosabatlarini kuchaytirish, mijozlarning sadoqati va takroriy biznesini rag'batlantirish, yangi mijozlarni yoki hozirgi xaridorlarni biron bir narsani darhol sotib olishga ishontirish va uchinchi tomon reklamalarini almashish maqsadida elektron pochta xabarlarini yuborishni anglatadi. Elektron pochta tashkilotlar uchun eng keng tarqalgan aloqa vositasiga aylandi. Aksariyat tashkilotlarda elektron

pochta allaqachon har xil turdagi yangiliklarni, yangiliklar byulletenlarini va xabarlarni tarqatishning ichki vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bloglarni marketing maqsadlari uchun ishlatishdan oldin, blog nima ekanligini aniqlab olishingiz kerak. Blog muhiti o'ziga xos xususiyati nimada va blog oddiy Internet saytlaridan nimasi bilan farq qiladi? Blog odatda bir shaxsga yoki guruhga o'z mavzusini ifodalashda bir yoki bir nechta masalalar bo'yicha fikr bildirish uchun Internet-jurnal deb tushuniladi. Blog veb-saytlardan uchta asosiy elementlari bilan farq qiladi: shaxsiy (guruhli), ijodiy va kommunikativ. Bloglarni Internet saytlaridan ajratib turadigan ikkinchi muhim xususiyati, yuqoridagi formatda ishlash uchun "keskinlashtirilgan" maxsus blog xizmatlarining mavjudligidir. Bugungi kunda bloglar global tarmoqning tobora ko'proq joyini egallamoqda, ularning soni turli manbalarga ko'ra, 30 millionga yetadi va har soniyada o'sib bormoqda. Blogning yana bir muhim jihati shundaki, blog eng qulay aloqa vositalaridan biridir. Shuning uchun, o'z blogini tijorat maqsadlarida ishlatishga qaror qilganda, tadbirkor xavf soladigan yagona xavf - bu uni saqlashga sarflangan vaqtni yo'qotish va ba'zi xarajatlar, bu haddan tashqari qo'pol va bezovtalanuvchi reklama natijasi bo'lishi mumkin.

Kontent marketingi - bu maqsadli auditoriya uchun onlayn tarkibni yaratish, nashr etish va tarqatishga yo'naltirilgan marketing shakli. Ko'pincha korxonalar kontent marketingdan ushbu maqsadlar uchun foydalanadilar:

- e'tiborni jalb qilish va yetakchilikni yaratish;
- mijozlar bazasini kengaytirish;
- onlayn savdoni yaratish yoki ko'paytirish;
- brend xabardorligini yoki ishonchliligini oshirish;
- foydalanuvchilarning onlayn hamjamiyatini jalb qilish.

Asosiy tamoyillar va tushunchalar

Biznes, hech bo'lmaganda qisman elektron maydonga o'tishga majbur. Internetning rivojlanishi, raqobat yuksalishi va biznesning globallashishi sabab bo'ladi. Ko'proq xaridorlarni jalb qilish va jahon bozorida omon qolish uchun tadbirkorlar ham reklama vositalarini o'zgartirishlari kerak edi. Bozorda muvaffaqiyatli ishlash uchun yuqori sifatli mahsulotlarga ega bo'lish yetarli emas; yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va raqobatning yangi usullarini muvaffaqiyatli joriy qilish juda muhimdir.

Onlayn marketing (elektron marketing) - axborot texnologiyasidan foydalanishda kompaniya va mijozlar o'rtasidagi uzoq muddatli aloqalar rivojlangan interaktiv jarayon. Keng ma'noda, marketing mijozlarning ehtiyojlarini qondirish va maksimal foyda olish uchun strategik va taktik rejalashtirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

E-marketing ikki xil bo'lishi mumkin:

- butun tashkilotning marketing strategiyasining tarkibiy qismi.
- butun an'anaviy marketing komponentlarini o'z ichiga olgan mustaqil tizim bo'lib, ular elektron muhitga o'tkaziladi.

E-marketingda mijozlar an'anaviy demografik usul bilan segmentlarga bo'linmaydilar, ammo ularning xatti-harakati bo'yicha segmentlarga bo'linadi. Bugungi kunda distribyutor kanallarining soni o'sib bormoqda va ishlab chiqaruvchilar mahsulotni xaridorga to'g'ridan to'g'ri yetkazishning yangi usullarini kashf etishda vositachilar soni ortib bormoqda. Kompaniyalar yangi sharoitlarga moslashish uchun turli xil marketing turlarini joriy qilishlari kerak.

Biznes va axborot texnologiyalarining elektron marketingga ta'siri:

- Mijoz – eng muhimi. Bugungi biznes dunyosi raqobat sharoitlarini aniqlaydigan iste'molchilar tomonidan belgilanadi. Xarid qilish kuchini ko'paytirish, doimiy o'zgarib borayotgan ehtiyojlar va umidlar qisqartirilgan mahsulot hayot sikliga olib keladi.

- Tezlik. Internetdagi ma'lumotlar yuqori tezlikda o'zgarib boradi, shuning uchun mijoz doimiy ravishda jarayonni kuzatishi kerak;

- Masofaning yo'qolishi. Internet yordamida geografik to'siqlar bo'lmaydi. Kompaniyalar dunyoning turli burchaklaridagi o'z mijozlari bilan muloqot qilishadi. Global miqyosda erishish imkoniyati avval mavjud bo'lmagan bozorlarga erishishga imkon beruvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, Internet cheksiz global bozor hisoblanadi.

- Vaqt cheklolvarining yo'qligi. Uzluksiz faoliyat, ya'ni kuniga yigirma to'rt soat, haftasiga yetti kun (24/7):

- Zakovatga asoslangan kapital – tasavvur, ijodkorlik va tadbirkorlik – moliyaviy kapitalning muhim manbalari.

Yuqorida sanab o'tilgan elektron texnologiyalarning ta'siri, elektron-marketing – internet va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalangan holda marketing maqsadlari uchun mo'ljallangan murakkab jarayondir.

Virtual muhitni an'anaviy marketingga ta'siri:

- an'anaviy marketing funksiyalarining samaradorligini oshiradi;
- marketing yechimlari uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi (fizik chegaralarni bekor qilish, mahsulotlar va xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarga kirish, passiv mijoz holatidan faolga o'tish).⁷⁵

E-marketingning eng katta afzalligi shundaki, internet mahsulotni sotishning har bir bosqichida xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi: mahsulotni sotishdan avval, sotish paytida va savdo operatsiyasidan keyin.

Marketing maqsadlariga erishish uchun, maqsadli guruhdan so'ng, mijozlar aniqlanganidan so'ng, keyingi qadam marketing choralari va harakatlar va ularni qo'llashni ko'zda tutishdir. An'anaviy marketing strategiyasi modelidan so'ng, kompaniya marketing vositasi deb ataladigan birlashgan marketing vositalarini ishlab chiqadi. An'anaviy marketing ishlarida u mahsulot, narx, reklama va tarqatishni o'z ichiga oladi. Biroq ushbu to'siqni internetga o'tkazish, qaror qabul qilish kuchi sotuvchidan xaridorga o'tadi. Asosiy e'tibor, qaror qabul qilish qudratiga ega bo'lgan mijoz bilan muloqotda bo'ladi. shuning uchun ishlab chiqaruvchi mijozning ishlab chiqarish bosqichidan oldin ham ehtiyojlarini aniqlab olishlari kerak.

An'anaviy marketing aralashmasi interaktivlik elementlariga ega emas, shuning uchun an'anaviy tarzdan farqli o'laroq, elektron marketing yanada kengroq xususiyatga ega.

Narxlash. Internet samarali bozor deb qaraladi, chunki u past narxlar, yuqori narxlar moslashuvchanligi, tez-tez lekin kam ahamiyatli narx o'zgarish kabi xususiyatlarga ega. Internetda tijorat faoliyatining past xarajatlari past narxlarni keltirib chiqaradi – xodimlarga bo'lgan ehtiyojni, binolarni ijaraga olish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi. Xarid qilish vositachilari narxni pasaytirishga hissa qo'shadi (benchmarking natijalarini ommaviy taqdim qilish), teskari auksionlar (xaridorlar narxni belgilab qo'yadilar) (yetkazib beruvchi taklifni bajarishga harakat qiladi), soliqdan ozod qilingan zonalar, venchur kapitali (aksariyat elektron biznes venchur kapitallari hisobiga moliyalashtiriladi va u tezroq va yuqori daromaddan ko'ra uzoq muddatli daromadga e'tiborni qaratadi), faol raqobat (ko'plab bozor qatnashchilari, narxlarni taqqoslash, savdo takliflarning yangilab turilishi va boshqalar). Narxlarning moslashuvchanligi sotib olish xatti-harakatlari va narx

⁷⁵ <http://ekonomik-lomza.moodle.org.pl/mod/book/view.php?id=726&chapterid=153>

o'zgarishlari bilan bog'liq. Narxlarga qiziquvchi iste'molchilarni jalb qilish istagi, narxlar o'zgarishining qulay va oddiy jarayoni, eksperimentlar va narxlarni solishtirish narxlarda tez-tez ammo deyarli sezilmaydigan darajada o'zgarishlarga olib keladi.

Narx sifat belgisi sifatida – mijozning mahsulot xususiyatlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan taqdirda tegishli narxlash strategiyasi. Bunday holda yuqori narx mijozga mahsulot yoki xizmat yaxshi va sifatli ekanligini tasdiqlaydi.

Rag'batlantiruvchi narx – bu narxlash usuli savdolarni rag'batlantirish va mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladi. Ushbu usul odatda qisqa muddat davomida savdo samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladi;

Yetakchilik bahosi – ushbu uslub bo'yicha eng past narx ma'lum bir mahsulot yoki xizmat kategoriyasi uchun o'rnatiladi. Bunday holda xarajatlarni kamaytirish kerak;

O'z ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish maqsadida mijozlarning aniq, maqsadli guruhiga e'tibor qaratish, narx-navoning segmentatsiyasi bo'yicha yondashish;

Nufuzli narx – ayrim iste'molchilar yuqori narxda sotib oladilar. Buning natijasida ular qimmatbaho mahsulot yoki xizmatni olishga intiladi.

Doimo o'zgarib borayotgan mijozlar uchun onlayn narxlar dinamik va faoldir. Shuning uchun kompleks narxlash usullari, tamoyillari va strategiyalarini birlashtirish va qo'llash zarur.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Interaktiv marketing deganda nimani tushunasiz?
2. Interaktiv marketingni ustunliklari va kamchiliklarini izohlab bering.
3. Interaktiv marketingni qanday shakllari mavjud?
4. E-marketing deganda nimani tushunasiz?
5. E-marketingda mijozlar segmentlarga bo'linadimi?
6. Biznes va axborot texnologiyalarining elektron marketingga ta'sirini izohlab bering.

TESTLAR

1. Marketing atamasi fanga qachon kiritildi?

- A) 1902
- B) 1905
- D) 1901
- E) 1904

2. Marketing nima?

- A) Talabni qondirishga qaratilgan faoliyatdir
- B) Ehtiyojni hisobga olmagan holda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish
- D) Iste'molchiga nima kerak bo'lsa o'shani ishlab chiqarish va sotish
- E) Bozorda mahsulotni sotishdir

3. Marketing qanday tizimni ifodalaydi?

- A) Ishlab chiqarish
- B) Sotish
- D) Ayirboshlash
- E) Ishlab chiqarish va sotish

4. Iste'molchilar huquqi va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tashkil qilingan harakat, iste'molchilar xavfsizligi, ularning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qilish, sifatsiz tovar ishlab chiqarish g'irrom va raqobatchilikka qarshi kurash nima deyiladi?

- A) Konsyumerizm
- B) Diversifikatsiya
- D) Bixeyvorizm
- E) Materializm

5. Nima bozorda turli xil tovarlar yordamida aks ettirilgan, iste'molchilarning bir-biridan farq qiluvchi ko'p sonli ehtiyojlaridan tarkib topuvchi, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi jamoatchilik ehtiyojlari majmuasini aks ettiradi?

- A) Takliflar
- B) Talablar
- D) Reklamalar
- E) Narxlar

6. Tadbirkorlik, marketing va boshqa faoliyat turlari oldida turgan vazifalarni bajarishda yordam berishi mumkin bo'lgan turli xil bilim va ma'lumotlarni qisqacha nima deyiladi?

- A) Axborot
- B) Shartnoma
- D) Buyruq
- E) Qaydnoma

7. Tovar va xizmatlar bozorida iste'molchining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qoida va yo'riqnomalar majmui nima deb ataladi?

- A) Sotuvchining huquqi
- B) Korxonaning nizomi
- D) Davlat buyurtmasi
- E) Iste'molchining mustaqilligi

8. Firma assortimentini na firmada qo'llanayotgan texnologiyalarga, na ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, na hozirgi bozorga hech qanday aloqasi bo'lmagan mahsulotlar bilan to'ldirish qanday ataladi?

- A) Bixeyvorizm
- B) Konsyumerizm
- D) Konglomerat diversifikatsiyadir
- E) Marketing miks

9. O'rganilayotgan obyektning o'tmishdagi va hozirgi ma'lumotlarini tahlil qilishga asoslangan ilmiy asoslangan oldindan ko'ra bilish:

- A) Analiz
- B) Prognozlash
- D) Deduksiya
- E) Sintez

10. Alohida shaxslar o'rtasida har biri o'zi uchun shaxsan erishishni maqsad qilgan bitta yo'nalishdagi, xususan tadbirkorlar o'rtasida kattaroq foyda olish, savdo bozori, xomashyo manbalari uchun kurash..... deyiladi.

- A) Raqobat
- B) Duopoliya

- D) Oligopoliya
- E) Monopsoniya

11. Quyidagilarni qaysi biri birgalikda qondiriladigan ehtiyoj hisoblanadi?

- A) Moddiy ehtiyoj
- B) Madaniy-maishiy ehtiyoj
- D) Ijtimoiy ehtiyoj
- E) Mehnat qilishga ehtiyoj

12. Jamiyat ehtiyojlarining miqdoran o'sib va tarkiban yangilanib borishga nima ta'sir ko'rsatadi?

- A) Aholi sonining o'sishi, fan-texnika taraqqiyoti, reklama va aloqa kommunikatsiyasining rivojlanishi
- B) Fan va texnika taraqqiyoti
- D) Reklama, aloqa kommunikatsiyasining rivojlanishi
- E) Aholi sonining o'sishi

13. Agar talabning elastikligi (egiluvchanligi) katta bo'lsa, sotish hajmi qanday o'zgaradi?

- A) Narx tushishi bilan sotish hajmi o'zgarmaydi
- B) Narx tushishi bilan sotish hajmi sekin o'sadi
- D) Narx ozgina tushgan holda sotish hajmi ham juda o'sadi
- E) Narx tushishi bilan sotish hajmi pasayadi

14. A.Maslou taklif etgan ehtiyojlar iyeararxiyasi (zinapoyasi) bo'yicha ehtiyojlar qanday guruhlarga bo'linadi?

- A) fiziologik ehtiyojlar, pul topish ehtiyojlar, hurmatga bo'lgan ehtiyojlar, shaxsiy kamol topish ehtiyojlari
- B) fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka oid ehtiyojlar, ijtimoiy ehtiyojlar, hurmatga bo'lgan ehtiyojlar, absolyut va nisbiy ehtiyojlar
- D) fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka oid ehtiyojlar, ijtimoiy ehtiyojlar, hurmatga bo'lgan ehtiyojlar, shaxsiy kamol topish ehtiyojlari
- E) xavfsizlikka oid ehtiyojlar, fiziologik ehtiyojlar, ijtimoiy ehtiyojlar, hurmatga bo'lgan ehtiyojlar, nisbiy ehtiyojlar

15. Motivatsiya deganda nimani tushunasiz?

- A) Tanlashni amalga oshirishdagi xaridorlik xulq-atvori

- B) Xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi vositalar
- D) Kishilarning xulq-atvorini o'rganish
- E) Kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvofiq yo'naltirish

16. Talabning elastikligi (egiluvchanligi) deb shuni aytish mumkin, agar:

- A) Narxni o'zgarishi bilan talab o'zgarmaydi
- B) Narxni uncha kamaymagan hamda talabni talabni juda o'sishi
- D) Narxni juda pasayishi hisobiga talab uncha o'smaydi
- E) Talab narxga bog'liq bo'lgan holda o'zgaradi

17. Talabning qanday holatida ishlab chiqaruvchi reklamani ishlatmasa ham bo'ladi ?

- A) Salbiy talab
- B) Talab va taklif tenglashganda
- D) Negativ talab bo'lganda
- E) Juda katta talabda

18. Insonlar, korxonalar va davlat ehtiyojlarining umumiy xususiyatlari nimadan iborat?

- A) Tarkiban bir xildir
- B) Cheksiz va chegarasizdir
- D) Miqdoriy o'lchamga ega
- E) Nisbatan cheklangan

19. Quyidagilardan qaysi biri talab tushunchasining mazmunini to'laroq xarakterlaydi?

- A) Ehtiyoj, xohish, istak
- B) Bahoning mavjud darajasida sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar miqdoridir
- D) Ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismi
- E) Sotishga chiqarilgan tovarlar miqdori

20. Asosiy iste'molchilar guruhlarini talab va ehtiyojlarini muntazam, sistemali tahlil qilish, shuningdek, kompaniyaga xaridorlarning tanlab olingan guruhlariga raqobatchilarga qaraganda yaxshiroq

xizmat ko'rsatish va shu tariqa raqobatchilik ustunligiga ega bo'lish imkonini beruvchi tovar va xizmatlar konsepsiyasini ishlab chiqish

- A) Talabni oshirish va strategiya ishlab chiqishdir
- B) Segmentlarga ajratishdir
- D) Raqobat muhitini yaratishdir
- E) Strategik marketingdir

21. Reklama strategiyasi ikkita asosiy elementdan iborat:

- A) Reklama xabarlarini yaratish va vositalarini tanlash
- B) Reklama strategiyasini ishlab chiqish va vositalarini tanlash
- D) Reklama strategiyasini ishlab chiqish va tatbiq qilish
- E) Reklama tuzilmasini ishlab chiqish va vositalarini tanlash

22. Marketing axborot tizimini amalga oshirish uchun qanday asosiy jarayonlarni tashkil etish zarur?

- A) To'plash, qayta ishlash, tahlil ma'lumotlarni uzatish va saqlash
- B) Korxonani boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish
- D) Marketingni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish
- E) Ayirboshlash

23. Ijtimoiy axloqiy marketing konsepsiyasi nima?

A) Yakka shaxslarning talabini o'rganish, tahlil qilish va bu talablarni samarali qondirishdan, ayni paytda umuman jamiyat butunligini saqlash va mustahkamlashdan iborat deb qaraydi.

B) Yakka shaxslarning ehtiyojini qondirish, o'rganish va bu ehtiyojini samarali qondirishdan, ayni paytda umuman jamiyat butunligini saqlash va mustahkamlashdan iborat deb qaraydi.

D) Yakka shaxslarning talabini o'rganish, uning holatini tahlil qilish va ehtiyojini qondirishdan, ayni paytda umuman jamiyat butunligini saqlash va mustahkamlashdan iborat deb qaraydi.

E) Yakka shaxslarning talabini o'rganish, monitoring qilish va ehtiyojini samarali qondirishdan, ayni paytda umuman jamiyat butunligini saqlash va mustahkamlashdan iborat deb qaraydi

24. Makromuhitning asosiy omillariga nimalar kiradi?

- A) Iqtisodiyot, iste'molchilar, raqobatchilar, hukumat va texnologiya
- B) Iqtisodiyot, ta'minotchilar, demografik omillar, siyosiy omillar, iste'molchilar, raqobatchilar, hukumat va texnologiya, innovatsiya, davlat

D) Iqtisodiyot, ta'minotchilar, demografik omillar, siyosiy omillar, iste'molchilar, raqobatchilar, hukumat va texnologiya

E) Iqtisodiy sharoitlar, ta'minotchilar, demografik o'zgarishlar, iste'molchilar, raqobatchilar, hukumat va texnologiya, innovatsiya

25. Marketing tadqiqotlari necha bosqichdan iborat?

A) 5

B) 4

D) 6

E) 7

26. Marketingni maqsadlari ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazari-dan to'rtta muqobil maqsadlarga ajratiladi:

A) Iste'mol darajasini oshirish, talab darajasini oshirish, iste'mol tanlovini maksimallashtirish turmush tarzini (sifatini) oshirish.

B) Iste'mol darajasini maksimal oshirish, iste'molchilarni qondirili-shini maksimallashtirish, iste'mol tanlovini maksimallashtirish, turmush sifatini maksimal oshirish

D) Iste'mol darajasini maksimal oshirish, talab darajasini maksimal oshirish, iste'mol tanlovini maksimallashtirish, iste'molchilarni yanada ko'paytirish

E) Iste'mol darajasini oshirishga erishish, iste'molchilarni qondirili-shini ta'minlash, iste'molchilarga bonuslar yaratish, boorni yanada rivoj-lantirish

27. Firmaning marketing faoliyatini amalga oshirishdagi xara-jatlar, foyda va daromadlar miqdori detallashtirilgan tarzda (mar-keting kompleksi elementlari yoki marketing tadbirlari bo'yich aks ettirilgan ko'rsatkichlar tizimi, marketingning moliyaviy rejasi, kor-xona marketing rejasining bo'limining nomi nima?

A) Marketing daromadi va xarajati

B) Marketing xarajati va budjeti

D) Marketing foydasi va xarajati

E) Marketing budjeti

28. Talabning qanday turlari mavjud?

A) Salbiy talab, mavjud bo'lmagan talab, yashirin talab, yuqori talab, dinamik talab, to'laqonli talab, funksional bo'lgan talab, noratsional talab

B) Ijobiy talab, mavjud bo'lmagan talab, yashirin talab, pasayayotgan talab, doimiy talab, to'laqonli talab, haddan tashqari yuqori bo'lgan talab

D) Funktsional talab, mavjud bo'lmagan talab, yashirin talab, dinamik talab, doimiy talab, iste'molchi talabi, haddan tashqari yuqori bo'lgan talab, noratsional talab

E) Salbiy talab, mavjud bo'lmagan talab, yashirin talab, pasayayotgan talab, doimiy talab, to'laqonli talab, haddan tashqari yuqori bo'lgan talab, noratsional talab

29. Foyda olish yoki uni o'stirish maqsadida tovar va xizmatlarga talabni yaratish va takror ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro aloqalar jarayonida marketing tizimi subektlari xulq-atvorini ko'rsatish, sifat va sonlar jihatidan aks ettirish shakli nima deyiladi?

A) Marketing g'oyalari

B) Marketing qarorlari

D) Marketing tamoyillari

E) Marketing modellari

30. Xorijiy bozorga chiqish strategiyasiga nimalar kiradi?

A) To'gridan-to'gri eksport va import, korxonani investitsiyalash va litsenziyalash

B) To'gridan-to'gri eksport va import

D) Investitsiyalarni jalb qilish va litsenziyalash

E) To'gridan-to'gri eksport, korxonani investitsiyalash va litsenziyalash

31. Marketing faoliyatini nazorat qilishning qanday turlarini bilasiz?

A) Yillik rejaning bajarilishini nazorat qilish, foydadorlikni nazorat qilish va strategik nazorat

B) Strategik nazorat

D) Foydadorlikni nazorat qilish, yillik rejaning bajarilishini nazorat qilish

E) Yillik rejaning bajarilishini nazorat qilish

32. Marketing tadqiqotining raqobatchilar xatti-harakatlarining ichki motivlari haqida to'liq va aniq tasavvurni shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos mustaqil bosqichi nima deb ataladi?

A) Raqobatchilik muhiti

- B) Anarxiya muhiti
- D) Monopolistik vaziyat
- E) Yagona xaridor harakati

33. Intensiv o'sish deganda nimani tushunasiz?

- A) Firmaning amal qilib turgan doirasidagi asosan o'sish imkoniyatlari tahlil etiladi
- B) Qo'shimcha faoliyatni o'zlashtirish hisobiga o'sishga erishish
- D) Firmaning tarmoq doirasida boshqa marketing tizimi elementlari bilan o'zaro aloqada tahlil etiladi
- E) Firmaning tarmoq doirasidan boshqa sohalarda tahlil etiladi

34. Integratsion o'sish qanday turlarga bo'linadi?

- A) Regressiv integratsiya va progressiv integratsiya, gorizontalar integratsiya
- B) Progressiv integratsiya, regressiv integratsiya
- D) Gorizontalar integratsiya, regressiv integratsiya
- E) Progressiv integratsiya, gorizontalar integratsiya

35. Intensiv o'sishga qanday erishiladi?

- A) Bozorga chuqurroq kirish, bozor hududlarini kengaytirish va tovarni takomillashtirish
- B) Bozorga chuqurroq kirish bozor nishasini topish va assortimentni ko'paytirish, strategiya ishlab chiqish
- D) Bozor hududlarini kengaytirish va tovarni takomillashtirish, innovatsion tovarni yaratish
- E) Tovarni takomillashtirish, bozorga chuqurroq kirish, strategiya ishlab chiqish, innovatsion tovarni yaratish

36. Biror hududda marketing faoliyatini tashkil etish nima deyiladi?

- A) Regional marketing
- B) Shaxs marketingi
- D) Ijtimoiy marketing
- E) Korxonalar marketigi

37. Axborotni to'plash va undan foydalanish jihatlariga ko'ra axborot tizimini nechta quyi tizimga ajratish mumkin va ular qaysilar?

A) Tashkilot ichki hisobot tizimi, marketing tashqi xabarnomasi - axborot tizimi, rahbar qaroridagi tizim, innovatsion tizimi kiradi

B) Tashkilot ichki va tashqi axborot tizimi, birlamchi axborot tizimi, qaror qabul qilishni tizimi, marketing tizimi kiradi

D) Tashkilot ichki hisobot tizimi, birlamchi va ikkilamchi axborot tizimi, rahbar qaroridagi tizim, marketing tadqiqoti tizimi kiradi

E) Tashkilot ichki hisobot tizimi, marketing tashqi xabarnomasi - axborot tizimi, qaror qabul qilishni quvvatlovchi tizim, marketing tadqiqoti tizimi kiradi

38. Bozorning qaysi nusxasida iste'molchilar monopol mavqeiga ega bo'ladi?

A) Sof raqobatli va erkin bozor

B) Monopol bo'lmagan va oligepolistik bozor

D) Oligepolistik bo'lmagan va monopol raqobatchi bozori

E) Sof raqobatli va raqobati kuchsiz bozor

39. Bozor iqtisodiyotida qancha ishlab chiqarish zarurligini nima belgilab beradi?

A) Iqtisodiy resurslarning cheklanganligidan va kelib chiquvchi ishlab chiqarish imkoniyati

B) Ehtiyoj

D) Davlat

E) Iste'molchi

40. Sof iqtisodiy ma'noda «bozor» tushunchasi nimani anglatadi?

A) Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) va iste'molchi (xaridor)larning tovarlarini ayirboshlash xususidagi harakatini o'zaro kelishtiruvchi mexanizmlar, tartiblar va infrastrukturaviy tuzilmalar tizimini

B) Bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining amalga oshishini

D) Alohida tovarlar taklifi ularga bo'lgan talablarni muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni

E) Sotuvchi xaridorlar to'planib, ayirboshlangan amalga oshiriladigan joyni

41. Marketing tadqiqotlari deganda nimani tushunasiz?

A) Tartibga solingan va to'plangan ko'rsatkichlarni amaliyotda tatbiq etish va tayinli marketing holati xususida tashkilot uchun zaruriy axborotlar, ishlanmalar yig'indisi tashkil etadi.

B) Bozorni tartibga solish va ishlab chiqarichni rivolantirish

D) Tartibga solingan bozorni tadqiq qilish va ularni kengaytirish

E) Tartibga solingan va to'plangan ko'rsatkichlarni qayta ishlab nazoratni kuchaytirish.

42. Qaysi bozorda tovarlar ishlab chiqarish iste'moli ya'ni unumli iste'mol uchun ayirbosh qilinadi?

A) Iste'mol tovarlari bozorida

B) Ishlab chiqarish vositalari bozorida

D) Moliya bozorida

E) Interaktiv tovarlar bozori

43. Bozor infrastrukturasi moliya kredit tipidagi muassasalarga nima kiradi?

A) Tijorat banklari va investitsiyalar, sug'urta va moliya kompa-niyalari

B) Tijorat banklari, birjalar, moliya kompaniyalari va auditorlik firmalar

D) Tijorat banklari moliya kompaniyalari, aholini ishga joylashtirish byurolari

E) Tijorat banklari, sug'urta va moliya kompaniyalari, birjalar, auk-sionlar, savdo uylari

44. Bozorni har biri uchun alohida tovarlar yoki marketing kompleksi talab qilinishi mumkin bo'lgan xaridorlarning aniq guruhlariga bo'lish, taqsimlash nima deyiladi?

A) Bozorda iste'molchilarni topish

B) Demping narx bilan iste'molchilarni jalb qilish

D) Reklamani kuchaytirib iste'molchilarni jalb qilish

E) Bozorni segmentlash

45. Korxonaning istiqboldagi harakatlari hamda talabni shakl-lantirish, iste'molchilar ehtiyojini qondirish va foyda olish maqsadida tovar va xizmatlarni bozorga olib kirish bo'yicha samarali va barqaror faoliyatni ta'minlovchi marketing tizimining barcha sub-

yektlari bilan o‘zaro harakatlarni tashkil etish va vositalar majmuasidan foydalanish strategiyasi nima deyiladi?

- A) Kommunikativ siyosat
- B) Tovar siyosati
- D) Narx siyosati
- E) Sotish siyosati

46. Tovar siyosatining vazifasi bo‘lib nima hisoblanadi?

- A) Tovarning hayotiylik siklini va ularni raqobatbardoshligini boshqarish
- B) Tovarni olishni xohlovchi iste‘molchilarni izlash
- D) Arzon sotish
- E) Imkon boricha ko‘proq tovar ishlab chiqarish

47. Marketing tadqiqotlari jarayonida olingan ma‘lumotlar qayta ishlanishi, umumlashtirilishi kerak. Bunda 3 soha ajratiladi:

- A) tartibga solish, axborotni umumlashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish
- B) tartibga solish, sintezlash, umumlashtirish va tahlil qilish
- D) tartibga solish, solishtirish, umumlashtirish va tahlil qilish
- E) tartibga solish, miqyoslashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish

48. Marketing tizimi o‘zida to‘rtta asosiy qismni birlashtiradi:

- A) mahsulot yoki xizmat, sotish, taqsimot va siljitishlarni
- B) mahsulot yoki xizmat, demping narx, taqsimot va siljitishlarni
- D) tovar, narx, taqsimot va siljitishlarni
- E) mahsulot yoki xizmat, narx, taqsimot va siljitishlarni

49. Marketing tizimi o‘z tarkibiga turli elementlarni qamrab oladi:

- A) ta‘minotchilar, raqobatchilar, vositachilar, iste‘molchilar (bozor), firma (kompaniya)
- B) ta‘minotchilar, narx siyosati, raqobatchilar, vositachilar, iste‘molchilar (bozor), firma (kompaniya)
- D) ta‘minotchilar, rahbarlar, raqobatchilar, vositachilar, iste‘molchilar (bozor), firma (kompaniya)
- E) ta‘minotchilar, tuzilma, qarorlar, raqobatchilar, vositachilar, iste‘molchilar (bozor), firma (kompaniya)

50. Bozorni segmentlashning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

A) geografik tamoyil, minaqaviy tamoyil, psixografik tamoyil, demografik tamoyil, xulq-atvor tamoyili, bozor tamoyil

B) geografik tamoyil, ijtimoiy-iqtisodiy, bozor tamoyili, hududiy tamoyil, tuzilmaviy tamoyili

D) geografik tamoyil, ijtimoiy-iqtisodiy, psixografik tamoyil, mintaqaviy tamoyil, taqsimlash tamoyili

E) geografik tamoyil, ijtimoiy-iqtisodiy, psixografik tamoyil, demografik tamoyil, xulq-atvor tamoyili

51. Bozordagi faoliyat strategiyalarini asoslashda uch turdagi strategiyalar ishlatilishi mumkin:

A) differensiallanmagan marketing, differensiallangan marketing, konsentrlangan marketing strategiyalari

B) differensiallanmagan marketing, differensiallangan marketing, taktik marketing strategiyalari

D) differensiallanmagan marketing, differensiallangan marketing, moliyaviy marketing strategiyalari

E) differensiallanmagan marketing, moliyaviy marketing, konsentrlangan marketing strategiyalari

52. Narx nimaga tegishli bo'lishidan qat'i nazar (tovar, xizmat) beshta asosiy funksiyani bajaradi:

A) bozorda taklifni oshirish, hisob-kitob va o'lchov, ijtimoiy qo'lash, raqobat vositasi funksiyalari

B) bozorda talabni ta'minlash, yillik hisob-kitob, iqtisodiy regulyator, ijtimoiy himoya, raqobat vositasi funksiyalari

D) bozor muvozanatini ta'minlash, hisob-kitob va o'lchov, iqtisodiy regulyator, raqobat vositasi, ijtimoiy himoya funksiyalari

E) bozor muvozanatini ta'minlash, demping, talabni oshirish, raqobat vositasi, ijtimoiy himoya funksiyalari

53. Taqsimot kanalining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

A) axborot, talabni o'rganish, aloqa, muvofiqlashtirish, muloqotlar, sug'urtalash, jismoniy taqsimlash, moliyalashtirish, tavakkalchilik

B) axborot, siljitish, aloqa, muvofiqlashtirish, muloqotlar, jismoniy taqsimlash, talabni o'rganish, tavakkalchilik

D) axborot, siljitish, aloqa, muvofiqlashtirish, talabni o'rganish, jismoniy taqsimlash, moliyalashtirish, taklifni o'rganish

E) axborot, siljitish, aloqa, muvofiqlashtirish, muloqotlar, jismoniy taqsimlash, moliyalashtirish, tavakkalchilik

54. Maykl Porter bo'yicha strategik pozitsiyalashtirishning qanday tamoyillarini bilasiz?

A) uzoq muddatli maqsadlar, strategik ustunliklar, qiymatni yaratishni noyoblik zanjiri, bajaruvchilarni muqobil tanlash, aniq maqsad, kompaniya qaysi yo'nalishda harakat qilishini aniqlash

B) uzoq muddatli maqsadlar, aniq maqsad, qiymatni yaratishni noyoblik zanjiri, bajaruvchilarni muqobil tanlash, strategik ustunliklar, kompaniya qaysi yo'nalishda harakat qilishini aniqlash

D) uzoq muddatli maqsadlar, raqobatli ustunliklar, aniq maqsad, erkin tanlash, strategik ustunliklar, kompaniya qaysi yo'nalishda harakat qilishini aniqlash

E) uzoq muddatli maqsadlar, raqobatli ustunliklar, qiymat yaratishning noyoblik zanjiri, bajaruvchilarni muqobil tanlash, biznes kelishuvi, kompaniya qaysi yo'nalishda harakat qilishini aniqlash

55. Tovar obrazi, uning biron narsani eslatishi, o'xshashi va aks ettirishi, tovar bozori iqtisodiyotiga chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik holat

A) Reklama

B) Aks-sado

D) Nusxa

E) Imij

56. Mavjud mahsulotlarni korxonaning ishlab chiqarish dasturidan chiqarib tashlash nima deyiladi?

A) Eliminatsiyalash

B) Variatsiya

D) Modernizatsiya

E) Sinxronizatsiya

57. Gazeta va jurnallar, tele va radio redaksiyalari ularni qiziqtirayotgan ma'lumotlarni olishi mumkin bo'lgan byulleten nima deyiladi?

A) Press-reviz

- B) So‘rovnoma
- D) E‘lon
- E) Reklama

58. Yangi tovarlar uchun qanday narx strategiyalari qo‘llaniladi?

- A) “Qaymog‘ini olish” va “yorib kirish”
- B) “Standart narx o‘rnatish”
- D) “O‘zgaruvchan narx o‘rnatish”
- E) “Qaymog‘ini olish”

59. Narxni shakllantirishga qanday omillar ta‘sir etadi?

- A) Talab omillari va xarajat omillari, raqobat omillari
- B) Raqobat omillari, taklif omillari, siyosat omillari
- D) Talab omillari, taklif omillari, siyosat omillari, ishchilar soni
- E) Xarajat omillari taklif omillari, siyosat omillari, mintaqaviy omillar

60. Firma assortimentini ayni paytda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bog‘liq bo‘lmagan, biroq mijozlarning qiziqishini uyg‘otishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar bilan to‘ldirish

- A) Gorizontaal diversifikatsiyalari
- B) Marketing miks
- D) Kommunikatsiya
- E) Narx

61. Quyidagilarning qaysi biri chakana savdo shaxobchalarining tarkibiy qismi hisoblanadi?

- A) Xizmat ko‘rsatish uylari
- B) Dehqon bozori
- D) Ixtisoslashgan va universal magazinlar
- E) Supermarketlar

62. Zararsizlik nuqtasi nima?

- A) Korxonada foyda olishni boshlaydigan davrdagi narxdir
- B) Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash
- D) Mahsulot ishlab chiqarish uchun zaruriy xarajatlar darajasi
- E) Ishlab chiqaruvchi zararsiz ishlaydigan vaqtdagi ishlab chiqarish hajmi

63. Aniq bir tovar markasiga emas, balki to'liq tovarlar assortimentiga ehtiyoj yaratuvchi reklama nima deyiladi?

- A) Korporativ reklamalar
- B) Bosqichli reklama
- D) Bonuslar
- E) Qo'shimcha xizmatlar

64. Rag'batlantiruvchi narx – bu

A) Narxlash usuli savdolarini rag'batlantirish va mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladi

B) Narxlash usuli bonuslar e'lon qiladi, mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladi

D) Narxlash usuli chegirmalar e'lon qiladi va mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladi

E) Narxlash usuli aksiyalar e'lon qiladi va mijozlarni jalb qilish uchun ishlatiladi

65. Marketing – bu bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir. Marketingga ushbu ta'rif qaysi olim tomonidan berilgan?

- a) I. K. Belyavskiy
- b) Jan Jak Lamben
- d) Sayrus Makkormek
- e) Djon Harvi Djons

66. 1966-yilda AQShda marketing masalalari bo'yicha nechta tadqiqot firmalari faoliyat olib borgan?

- a) 350 ga yaqin
- b) 370 ga yaqin
- d) 390 ga yaqin
- e) 330 ga yaqin

67. Marketing konsepsiyasini ishlab chiqishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

a) Korxonada dasturi va xo'jalik rivojlantirish rejasini ishlab chiqish, korxonada o'sish strategiyasini ishlab chiqish

b) Aniq bozorlarga sotishning samarali usullarini tanlash, narx belgilash

d) Mahsulot ishlab chiqarish, narx belgilash, sotish, mahsulotni siljitish

e) Ichki va tashqi muhit strategik tahlilini amalga oshirish, marketing faoliyati maqsadlarini aniqlash, marketing strategiyasini aniqlash, marketing elementlarini ishlab chiqish

68. Bozorni tadqiq qilish va tahlil etish, narxning tuzilishi tamoyili, servis siyosati kabi tushunchalar qaysi olim nomi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi?

- a) K. Belyavskiy
- b) Jan Jak Lamben
- d) Sayrus Makkormek
- e) Djon Harvi Djons

69. Marketing ayirboshlash jarayoni haqida ilm hisoblanishini ko‘rsatgan olim qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) Jan jak Lamben
- b) Djon Harvi Djons
- d) F.Kotler
- e) Shelbi Hant

70. Firma foydasi, xaridor ehtiyojlari va jamiyat manfaatlari omillarini o‘zaro bog‘liqlikda qarashni talab etadigan marketing konsepsiyasi qaysi?

- a) Ijtimoiy axloqiy marketing konsepsiyasi
- b) O‘zaro aloqaviy marketing konsepsiyasi
- d) Zamonaviy marketing konsepsiyasi
- e) Global marketing konsepsiyasi

71. Marketing kompleksining 4 “P” modeli kim tomonidan va qachon ishlab chiqilgan?

- a) Neyl Borden tomonidan 1964-yilda
- b) Makkarti tomonidan 1960-yilda
- d) Makkarti tomonidan 1964-yilda
- e) Neyl Borden tomonidan 1960-yilda

72. Marketing kompleksi tarkibiga Public relations hamda siyosat (politics) elementlarini qo‘shgan olim kim?

- a) Makkarti

- b) Shelbi Hant
- c) F.Kotler
- d) Seyrus Makkormek

73. Marketing maqsadi sotishga qaratilgan harakatlarni yo'q qilishdir. Ushbu ta'rif marketingga qaysi olim tomonidan berilgan?

- a) Jan jak lamben
- b) F.Kotler
- d) Adam Smit
- e) Peter Drukker

74. Marketing analitik funksiyasining asosiy mohiyati nimadan iborat?

- a) Yangi tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish
- b) Tovar harakati tizimini tashkil qilish, narx siyosatini olib borish
